1. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi illatlar va ularning salbiy oqitbatlari.
2. Jamiyat barqarorligi – erkin va farovon qurish omili.

48-variant

1. Erkinlik va taraqqiyot g’oyalarining mushtarakligi.
2. Milliy istiqlol g’oyasining fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanishi.

49-variant

1. Milliy-ma’naviy qadriyatlar milliy g’oyaning eng muhim asoslaridan ekanligi.
2. Yoshlar ruhiyatida milliy g’urur va milliy iftixor fazilatlarining zarurligi. (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29 fevraldagi PQ-805 son Qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlar yili” Davlat dasturi)

50-variant

1. Milliy g’oyaning asosiy vazifalari.
2. Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishining asosiy negizlari nimalardan iborat?

“Tasdiqlayman”

Falsafa va O’DJQNA kafedrasi mudiri R.Hasanov №19 – sonli bayonnoma 8.06.13 y.

Toshkent Moliya Instituti “Falsafa va O’DJQNA” kafedrasi, bakalavriat yo’nalishining barcha mutaxasisliklari uchun

“Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanidan yakuniy nazorat variantlari

1-variant

1. “G’oya” va “mafkura” tushunchalarining mazmuni.
2. “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi
3. Milliy g’oyaning mustaqillikni mustaxkamlashda namoyon bo’lishi

2-variant

1. Bunyodkorlik va vayronkorlik g’oyalari, ularning jamiyat hayotidagi o’rni.
2. Jamiyatimiz mafkurasida inson va uning manfaatlarining ifoda etilishi.
3. Taraqqiyotning “o’zbek modeli”.

3-variant

1. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo’lib olishga urinishlar.
2. Bunyodkor g’oyalar va mafkuralarning jamiyat xayotidagi ijobiy ta’siri.
3. Oliy ta’lim milliy g’oyaviy tarbiya o’chog’i. (I.A.Karimovning “Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin” asari bo’yicha).

4-variant

1. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar.
2. Vayronkor g’oya va mafkuralarning jamiyat xayotiga salbiy ta’siri.
3. O’zbekiston Mingyillik rivojlanish maqsadlari borasida qanday majburiyatlarni o’z zimmasiga olgan?

5-variant

1. Milliy mafkuraning mazmuni.
2. Fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish zarurligi.
3. Hozirgi davr va uning o’ziga xos xususiyatlari.

6-variant

1. Milliy mafkuraning tarixiy va falsafiy ildizlari.
2. Globallashuv tushunchasi va uning mohiyati.
3. Mamlakatimizda qabul qilingan “Barkamol avlod yili” Davlat dasturidagi eng muhim ustuvor masalalar nimadan iborat?

7-variant

1. Milliy mafkuraning asosiy tamoyillari.
2. Globallashuv va milliy ma’naviyat.
3. Bugungi dunyoning g’oyaviy manzarasi.

8-variant

1. Vatan ravnaqi g'oyasining mohiyati va ijtimoiy axamiyati.
2. Globallashuv va milliy g'oyaga extiyoj.
3. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi.

9-variant

1. Yurt tinchligi milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan biri.
2. Milliy g'oya va shaxsga e'tiqod.
3. Komil inson, uning uziga xos xususiyatlari, shakllantirishning vosita va usullari.

10-variant

1. Xavfsizlik va barqarorlikka taxdidlar hamda mafkuraviy immunitet.
2. Fukorolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor vazifalari nimalardan iborat?
3. 2011 yilida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" davlat dasturining milliy g'oya bilan bog'liqligi.

11-variant

1. Komil inson g'oyasining mohiyati va ijtimoiy axamiyati.
2. Mafkuraviy ximoyaning xorij tajribasi namunalari.
3. Milliy g'oyasi va davlat siyosati.

12-variant

1. Ijtimoiy hamkorlik g'oyasining mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikning garovi ekanligi.
2. Milliy g'oyaning mustaqillikni mustaxkamlashda namoyon bo'lishi.
3. Davlatimizning konstituttsiyaviy tamoyillar asosida mavjudligi va taraqqiyoti.

13-variant

1. Millatlararo totuvlik g'oyasi-jamiyat barqarorligining asosi .
2. Milliy g'oyaning ishonch va e'tiqodga aylanish shart-sharoitlari.
3. Davlatimizning konstituttsiyaviy tamoyillar asosida mavjudligi va taraqqiyoti.

14-variant

1. Ijtimoiy hamkorlik milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan biri.
2. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirish va yanada chuqurlashtirish.
3. «Milliy g'oya» tushunchasi, uning falsafiy mohiyati.

15-variant

1. Mafkuraviy imunitet nima va uni mustaxkamlash hozirgi kunda nima uchun zarur?
2. Milliy g'oyaning xalq ishonchi va e'tiqodiga aylantirish mezonlari.
3. Jamiyat siyosiy xayotining barcha soxalarini erkinlashtirish, fikr va vijdon erkinligi, gumanizm g'oyalarini karor toptirishning mafkuraviy moxiyati.

16-variant

1. "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" g'oyasining mohiyati. (I.Karimovning "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" asari bo'yicha)
2. Yoshlarda milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodni shakllantirish.
3. Fukoralarning qonun oldidagi tengligi deganda nimani tushunasiz.

17-variant

1. Milliy mafkurani xalqimiz qalbi va ongiga singdirishning asosiy vositalari
2. Milliy g'oyaga ishonch va e'tiqod ijtimoiy faoliyat mezoni.
3. Qonun ustuvorligi nima.

18-variant

1. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va milliy g'oya.
2. Tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash.

3. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?

19-variant

1. Milliy mafkuraning umuminsoniy tamoyillari.
2. Milliy ma'naviy qadriyatlar tushunchasi va uning mohiyati.
3. Jamiyatning siyosiy xayoti bilan milliy g'oya urtasidagi bogliklik nimalarda kurinadi?

20-variant

1. Milliy g'oya millatni millat, xalqni xalq qilguchi g'oyadir. (I.A.Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-milat qilishga xizmat etsin" asari bo'yicha).
2. Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarni tarkibi.
3. Gumanizm g'oyalarini karor toptirishning mavkuraviy moxiyati deganda nimani tushunasiz.

21-variant

1. G'oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati. (I.A.Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-milat qilishga xizmat etsin" asari bo'yicha).
2. Ikki qutbli dunyo nima edi va nega barham topdi?
3. Milliy iqtisod va milliy iqtisodiy manfaat.

22-variant

1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzaralari va uning taxlili. (I.A.Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-milat qilishga xizmat etsin" asari bo'yicha).
2. Milliy g'oyaning milliy tamoyillari.
3. O'zbekistonda barpo etilgan jamiyatning iqtisodiy asosi-ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyoti.

23-variant

1. Geosiyosiy maqsadlar va mafkuraviy siyosat (I.A.Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-milat qilishga xizmat etsin" asari bo'yicha).
2. Amir Temur faoliyatida milliy g'oyaning ifodasi.
3. Iqtisodiy mustakillik dunyokarashi.

24-variant

1. Hozirgi zamon geosiyosati va Markaziy Osiyo davlatlariaro munosabat.
2. Markaziy Osiyo yadro qurolidan ozod hudud.
3. Milliy iqtisodiy manfaat va xalq moddiy farovonligi. Milliy iqtisodiy manfaat nima?

25-variant

1. G'oyaviy bo'shliq va zararli g'oyalarning jamiyatimiz hayotiga ta'sirining salbiy oqibatlari.
2. Erkinlik va taraqqiyot g'oyalarining mushtarakligi.
3. Yunaltirilgan bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz.

26-variant

1. Milliy mafkura milliy o'zlikni anglash vositasi sifatida.
2. "O'zbekiston – yagona Vatan" g'oyasining mazmun-moxiyati.
3. Iqtisodiy mustakillik dunyokarashi qanday shakllanadi.

27-variant

1. Milliy g'oyaning maqsadi va vazifalari.
2. Milliy g'oya, erkin fuqaro va ozod shaxs.
3. Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti va milliy g'oya urtasidagi bogliklikni nimalarda kurish mumkin.

28-variant

1. Milliy g'urur va or-nomus.
2. Yoshlar ruhiyatida miliy g'urur va milliy iftixor fazilatlarning zarurligi.
3. Jamiyatning ma'naviy xayoti va milliy g'oya.

29-variant

1. Milliy g'oya va milliy-ma'naviy qadriyatlar.
2. Millatlararo totuvlik va bag'rikenglikning asoslari.
3. Jamiyatni ma'naviy yangilash g'oyasining moxiyati.

30-variant

1. Milliy g'oya o'zlikni anglash va taraqqiyot omili.
2. O'zbekistonda milliy-diniy bag'rikenglik va dunyoviylik.
3. Axlokiy dunyokarash nima?

31-variant

1. Tarixiy xotirani tiklash va takomillashtirish "Miliy o'zlik"ni anglash omili.
2. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurash – davr talabi. (I.A. Karimovning "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" asari bo'yicha).
3. Xalqning ma'naviy ruxini mustaxkamlash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish.

32-variant

1. "Ommaviy madaniyat" nima? Unga qarshi kurashning asosiy vositalari. (I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat engimas kuch" asari bo'yicha)
2. Milliy g'oyaning fikrlar va mafkuralar hilma-hililigida asoslanishi.
3. Ma'naviy xayot va milliy g'oya urtasidagi bogliklik nimalardan iborat?

33-variant

1. Ma'naviy va moddiy xayot uyg'unligi. (I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat engimas kuch" asari bo'yicha)
2. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash. (I.Karimovning "Mamalakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" asari bo'yicha)
3. Ma'naviy yangilanish deganda nimani tushunasiz.

34-variant

1. Isloxotlar va ularning ma'naviy mezoni. (I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat engimas kuch" asari bo'yicha)
2. O'zbekiston xavfsizligiga tahdidlar. I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari asosida.
3. Erkinlik va taraqqiyot g'oyalarining mushtarakligi.

35-variant

1. Milliy bag'rikenglik va milliy manfaat uyg'unligi
2. I.A.Karimovning "Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil xarakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush-sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir"ma'ruzasi bo'yicha.
3. Fukarolik jamiyati, uning mohiyati va ijtimoiy tabiati.

36-variant

1. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik g'oyasining fuqarolarda yagona Vatan tuyg'usini shakllantirishdagi o'rni.
2. I.A.Karimov – Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillarning asoschisi. (I.A.Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni milat qilishga xizmat etsin" asari bo'yicha).
3. O'zbekistonda fuqarolik jamiyai asoslarini shakllantirish.

37-variant

1. Milliy g'oyaning yoshlarni safarbar etish, ilxomlantirish, buyuk kelajak sari chorlash uchun ahamiyati.
2. Ijtimoiy taraqqiyot tarixi. G'oya va mafkuralar tarixi.

3. I.A.Karimovning “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” asarining ahamiyati. 2005 yil

38-variant

1. Milliy g’oyani yoshlar ongiga singdirishning informatsion-texnologik vositalari.
2. Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash strategiyasining mohiyati (I.Karimovning “Mamalakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” asari bo’yicha).
3. Fuqaro - davlat - jamiyat hayotining erkinlashishi va ularning uyg’uilashuvi.

39-variant

1. Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar. (I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat engimas kuch” asari bo’yicha).
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov BMT Sammiti ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag’ishlangan yalpi majlisidagi nutqi xaqida.
3. Fuqarolik jamiyatining qaror topishida shaxs g’oyaviy barkamolligning o’rni va roli.

40-variant

1. Milliy g’oya va islom dini.
2. Komil insonni tarbiyalashda ma’naviyat va ma’rifatning o’rni va roli. (I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asari bo’yicha).
3. O’zbekistonda fukorolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustuvor vazifalari va inson omili.

“Tasdiqlayman”

_____

Falsafa va O’DJQNA kafedrasi
mudiri v.v.b. I.Masharipov
№19 – sonli bayonnoma
30.05.14 y.

“MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR” fanidan

S A VO L N O M A

4. «G’oya» va «mafkura» tushunchalarining mazmuni.
5. Bunyodkorlik va vayronkorlik g’oyalari, ularning jamiyat hayotidagi o’rni.
6. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo’lib olishga urinishlar.
7. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar.
8. Milliy istiqlol mafkurasining mazmuni.
9. «Milliy istiqlol g’oyasi» tushunchasi, uning falsafiy mohiyati.
10. Milliy istiqlol mafkurasining tarixiy va falsafiy ildizlari.
11. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillari.
12. Vatan ravnaqi milliy istiklol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri.
13. Yurt tinchligi milliy istiklol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri.
14. Xalq farovonligi milliy istiklol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri.
15. Komil inson milliy istiklol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri.

16. Ijtimoiy hamkorlik milliy istiklol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri.
17. Millatlararo totuvlik milliy istiklol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri.
18. Diniy bag’rikenglik milliy istiklol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri.
19. Mafkuraning hayotiyligini ta’minlovchi asosiy omillar.
20. Mafkuraviy imunitet nima va nima uchun u hozirgi kunda zarur?
21. Bozor islohatlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmalarini yaratish- muhim ustuvor vazifa. (I.A. Karimovning Respublika Oliy Majlisi 9-sessiyasida so’zlagan nutqi asosida).
22. “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” g’oyasining mohiyati. (I.Karimovning “Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir” asari bo’yicha)
23. Milliy istiqlol mafkurasining milliy xususiyatlari.
24. Milliy istiqlol mafkurasini xalqmiz qalbi va ongiga singdirishning asosiy vositalari
25. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi.
26. O’zbekistonda nega hech bir mafkura davlat mafkurasi bo’lmasligi kerak?
27. Milliy istiqlol mafkurasining umuminsoniy tamoyillari.
28. Xalq farovonligi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri. (I.A.Karimovning “Asosiy vazifamiz- Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” nomli nutqi asosida. Ma’rifat. 30 yanvar 2010 yil.)
29. Taraqqiyotning “o’zbek modeli”.
30. Milliy istiqlol Hoyasi millatni millat, xalqni xalq qilguchi Hoyadir. (I.A.Karimovning “Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni milat qilishga xizmat etsin” asari bo’yicha)
31. I.A.Karimov Milliy istiqlol g’oyasining asoschisi. (I.A.Karimovning “Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni milat qilishga xizmat etsin” asari bo’yicha)
32. G’oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati. (I.A.Karimovning “Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni milat qilishga xizmat etsin” asari bo’yicha)
33. Ijtimoiy taraqqiyot tarixi. Hoya va mafkuralar tarixi.
34. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzaralari. (I.A.Karimovning “Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni milat qilishga xizmat etsin” asari bo’yicha)
35. Hozirgi davr va mafkuraviy poligonlar. (I.A.Karimovning “Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni milat qilishga xizmat etsin” asari bo’yicha)
36. Hozirgi zamon geosiyosati va Markaziy Osiyo davlatlari.
37. G’oyaviy bo’shliq va zararli g’oyalarning jamiyatimizga ta’siri.
38. Milliy mafkura, milliy o’zlikni anglash vositasi.
39. Milliy istiqlol g’oyasining maqsadi va vazifalari.
40. Oliy ta’lim milliy g’oyaviy tarbiya o’chog’i. (I.A.Karimovning “Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni milat qilishga xizmat etsin” asari bo’yicha)
41. Milliy istiqlol g’oyasi va islom dini.
42. Milliy istiqlol g’oyasi va jamiyatni demokratlashtirish jarayoni.
43. “Ommaviy madaniyat” nima va unga qarshi kurashning asosiy vositalari. (I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat engimas kuch” asari bo’yicha)
44. Milliy g’oya barkamol avlod tarbiyasining nazariy asosi. (Prezident I.A.Karimov. “O’zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo’lida va fuqarolik jamiyatin barpo etishda mustahkam poydevoridir”. O’zbekiston ovozi 6 dekabr).
45. Ma’naviyat kamolot omili (Karimov I.A. Yuksak m’naviyat engilmas kuch T-2008y).

“Tasdiqlayman”

Falsafa va O’DJQNA kafedrasi
mudiri v.v.b. I.Masharipov
№19 – sonli bayonnoma
30.05.14 y.

TARQATMA MATERIAL

1-2 mavzu: “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar”fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Milliy g’oya - millatning o’tmishi, buguni va istiqbolini o’zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g’oya shakli.

Milliy g’oya o’z mohiyatiga ko’ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo’lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo’lgan vazifalar va mo’ljallarni ham aks ettiradi. U yoki bu g’oyaning milliy g’oya sifatida maydonga chiqishi millatning o’tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog’liq. Ana shu ikki negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo’lgan maqsad-muddaolari va mo’ljallarini to’g’ri ifodalay olishi mumkin.

Har qanday milliy g’oyada umuminsoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan g’oyalar mavjud.

Milliy mafkura - millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo’lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g’oyaviy asrash, ta’minlashga qaratilgan qarashlar tizimi.

«Milliy mafkura»ni faqat bitta millat yoki xalqning mafkurasi, deb tushunish to’g’ri emas. U muayyan jamiyat yoki davlatning umumiy mafkurasi ma’nosini ham anglatadi. Chunki «milliy» sifati «millat» so’zidan kelib chiqqan bo’lib, nafaqat muayyan etnik birlik, balki «davlat» ma’nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, «milliy daromad», «milliy qurolli kuchlar» birikmalarida u aynan, «davlat» so’zining ma’nodoshi sifatida ishlatiladi.

Istiqlol mafkurasi - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o’zi va oilasi oldidagi burch va mas’uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma’naviy mezon hamdir.

Milliy g’oya yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida umuminsoniy tamoyillar yotadi.

Milliy g’oya manfaatlar tizimi bilan uyg’un bog’langan bo’lib, u quyidagi holatlar bilan ifodalanadi:

1. Mamlakat hududiy yaxlitligi va mustaqilligini saqlab, chegara-larimiz butunligi va daxlsizligini ta’min etishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda bu yurtimizning fazo va vaqtdagi umumiy birligini ta’minlovchi manfaat.
2. Yurtning tinchligi va osoyishtaligi, ya’ni davlatimizning harbiy, iqtisodiy (energetik), ekologik, informatsion va g’oyaviy tahdidlardan muhofazalanganligi.
3. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta’minlash manfaati.
4. Har bir oila va butun xalqning farovonligini ta’minlash, ya’ni badavlatlilik manfaati.
5. Jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o’z-o’zini boshqarish tamoyilini ta’minlanishi.

«Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen - ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi». Balki, u o’z mazmun-

mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, millat va qavmlar, guruh va qatlamlarning yuqorida qayd etilgan umumiy manfaatlarini ifodalaydi.

2-mavzu: Jamiyat taraqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi.

G'oya inson va jamiyat taraqqiyotida asosiy o'rin tutadi. Inson va jamiyat hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g'oyalar ta'sir qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrlarda tezlashuvi yoki sekinlashuvi, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro'y berishi, qanday g'oyalar hukmronlik qilishi va u qanday kuchlar tomonidan, qanday sharoitlarda, kimlarning manfaatlariga xizmat qilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. G'oya tushunchasining mohiyati nimadan iborat? Inson o'zining aql – zakovati, iymon – e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Demak, **birinchidan**, g'oya inson tafakkurining mahsulidir.**Ikkinchidan**, g'oya oldin mavjud bo'lmagan o'zida yangilikni tashuvchi fikrdir.**Uchinchidan,** oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda «g'oya», «mafkura», «ideya» va «ideologiya» tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq G'arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi idea so'zidan olingan, ideologiya uchun o'zak bo'lib hisoblanadi va tushuncha yohud fikr ma'nosini anglatadi. **Ideologiya** (idea- g'oya. Tushuncha, iogos – ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi.

- g'oyalarning mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo'lib hisoblanadi;
- muayyan g'oyani amalga oshirish, maqsadga etish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

G'oyaning ijtimoiy mohiyati. Har qanday g'oya ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi.

G'oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari etaklaydigan, ularni harakatga ketiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Inson tafakkurining mahsuli sifatida g'oya milliy-madaniy merosni, umuminsoniy qadriyatlarni, ijtimoiy-ma'naviy hayotni, tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq - muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

- Ilmiy g'oyalar; falsafiy g'oyalar; diniy g'oyalar; badiiy g'oyalar; ijtimoiy – siyosiy g'oyalar; milliy g'oyalar; umuminsoniy g'oyalar v.h.

1. *Ilmiy g'oyalar* - fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi.

2. *Falsafiy g'oyalar* har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql- zakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g'oyalar yaratganlar.

3. *Diniy g'oyalar* deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini diniy iymon-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi. Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'g'risidagi qarashlarga asoslangan edi. Ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan **politeizm** dinlari vaqti kelib **monoteistik** - yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa jahon dinlari - xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

4. *Badiiy g'oyalar* - adabiyot va san'at asarining asosiy ma'no – mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan etakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. «Qahramon»larni sevish, ularga ergashish hollari ham shu asosda ro'y beradi.

5. *Ijtimoiy - siyosiy g'oyalar* har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi.

Milliy g'oya - inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari etaklaydigan fikrlar, g'oyalar majmuidir. *Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular* jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o'lmas g'oyalar xalqlarga kuch - quvvat va ilhom bag'ishlab, ularni o'z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

G'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda ezgu harakatga undaydigan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid, tajovvuzkor bo'lishi ham mumkin.

Ezgu g'oya - inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni xarakatga keltiradigan, ularni bunyodkor maqsad-muddao sari etaklaydigan ulug'vor fikrlardir.

Mafkura tushunchasi (arabcha «mafkura» nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) degan ma'noni anglatadi. Mafkura tushunchasini ta'riflashda falsafiy adabiyotlar va lug'atlarda bir qancha fikrlar beriladi. Mafkura tushunchasiga turli davrlarda faylasuf olimlar tomonidan berilgan ta'riflar shakl va mazmun jihatidan har xil. Mafkuraga jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuidir, - deb ta'rif beriladi. Ularning barchasida jamiyatdagi muayyan siyosiy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, ilmiy qarashlar, fikrlar, g'oyalar majmui sifatida asoslab beriladi. Demak, mafkura - muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning, jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalangan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Shu sababli dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch e'tiqodning asosini ham g'oyalar tashkil etadi.

Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi «G'oya» va «mafkura» tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsada, ularni aynanlashtirmaslik kerak, nima sababdan?

Birinchidan, mafkura g'oyaga nisabatan mazmunan kengroq tushunchadir.

Ikkinchidan, har qanday mafkurada ijtimoiy voqelikni saqlab qolish yoki o'zgartirishga qaratilganlik, ya'ni maqsadlar botiniy emas, balki zohiriy tarkibda mavjud bo'lishini va mafkuraning o'zagini tashkil etishini ta'kidlash, joiz.

Uchinchidan, har qanday ijtimoiy g'oya faqat ma'lum bir mafkuraviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik va yo'naltiruvchilik salohiyatini, jozibadrlik kuchini namoyon qila olishi mumkin.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida hamjihatlik bilan harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safabar etadi.

Prezident Islom Karimov jamiyat mafkurasiga shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq - ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman» [*Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. -T.: «O'zbekiston», 1998, 11-bet*] Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni- xalq, millatni- millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq- ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

Maf*kuraning falsafiy ildizlari* deganda uning falsafa ilmi xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunda har bir xalqning o'ziga xos falsafiy merosi, qarashlari, g'oyalari ularning maqsadlarida o'zining irodasini topadi. Sharq va G'arb, dunyo falsafasi bunga misoldir. Masalan, mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalangandan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalar asosida shakllandi. Shu bois o'sha davrdagi italyan, ingliz, frantsuz, nemis falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya – Vengriya imperiyasidan ajralib, mustaqil yo'lni tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan edi.

Mafkuraning dunyoviy ildizlari ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar, majmuidan iboratdir. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi g'oyalar dunyoviy jamiyatining asosini tashkil etadi.

Bu haqda Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «dunyoviylik», ayrim aqidaparast kimsalarning da'volaridan farqli o'laroq, aslo dahriylik emas. Biz bunday noto'g'ri va g'arazli talqinlarga mutlaqo qarshimiz»

Darhaqiqat, yaqin o'tmishimizda - dahriylik siyosati hukmronlik qilgan, diniy qarashlar va qoidalar xurofat deb atalgan. Diniy aqidaparastlar esa dunyoviy ilmlarni dahriylik, xudosizlik deb insonni e'tiqodidan ayirishga urindi.

Mafkuraning diniy ildizlari - inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlariga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni, ko'pgina mafkuralarda Avesto, Veda va Upanishadlar, Injil va Qur'on kabi kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

Sobiq Ittifoq davrida yagona kommunizm mafkurasi ana shunday holga tushgan edi. Uning asosiy g'oyalari sobiq sho'rolar hokimiyati rahbarligida zo'rlik bilan amalga oshirildi. Natijada bu mafkura yakka hukmron bo'lib qolgan edi. U XX asrning 80- yillarida tanazzulga yuz tutdi. 1991 yilda sobiq Ittifoq tarqalib ketishi bilan uzil-kesil inqirozga uchradi. Buning sabablari nimalardan iborat?

Birinchidan, u o'zini insoniyat tafakkuri erishgan eng yuksak cho'qqi, mutlaq haqiqat ifodasi deb hisoblab, boshqa mafkuralarni tan olmas, ular bizning dushmanimiz, degan aqida asosida murosasizlarcha ish tutar edi;

Ikkinchidan, bu mafkura zo'ravonlikka asoslangan bo'lib, «majbur qilamiz» qabilida ish tutar, uning g'oyalari hamma joyda, hamma vaqt hech istisno va to'xtovsiz targ'ib qilinar, xalqning erkin yashashi va fikr yuritishiga yo'l qo'yilmas edi. Kimki bu g'oyaga qarshi chiqsa, shafqatsiz jazolanar, butun davlat mexanizmi ana shu jazoni turli shakllarda amalga oshirishga qaratilgan edi.

Uchinchidan, bu mafkura nomigagina ijtimoiy guruhlar mafkurasi edi. Aslida sobiq Ittifoq davrida ziyolilar, dehqonlar, xizmatchilar, qolaversa, «etakchi sinf» bo'lgan ishchilarning orasida ham mafkuradan norozi bo'lganlar bor edi. Lekin metin mafkuraviy devor ortidan ularning ovozi chiqmas edi;

To'rtinchidan, bu mafkura hech kimga vijdon erkinligi, o'z fikrini ochiq bayon etish,jumladan, xorij fuqarolari bilan xolisona muloqatda bo'lishga ham yo'l qo'ymas edi. Bordi-yu kimdir shunga jur'at etsa, «xalq dushmani», «burjuaziya malayi»ga aylanar edi;

Beshinchidan, u milliylikdan butunlay xoli edi. Unda mavhum baynalmilallik zo'r berib kuylanardi. Kimki milliy qadriyatlar to'g'risida gap ochsa, darhol «millatchi»ga chiqarib qo'yilardi. Milliy tafakkurga ega bo'lgan shaxs, mutaxassis, ziyoli, olim, boshqalar «qoloq», «shubhali kishi» hisolanardi;

Oltinchidan, unda milliy tarix, xususan, O'zbekiston tarixi uning o'tmishi merosi mutloq tan olinmas edi. Nari borsa, ular ko'pincha umumiy tarzda qayd etilardi, xolos;

Ettinchidan, xalqlarning diniga, diniy merosiga, diniy qadriyatlariga nisbatan mutlaqo noto'g'ri munosabat o'rnatilgan edi. Jumladan, xalqimizning ulug' siymolari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Mahmud Zamahshariy, Imom Moturidiy, So'fi Olloyor kabi allomalarning boy ilmiy merosini o'rganish, ulardan foydalanish taqiqlangan edi;

Bularning barchasi bolshevistik - yagona kommunistik mafkuraning taraqqiyot talablariga mutlaqo zid ekanini yaqqol namoyon etdi. Shu bois u yangi zamonaviy talablarga dosh berolmay, o'z davlati bilan birga tarixga aylandi.

Yagona mafkura hukmronligini da'vo qilib, uzoq o'tmishga qaytishga chaqiruvchi islom fundamentalizmi go'yoki bundan mustasnodek tuyuladi. Biroq, aslida bunda ham o'sha andoza saqlanib qoladi. Ya'ni, islom fundamentalizmi tarix g'ildiragini o'rta asr jaholati davriga qaytarish niqobi ostida, birxillashtirgan mustabid «kelajak»ning o'ziga xos andozasini taklif etadiki, unda inson fuqarolik huquqlaridan to'liq mahrum qilinadi, haqiqatdan diniy aqidaparastlik terroriga duchor etiladi.

Yagona mafkura hukumronligining jamiyat hayotida zararli oqibatlari:

Shaxs erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga murosasizlik, millatning o'zligini inkor etish, milliy va diniy qadriyatlarni rad etish, milliylikni cheklash, mutloq haqiqatni da'vo qilish, zo'ravonlikka asoslanganligi, mutelik, qaramlik, boqimandalik, loqaydlik, milliy mahdudlik, siyosiy tashabbussizlik, o'zga g'oyalarga yotqarash, jamiyatning ma'naviy inqirozi, tarixiy xotirasizlik, ona tiliga pisandsizlik bilan qarashda yaqqol namoyon bo'ladi.

Mustaqillik tufayli oldimizga qo'ygan oliyjanob maqsad-muddaolarimizga etish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot

g’oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish zaruriyati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos milliy istiqlol g’oyasini shakllantirishni va mustahkamlashni taqozo etadi.

Ma’lumki, biz o’z milliy tabiatimiz va ming yillik an’analarimizga, urf-odatlarimizga zid bo’lgan soxta kommunistik g’oyalardan voz kechdik. Lekin mafkura dunyosida bo’shliqqa yo’l qo’yib bo’lmasligi, shunday holat yuz bergan taqdirda bo’sh qolgan mafkura maydonidan bizga begona, orzu-intilishlarimizga mutloq yot g’oyalar o’rin egallashga urinishi shubhasiz. Tabiatda bo’shliq (vakuum) bo’lmaganidek, jamiyatda ham bo’shliq bo’lmaydi. Ma’lum davrda oldingi fikr o’zgarishi bilan o’rnini yangi fikr egallaydi, g’oyaning o’rnini ham boshqa g’oya egallaydi, shu sababli jamiyatda ham inson ongi va qalbida ham bo’shliq bo’lmaydi.

Hozirgi paytda ro’y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojo’ya hatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo’shliqning yuzaga kelishi uchun yo’l qo’yilgan kamchilik va e’tiborsizlik tufayli sodir bo’lmoqda. G’oyaviy bo’shliqni yuzaga kelishi eng avvalo chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-psixologik muammo va jarayonlar bilan bog’liq. Odatda, yangi g’oyalar turli ta’sir kuchiga ega bo’ladi. Ayrim guruhlar ularni tez qabul qiladi, ba’zi toifalarning avvaligi mafkuraviy aqidalardan yuz o’girishi va yangi g’oyalarni qabul qilishi esa qiyin kechadi. G’oyaviy bo’shliq poydo bo’lishining yana bir manbayi - jamiyatda bu sohadagi tarbiyaning etarli emasligi, mafkuraviy jarayonlarning o’z holicha tashlab qo’yilganligi ham bo’lishi mumkin. Agar davlat yoki millat, ijtimoiy guruh yohud qatlam o’z manfaatlarini, maqsad-muddaolarini aniq-ravshan ifoda etadigan o’z g’oyalarini kishilar, ayniqsa, yosh avlod ongiga muntazam singdirmasa, g’oyaviy bo’shliq paydo bo’lishi mumkin. Bunday sharoitda ishonch-e’tiqod susayib, mafkuraviy tahdidlar kuchayadi. O’z mustahkam g’oyasi yo’q, e’tiqodi bo’sh odamlar esa, ta’sirga tez beriluvchan bo’ladi, o’z yo’lini yo’qotib qo’yadi, bunday hol jamiyatga juda katta zarar etkazadi.

Sobiq mustabid tuzum o’rnida yangi mustaqil davlatlar shakllandi. Hukmron yagona mafkura barham topgach, uning hududida ma’lum muddat g’oyaviy-mafkuraviy bo’shliq (vakuum) holati vujudga keldi. Ma’lumki, umrini o’tab bo’lgan g’oya, mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilar ekan, jamiyatda yangi bir g’oya, ilg’or bir fikrning shakllanishiga ehtiyoj seziladi. Bu zaruriyat teran anglab etilmagan holda esa g’oyaviy vakuum - bo’shliq yuzaga keladi. Lekin, mafkura sohasida bo’shliqqa yo’l qo’yib bo’lmaydi.

Xo’sh, aslida g’oyaviy bo’shliq nima? G’oyaviy bo’shliq eski mustabid tuzumdan yangi tuzumga o’tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o’z mavqeini yo’qotgach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o’rnini bosadigan ilg’or g’oyaviy tizimning hali to’liq shakllanmagan holatidir. Bunday sharoitda turli xil mafkuralar ushbu hududga o’z ta’sir doirasini o’tkazishga urinadi.

Mamlakatda ilg’or g’oyalar, mafkuralar qancha ko’p bo’lsa, ya’ni mafkuraviy plyuralizm hukmron bo’lsa, taraqqiyotning samarali yo’lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo’ladi. Fikrlar erkinligi va xilma-xilligi mafkuralarning mazmun jihatidan boyishiga, bir-birini to’ldirishiga xizmat qiladi.

Bunyodkor g’oya - insonni ulug’laydigan, uning kuch-g’ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safabar etadigan, o’zida taraqqiyot, ma’rifat, do’stlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g’oyadir.

Insoniyat tarixi xilma-xil g’oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli g’oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o’ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon etaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko’rsatgan nazariy ta’limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste’dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko’ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Amir Temur, Alisher Navoiy, Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlarning faoliyati buning yaqqol tasdig’idir.

Vayronkor g’oyalar - jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo’ladi, g’ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixida ezgulik va bunyodkorlik g’oyalari bilan yovuzlik va buzg’unchilik g’oyalar o’rtasida hamisha kurash bo’lganligi tarixdan ma’lum. Yovuzlik g’oyalari esa tarixda hamisha salbiy va yovuz kuchlar faoliyati va hukmronligini ifodalaydi. Salbiy yurishlarga turtki bo’lgan g’oyalar, irqchilik, «kommunizm», fashizm, terrorizm, mustamlakachilikni targ’ib qiluvchi g’oyalar bunga misol bo’ladi.

Insoniyatning, jumladan, O’zbekistoning bir necha yuz yillik tarixida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo’ravonlik, kulfat urug’larini sochish va qon to’kilishiga sabab bo’lgan buzg’unchi g’oyalar va mafkuralarning halokatli ta’siri bilan bog’liq voqealar ko’p bo’lgan. Bu g’oyalar o’zlarida mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda amalga oshgan.

Jumladan, bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida mustabid g'oya va mafkuraning boshqa shakli – fashizm paydo bo'ldi.

Fashizm (ital Fasismo bog'lam, birlashma) - G'arb mamlakatlarida XX asr boshlaridagi og'ir iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy buxronlar davrida vujudga kelgan o'ta tajavuzkor va vayronkor g'oyalar asosida shakllangan insoniyatga qarshi nazariya va amaliyot. U jamiyatda o'ta reaktsion va tajavuzkor doiralarning dunyoqarashi va manfaatini ifoda etgan holda, ochiqdan-ochiq terroristik diktaturaga, zo'ravonlik g'oyasiga tayanadi. Fashizmning - muhim xususiyati ochiqdan-ochiq shovinizm va irqchilik bo'lib, uning mohiyati jamiyatning barcha taraqqiyparvar qatlamlari, ilg'or fikrli a'zolariga qarshi kuch ishlatishning eng og'ir va zararli shakllarini qo'llash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Fashizm o'z kirdikorlarini yashirish va xaspo'shlash uchun siyosiy tilyog'lamalik, yolg'on va bo'htonlardan ustalik bilan foydalanadi.

Fashizmning tashqi siyosati bosqinchilikdan va xalqaro terrorchilikdan iborat bo'lib, bunday siyosiy rejimlar XX asrning 30-yillarida Italiyada, Germaniyada, Portugaliyada, Ispaniyada va Sharqiy Evropaning boshqa bir qancha mamlakatlarida o'rnatilgan edi. Fashistlar Germaniyasi Gitler boshchiligida va militaristik Yaponiya bilan ittifoq tuzib 1939-1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushini boshlagan. Bu urush insoniyatga mislsiz kulfat va falokatlar keltirdi, 50 milliondan ortiq odam halok bo'ldi, yuzlab shahar va qishloqlar vayron qilindi.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib Portugaliya, Gretsiya, Ispaniyada ham fashistik tartiblar barbod bo'ldi. Ammo, bugungi kunda ham ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Germaniya va b.) fashistik unsurlarning muayyan darajada faollashuvi kuzatilmoqda. Yangi fashizm g'oyasi bugungi kunda insoniyat uchun zararli ekanligini har bir inson anglamog'i lozim.

Bolshevizm mafkurasi bo'lgan kommunistik ta'limot xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, «proletar baynalmilalligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmron millatning «irqiy-etnik sofligi»ni mutlaqlashtirishni targ'ib-tashviq etdi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

«Rasizm» so'zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Evropada «insoniyat nasli»ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi.

Irqchilik - odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqlarga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayrimilliy ta'limot

Irqchilik ta'limoti «oq tanli»larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqlarning esa «oq»larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini «asoslab» beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining «ilohiy» tabiatiga ko'ra «oq» irqlarni «quyi» irqlar ustidan hukmron qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni haqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat-hodisalarda yaqqol namoyon bo'ldi. U buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, «tanlangan» xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Yana bir yovuz g'oya - terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda.

TERRORIZM (lot. Terror – qo'rquv, dahshat) - ma'lum yovuz maqsad yo'lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna, g'alamislik muhitini vujudga keltirish, zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlatishlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Shovinistik kuchlar bugungi kunda, birinchidan, mamlakat aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, ikkinchidan, mintaqa davlatlari ichida ziddiyatlarni yuzaga keltirish, uchinchidan, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu yo'lda ular xilma-xil usul va vositalardan foydalanmoqdalar.

Buyuk davlatchilik shovinizmi ham jaholatning bir ko'rinishi. Unga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish mumkin. Bunda ayniqsa, xalqaro hamjamiyat, jumladan, uning teng huquqli a'zosi bo'lgan har bir davlat bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish yaxshi omil bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina mintaqamiz hech qachon tsivilizatsiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ijobiy ta'sir etib, bir-birini boyitadigan makonga aylanadi.

Diniy ekstremizm - ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi.

Diniy ekstremizmni keltirib chiqaruvchi sabablar:

- Dindan foydalanib dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy va boshqa tajovuzlar va maqsadlarni amalga oshirish uchun intilish;
- Dinni niqob qilib, turli siyosiy mojarolar, ziddiyatlarni keltirib chiqarishga urinish;
- Inson, millatlarining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini emas, balki dinning yashashga bo'lgan huquqini e'tirof etish;
- Dinni dunyoqarash, tafakkurning yagona vositasi deb hisoblash;
- O'z-o'zidan ravshanki, bu hodisalar O'zbekistoning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtai nazaridan qaraganda butunlay zararli g'oyalardir.

3-mavzu: Globallashuv sharoitida g'oyaviy-iqtisodiy kurashning keskinlashuvi

Globallashuv - turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi ta'rifida globallashuv jarayonining 3 o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:
1. Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon.
2. Globallashuv - jahonning gomogenlashuvi (bir jinsli) va universallashuvi jarayoni.
3. Globallashuv - milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.
Rossiyalik A.Parshev globallashuvga quyidagicha ta'rif beradi: «Aslida, globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarini o'zlashtirishdan iborat».
Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri xususida Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».
Shuning uchun ham milliy istiqlol g'oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, «dovullar»dan saqlash omili ekanligini anglash mumkin.
Globallashuv jarayoni murakkab hodisa.
Buyuk davlatchilik shovinizmi - (***Shovinizm*** - fran. burjua mil-latchiligining o'ta reaktsion formasi). Shovinizm siyosati boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oldirishga qaratilgan. Shovinizm go'yo to'laqonli bo'lmagan boshqa millatlar va irqlar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan bir millatning alohidaligini («mumtozligini») targ'ib etadi.
Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jo'g'rofiy - siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashda namoyon bo'ladi.
Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi. Uning ifodachilari harbiy imperiyalardir.

4-mavzu: Hozirgi davrda g'oyaviy tahdidlarning yanalishlari va axborot xafsizligi

Immunitet – lotincha (immunitatis) so'zidan olingan bo'lib, biror narsadan xalos , ozod va forig' bo'lish, qutilishni, muayyan kasallikni qo'zg'atuvchi virusga, dardga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini (masalan, inson tanasi immuniteti) bildiradi. "Immunitet" so'zining ma'nosi organizmning doimiy ichki barqarorligini saqlash uning turli xususiyatlarga va ta'sirlaridan himoyalanishi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligini dildiradi. Shuningdek, u daxlsizlik ma'nosini xam anglatadi, (masalan, deputatlik immuniteti, diplomatik immuniteti).

Immunitet turlari – aslida organizmni infektsion agentlar va boshqa yot moddalardan himoya qilish omillari tabiati bo'yicha uchga bo'linadi:
1. Filogenetik immunitet – anatomik va fiziologik belgisiga ko'ra nasldan naslga o'tadigan himoyaviy rezistentligi. Bunda organizm yuqumli kasalliklarga chidamli bo'ladi.
2. Tug'ma immunitet – (turga xos, tabiiy), nisbatan chidamli, nasldan naslga o'tadigan xarakterga ega.
3. Orttirilgan immunitet – hayot davomida orttirilgan immunitet. U o'z-o'zidan namoyon bo'lmaydi. Uning namoyon bo'lishi uchun ichki yoki tashqi g'oyaviy ta'sir bo'lishi kerak.
Apologetika - yunoncha apologetikos - ximoya qilish ma'nosini anglatadi. Iloxiyotda tafakkur dalillari yordamida diniy ta'limotni ximoya qilish va oklash bilan bog'liq bo'lgan soxa. Dinning mohiyatini akidalar tizimi xususiyatlari, axlokiy printsiplari, ijtimoiy xayotdagi roli va ahamiyatini taxlil klish asosida uni falsafiy materialistik va genetik tankiddan ximoya klishni o'z oldiga asosiy vazifa kilib kuyadi.

Mafkuraviy immunitet – ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaktsion, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi. Davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. "Mafkuraviy immunitet" tushunchasini birinchi bor Prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va unga quyidagicha ta'rif bergan: (2000 y 8 iyunda "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblarida - "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" nomli suxbatida) "Ma'lumki har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur" (Karimov I.A. Asarlar. T.8. 494-bet)

Mafkuraviy profilaktika – xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmui, ya'ni ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Mafkuraviy immunitet tarkibi:

1. mafkuraviy bilim;
2. his-tuyg'u;
3. iroda;
4. ko'nikma;
5. malakalar

5-mavzu: Jamiyat barqarorligini taminlashning ijtimoiy asoslari.

Milliy g'oya, milliy va ma'naviy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi. Ma'lumki, ma'naviy umuminsoniy qadriyatlar fuqarolik jamiyatining muhim zaminini tashkil qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilish, dunyodagi ko'plab xalqlar, elatlar, millatlarning o'tmishdagi, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon tsivili-zatsiyasining yaxlit va bir butunligini ifodala-ganligi bilan mintaqaviy, milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Aytish joizki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir - biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularning har ikkalasi bir - biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan va mohiyatan boyitadi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad, intilishlarining yaxlitligi, umumiyligini ifodalaydi. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ajratib olib, unga mahliyo bo'lib ketish, o'z millatini maqtash, uning tarixi, madaniyatini ideallashtirish boshqa millat vakillarining milliy tuyg'ulari va nafsoniyatlariga birmuncha tegib ketadi. Bu milliy tuyg'ular millatchilik va «shovinistik» tuyg'ulariga aylanib ketishi mumkin. Shuning uchun ham bu masalada hushyorlik, nazokat, insof, diyonat, kamtarlik, me'yordan chiqib ketmaslik, o'zga millat kishilari tili, madaniyati, tarixi, an'ana va udumlarini astoydil hurmat qilish talab qilinadi. Zero, mamlakatimizda bironta ham xalq va millat o'zidan boshqa xalqlar, millatlardan, umumiy jahon tsivilizatsiyasidan ajralgan holdagi tarixga ega emas.

Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydilar. Barcha xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy rivojlanish tarixi bir - biri bilan uyg'unlashib ketgan. Shuning uchun ham har bir millat o'z doirasida cheklanib qolmay, boshqa millatlar va xalqlar bilan birgalikda taraqqiy etadi. Agar biror millat boshqa millatlar bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'lmaganda, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lmaganda, ulardan o'rganmagan va o'zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko'rmaganda edi, bunday millat jahon tsivilizatsiyasining samaralaridan foydalana olmagan bo'lardi.

Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam».

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, xalqlarning ulug'vorligi milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy xususiyatlarga ega ekanligida, jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidir. Milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama- qarshi qo'yish, millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning manfaat va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajralmagan holda o'rganilishi kerak. Mamlakatimizda yashovchi har bir millat

va elat singari o'zbek xalqining ham o'ziga yarasha ajoyib moddiy, ma'naviy, tarixiy qadriyatlari bor. Ularni oqilona, xolisona o'rganish O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi iqtisodiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyotining asosiy shartlaridan va konstitutsiyaviy -huquqiy kafolatlaridan baridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga mamlakatimizda yashayotgan barcha xalqlarning an'analari va urf - odatlari, dini, tili va madaniyati hurmat qilinadigan yagona mafkura, dunyoqarash hukmronlik qilmaydigan, so'z va vijdon erkinligi, umuminsoniy qadriyatlar va insonparvarlik kafolatlanadigan, ilm- ma'rifat va barkamol inson kamol topadigan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurishning demokratik qadriyatlar va tamoyillar shakllanishini ta'minlaydigan qonun va qoidalarning kiritilishi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining kelajak maqsadlarini belgilab berdi. Zero, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati sharoitida Markaziy Osiyoning suveren davlatlari o'rtasida «Turkiston - umumiy uyimiz» g'oyasiga asoslangan millatlararo munosa-batlarda umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlardagi millatlararo totuvlik, erkinlik, inson salomatligi, ijtimoiy adolat, qonun oldida tenglik, ahil qo'shnichilik, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalanish imkoniyatlari va u haqda g'amho'rlik qilish, mehnatsevarlik va har kim o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilish imkoniyatlari, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik, o'zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amho'rlik qilish, vijdon, burch, baynalmilalchilik va boshqalar har bir xalq, millatning ma'naviy qadriyatida o'ziga xos ravishda namoyon bo'lishini ko'ramiz.

Prezidentimiz Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida shu masalaga to'xtalib: «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o'z - o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari, ideallaridan bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas», - deb ta'kidlagan edi.

Shunday qilib, umuminsoniy va milliy qadriyatlar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi zamini, tayanchi va negizidir.

Milliy istiqlol g'oyasi hech qachon yakka hukmronlikga intilmaydi.

Sobiq totalitar tuzimning yakka hukmron mafkurasi ta'siri natijasida kishilarimiz xarakteriga va ularni faollashtirishga putur etgan edi. Haqiqatga ishonmaslik, o'z ijodiy mehnati zavqini tuymaslik, loqaydlik, fikrsizlik, ruhsizlik kabi illatlar jamiyatda ildiz otgan edi. Shuning uchun ham, mustaqillikka erishilgan dastlabki kundanoq, shaxsni tafakkur mustaqilligiga, o'zini o'z miyasidagi totalitar sarqitlardan tozalashga asosiy e'tibor berildi. Ya'ni inson mustaqil bo'lmay turib faol, faolliksiz mustaqil bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan: ***«jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i - inson degan fikrni ilgari surdik»,*** - deganda haqdir.

Barchamiz bilamizki, fuqarolik jamiyati asos-larini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi - ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdir.

Prezidentimiz tomonidan har bir Yangi yilni inson va uning manfaatlari bilan bog'liq - «Oila yili», «Ayollar yili», «Sog'lom avlod yili», «Onalar va bolalar yili», «Qariyalarni qadrlash yili», «Obod mahalla yili», «Mehr - maruvvat yili», «Sihat-salomatlik yili» deb belgilab berilishi davlat siyosati va ezgu an'anaga aylandi. Buning siyosiy va ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, yil davomida insonga alohida e'tibor qaratiladi va uning qadr - qimmati e'zozlanadi, odamlarning turmush farovon-ligini yanada yaxshilash, mehr - oqibatni kuchaytirish maqsadida ko'pdan - ko'p xayrli ishlar amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekistonda adolatli, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishida, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni qurishda, iqtisodiy islohotlarning samarali bo'lishida inson omili muhim o'rin tutadi. Zero, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishini inson omilisiz tasavvur qilish qiyin. Inson omilining ham kasbiy, ham g'oyaviy jihatdan kuchaytirilishi iqtisodiyotini yuksak darajaga ko'taradi. Agarda inson kasbiy jihatdan yuksak malakali bo'lsa-yu, g'oyaviy jihatdan noqis bo'lsa-chi? Bunda iqtisodiy jinoyatlar, poraxo'rlik, shartnomani bajarmaslik, soxta tenderlik, inti-zomsizlik, tashmachilik, ma'suliyatsizlik, loqaydlik har qanday gullab yashnayotgan iqtisodiyotni kemirib tashlaydi. Demak, Vatan tinchligi, el farovonligida vijdoniylik, ma'suliyatlilik, mehnatsevarlik, tashab-buskorlik, vatanparvarlik, halolik, intizomlilik nafaqat ma'naviy, mafkuraviy, balki iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, ma’naviyat, axloq - odob va ma’rifat jamiyat tafakkuri, demokratik islohotlar samarasini belgilovchi, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishining bosh omillaridan biridir. Ma’naviyat, axloq - odob va ma’rifat tushunchasi ilmiy talqin qilinsa, fuqarolik jamiyatini barpo etish doimiy tamoyilga, yaxlit tizimga aylanishi zarurligi ma’lum bo’ldi. Bu tizim markazida esa ma’naviyat, axloq - odob va ma’rifat kabi o’lmas qadriyatlar etakchilik qilmog’i kerak. Shunday ekan, bugungi kunda fuqarolik jamiyati masalasini haqqoniy ravishda ma’naviyat va ma’rifat masalasi deyish mumkin. Chunki fuqarolik jamiyati - huquq, demokratiya, ma’naviyat va ma’rifat tantana qiladigan adolatli jamiyatdir.

Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida ilmiy - nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berilganidek, ma’naviyat va ma’rifat - millat, mamlakat, fuqarolik jamiyati taraqqiyotini belgilovchi omildir. Ma’naviyat va ma’rifat - shaxs va millatning «aqlli qalbini» ifoda etadigan, tabiat, jamiyat va odamning insoniylashuv, ma’rifatlashuv darajasini bildiradigan ruhiy - aqliy idrok olami hisoblanadi.

Ma’naviyat, axloq - odob va ma’rifat mohiyatan mushtarak tushunchadir. Ma’naviyatni axloq - odobsiz va ma’rifatsiz, ma’rifatni esa ma’naviyatsiz va axloq - odobsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ular o’z tabiati va mohiyatiga ko’ra botinan bir - biri bilan chambarchas uzviy bog’liq hamda yaxlit tizimdir. Odob - axloq va ma’rifat, eng avvalo, sof ma’naviy tushuncha va aksincha, ma’naviyat - sof ma’rifiy insoniy tsivilizatsiyadir. Dunyoni ma’rifat qutqaradi, deganda shubhasiz, ma’naviyat nazarda tutiladi. Zotan, Yurtboshimizning «***Jamiyat taraqqiyotini muqarar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma’rifatdir***», degan kontseptsiyasining ma’nosi shuki, fuqarolik jamiyatida barcha muammo ilm, aql - idrok va tafakkur yordamida hal etiladi. Demak, jamiyat ma’nan sog’lolashadi, ma’naviy yaxlitlik, butunlik insonga demokratik - huquqiy maqom kasb etadi. Ma’naviyat mezoni buzilsa, ya’ni insof, o’zaro hurmat - izzat, andisha halollik, rostguylik odamni tark etsa, uning jamiyat va boshqa odamlar bilan huquqiy- ma’naviy munosabatlariga putur etadi. Chunki bir kishining huquqlari boshqa odamning huquqlari chegarasi boshlangan joyda tugaydi. Qonun kimning haq, kimning nohaqligini adolat tarozisida o’lchab beradi. Ularning ikkalasini ham ma’naviyatning pokiza olamiga qaytaradi. Ana shundagina huquq, demokratiya ma’naviyat va ma’rifat mushtarakligi fuqarolik jamiyatining har bir a’zosining axloqiy, ijtimoiy, ruhiy idealiga aylanadi.

Fuqarolik jamiyatida eng avvalo odamiylik xislatlari ustuvor bo’ladi.

Yana shuni ham e’tirof etish joizki, qonunchilik va adolat ustuvor bo’lgan jamiyatda amaldagi qonunlarning mukammal va puxta bo’lishi, ularning o’zgaruvchan vaziyatlarga nisbatan bardoshliligi katta ahamiyat kasb etib, bu fuqarolik tarbiyasi uchun juda qulaydir. Chunki bir avlod manfaatiga to’g’ri kelgan qonun va huquqiy normalar keyingi avlod tomonidan avtamatik tarzda ham qabul qilinishi mumkin. Demak, siyosiy tizimning legitim va barqaror bo’lishi, qonunlarimizning mukammalligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi muhim ma’naviy hamda qonuniy omildir.

O’zbekchilik. Oila va mahalla. Xalqimizning sodda tilida o’zbekchilik degan so’z bor. Bu bizning milliyligimizning asosi bo’lib, xalqimizga xos xislatlar majmuasi, xarakterini anglatadi.

Xalqimizning milliy o’ziga xosligi, oilaga munosabat, jamoaviy turmush tarzi, ya’ni mahallachilikda ham alohida sezilib turadi.

Fuqarolik jamiyati shakllanishining dastlabki siyosiy instituti rolini o’ynaydigan oila xususida qisqacha to’xtaladigan bo’lsak, oilada jamiyatga xos bo’lgan tipik xususiyatlar va vaziyatlar o’z in’ikosini topadi. Oilada har bir bolaga qadriyatlar tizimi - nima yaxshi-yu nima yomonligi, qaysi xatti - harakati ma’qul, qaysinisi noma’qul, qaysi fikr ma’nili-yu, qaysi biri bema’ni ekanligi to’g’risidagi dastlabki tasavvurlar ota - ona, yaqin qarindosh - urug’, qo’ni - qo’shni orqali singdiriladi. Bundan tashqari, aynan oilada hokimiyat va obro’lilik, ya’ni «avtoritet» to’g’irisidagi, siyosiy ongga aloqador bo’lgan, siyosiy ma’daniyat va huquqni ifodalovchi tasavvurlar ham kurtak topadi. Bir qarashda oddiy tug’ilgan er va xotinning nikohga bo’lgan munosabati, uni qadrlashi bola ilk yoshlikdan oilani, oiladagi burch va mas’uliyatning mohiyatini teran tushunib borishga imkon beradi. Bundan tashqari umumxalq referendumlari, saylovlar, saylovoldi jarayonlariga munosabat, bunda ota - onaning faol va ongli ishtirok etishining o’zi ilk yoshdan murg’ak qalbda shu jamiyat va undagi siyosiy hayotning teng huquqli ishtirokchisi bo’lishi mumkinligi hissini tarbiyalaydi.

Jamiyatning manfaatlari keng qamrovli bo’lib, u har bir fuqaroning turfa qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu holat uning haq - huquqlari ko’pligini keltirib chiqaradi. Buni biz bugungi kunda o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatida ko’rib turibmiz.

Mustaqillik yillarida mahallaga tarixda ko’rilmagan darajada e’tibor kuchayib, o’z - o’zini boshqaruvchi tashkilot sifatida haq - huquqlari ortib bormoqda. Bu bejiz emas, albatta.

O’zbek xalqi qadim zamonlardan buyon jamoaviy turmush tarzida yashab kelgan. Kishilar, oilalar muammolari mahallaning ko’pni ko’rgan oqsoqollari, onaxonlari yordamida hal etilgan. Jamoaviy turmush tarzi jamiyat taraqqiyotiga ham kuchli ta’sir ko’rsatgan. Xususan, temuriylar davrida shaharlarda turli hunar egalari mahalla-mahalla bo’lib yashagani jamiyatni iqtisodiy, ma’naviy jihatlardan juda yuksaltirgan.

Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, mahalla insoniy fazilatlar kamol topadigan, asriy an’analarimiz saqlanib qolgan makondir. Biroq mahallalar faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ba’zan eskilik sarqitlarining an’analardan farqlashma-yotganlarini ko’ramiz. Ayni paytda tadbirkorlik va ishbilarmonlikni faqat moddiy foyda ortirish yo’li deb bilganlar ham uchrab turadi.

Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mahallalarning roli etakchi bo’lib, bu erdagi ma’naviy muhit milliy istiqlol g’oyasining umuminsoniy va milliy qadriyatlarini belgilab beradi.

Jamiyatdagi barcha insonlar manfaatlari kesishgan joy ham - bu mahalladir. Unda o’sha qiziqish va ehtiyojlardan tortib, har bir oilaning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari uyg’unlashadi. Shu bois ham barcha muammo va ularning echimlari kaliti mahalladan izlanadi. Prezidentimizning «Mahalla - haqiqiy demokratiya darsxonasidir», degan purhikmat iboralarining asl ma’nosi ham shunda. O’zini - o’zi boshqarishning milliy modeli bo’lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf - odatlari, demokratik an’analari, oilani mustahkamlash borasidagi o’lmas qadriyatlari bilan erkin fuqaro tarbiyasida muhim rol o’ynaydi.

Respublikamiz mustaqillikga erishgach, uning dushmanlari, xususan, diniy ekstremistlar yurtimiz tinchiligiga mahallalar orqali ta’sir ko’rsatishga astoydil harakat qilib kelmoqdalar.

2005 yil 13 maydagi Andijon voqealari bunday urinishlarning so’ngi ko’rinishlaridan biridir. Bunday voqealar haqida ba’zi bir chet el ommaviy axborot vositalari xodimlari kabi tez baho berib bo’lmaydi, ayniqsa, o’quv qo’llanmalarida. Biroq, bir narsaga aminmizki, Andijon voqealari zamirida tinchligimiz, jumladan, milliy istiqlol g’oyasiga raxna soluvchilarning vayronkor g’oyalari turibdi.

Shuning uchun mahallalar bundan buyon ham yoshlarimizni turli g’oyalardan saqlashning asosiy maskani bo’lib qolaveradi.

Tayanch tushunchalar: umuminsoniy va milliy qadriyatlar, mahalla, oila, o’zbekchilik, fuqarolik jamiyati, tarixiy xotira.

6-mavzu: Taffakur o’zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g’oyaning roli

1. Milliy g’oya o’zlikni anglash omili

Insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyoti o’z-o’zini anglash eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma’naviy

voqelik, sha’n, qadr-qimmat, obro’-e’tibor, or-nomus orqali namoyon bo’lishini ko’rsatadi. Hayotning ma’no-mazmuni, maqsadini tushunib etish, o’zlikni anglashdan boshlanadi. Milliy g’oyada uning negizlari mujassam bo’lganligi uchun ham o’zlikni anglashga xizmat qiladi va bir-biri bilan uzviy bog’liq.

«O’zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab etishni, shundan kelib chiqib, o’zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman» deydi I.A.Karimov.

O’zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish, avvalambor, har bir fuqaroning va butun jamiyatning oliy maqsadlarini o’zida mujassam etgan milliy g’oya atrofida jipslasha olishiga, o’zini xalq, millatning ajralmas qismi ekanligini anglab etishiga ham bog’liq. Zero, buyuk bobokalonimiz Amir Temur o’git berganlaridek: “Birliksiz kuch bo’lmas”. Binobarin, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” qurishdek ulug’ ish, avvalo, o’zlikni anglamagan joyda amalga oshmaydi. Millat birligida insonni o’zligini anglash omili alohida o’ringa ega. Prezident I.Karimov ta’kidlaganidek: “Chinakam insoniy fazilatlarga ega bo’lgan yoki ega bo’lishga intilgan odam demokratiya ne’matlarining oddiy iste’molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Va demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlash mumkin bo’ladi. Shundagina inson o’z mamlakatining tom ma’nodagi munosib fuqarosi bo’la oladi”[1].

“Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” g’oyasida mujassam bo’lgan milliy g’oya oddiy da’vat emas, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanmog’i uchun, u har bir o’zligini anglagan fuqaroning ongidan chuqur joy olmog’i va yashash tamoyiliga aylanmog’i lozim.

Demak, mustaqillik tufayli bir tizimdan ikkinchi tizimga o’tish davrida o’zlikni anglashning o’ziga xos ko’rinishlarini anglamasdan ma’naviy yuksalish va taraqqiyot darajasini aniqlab bo’lmaydi.

Jamiyat ma’lum bir hududda jamlangan odamlarning oddiy yig’indisi emas. Inson martabasiga xos bo’lmagan o’zligidan mahrum, tarixiy xotirasi zaif, o’zining kelib chiqishi va kimlarning vorisi, avlodlari ekanligini anglamagan, bilmagan odamlarni xalqimiz “to’da”, “olomon” deb ataydi.

2 “O’zlikni anglash”ning turli talqinlari

Insoniyat falsafiy tafakkuri tarixida “o’zlikni anglash” masalasi turlicha talqin etilgan. Inson jismining o’tkinchiligi, ruhining esa abadiyligi (cherkov otasi Avgustinning “tan ruh uchun qafasdir” fikrini eslang) masalasini zohiriy (dunyoviylik nuqtai nazaridan) talqin etganlar inson o’ziligini dunyodan yuz o’girib, yolg’izlikda ibodat bilan kun o’tkazgandagina, oddiy so’z bilan aytganda, tarkidunyo qilgandagina topishi mumkin degan fikrga keladilar.

Islom Sharqida dunyoni o’tkinchi bilib, ijtimoiy faollikdan qochish, faqat Olloh zikri bilan yashash, tamoyili alohida o’ringa ega. Ularning falsafasida “tarkidunyochilik g’oyasini targ’ib etib, ijtimoiy faollikdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug’ullanganlar”[4]. Tasavvufdagi “uzlatga chekinish” g’oyasini ham ba’zan to’g’ridan-to’g’ri tarkidunyochilik ma’nosida talqin etishga urinishgan. Ammo “o’zlikni anglash” bosh maqsadi bo’lgan tasavvuf ahli va tasavvuf g’oyalaridan quvvat olgan ulug’ mutafakkirlarimiz insonni insonga, Vatanga, xalqiga bo’lgan, har qanday g’arazdan holi, pok mehrni targ’ib qilganlar.

Xususan, ulug’ mutasavvif alloma Bahouddin Naqshband inson o’z-o’zini anglab etish orqali Haqni, Haqiqatni taniydi, Alloh vasliga etishadi, deydi. Ammo hayotining yakuniy maqsadi bu emas. Dilida Alloh (“dilda yor”) jo bo’lgan kishi ishga kirishmog’i (“dast ba kor”) ezgu ishlarga qo’l urishi lozim. U aslo eldan, xalqdan o’zini ayirmasligi, aksincha Orif odam Haqni dilda tutgan holda xalq bilan birga bo’lishi lozim. (“Xilvat dar anjuman”).

3. Tarixiy xotira va milliy o’zlikni anglash

Prezidentimiz Islom Karimov o’zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asarida: «Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka

o’rgatadi. O’zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» deb ta’kidlaganlar. Demak, tarixni bilmasdan, yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma’naviyatga erishish mumkin emas. Sobiq ittifoq davrida millatimiz ongiga shunday g’oya singdirildiki, u o’z yurtida boshini baland ko’tarib yurishi ta’qiqlangan edi. Xalqimizning shunday ahvolga tushib qolishiga asosiy sabablardan biri – uning tarixiy xotirasidan judo bo’lishi edi.

Milliy g’oya xalqimizga nafaqat o’z tarixini odilona, ob’ektiv va xolisona o’rganish imkoniyatini yaratadi, balki millat sifatida shakllanish davridagi murakkab sharoitlardan kelib chiqish sabablarini ko’rsatib beradi. Chunki, milliy g’oya xalqimizning qadimiy va boy tarixidan, ulug’ alloma ajdodlarimizning hikmatlari va hayotiy o’gitlaridan, bunyodkor g’oyalaridan, yashash ibratidan ozuqa olgan. Shuning uchun ham, tarixni buyuk murabbiy, tarbiya va ibrat manbai deyiladi.

Dono xalqimizning “Etti pushtingni bilgin”, - degan o’gitlari bekorga kelib chiqmagan. Shuning uchun ham qadimgi Sharqda donishmandlari insonni gavdasi oldinga, yuzi esa ortga qaratgan holda tasvirlaganlar. Ya’ni, ularning nazdida insoniyat kelajak sari intilar ekan, o’tmishini doimo yodda saqlamog’i shart. Bu ko’hna haqiqatni teran anglagan Prezident I.A.Karimov “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida istiqboldagi vazifalarni belgilab berar ekan: “Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o’lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o’zlikni anglashni, ta’bir joiz bo’lsa, milliy iftixorni tiklash va o’stirish jarayonida g’oyat muhim o’rin tutadi”[8] deb ta’kidlaydi.

3. Milliy madaniyat, til va tarixdan begonalashishning zararli oqibatlari

Milliy istiqlol g’oyasi o’z qiyofasiga ega bo’lgan va bashariyat taraqqiyotiga o’zining ulkan hissasini qo’shgan xalqimizning boy va uzoq tarixiy taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan ma’naviyati sarchashmalaridan ozuqa olgan. Bir paytning o’zida u kishilarimizning va butun xalqimizning o’zligini anglashi, ma’naviy yuksalishi omili bo’lib xizmat qilmoqda.

Bir qarashda masalaning bunday qo’yilishi mantiqsizlikdek bo’lib tuyuladi. Biz kechagina dunyoga kelgan emas balki uzoq tarixga ega bo’lgan va kim ekanligimiz ma’lum xalq ekanmiz, o’zligimizni anglatishga ne xojat? Ammo masalaning boshqa bir jihati bor. Afsuslarkim, xalqimiz uzoq vaqt istibdod ostida yashadi. Avvalo Chor Rossiyasi, so’ng qizil Imperiya davrida ko’plab madaniyat durdonalari yo’q qilindi, dinimiz va tilimizdan begonalashtirishga harakat qilishdi, ma’naviyatimiz sarchashmalaridan ozuqa olishimizga yo’l qo’yilmadi, “milliylik”, “milliy g’urur” so’zlarini tilga olish gunohi azimga aylandi. “Kim edik?” degan savolga “yozuving, madaniyating, tilga olishga arzirlik tarixing yo’q sartsan” javobini oldik. “Kim bo’ldik?” – degan savolga o’zgalarning “yordami” bilangina madaniyatli bo’lgan xalqsan” deya javob eshitdik.

Natijada tarixiy xotirani zo’r berib yo’q qilishga, xalqni manqurtlashtirishga qaratilgan siyosat tufayli, o’zligimizni yo’qotish darajasiga kelib qoldik. Buning asosiy sabablaridan biri milliy madaniyatimiz, tilimiz, urf-odatlarimizga bolta urishda afsuski, xalqimiz orasidan ham ayrim «kimsa»lar topildi. Demak, o’zimiz ham «katta hissa» qo’shdik.

Shuning uchun ham Prezident I.Karimov tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbatida: “Madomiki, o’z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo’lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirishimiz zarur”,[22] – deya alohida ta’kidlagan edi. Milliy istiqlol g’oyasi mustahkam hayotiy zaminga, xalqimizning chuqur tarixiy ildizlariga tayanadi. “Kim edik” degan savolga javobni tinimsiz izlashga da’vat etib, milliy o’zligimizni teran idrok etishga yordam beradi.

4. Milliy istiqlol g’oyasi - milliy o’zlikni tarbiyalash, qadrlash, saqlab qolish omili

Inson “bir parcha go’sht” bo’lib dunyoga keladi va u dastlab tabiiy instinklar bilan yashaydi. Sekin-asta o’zi yashaydigan oila muhiti, keyinroq mahalla, ta’lim olgan bilim dargohi, jamiyat ta’sirida inson dunyoqarashi shakllanadi, shaxsga aylanib boradi. Jamiyatdan tashqarida esa u hayvonot dunyosining boshqa vakillaridan unchalik farq ham qilmaydigan, o’zligini anglashga qodir bo’lmagan oddiy jonzodligicha qoladi. Jamiyatdan tashqarida o’zining insoniy sifatlarini saqlab qolgan Robinzon Kruzo yoki Maugli kabi adabiy qahramonlar faqat hayolot mahsulidir.

Mashhur ingliz yozuvchisi Daniel Defoni Robinzon obrazini yaratishga turtki bergan real shaxs – Aleksandr Selkirk tarixi bunga yorqin misol bo’la oladi. O’zi bilan ziddiyatga borgan bu matrosni kema kapitani kimsasiz orolga tushirib qoldiradi. U atigi 4 yildan sal ko’proq vaqtni yolg’izlikda o’tkazadi. Ammo shu qisqa vaqt ichidayoq u odamdek so’zlashni, muomala qilishni unutadi, bir so’z bilan aytganda, butkul insoniy qiyofasini yo’qotadi.

Demak, kishining Inson martabasiga erishmog’i, o’zligini tanishida ma’naviy-ijtimoiy muhit va jamiyatda orttirgan tajribasi, bilimlari, tarbiyasi muhimdir. Inson tafakkuriga oila, jamiyatdagi tarixiy shart-sharoit, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy holatlar ta’sirini ko’rsatar ekan, uning o’zligini anglashida, jamiyatning uzviy, ajralmas qismi sifatida milliy o’zligini anglashda ta’lim-tarbiyaning ahamiyati benihoya katta. “Faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarini, bir so’z bilan aytganda, o’zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o’ziga munosib, obro’li o’rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin”.

Shuning uchun ham, milliy g’oya voqelikka aylanishi, taraqqiyotga xizmat qilishi uchun milliy-ma’naviy tiklanish zamirida fuqarolarimiz ongu-tafakkurini o’stirish zarur. Milliy o’zlik tuyg’usini, uni qadrlashni tarbiyalash lozim. Abdulla Avloniyning aytgan “tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot - yo falokat masalasidur”, - degan so’zlari bugungi kunda yangi mazmun kasb, etib o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Avloniy yana deydi:

Xudoning rahmatu fayzi hama insonga yaksardur,
Va lekin tarbiyat birla etushmak shart akbardur.
Tug’ub tashlov ila bo’lmas bola bo’lgay balo sizga,
Vujudi tarbiyat topsa, bo’lur ul rahnamo sizga.
Temurchining bolasi tarbiyat topsa, bo’lur olim,
Buzulsa xulqi, Luqmon o’g’li bo’lsa, bo’lg’usi zolim.
“Yomonlarga qo’shildi Nuhning o’g’li bo’ldi beimon,
Yurudi Kaxf iti xo’blar ila bo’ldi oti inson”.

“Ma’naviyat bilan quvvatlanmagan bilim yovvoyi odam qo’lidagi cho’qmorga aylanadi”, degan edi bir alloma. Kishilik tarixida o’z bilimi, iste’dodini nopok ishlarga, buzg’unchilikka sarf etib, o’z yaqinlari, xalqi butun insoniyat boshiga kulfat yog’dirgan kimsalar oz bo’lgan deysizmi? Yozuvchimiz O’lmas Umarbekov shu ma’noda “Olim bo’lish osonu, odam bo’lish qiyin ekan”, degan qissasini yozadi va unda jamiyatimizdagi ma’naviy qashshoqlangan jarayon ko’rsatilgan. Shu jihatdan jadid ziyolilaridan biri Muhammad Sa’id “Oyina” jurnalidagi maqolasida (1914 yil 31-son) komil inson tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, Ibn Ma’sudning gaplarini keltiradiki, jadidlarning bu boradagi fikrlari bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmaganini ko’ramiz: “Har kishining iymoni ilmi qadar, har kishining ilmi sa’yi qadar, har kishining sa’yi nomusi qadar, har kishining nomusi vijdoni qadar va har kishining vijdoni ham aning adab va tarbiyasi qadardir!”[25].

“Jamiyat madaniyatsiz ma’naviy axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Ularni pisand qilmagan jamiyat pirovard – oqibatda tanazzulga yuz tutadi”. Prezident I.Karimovning hikmatga aylangan bu so’zlari bashariyat tarixi, xususan, xalqimizning ming yillik ma’naviy axloqiy yuksalish tarixi borasidagi chuqur bilimlar e’tirofi natijasidir. Shuning uchun ham Yurtboshimiz O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasida (29 avgust 1997 yil) so’zlagan nutqlarida ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar mazmunini shunday belgilab bergan edi: “Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’limi va tarbiyasini ko’rgan shaxslar kerak”.

7 – mavzu: Milliy g’oyani va rivojlantirishning institutsional tizimi

Xalqimiz asrlar davomida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot orzusida yashab keldi. Bu g’oya xalqimizni erkinlik va yuksalish pallalarida ham, o’z mustaqilligidan judo bo’lgan davrlarda ham tark etmadi. Bugungi kunda O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo’lidagi asosiy maqsadi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bo’lib, bu g’oya millatimizning azaliy orzu-umidlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatining ma’no-mazmunini ifodalaydi. Inson muayyan makonda tug’iladi va hayot kechiradi, shaxs sifatida shakllanadi. Ana shu makon unga Vatan sanaladi. Dilida Vatan tuyg’usi shakllanmagan, kindik qoni to’kilgan zaminga mehr tuyg’usi jo’sh urmagan kishini chinakam Inson deb bo’lmaydi. Shu bilan birga inson baxt-saodat uchun tug’iladi. U ana shu baxt-saodatga o’zi tug’ilib-o’sayotgan Vatanida erishmoqni orzu qiladi. Bu unga o’z baxt-saodatini yurt rivoji, uning ozod va obodligi bilan uyg’un ko’rishni anglatadi.

«Ozod Vatan», «Obod Vatan», «Erkin va farovon hayot» tushunchalari shu jihatdan o’ziga xos ma’no va mazmun kasb etadi.

Ozod Vatan – o’z taqdirini o’zi mustaqil hal etish huquqini to’la ro’yobga chiqara olgan millatning yashash makoni bo’lib, jahon hamjamiyatida o’z o’rniga, nufuziga va mavqeiga ega bo’lgan mamlakatdir.

Obod Vatan – fuqarolari erkin va ozod yaratuvchanlik faoliyati bilan band bo’lgan, to’la ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikda farovon hayot qurish ishtiyoqida yashayotgan hududdir.

Erkin va farovon hayot – odamlarning yuqori darajadagi moddiy va ma’naviy ne’matlarga erkin tarzda, o’zlarining bor qobiliyatlari va imkoniyatlari evaziga erishishidir.

Bu sohadagi eng asosiy vazifamiz - deb ta’kidlaydi Prezident Islom Karimov, - milliy qadriyatlarimizni tiklash, o’zligimizni anglash, milliy g’oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma’naviy hayotimizdagi o’rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko’tarish va ta’sirchanligini kuchaytirishdir.

Xullas, farovon jamiyat g’oyasi mustaqil va barqaror taraqqiyot yo’liga kirayotgan jamiyatlar uchun ikki hissa qadrlidir. Shu ma’noda uning umuminsoniy jihatlariga, demokratik mohiyatiga ulkan e’tibor berilayotganligi tabiiydir. Prezident Islom Karimov milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ozod va obod Vatan, demokratik jamiyat qurish jarayoniga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratayotganligi ham shundan. Zero, *mamlakatimizda farovon, ilg’or jamiyat barpo etish - maqsad, amalga oshirilayotgan islohotlar - vosita bo’lib, jamiyatimizda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o’z navbatida islohotlar uchun shart-sharoitdir.*

2. Milliy g’oya - erkin va farovon hayot qurish omili sifatida.

Mamlakatimizda demokratik institutlar va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi haqida fikr yuritar ekan, Prezident Islom Karimov jamiyatning demokratiyalashuvini uzoq muddatli jarayon sifatida baholaydi, demokratiya g’oyalarini shunchaki bayon qilish, yuqoridan tushirish bilan uni odamlarimiz hayotiga singdirib bo’lmasligini uqtiradi. «Demokratiya, - deb ta’kidlaydi I.A.Karimov, - jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog’i kerak. Bu esa bir zumda bo’ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo’la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko’rish va demokratiya tamoyillarini o’zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir»[9].

Ammo, inson tabiati ziddiyatlidir. U boshqalar intilishlariga teskari bo’lgan intilishlarga ega bo’lishi va shu vaqtning o’zida o’zgalar bilan hamkorlikka moyil bo’lishi mumkin. Inson tabiatiga xos ana shu qarama-qarshilik uning jamiyatdagi hayoti va hatti-harakatlarini ham belgilaydi. Odamlar bir tomondan shaxsiy erkinlikka intilsalar, ikkinchi tomondan ijtimoiy tenglikni talab qilishga moyil bo’ladilar. Odamlar o’z manfaatlarini ko’zlashlari bilan birga umumiyijtimoiy manfaatlarga ham intiladilar. Ammo bu qarama-qarshi tendentsiyalarni, shaxsiy manfaat bilan jamiyat manfaatlarini qanday qilib muvofiqlashtirish mumkin? Jamiyat bu muammoning echimiga demokratiya mexanizmlarini ishga solish orqaligina kela oladi. Aynan demokratiya va umumiy manfaatlar vobastaligi ijtimoiy munosabatlarni muvozanatga keltirishga xizmat qiladi. Demokratiya doimiy qutb - «ziddiyat - kelishuv - birdamlik» orqali o’ziga yo’l ochar ekan,

kishilarning o’zaro roziligi, kelishuviga tayanadi. Gap shundaki, demokratiya - bu yolg’iz o’z maqsad va talablarini amalga oshirish vositasi bo’lmay, balki o’zaro munosabatlarning maqbul qoidalariga rioya etishdir. Umuminsoniy, xususan demokratik qadriyatlarga tayangan milliy istiqlol g’oyasi ana shu qutbiy intilishlarni muvofiqlashtirish orqali umumiy manfaatlarni o’zida ifoda etadi.

3. Jamiyat barqarorligi-erkin va farovon hayot qurish omili

O’zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillarida shu narsa aniq isbotini topdiki, ozod va farovon hayotni barpo etishning asosiy omillaridan biri - barqarorlik¬dir. Oxirgi yillarda jahon hamjamiyatida barqaror rivojlanish kontseptsiyasi keng ommaviylashmoqda. Xususan, BMT hujjatlarida ham barqaror taraqqiyot oliy qadriyat sifatida talqin etiladi, uning universal xususiyatlari, turli modellarining kuchli va zaif tomonlari tahlil etiladi.

Mutaxassislar orasida barqarorlik deganda demokratik tuzilmalarning tez o’zgaruvchan ijtimoiy jarayonlarga nisbatan aks-ta’sir ko’rsata olish qobiliyati tushuniladi. Bunda barqarorlik demokratiyaning vazifasi deb qaraladi, u o’ziga kishilarning fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlatni boshqarishdagi ishtirokini ham o’z ichiga qamrab olishi zarur. «Kuchli davlatdan - kuchli jamiyatga o’tish» qoidasi hozirda demokratik institutlarni joriy etishni jadallashtirish, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik jamoatchilikning faolligiga asoslanishi zarurligini ko’rsatmoqda.

O’z o’rnida aytib o’tish joizki, «barqarorlik» tushunchasi ko’plab yondashuvlarni o’ziga jamlagan. Ularni quyidagi ko’rinishda umumlashtirib keltirish mumkin: a) jamiyatda noqonuniy zo’rlik va kuch ishlatish tahdidining bo’lmasligi; b) birmuncha uzoq vaqt davomida bir hukumatning amal qilishi, uning o’zgaruvchan sharoitlarga samarali tarzda moslashuvchanligi; v) konstitutsion tartibning barqarorligi; g) barqaror legitim hokimiyatning barqaror mavjudligi; d) siyosiy tizimda tuzilmaviy o’zgarishlarni boshqarish imkoniyatining mavjudligi; i) siyosiy kuchlarning muvozanati va b.

Bir so’z bilan aytganda, barqarorlik biror-bir siyosiy ob’ekt yoki institutning holatinigina emas, balki ichki va tashqi munosabatlar tizimini ham ifodalashi zarur. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik demokratik tartib bilan birga uzviylikni, davomiylikni ham talab etishini aytib o’tish zarur.

Shunday qilib, demokratiyatni ta’minlash boshqaruv tizimini, fuqarolik tartibini, boshqaruvning qonuniyligi va ishonchliligini ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik sharoitidagina amalga oshirilishi mumkin. Bu esa ozod va obod Vatan barpo etish yo’lini ta’minlaydi.

5. O’rta mulkdor qatlamining shakllanishi va farovon hayot qurishning o’zaro aloqadorligi

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish g’oyasi erkinlashtirish, erkin mehnat faoliyati va tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog’liq. Boqimandalik yoki soxta «umumiy tenglik» g’oyasiga asoslanib erkin va farovon hayot qurib bo’lmaydi. Dunyodagi birorta jamiyat bu yo’l bilan farovon hayotga erishgan emas. Erkin iqtisodiy faoliyatga asoslangan bozor iqtisodi, mulk xilma-xilliga tayanish, erkin va sog’lom raqobat muhitida o’rta mulkdorlar qatlami shakllanib boradi. Bu esa o’z navbatida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishning sotsial negizi, ijtimoiy tayanchi hisoblanadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining shakllanib borishi jarayonida daromadlari, turmush darajasi va sifatiga ko’ra bir-birlaridan farqlanuvchi qatlamlar shakllanmoqda. Bu tabiiy hol. Ammo bunday holatni hamma ham to’g’ri baholayvermaydi. Bunga ayrim shaxslarning boylikka ruju qo’yishi, ochko’zlik, isrofgarchilik, o’zaro yordam va qarindosh-urug’chilikning yaxshi jihatlarini mensimaslik, o’zini ko’z-ko’z qilishdek illatlar ham sabab bo’lmoqda. Bunga ayrimlar uchun hayot tarziga aylangan ta’magirlik, poraxo’rlik, to’rachilik kabi jirkanch qiyofaga kirayotgan holatlarni qo’shadigan bo’lsak, halol mehnat kishisining ruhiy iztiroblarini tushunish qiyin emas. Shu ma’noda Prezidentimizning bozor mexanizmlarini hayotga tadbiq etish bilan birga qonunchilikni mustahkamlash va bunda ma’naviy asos bo’lib xizmat qiladigan axloq normalarini ham ijtimoiy hayotda keng yoyish to’g’risida kuyunishi bejiz bo’lmay, adolatli jamiyat qurishga nisbatan xalqimizning intilishini ifodalaydi.

6. Odamlarning turmush darajasi va farovon hayot bog’liqligi

Biz intilayotgan barqaror taraqqiyotga erishishda insonlarning turmushi yaxshi bo’lishi, ma’lumotli bo’lishlari, halol daromad topa olishlari, ijtimoiy

ta’minotga bog’lanib qolmasliklari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Muhimi, farovon hayotga erishish uchun odamlar erkin mehnat mahsulining «ta’mini» totib ko’rishlari, halol yo’l bilan yuqori daromad qilish hadisini olishlari zarur. Fuqarolarning iqtisodiy erkinligining oshishi esa ularning siyosiy erkinligini ham yuksaltiradi, ijtimoiy-siyosiy jihatdan faollashtiradi.

Albatta, o’tish davrida iqtisodiy demokratiya muhim rol o’ynaydi, zero u aholining o’z daromadlariga ko’ra yuqori va quyi qatlamlari o’rtasidagi tengsizlik darajasining tez o’sib borishining oldini oladi. O’zbekistonda mulkiy qutblanish, jamiyatning oshib-toshib ketgan boylar va kambag’al-qashshoqlarga ajralib qolishiga yo’l qo’ymaslik siyosatining belgilab berilganligi kurtak otayotgan demokratiyani muhofazalash ehtiyojidan ham

kelib chiqadi. Bu siyosatning izchil amalga oshirilishi mamlakatimizda demokratiyaning kelajagini ko'p jihatdan belgilaydi.

7. Erkinlik va taraqqiyot g'oyalarining mushtarakligi

Ma'lumki, mamlakatimizda erkinlashtirish jamiyat demokratlashuvining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Bu ham bizning g'oyamiz hisoblanadi. Lekin bu o'z navbatida erkinlikni ulkan ijtimoiy-siyosiy qadriyat sifatida anglashni talab etadi.

O'zbekiston farovon jamiyat qurish yo'lida aniq natijalarga erishmoqda. Shu o'rinda insonning jamiyat xayotida tutgan o'rni va rolining milliy va umuminsoniy mezonlarini anglash hozirgi paytda amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Buning yana bir jihati shundaki, demokratik taraqqiyot yo'liga o'tgan va o'tayotgan mamlakatlarda insonning jamiyatdagi o'rni masalalariga qarashda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Inson taraqqiyoti to'g'risida sifat jihatdan yangi kontseptsiyalar ham qaror topdiki, bu jahon hamjamiyatining diqqat e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Darhaqiqat, inson salohiyati avvalgidan ham ko'p ahamiyatga ega bo'lmoqda. Daromadni aholi jon boshiga hisoblaganda eng yuqori darajaga ega bo'lgan dunyo davlatlari orasida tabiiy zahiralari nihoyatda kam davlatlar oz emas (Yaponiya, Shveytsariya, Daniya). Shu vaqtning o'zida tabiiy zahiralarga o'ta boy bir qator mamlakatlar (Rossiya, Braziliya, Argentina) aholi jon boshiga hisoblaganda past daromadlar darajasiga ega. Demak, mamlakat taraqqiyoti mehnat kishisining yaratuvchilik kuchini safarbar etishga ko'p jihatdan bog'liq. Har bir jamiyat a'zosining hissasi evaziga mamlakatning yuksalishi mumkinligi Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy tajribasidan ma'lum.

Uzoq muddatli davrda iqtisodiy yuksalish va insoniy taraqqiyot yo'nalishlari bir-biriga mos kelsa ham, bu aloqa har bir mamlakat uchun davlat siyosatiga bog'liq bo'ladi. Ayrim mamlakatlar puxta o'ylangan davlat siyosati tufayli aholi sog'lig'ini saqlash, ta'lim darajasini oshirish ishida iqtisodiy yuksalishdan olingan samaradan foydalanishda katta yutuqlarga erishmoqda. O'zbekiston hukumati bu yo'nalishdagi ko'pgina dasturlarni e'lon qildi va ularni amalga oshirmoqda. Bu esa mustaqillik sharoitida inson islohotlar uchun emas, islohotlar inson uchun xizmat qilishi, insonning jamiyatga munosabati uning jamiyatda o'z o'rnini topishiga bog'liqligini teran anglashga olib keladi. Demak, inson omili asosida farovon hayotga erishiladi. Bugungi kunda bu ham milliy istiqlol g'oyasida aks etayotgan qadriyatlarimizdan biridir.

8. Yoshlar - erkin va farovon hayot bunyodkorlari

Bunday odamlarning ma'naviy dunyosi juda "mo'rt" va moddiylik asosiga qurilgan. Bir tomonlama, insoniy mohiyatdan yiroq, Vatanidan begona "meni"ga egadir. Har bir inson o'z "meni"ga albatta ega bo'lishi tabiiy holat. Lekin uning "meni" boshqa "insonlar" "meni" bilan, xalqi, millatining "borlig'i" bilan mushtarak holda shakllanadi. Haqiqiy Vatanparvar insonlar o'zining "meni"ni Vatanining taqdiridan, millati, xalqining madaniy qadriyatlaridan, orzu-istaklaridan ayri holda tasavvur eta olmaydi. "Men"ning o'ziga xosligi ana shu milliy ruhiyatga tayansa, unga amal qilib umuminsoniy mohiyat kasb etsagina kishi o'zining haqiqiy "meni"ga ega bo'ladi. Albatta har bir inson uchun Vatandan aziz va mo''tabar, muqaddas makon yo'q. Vatan degani kindik qoni to'kilgan shunchaki joy emas, u undan ko'ra aziz bo'lgan xalqining o'tmishi, buguni va kelajagi hamdir. Shuning uchun ham "Vatan" muqaddas. Vatan uchun har bir inson o'zligini baxshida etsa, Vatan obodligi, ozodligi yo'lida, o'zining farzandlik burchini ado etgan bo'ladi. "Vatan uchun chala ish qilib bo'lmaydi". Vatan uchun chala ish qilish, bu eng katta gunohdir. Yoki, uning uchun hech narsa qilmaslikdir.

Inson yoshlik davrida, uning o'ziga xos baland-parvozli yuqori kayfiyati, shijoatga undaydigan ruhiy quvvatlari mustahkam bo'ladi. Uning Vatan mehri bilan uyg'un bo'lishiga erishish, shuni his etib yashash, kishini Vatanga xizmat qilishga undaydi. Inson Vatanda yashab, undan tashqarida bo'lishi ham, yoki Vatanidan tashqarida bo'lib, o'zining Vatanidan hech qachon ayri holda his etmasligi ham mumkin. Gap, uning qaerda yashashi to'g'risida emas, eng muhimi Vatanga munosabati, Vatan uchun nima qilayotganligidadir. Vatanni o'ylasa, Vatan uchun qayg'ursa, xalqining erkin va farovon hayotga erishishida ozgina bo'lsada, o'zining hissasini qo'sha olsa shuning o'zi haqiqiy Vatanparvarlikdir. Bu Vatanning sharafi, shoni-shuhratini baland tutish, uni qadrlash va qadriga etib, qayg'ura olish bilan bog'liq ma'naviy hodisadir. Bu Vatani bor har bir odamga berilgan ulug' ne'matdan, har bir kishi tiriklik paytida to'g'ri foydalana olishi kerak.

Erkin hayot - bu insonning o'zi ixtiyori, qobuliyatini erkin namoyon etish va eta olishidir. Hayot erkin bo'lgan joyda taraqqiyot bo'ladi. Shunda inson o'z salohiyatini yuzaga chiqara oladi. Uning salohiyati taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi. Erkin hayot insonga qobuliyatini, salohiyatini yuzaga chiqarishga, o'zi sevgan kasb, mehnat faoliyatini erkin tanlash bilan shug'ullanishga va hammaga bir xil imkoniyat yarata olingan hayotdir. Bu farovon hayotga erishishning muhim o'lchovidir. Ana shunday hayotni yaratishni

o’zining oldida maqsad qilib qo’ygan mamlakatda, fuqarolar ozod va obod Vatanga ega bo’ladilar. Bu uning milliy istiqlol g’oyasining bosh g’oyasi ekanligi, shubhasiz chuqur falsafiy ma’no va ahamiyat kasb etadi. “Erkin hayot” degani bu xoxlagan ishni qilish el-xalq, Vatan oldida hech qanday ma’suliyat sezmaslik degani emas. Bu insonlarga o’z kasbini erkin tanlash, o’zining qobuliyatiga mos ishni, birovning ta’siri, ko’rsatmasi bilan emas, o’z xoxish-istagi bilan bajarishi uchun imkoniyat ekanligini bildiradi. Inson uni o’z xalqi, Vataning ravnaqi yo’lida foydalanishni ko’nglida tugib ishlashi lozim. Uning qo’li, aql-zakovati buyuk bunyodkorlik ishlariga yo’naltirilishi muhim. Hayot erkinligi keng ma’no kasb etadi. Uni jamiyat miqyosida ko’rganda: mulk xilma-xilligi, bozor iqtisodi bilan bog’liq erkin raqobat, siyosiy institutlar fikrlar xilma-xilligi ham ijtimoiy hayotning asoslarini erkinlik tamoyiliga qo’yilganligini bildiradi. Erkin hayot degani bu raqobatga kirisha olish imkoniyatidir. O’z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun bahslashish, o’zligini namoyon eta olish, bunyodkorlik yo’lida orzu-maqsadlarga etishish uchun yashash, shunga intilish, xoxish-istak sezishdir.

“Tasdiqlayman”

Falsafa va O’DJQNA kafedrasi
mudiri v.v.b. I.Masharipov
№19 – sonli bayonnoma
30.05.14 y.

Glossariy

Avesto – zardushtiylik dinining muqaddas kitoblari to’plami. Markaziy Osiyo xaqlarining miloddan avvalgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to’g’risidagi tasavvur, urf-odat va ma’naviy qadryatlari haqida ma’lumot beruvchi asosiy manbaa.

Adolat - ijtimoiy ahloqiy va mafkuraviy tushuncha. Millatning ijtimoiy siyosiy hayotida katta rol o’ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning ta’limotlarini o’zida aks ettiradi.

Aksiologiya- qadryatlar haqidagi fan. Jamiyat, inson uchun ahamiyatli bo’lgan barcha narsa, hodisa va voqealar : erkinlik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma’rifat, madaniyat, go’zallik, an’ana, urf-odat, udum qadryat hisoblanadi. Qadryatlar milliy, mintaqaviy, shaxsiy, umuminsoniy bo’lishi mumkin.

An’ana - madaniy tajribaning u yoki bu unsurlarini saqlaydigan, avloddan avlodga o’tadigan, o’tmishdan kelajakka meros qoladigan, jamiyat hayotining turli sohalarida

namoyon bo’ladigan, ijtimoiy jarayonlarning uzviyligini bog’lashga xizmat qiladigan qadryat.

Aqida - dindorlar uchun majburiy hisoblangan shak keltirmasdan, muhokama yuritmasdan e’tiqod qilinishi lozim bo’lgan diniy talablar.

Bilim - borliqning ideal obrazi, ijtimoiy-tarixiy amaliyoti tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan voqelikni bilish jarayonida eoishilgan natijasi.

Vijdon – yaxshilik nimayu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o’z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni anglash. Vijdon shaxsning axloqiy jihatdan o’z-o’zini nazorat qila olish, o’zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda, o’zidan uni ado etishni talab qilish va o’z xatti-harakatlariga baxo berish qobilyatini ifodalaydi.

Geosiyosat – atamasi muayyan bir mamlakat o’rni tabiiy boyliklari, iqlimi va boshqa geografik omillarining davlat tashqi siyosatiga ta’sirini ifodalash uchun ishlatiladi. Geosiyosat tushunchasi shved olimi R.Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan.

Demokratiya – fuqaro erkinligi va tengligi qonunlarda mustaxkamlangan, xalq xokimyatchiligining vosita va shakllari amalda o’rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiyaning asosiy talablari : ko’pchilik xokimiyati, fuqarolar teng xuquqligi, ulur huquq va erkinliklari himoyalanganligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, xokimiyatning bo’linishi, davlat boshlig’i va vakolatli organlarning saylab qo’yilishi.

Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o’rniga, shularning o’z atrofidagi voqelikka va o’z-o’ziga munosabatiga bo’lgan umumiy qarashlar tizimi. Dunyoqarash kishining millati, yoshi, hayot tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog’liq.

Islom - jahonda keng tarqalgan dinlardan biri. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar arabcha muslim deb ataladi. Jahonda qariyb 1,2 mlrd. kishi islomga e’tiqod qiladi. Musulmonlardan 2/3 qismidan ko’prog’i Osiyoda yashaydi va bu qit’a aholisining 20%idan ortiqrog’ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to’g’ri keladi. Dunyoda musulmonlar jamoalari mavjud bo’lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko’pchiligini tashkil qiladi.

Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababi. Manfaat faoliyatni keltirib chiqaribgina qolmay, uning yo’nalishi, vosita va shakllari, maqsadini ham belgilab beradi.

Mafkura – muayyan ijtimoiy gurux, qatlam, millat, xalq, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad-muddaolari ifodalangan g’oyaviy-nazariy qarashlar va ularning amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o’tmishi, bugungi kuni va istiqboli o’z ifodasini topadi. Insoniyat tarixida turli tuman mafkuralar bo’lgan.

Mafkuraviy immunitet- ma’lum bir shaxs yoki ijtimoiy guruxda o’ziga xos bo’lgan qat’iy, barqaror, sog’lom mafkuraviy qarashning shakllanganligi, ma’lum mafkura tamoyillarini ular tomonidan o’z ijtimoiy-siyosiy faoliyati va yashash mezoniga aylantirganligi.

Mafkura evolyutsiyasi - muayyan maqsad va manfaatlarni ifoda etuvchi g’oyaviy-nazariy qarashlar tizimining vujudga kelishi, rivojlanish va intihoga etish jarayonini ifodalovchi tushuncha.

Mafkura yakkahokimligi – muayyan bir davlat, jamiyat yoki ijtimoiy guruh davlatlarda yagona mafkuraning to’la hukmronligini unga xos tamoyillarning o’zgarmas aqidalar tarzida jamiyat hayotida qat’iy va mutlaq tartibda o’rnatilishini ifodalaydigan tushuncha

Mafkuraviy beqarorlik – kishilik jamiyatiga xos muayyan xususiyatlardan biri bo’lib, u mafkuraviy sohadagi tamoyillarning qaror topmaganini, doimiy va muhim bo’lmagani kabi ma’nolarni anglatadi.

Mafkuraviy vaziyat – muayyan mintaqa yoxud mamlakat hayotida mafkuralarning o’rni va mavqei, ular o’rtasidagi munosabatlar bilan bog’liq jarayon va shart-sharoitlar majmui.

Mafkuraviy markazlar – muayyan g’oyani ilgari suruvchi, targ’ibot va tashviqotning turli usul va vositalari orqali odamlar ongi, ruhiyatiga ta’sir etuvchi kishilar uyushmasi, tashkilot yoki muassasalar.

Mafkuraviy maqsad – ijtimoiy qatlam, siyosiy guruh, millat, jamiyat manfaatlari, orzu-intilishlari va xohish-irodasini ifoda etuvchi tushuncha.

Mafkuraviy muammolar – g’oyaviy beqarorlikka chek qo’yish, mafkuraviy bo’shliqni to’ldirish, mafkuraviy taxdidni oldini olish, mafkuraviy immunitet hosil qilish bilan bog’liq masalalar majmui.

Mafkuraviy plyuralizm – ijtimoiy – siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g’oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydigan tushuncha.

Mafkuraviy poligon – odamlar va xalqlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli g’oyalarning sinov maydoni.

Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g’oyaviy-tarbiyaviy, ma’naviy-mafkuraviy ishlar majmui bo’lib, u butun g’oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi.

Mafkuraviy siyosat – muayyan g’oyaviy qarashlar tizimini odamlar ongiga singdirish, zararli ma-naviy-mafkuraviy ta’sirlar, turli ko’rinishdagi tazyiqlarning oldini olishga qaratilgan uslub va vositalar hamda ularni ishlab chiqish, tartibga solish va boshqarish bilan bog’liq faoliyat majmui.

Mafkuraviy tarbiya – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Mafkuraviy xavfsizlik – shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladigan mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning buzg'unchilik ta'siridan himoyalanganlik darajasini tavsiflovchi tushuncha.

Ma'naviyat – insonni ruxan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarini mezoni.

Mentalitet – ayrim kishi va ijtimoiy guruxga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Individual va ijtimoiy ongning ichki qatlamlarida joylashgan bo'lib, muayyan iayyorgarlik, yo'l-yo'riq va moyillik asosida individ yoki ijtimoiy guruxlarning ish tutish usuli, fikr yuritish, dunyoni idrok etish va faxmlashning ma'lum tarzidir.

Millat – uzoq davom etgan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonda, aniq xududiy doirada til va o'zlikni anglash barligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet asosida tarkib topgan ijtimoiy birlik shalki.

Millatlararo totuvlik – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri muayyan hudu, davlatda turli millat vakillarining baxamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi – O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning asrlarida asoslab berilgan bo'lib, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy maqsad – mudaolarini ifodalaydi.

Milliy g'oya – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari etaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini ifodalaydi. Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan qisqa yoki uzoq muddat xal etishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi.

Milliy g'urur – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat. Bu tuyg'u o'z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e'tibori bilan faxrlanish hissiyotidir.
Tasavvuf, sufiylik – islomda insonni ruhiy va ahloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikrlar va taxminlar bildirishgan.

Fuqarolik jamiyati – Konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson

huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'ppartiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini – o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tizim.

Shaxs - alohida individ, mohiyatdan yaxlit ijtimoiy-ahloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadryatini mujassam etadi.

Bunyodkor g'oya – 1) O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jixatdan asoslab berilgan tushuncha; 2) jamiyat va odamlarni, turli gurux va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari etaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda xarakat qilishga undovchi g'oya.

Buyuk davlatchilik shovinizmi – bir davlatning boshqa bir davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va xarbiy xukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot.

Vayrankor (buzg'unchi) g'oya – 1) bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaxolatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha.

Vatan ravnaqi – milliy mafkuraning Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g'oyalaridan biri. Prezidentimiz Vatan ravnaqi g'oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini xar bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi bunyodkorlikka undovchi g'oyadir.

Davlat mafkurasi – muayyan davlatda amal qiladigan, ba'zan rasman belgilab qo'yiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar, mafkuraviy tamoyillar tizimi.

Diniy bag'rikenglik (tolerantlik) – xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida xamkor va xamjixat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishni anglatadi.
Diniy g'oyalar – diniy da'vatlar, aqidalar, iloxiy qadriyat va maqsadlar ifodalangan qarashlar majmui.

Dunyoviy g'oya – 1) muayyan g'oyalarni ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha; 2) jamiyat va insonni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan sog'lom fikrlar majmui.

Istibdod mafkurasi – bosib olingan xalq yoki yurtni turli yo'l va vositalar bilan tutqunlikda saqlab qolishga, unda yashaydigan kishilar tafakkurini qaram qilishga qaratilgan g'oyaviy qarashlar, mafkuraviy usullar tizimi.

Komil inson – milliy mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri. Komil inson g'oyasi va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat tsivilizatsiyasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi.

Kosmopolitizm (grekcha "kosmopolities" – dunyo fuqarosi) – "jaxon davlati" tuzishni va "jaxon fuqaroligi"ni targ'ib qiluvchi ta'limot.

Liberalizm (lotincha “liberalis” – erkinlik) ijtimoiy xayotning barcha soxalarida erkinlik ustuvor bo’lishini, jamiyatning evolyutsion rivojlanish yo’lini e’tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy oqim.

G’oya – inson tafakkurida vujudga keladigan**,** ijtimoiy xarakterga ega bo’lgan ruhiyatga kuchli ta’sir o’tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad va mudao sari etaklaydigan kuchli, teran fikr.

G’oyaviy bo’shliq – muayyan sharoitda jamiyat, undagi toifa va qatlamlarning ongida sodir bo’ladigan g’oyasizlik, mafkuraviy vakuum holati.

G’oyaviy zaiflik - jamiyat, davlat yoki xalqning mafkuraviy masalalarda uyushmagani, ma’naviyatga etarli e’tibor bermagani, tarbiya sohasida o’zi bo’larchilikga yo’l qo’yilgani natijasida sodir bo’ladigan g’oyaviy ojizlik holati.

G’oyaviy ziddiyat – turli manfaat, maqsad va intilishlarni ifodalovchi g’oyalar va ularga tayanadigan kuch va xarakatlar o’rtasidagi qarama-qarshi munosabatni ifodalovchi tushuncha.

G’oyaviy parokandalik – jamiyat, xalq, ijtimoiy qatlamlarining o’z maqsadlarini aniq-ravshan belgilab olmagani, orzu-intilishalari va manfaatlarini ifoda etadigan mafkura yaratmagani sababli ijtimoiy ongda va ma’naviy hayotda yuzaga keladigan g’oyaviy beqarorlik.
G’oyaviy savodsizlik – mafkuraviy jihatdan etarli bilim, malaka, ko’nikmaga ega bo’lmagan insonlarga xos bo’lgan xususiyat.

G’oyaviy tajovuz – muayyan bir jamiyat yoki millat, ijtimoiy qatlam yo guruh ongi va ruhiyatiga tashqaridan o’tkaziladigan mafkuraviy ta’sir, begona va yot maqsad-manfaatlarga xizmat qiladigan g’oyaviy bosqinchilik.

G’oyaviy turg’unlik – muayyan mafkura tizimidagi takomillashish va yangilanish jarayonining to’xtab, mafkuraviy aqidalarning real hayot, amaliyotdan uzilib qolishi.

G’oyaviy qaramlik – millat, jamiyatning o’z manfaatlari va maqsadlariga mos kelmaydigan, unga zid bo’lgan g’oyaviy oqimlarga bog’liqligi, yot va begona g’oyalarga bo’ysunishini xarakterlovyai xolat.

“Tasdiqlayman”

Falsafa va O’DJQNA kafedrasi
mudiri v.v.b. I.Masharipov
№19 – sonli bayonnoma
30.05.14 y.

“Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar”fanidan
REFERAT MAVZULARI

1. «G’oya» va «mafkura» tushunchalarining mazmuni.
2. Bunyodkorlik va vayronkorlik g’oyalari, ularning jamiyat hayotidagi o’rni.
3. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat.
4. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo’lib olishga urinishlar.
5. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar.
6. Milliy mafkurasining mazmuni.
7. «Milliy g’oya» tushunchasi, uning falsafiy mohiyati.
8. Milliy mafkuraning tarixiy va falsafiy ildizlari.
9. Milliy mafkuraning asosiy tamoyillari.
10. Vatan ravnaqi milliy mafkuraning asosiy g’oyalaridan biri.
11. Yurt tinchligi milliy mafkuraning asosiy g’oyalaridan biri.
12. Xalq farovonligi milliy mafkuraning asosiy g’oyalaridan biri.
13. Komil inson milliy mafkuraning asosiy g’oyalaridan biri.
14. Ijtimoiy hamkorlik milliy mafkuraning asosiy g’oyalaridan biri.
15. Millatlararo totuvlik milliy mafkuraning asosiy g’oyalaridan biri.
16. Diniy bag’rikenglik milliy mafkuraning asosiy g’oyalaridan biri.
17. Mafkuraning hayotiyligini ta’minlovchi asosiy omillar.
18. Mafkuraviy imunitet nima va nima uchun u hozirgi kunda zarur?
19. Bozor islohatlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmalarini yaratish-muhim ustuvor vazifa. (I.A.Karimovning “O’zbekistonning 16-yillik mustaqil taraqqiyot yo’li” asari bo’yicha.)
20. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz.
21. Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish mustahkamlash-ustivor vazifa (I.A.Karimovning “O’zbekistonning 16-yillik mustaqil taraqqiyot yo’li” asari bo’yicha.)
22. Nodavlat va jamoat tashkilotlarining fuqorolik jamiyatini shakllantirishdagi o’ðíè hamda ahamiyatini keskin kuchaytirish ustuvor vazifa (I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisqonunchilik palatasining 1-yig’ilishida, Oliy Majlisqonunchilik palatasi va senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasi asosida)
23. Sud-huquq sohasiíè isloh qèëèøíè yanada chuqurlashtirish, sudning konstitutsiyaviy mustaqilligini ta’minlashning mohiyati. (I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisqonunchilik palatasining 1-yig’ilishida, Oliy Majlisqonunchilik palatasi va senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasi asosida)
24. Milliy mafkuraning milliy xususiyatlari.
25. “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” g’oyasining mohiyati. (I.Karimovning “Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir” asari bo’yicha).
26. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi.
27. O’zbekistonda nega hech bir mafkura davlat mafkurasi bo’lmasligi kerak?
28. Milliy mafkuraning umuminsoniy tamoyillari.
29. G’oyaviy immunitet nima va u bugun nima uchun zarur?.
30. Komil insonni tarbiyalashda ma’naviyat va ma’rifatning o’rni va roli. (I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asari bo’yicha).
31. Xalqaro terrorizm bilan kurashni kuchaytirish va uning ahamiyati. (I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisqonunchilik palatasining 1- yig’ilishida, Oliy Majlisqonunchilik palatasi va senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasi asosida)
32. Milliy g’oya millatni millat, xalqni xalq qilguchi G’oyadir. (I.A.Karimovning “Jamiyatimiz mafkurasi – xalqni xalq, millatni milat qilishga xizmat etsin” asari bo’yicha)
33. Maorif tizimini isloh qilish va yangi maorifning milliy modeli. (I.A.Karimovning “Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” asari bo’yicha).
34. O’zbekiston Respublikasida ikki palatali parlamentning shakllanishi, palatalarning tarkibiy tuzilishi. hozirgi Parlamentning oldingi Oliy Majlisdan farqlari.
35. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi o’zgarishlar.
36. Prezident Islom Karimovning «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» nomli ma’ruzasida ilgari surilgan sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish sohasidagi vazifalar.

37. Prezident Islom Karimovning «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» nomli ma’ruzasidagi ilgari surilgan 2005 yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalari.
38. Milliy g’oya va yoshlar (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29 fevraldagi PQ-805 son Qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlar yili” Davlat dasturi.)
39. Ma’naviyat kamolot omili (Karimov I.A. Yuksak m’naviyat engilmas kuch T-2008y).
40. Xozirgi davrda g’oyaviy – mafkuraviy taxdidlar, ularning asosiy yo’nalishlari
41. Jaxon moliyaviy inqirozning mafkuraviy jarayonlarga ta’siri
42. Axborot xafsizligi va biologik xafsizligining mutanosibligi
43. Axborot xafsizligining lokal va global axamiyati
44. Geosiyosiy manfaatlar axborot xafsizligi omili
45. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari tamoyilning ma’naviy yangilanish va tafakur o’zgarishdagi o’rni va axamiyati
46. Milliy g’oya va amaliy xayot
47. Prezident I.Karimovnin “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch “ asarining yangi dunyoqarash va zamonaviy tafakurni shakllanishdagi roli
48.

“Tasdiqlayman”

Falsafa va O’DJQNA kafedrasi
mudiri v.v.b. I.Masharipov
№19 – sonli bayonnoma
30.05.14 y.

Foydalaniladigan o‘quv adabiyotlari ro‘yxati
6.4. Раҳбарий адабиётлар

31. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2012.
32. Давлат тили ҳақида (янги таҳрири). Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Ўзбекистон, 1997. - 22 б.
33. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. - Т.: Шарқ, 1997. - 63 б.
34. Таълим тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Ўзбекистон, 1989. - 30 б.
35. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1- жилд. -

Т.: Ўзбекистон, 1996. - 364 б.
36. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 380 б.
37. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - 366 б.
38. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4- жилд.-Т.:Ўзбекистон, 1996.-349 б.
39. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. 5-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1997. -384 б.
40. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент : Шарқ, 1998. – 31 б.
41. Каримов И.А Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1998. - 429 б.
42. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 1999. - 410 б.
43. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. 8-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2000. - 528 б.
44. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2001. - 432 б.
45. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. 10-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2002. - 432 б.
46. Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11- жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2003. - 320 б.
47. Каримов И.А. Тинчлик ва ҳавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. 12 - жилд. Т.: “Ўзбекистон” 2004.400 б.
48. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч кимга, ҳеч қачон қарам бўлмайди. 13-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2005.-448 б.
49. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва ҳалқимиз ҳаёт даражасини ошириш - барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. 15-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2007.-318 б.
50. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. 16-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2008.-366 б.

51. Каримов И.А. Ватанимизнинг боскичма-боскич ва барқарор ривожланишини таъминлаш - бизнинг олий мақсадимиз. 17-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2009.-280 б.
52. Каримов И.А. Жахон инкирозининг окибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация килиш ва тараккий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари . 18 -жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2010. -280 б.
53. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - 176 б.
54. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иктисодий инкирози, Ўзбекистон шаротида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2009. - 56 б.
55. Каримов И.А. Энг асосий мезон - ҳаёт ҳакикатини акс эттириш. - Т.: Ўзбекистон, 2009. – 24 б.
56. Каримов И.А. Асосий вазифамиз - Ватанимиз тараккиёти ва халкимиз фаровонлигини янада юксалтириш. -Т.: Ўзбекистон, 2010
57. Каримов И.А. Бу мукаддас Ватанда азиздир инсон. -Тошкент: Ўзбекистон, 2010.
58. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябр. - Тошкент: Ўзбекистон, 2010.
59. Каримов И.А. Ўзбекистон мустакилликка эришиш остонасида. - Т.: Ўзбекистон, 2011. -370 б.
60. Каримов И.А. Амалга ошираётган ислоҳотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. - Т.: Ўзбекистон, 2013.

6.5. Дарслик ва ўқув қўлланмалар

44. Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Т.:Ўзбекистон,2000.
45. Назаров Қ. Миллий истиқлол ғоясининг асосий мақсад ва вазифалари. - Т.: Янги аср авлоди, 2001.
46. Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. (ўкув кўлланма). Назаров Қ тарҳирири остида. Т.: Янги аср авлоди, 2002
47. Миллий истиклол ғояси: назария ва амалиёт. -Т.: Ижод дунёси, 2002.
48. Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2004.
49. Миллий истиклол ғояси (Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат боскичи учун дарслик). Эргашев И. таҳрири остида. -Т.: Академия, 2005.
50. Мамашокиров С., Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт курилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. -Т.: Маънавият, 2007.

51. Тўраев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя. -Т.: Маънавият, 2008.
52. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси .- Т.: Академия, 2011.
53. Хасанов Р., Рахимов С., Ибрагимов К., Махмудов К. Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: ТМИ, 2013.
54. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 19 февралдаги ПҚ-2133-сонли қарори билан "Соғлом бола йили" Давлат дастури//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 9-сон, 87-модда), www.lex.uz
55. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 17 январ Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил якунлари 2014 йил режаларига бағишланган йиғилишидаги маърузаси. // "Ўзбекистон овози" газетаси, 18 февраль 2014 йил
56. Амалга ошираётган ислоҳотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдагитмаърузасини ўрганиш бўйича ўқув-услубий қўлланма. Т.: "Ўқитувчи", 2014.

6.6. Қўшимча адабиётлар

66. Маънавият: асосий тушунчалар изохли луғати. Назаров Қ. таҳрири остида. -Т.: Маънавият, 2009.
67. Абилов Ў. Миллий ғоя: маънавий омиллар. Т.: Маънавият, 1999.
68. Бегматов А. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. -Т.: 2000 йил.
69. Гафарли М.М. Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик - тараққиёт омили. -Т.: Ўзбекистон, 2000.
70. Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. -Т.: 2002.
71. Мамашокиров С. ва бошқалар. Ўзбекистонда янги жамият қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. (Ўқув-услубий қўлланма). -Т.: 2004.
72. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Назаров Қ таҳрири остида. -Т.: Академия нашриёти. 2007.
73. Миллий истиқлол ғоясини халқимиз онгига сингдириш омиллари ва воситалари. -Т.: 2002.
74. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. -Т.: 2002.
75. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. (Қисқа изоҳли тажрибавий луғат) -Т.: Янги аср авлоди, 2002.
76. Мустақиллик мафкураси ва Ўзбекистонда демократик жамият қуришнинг иқтисодий, ижтимоий ва маънавий негизлари. -Т.: Университет, 2001.
77. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Хоназаров Қ. таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2000.

78. Мусаев Ф. Демократик жамият қуришнинг фалсафий асослари.-Т.: 2008.
79. Ортиқов М., Усмонов М. Ғоя ва мафкура. -Т. :Янги аср авлоди, 2001.
80. Отамуродов С., Мамашокиров С. Марказий Осиёда мафкуравий жараёнлар.-Т.: 2001.
81. Отамурадов С. Глобаллашув ва миллат. -Т.: 2008.
82. Туйчиев Б. Политическая культура и демократизация общества. -Т.:НУУз, 2010.
83. Фалсафа: қомусий луғат. Назаров Қ. таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2004.
84. Эркаев А. Миллий ғоя ва маънавият. -Т.:Маънавият, 2002.
85. Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият - глобаллашувнинг ғоявий асоси. -Т.:Тафаккур, 2009.
86. Қуронов М. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. -Т.: Академия, 2008.
87. Электрон таълим ресурслари
- www.infoxs.uz - “Халқ сўзи” газетаси
- www.turkistonsarkor.uz. - “Туркистон” газетаси
- www.uzbekistonovozi.uz - “Ўзбекистон овози” газетаси
- www.ma’rifat - inform.uz - “Маърифат” журнали
- www.rzultacademyfreenet.uz. -“Жамият ва бошқарув” журнали
- www.moziydostlink.net - “Мозийдан садо” журнали

“Tasdiqlayman”

_____

Falsafa va O’DJQNA kafedrasi
mudiri v.v.b. I.Masharipov
№19 – sonli bayonnoma
30.05.14 y.

1-Мавзу: “Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанининг предмети, мақсади ва вазифалари.

1. “Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанини ўрганиш сабаблари
2. Фаннинг предмети, объекти, мақсади ва вазифалари
3. Миллий ғоянинг асосий тушунчалари ва қонунлари
4. Миллий ғоянинг асосий тамойиллари ва негизлари
5. Миллий ғоянинг турли хил фикр, ғояларга муносабати, ижтимоий маънавий ҳаётда акс этиши
6. Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар фанининг бошқа фанлар билан алоқадорлиги ва уни ўрганишнинг аҳамияти

1. “Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фанини ўрганиш сабаблари

Инсоният тарихий тараққиётнинг цивилизациялашган даври тажрибаси бирон-бир жамиятнинг эзгу ғояларсиз ва соғлом мафкурасиз ривожлана олмаслигини тасдиқламоқда. Мустақилликка эришган мамлакатимиз раҳбарининг ташаббуси билан ўзбек халқи ҳам ўз олдига озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этиш каби буюк эзгу мақсадларни қўйди. Ана шу эзгу мақсадларни амалга ошириш, мамлакатимизда демократик тамойилларга асосланган жамиятни барпо этишда, бизга ёт ва бегона мафкуралар тажовузига қарши тура оладиган, ҳар томонлама баркамол инсонларни вояга етказиш, ғоявий бўшлиқ бўлишига йўл қўймаслик ва ниҳоят, юртнинг юксак тараққиётини таъминлаш - миллий истиқлол ғоясини шакллантириш эҳтиёжини юзага келтирди.

Мустақиллик туфайли Ўзбекистон халқи ўзининг миллий-маънавий янгиланишда миллий истиқлол ғоясига таянишга алоҳида эътибор берди. Мустабид тузум даврида амал қилиб келинган, халқимизнинг миллий-маънавий руҳиятига тамомила зид бўлган «коммунистик ғоя»дан воз кечилди. Ўзбекистон халқи ўз миллий ғояси негизларига таянган ҳолда ривожланиш йўлини танлади. Унинг ўзига хос сабаблари мавжуд. Улар асосан қуйидагилардан иборат:

Биринчидан, Ўзбекистон халқининг ўз мустақиллигини қўлга киритиши билан узвий боғлиқ. Чунки, мустақиллик туфайли мамлакатимиз халқи ўзига хос ва мос ривожланиш йўлини танлаш ҳуқуқига эга бўлди. Бу эса халқимизнинг тарихан қарор топган миллий-маданий меросларини, қадриятларини, маънавий-руҳий оламини қайта тиклаган ҳолда ўз келажагини кўриш ва қуриш имкониятини берди.

Иккинчидан, «мустабид» тоталитар тузум даврида жамиятнинг ғоявий асоси бўлган ягона коммунистик мафкура мамлакатимиз халқлари, хусусан ўзбек халқи турмуш тарзи, дунёқараши, тарихи, урф-одатлари, анъаналари ва миллий хусусиятларини ҳисобга олмаганлиги ҳамда бизга бегона ва ёт бўлган қадриятларни, мақсадларни сингдиришга уриниб келганлиги туфайли, унинг асоратларидан халос бўлишга бўлган маънавий эҳтиёжнинг мавжудлиги билан боғлиқ эди.

Учинчидан, маълумки ҳар бир халқ, давлат ёхуд жамият бор экан, албатта у мақсадсиз яшай олмайди. У ривожланиш учун маънавий асосларни беглилаб олади. Мақсад эса унинг миллий-маънавий ғояси орқали ўз ифодасини топади. Шу маънода ўзининг мустақил ривожланиш йўлини танлаб олган Ўзбекистонда унга табиий-маънавий эҳтиёж сифатида қараш орқали унинг сабабларини тўғри тушуниш мумкин;

Тўртинчидан, жамият тарихида ғоялар ҳар-хил бўлган. Бир-бирига мақсади билан яқин бўлган ғоялар ҳам айни пайтда бир-бирига тўғри келмайдиган ғоялар ҳам бор. Улар бир-бирига мутлақо тескари бўлган мақсадларга йўналтирилганлиги туфайли жамият ҳаётига турли хил таъсир кўрсатади ва турли хил оқибатларни келтириб чиқаради. Демак, ғоя билан ғоянинг, мақсад билан мақсаднинг, фикр билан фикрнинг фарқини билиш ва англаш учун ҳам миллий истиқлол ғоясини ўрганиш зарур.

Бешинчидан, ғоялар жамиятдаги турли инсонлар, ижтимоий гуруҳлар, қатламлар, халқлар, миллатлар мақсади, орзу интилишлари, ҳаётни идрок этиш кўникма ва малакалари, хулқ-атвор кўринишлари, қадриятлари манфаати билан узвий боғлиқ бўлади. У ёки бу ғоя қайси манфаатни қандай тамойилларга асосланган ҳолда ифода этишига қараб бир-биридан фарқланади. Шунга қараб унинг мақсадига ва қандай ғоя эканлигига баҳо берилади;

Олтинчидан, ғоялар ўз олдига қўйган мақсадининг кўлами билан ҳам бир-биридан фарқланади. У мутлоқликка, ягона тўғри эканлигига даъво қилиши мумкин. Шундай ижтимоий ғоялар борки, у ўз мақсадларини бутун инсониятга, башариятга дахлдорликни унинг онгига, ишонч ва эътиқодига айлантиришни даъво қилади. Ўзига мос жамият ривожланиш моделини қуришни, дунё халқларини «ягона андоза» шаклига олиб киришни мақсад қилиб қўяди. Ўз мақсадларини бошқа халқларнинг миллий хусусиятларини ҳисобга олмасдан, қандай йўл билан бўлмасин унга «синдиришга» урунади. Демак, ундан огоҳ бўлиш учун ҳам, ўз халқи, мамлакатининг тарихини, миллий-маданий меросларини, қадриятларини топтатмаслик, ўзига хосликни йўқотмаслик учун ҳам миллий ғояни ўрганиш, билиш керак бўлади; Еттинчидан, миллий истиқлол ғоясини ўрганишнинг зарурлиги бугунги дунёда мафкура соҳасидаги курашнинг давом этаётганлиги билан ҳам боғлиқ. Инсонлар онги ва қалбини эгаллаш унга таъсир кўрсатиб, ўз мақсад ва муддаоларини бир томонлама амалга оширишга уринишлар тўхтамаётганлигидан ҳам келиб чиқмоқда. Миллий истиқлол ғояси Ўзбекистон халқи ҳаёти, мамлакат олдида қўйган эркин ва фаровон ҳаёт, озод ва обод Ватан қуриш, мақсадларини амалга ошириш учун маънавий-руҳий куч-қувват манбаи ҳисобланади. Халқимизни бирлаштириб турадиган, миллий-маънавий қадриятларимизни тиклаб, унга таянган ҳолда Ўзбекистонда демократик, адолатли фуқаролик жамиятини қуриш учун илмий-назарий асос бўлиб хизмат қилади. Мустақилликни мустаҳкамлаш учун халқимизни бирлаштирадиган, унинг асрий эзгу мақсадлари бўлган «Келажаги буюк давлат»ни барпо этиш ҳар бир шахснинг ҳаётий манфаатларини ўзида мужассам этадиган миллий ғоя ва мафкурани яратиш ижтимоий-сиёсий ва маънавий тараққиётимизнинг муҳим шартига айланмоқда. Миллий истиқлол ғоясини фан сифатида ўрганишнинг сабабларини мамлакатимиз Президенти Ислом Каримов қуйидагича таъкидлаган: «Олдимизга қўйган олижаноб мақсад-муддаоларимизга етиш, эски мафкуравий асоратлардан батамом халос бўлиш, ғоявий бўшлиқ пайдо бўлишига йўл қўймаслик, бегона ва ёт ғояларнинг хуружидан ҳимояланиш, бундай тажовузларга қарши тура оладиган ҳар томонлама баркамол инсонларни вояга етказиш зарурати халқимиз ва жамиятимиз манфаатларига мос янги мафкурани шакллантиришни тақозо этмоқда» [*Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. Т.9. -Т.: «Ўзбекистон», 2001, 221-222 б.*]. Ана шу ҳаётий зарурат миллий истиқлол ғоясининг асосий тушунча ва тамойилларини фан сифатида ўрганишни тақозо этади.

2. Фаннинг предмети, объекти, мақсади ва вазифалари

Миллий истиқлол ғояси ўз - ўзидан инсоннинг онгига, тафаккурига сингиб, ишонч ва эътиқодига айланиб қолмайди. Бунга ҳар бир инсон ўз ҳаёти давомида эришиб боради. Унинг қандай даражада одамларнинг ишонч ва эътиқодидан, турмуш ҳаётидан жой олиши бир қатор омилларга боғлиқ. Демак, унда ҳам муайян қонуниятлар амал қилади. Миллий истиқлол ғоясининг фан сифатида ўқитилиши, унинг ўзига хос предмети, объекти, мақсад ва вазифалари мавжудлигини англатади.Биринчидан, бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар қатори «Миллий истиқлол ғояси» фанининг ҳам муайян билимлар тизими хос бўлганидек, унинг ҳам ўзига хос мавзулари, тушунчалари, қонун ва категориялари мавжуд. Иккинчидан, унинг барча бошқа фанлар қатори ўз предмети, объекти ва мақсад ҳамда вазифалари бор. Аввало, ҳар бир фан олдида қўйиладиган умумий талаблар миллий истиқлол ғоясига ҳам бевосита дахлдор. Айни пайтда миллий ғоянинг жамият, халқ миллий маданияти негизлари асосида шаклланиш, ишонч ва эътиқодга айланиши билан боғлиқ ўзига хос хусусиятлари мавжудлигини ҳам ҳисобга олиш керак. Бунда ҳар бир инсон ёки шахснинг индивидуал

хусусиятлари, унинг ўзига хос дунёқараши, шунга мос тафаккур ва ҳаёт тарзи, миллий онг, ўзлигини англаганлиги даражаси алоҳида ўринга эга. Миллий анъаналарга, тарихи, она тили, маданиятига бўлган муносабатда шаклланган ва мустаҳкамланган қалбдаги руҳияти, эътиқоди, садоқати билан Ватанпарварлик ва миллатпарварлик туйғулари ўзининг ва миллатининг шаъни, қадр-қимматини ҳурмат қилишда намоён бўлади. Шунингдек, ҳар бир инсонда умуминсоний қадриятлар бошқа халқлар ва миллатларнинг маданий ютуқларига ҳам ўзаро манфаатдорлик ҳамда миллий тараққиётида уни мустаҳкамлаш нуқтаи назаридан қараш, баҳолаш кўникмалари, саъй ҳаракатлари орқали ўз ифодасини топади. Ушбу фаннинг предметини миллий маданий мерос ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро муносабати миллий истиқлол ғоясини халқнинг ишонч ва эътиқодига айланиши «ғоя» ва «мафкура» тушунчалари, уларнинг халқлар, миллатлар ва давлатлар тақдирига таъсирини ўрганиш ташкил этади. Миллий истиқлол ғояси фанининг предметини фақат «ғоя ва мафкура» тушунчаларидан иборат деб қабул қилиш ушбу фанни тор доирада тушунишга олиб келади. Бу фаннинг предметини ҳозирги замондаги мафкуравий жараёнлар, унинг маъно-мазмунидаги ўзига хос жиҳатлари таъсир этиш қонуниятлари, маълум бир маконда ва даврда намоён бўлиш хусусиятлари, уни кўп миллатли давлатимиз фуқаролари онги ва қалбига сингдириш йўллари ҳамда услубларини аниқлаш ҳам ташкил этади.

Бу жараён, биринчидан, фан талаблари асосида, муайян андоза, тартиб ва қоидаларга, билим ва тажриба тизимига шунчаки тушавермаслиги билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Унинг ана шундай хусусиятга эга бўлиши миллий истиқлол ғояси кишиларнинг онг ва тафаккури, дунёқараши, мақсад ва интилишлари миллий-маънавий меросга муносабатнинг ишонч ва эътиқодлари орқали жамият ҳаётида намоён бўлиш хусусиятлари билан боғлиқ; Иккинчидан, миллий истиқлол ғоясининг шаклланиши кишилар (халқ, миллат, авлодлар) амалий фаолиятида ҳамда ўзаро муносабатларида ишонч ва эътиқодга айланишининг намоён бўлиши «бир чизиқли», ягона тартиб, меъёрларга осонликча тушавермайди. Айни пайтда фуқаролар, турли ижтимоий гуруҳлар ёки қатламлар, миллат ва элатларни ўзаро муштарак мақсадлар, ғоялар бирлаштириб турмас экан, улар ўртасида ўзаро ҳамжиҳатлик, тотувлик ҳам бўлмайди. Шунинг учун ҳам, миллий истиқлол ғоясининг предмети умуман, ҳар қандай ғояларнинг шаклланиши унинг жамият ҳаётига таъсирини эмас, Ўзбекистоннинг миллий истиқлол ғоясининг шаклланиши, мамлакатда кенг жамоатчиликнинг ишончи ва эътиқодига айланиши унинг миллий-маданий негизларини кенг жамоатчиликнинг онг ва таффакурига, интилишлари, хулқ атвори, кўникмаларига айланиши, ҳамда ижтимоий ҳаёт, меҳнат фаолиятида намоён бўлиш шарт-шароитларини, омилларини, қонуниятларининг, илмий-назарий асосларини ўрганишдир.

Миллий истиқлол ғояси - мустақилликни қўлга киритиш, уни мустаҳкамлаш ва ривожлантириш Ўзбекистоннинг дунё ҳамжамиятида ўзига хос ва мос тарзда ўз нуфузига эга бўлишига ундайдиган, халқни, миллатни жипслаштириб турадиган мақсадлар, манфаатлар мажмуидир.

Миллий истиқлол ғоясини ўрганишнинг объекти аввало, Ўзбекистоннинг ўзига хос табиий, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, миллий-маданий ривожланиш хусусиятларини, қадриятларини ўзида қамраб олади ва унга асосланади. Шунингдек, унинг бунда халқнинг турмуш тарзи, урф-одатлари, тили, маданияти, миллий-маданий мероси, унга одамларнинг муносабати, ишонч ва эътиқодлари, онг ва тафаккури, дунёқараши билан боғлиқ мақсадларини жамият ҳаётида намоён бўлишини таҳлил этиш ҳам муҳимдир. Шунингдек, фаннинг объектини Ўзбекистон танлаган тараққиёт йўли ва миллий ривожланишнинг миллий-маънавий негизлари ва умумбашарий тамойиллар ташкил этади.

Миллий истиқлол ғояси асосан дунё халқлари тажрибаси ва ютуқларини ҳисобга олган ҳолда Ўзбекистоннинг миллий ривожланиш янги йўналиши моделининг миллий-назарий асосларидир. Негаки, Ўзбекистон халқининг ўзига хос шундай миллий-маданий мероси ва қадриятлари мавжудки, мамлакатда яшаётган ҳар бир фуқаро, оила, халқ ва миллат уни ўз ҳаётининг барча жабҳаларидан чуқур ўрин олиши муҳим. Улар орқали шу халқ, миллатнинг «ўзлигини», «борлиғини» бошқа халқлар ёки миллатлардан фарқини англаб олиш мумкин. Шу хусусиятларни сақлаб қолинган ҳолда «Ўзбекистон ўзига хос ва мос тараққиёт йўлидан ривожланиши мумкин». Бунинг учун унинг ўз миллий ғояси жамият ҳаёти соҳалари билан ўзаро уйғунлашмоғи муҳим аҳамиятга эга. Ана шундай ишонч, эътиқод, миллий ғурурланиш, ўзлигини намоён этиш ва қадрлаш туйғулари миллий истиқлол ғоясини халқнинг ишонч ва эътиқодига айланганлигини кўрсатувчи муҳим мезондир. Ана шу ишонч ва эътиқод Ўзбекистон тараққиётининг кафолатидир.

Демак, миллий истиқлол ғоясининг мақсад ва вазифалари умуминсоний қадриятлар устуворлиги тамойилига тўла тўкис мос келиши, демократик эркинликлар ва инсон ҳуқуқларини сақлашга доир халқаро андозаларга ҳамоҳанглиги билан ҳам инсоният тарихидаги кўпгина миллий ғоялардан фарқ қилади.

Тўғри ривожланишга миллий қадриятларга таянмасдан ҳам эришиш мумкин. Ёки биз қадриятларга кўпроқ боғланиб қолмоқдамиз, қадриятларимиз эса бизни тараққиётимизга айрим ҳолларда туртки бериш ўрнида, ҳалақит ҳам қилмоқда дейдиганлар топилади. Бундай қарашлар қайси жиҳати билан тўғри келмайди, ёки уни қабул қилиш қийин деган саволлар доимий равишда мавжуд бўлади.

Тараққиётга эришишнинг турли йўллари мавжуд. Айтилганидек «бирон бир андозани» қабул қилиб ҳам, халқ ёки миллат ўз тараққиётини унга мослаштириши мумкин!

Лекин, халқ ёки миллатнинг миллий тараққиёти йўли тарихий анъаналари ва меросига тўғри келмасдан, бошқа халқнинг тарихий ривожланиш тажрибасини афзал кўрса, унинг ўзлиги қаерда қолади?

Миллий ривожланишида ҳар бир халқ тили, маданий хусусиятларини ҳисобга олиб, қадриятларига бефарқ, лоқайд қараса ва истаган «турмуш тарзи», урф-одат, қадриятларини ўзи учун қабул қилаверса, ўз тараққиёт йўлини йўқотиб қўяди. Бунга мустабид совет даври типик мисолдир. Шунинг учун ҳам ҳар қандай ривожланиш андозасини эмас, ўзига хос ва мос ривожланиш йўлини эътироф этиш миллий истиқлол ғоясига тўғри келади. Шу маънода, миллий истиқлол ғоясини халқимизнинг янги жамият қуриш борасидаги ҳаракат дастури дейиш мумкин. Миллий истиқлол ғоясининг асосий мақсади фуқароларни, кенг жамоатчиликни асосий ғоялари, мақсад ва йўналишлари билан Ўзбекистоннинг тараққиёт йўлининг маъно ва мазмуни, миллий-маданий негизлари, хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, уларда ишонч уйғотиш, уларни адолатли, демократик фуқаролик жамияти қурилиши мақсадларини амалга оширишга уюштиришда маънавий-руҳий рағбатлантиришда намоён бўлади. Миллий истиқлол ғояси фуқароларни ғоявий жиҳатдан тарбиялайди. Ғоя билан ғоянинг, фикр билан фикрнинг, жаҳолатдан маърифатни фарқини англашга, маърифатга ишонч ва эътиқодни мустаҳкамлашга хизмат қилади. Фуқароларда миллий истиқлол ғоясига «зид» бўлган ёт ва бегона, зарарли ғоялардан сақланишга, унга нисбатан фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя, жаҳолатга қарши маърифат билан жавоб бериш, унга нисбатан доимо тайёр бўла олиш «иммунитетини» шакллантиради. Миллий истиқлол ғояси мамлакатнинг олдида турган улуғ, бунёдкорлик ишлари ундан кўзланган асосий мақсад инсонларни эркин ва фаровон ҳаётга эришиш, озод ва обод Ватан қуриш йўлида ҳар бир киши учун ҳаракат йўналиши бўлишга қаратилган. Миллий истиқлол ғояси ҳеч қачон кишиларнинг онги ва дунёқарашини «бошқариш»ни, уларни яна аллақандай «қолипга», «ягона андозага» солишга қаратилган эмас.. У фикрлар, ғоялар хилма-хиллигига асосланади. Эркин фикрни уйғотиш ва фикр эркинлигини кафолатлаб бериш, ўзгалар фикрини тинглаш, эшитиш ва айтишга имконият яратади. Демак, миллий истиқлол ғояси «ягона ғоя»га интилишдан мутлақо бегона бўлганлиги билан ҳам бошқа носоғлом ғоялардан фарқ қилади. Миллий истиқлол ғояси воқеа-ҳодисаларни билиш, таҳлил этиш, баҳо бериш каби илмий, тарбиявий ва амалий вазифаларни ҳам бажаради.

Улардан энг муҳимлари:

- одамларимизда мустақил дунёқараш ва эркин фикрлашни шакллантириш;

- миллий тотувлик, ҳамжиҳатликни истиқболимиз йўлидаги энг катта ғоялардан ҳисобланиши носоғлом маҳаллийчилик, уруғ-аймоқчилик деб аталадиган иллатлардан ҳоли этиш;
- ҳаётга энди қадам қўяётган ёш авлоднинг дунёқарашига янгича маъно ва мазмун бахш этиш орқали унда фаол ҳаётий позицияни, миллий ғояга ишонч ва эътиқодни шакллантириш;
- жамиятимизда соғлом ижтимоий муҳитни яратиш, кишилар онгига Ватан тақдири учун маъсуллик, ягона Ватан туйғусини мустаҳкамлаш;

истибдод даври асоратлари, қуллик ва мутелик кайфиятларининг онгимизда, тафаккуримизда сақланиб қолаётгани сабабларини таҳлил этиш, уларни бартараф этиш йўлларини топиш зарурати билан боғлиқ вазифаларни ҳал этишдан иборатдир. Демак, янгича фикрлайдиган, мутелик туйғусидан холи бўлган ўзлигини англаган, авлод-аждодларини, маданий меросини яхши билган маънавий баркамол авлодни тарбиялаш истиқлол мафкурасининг муҳим вазифасидир.

3.Миллий ғоянинг асосий тушунчалари ва қонунлари

Миллий истиқлол ғояси муайян тушунчаларга асосланади. Улар турли хил бўлиб, жамиятда шаклланган ва мавжуд бўлган фикрлар хилма-хиллиги билан кишиларнинг ўзаро ижтимоий муносабатлари асосида амалий ҳатти-ҳаракати орқали намоён бўлади.

«Миллий ғоя ва истиқлол мафкураси ҳақида гап борар экан, деб таъкидлайди Юртбошимиз, - биз ниҳоятда кенг қамровли, мураккаб, серқирра, инсоният тарихида аниқ ва мукаммал ифодаси, тугал намунаси ҳали-ҳануз яратилмаган тушунчаларни ўзимизга тасаввур қилишимиз керак, деб ўйлайман. Бу тушунчалар Ватан равнақи, юрт тинчлиги, халқ фаровонлигикаби юксак ғояларнинг маъно-мазмунини теран англаб етишга хизмат қилади»*[Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. Т.9. -Т.: «Ўзбекистон», 2001, 221-222 б.]*. Бинобарин, миллий истиқлол ғоясининг асосий тушунчалари ва қонунларини ўрганиш нисбийлик хусусиятига эгадир.

Миллий истиқлол ғоясини ўрганишда қуйидаги тушунчаларни ҳисобга олиш зарур:

- турли жамиятлар, халқлар ҳаёти, миллий-маданий қадриятлари, мақсадлари билан боғлиқ бўлган турли хил маъно-мазмунга эга умумий тушунчалар: «ғоя», «мафкура», «ғоянинг турли хил кўринишлари», «бунёдкор ғоялар» ва «ёвуз, тажаввузкор ғоялар», «миллий ғоялар» ва «умумбашарий ғоялар»;

- жамиятнинг сиёсий ҳаёти, турли хил жамоат бирлашмалари фаолияти билан боғлиқ мақсад ва интилишларни ифода этадиган турли-хил сиёсий мафкуралар кўринишлари;

- Ўзбекистон халқи ҳаёти билан боғлиқ бўлган, уни ўзида акс эттирадиган ва унга хизмат қиладиган «миллий истиқлол ғояси», «миллий истиқлол ғоясининг маънавий негизлари», «миллий ривожланиш ғояси», «миллий истиқлол мафкураси», «миллий истиқлол ғоясининг асосий ғоялари», «миллий истиқлол ғоясининг бош ғояси», «миллий истиқлол ғоясининг умумбашарий тамойиллари» в.б. тушунчалар.

Миллий истиқлол ғояси билан боғлиқ тушунчаларнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки у асосан Ўзбекистон халқи ижтимоий, ҳаёт соҳалари ривожи билан, унинг миллий-маданий мероси, урф-одатлари, қадриятлари, тили, маданияти, тарихи, фалсафаси, диний руҳияти билан узвий боғлиқ. Миллий истиқлол ғояси миллийликни, миллий ривожланиш хусусиятларини эътироф этади ва унга ҳурмат билан қарайди. Миллий истиқлол ғояси «синфийлик», «партиявийлик» тамойилларига асосланмайди. Бошқа мамлакат халқлари ҳаётига ўз ғояларини сингдиришни даъво қилмайди. Бу билан у «коммунистик ғоядан» тубдан фарқ қилади. Миллий истиқлол ғояси Ўзбекистон Республикаси номини олган ўзбек халқи, миллатининг миллий-маданий меросига таянган ҳолда бошқа халқлар маданияти, мақсад ва интилишлари билан ўзаро муштарак тарзда мамлакат равнақининг маънавий-руҳий, фалсафий омили сифатида хизмат қилади.

Миллий истиқлол ғоясини ўрганишни тақоза этадиган умумий ва ўзига хос қонуниятлар мавжуд. Умумий қонуниятлар турли халқлар, мамлакатлар, жамиятлар ҳаётида амал қиладиган умумий асосга эга бўлган ички зарурий боғланишлар бўлиб, у жамият ва мафкуралар (ғоялар) нинг бир-бирлари билан узвий боғлиқлиги қонунидир. Жамият мафкурасиз, мақсадсиз яшай олмайди. Демак, биринчидан мафкура ҳар қандай жамият ҳаётида зарур. Мафкура бўлмаса, одам, жамият, давлат ўз йўлини йўқотиши муқаррар. Иккинчидан, қаердаки мафкуравий бўшлиқ вужудга келса, ўша ерда бегона мафкура ҳукмронлик қилиши ҳам тайин. Буни исботи учун хоҳ тарихдан, хоҳ замонамиздан кўплаб мисоллар келтириш қийин эмас. *[Каримов И.А. Биз* келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. -Т.: «Ўзбекистон», 1999, 84-85 б.] У жамият олдидаги мақсадлар, уни амалга ошириш воситаларидир.

Миллий истиқлол ғоясининг тушунчалари билан бир қаторда унинг намоён бўлиш қонунлари ҳам мавжуд. Булар:

- Турли халқлар, турли жамиятлар мавжуд. Уларнинг мақсадлари ҳам ривожланиш йўллари ҳам турли хил. Яъни ривожланишнинг, ижтимоий тараққиётнинг хилма-хиллиги қонуни орқали намоён бўлади;

- Дунёнинг мафкуравий манзараси турли хил мақсадлар, турли-хил манфаатлар, қарашлар билан боғлиқ ҳолда намоён бўлган ва бўлиб қолмоқда. Бу эзгу ғоялар билан бирга ёвуз ғояларнинг ҳам яшовчанлигини, «дунёда мафкура соҳасида курашнинг» давом этиб келаётганлигининг асосида ётган ўзига хос жиҳатидир. Лекин, ҳар бир халқнинг ўзига хос маънавий руҳияти, мероси, қадриятлари билан боғлиқ ғояси ҳам мавжуд. Уни инкор этиб бўлмайди. Уни англамаслик у билан боғлиқ бўлган турмуш тарзини, маданиятидаги хусусиятларини, тарихини, тилини, миллий-маданий ривожланиш қонуниятларини эътироф этмасликка олиб келади. Бу охир-оқибатда шу халқни ёки мамлакатнинг «ўзлигини» тан олмасликка сабаб бўладиган йўлдир. - Глобаллашув жараёни, унинг миллий ғояда таъсир этиши ҳам ўзига хос умумий қонуниятдир. Бу жараён турли мамлакатлар, халқлар ҳаётида уларнинг бир-бирига боғлиқлигини, ўзаро таъсирини оширади, маънавий, ғоявий ҳаётида акс этмасдан қолмайди. Миллий истиқлол ғояси тўғрисида фикр юритганда, унинг Ўзбекистон жамияти, ўзбек халқи ҳаёти, турмуш тарзи, тарихи, маданияти, миллий-маданий мероси ва қадриятлари билан боғлиқ бўлган, ҳамда миллий ғоясида акс этадиган, ўзига хос қонуниятлари ҳам мавжуд. Бу қонуният миллий истиқлол ғоясининг мазмуни, мақсади ва хусусияти нуқтаи назаридан қараганда алоҳида, устувор аҳамиятга эга. Чунки, бу қонуниятни ҳисобга олиш ўзбек халқининг, миллатнинг келажаги билан ўзлигини сақлаб қолиш ҳамда ўз негизида ривожланишини, дунёда ўзига хос ўринга эга бўлишни эътироф этиш билан боғлиқ. Тарихан ёндошганда бу соҳада «турли ғоялар», «мафкуралар» ана шу муҳим қонуниятларга зид бўлган ҳолатларни ҳам кузатилишини кўрсатади. Ўзбек халқини тилидан, маданиятидан, тарихидан ажратиб қўйишга бўлган уринишлар бунга мисолдир. Чунки, ёт ва бегона ғоялар халқнинг турмуш тарзи, миллий-маданий қадриятларидан ажратиб қўйиш орқали уни заифлаштиришга ва ўз иродасига бўйсиндиришга ҳаракат қилган. Ёт ва бегона ғоялар кириб келиши оқибатида баъзи халқларнинг миллат сифатида ривожига ўзининг салбий таъсирини ўтказган. Шунинг учун ҳам миллий истиқлол ғоясига таяниш ва унга амал қилиш Ўзбекистон халқининг ўзлигини сақлаб қолиш ва ўзига хос ва мос ривожланиш эҳтиёжи сифатида намоён бўлади. Демак, миллий истиқлол ғоясининг қонуниятлари ҳар бир халқ учун миллий ўзига хослигини замон ютуқлари билан боғлашнинг нафақат кафолати, балки ривожланиш стратегияси ҳамдир.

4.Миллий истиқлол ғоясининг асосий тамойиллари ва негизлари.

Миллий истиқлол ғоясининг амал қилиш тамойилларининг ўзига хос тарзда намоён бўлиши жамиятнинг барча жабҳаларида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг ғоявий жиҳатларини белгилаш билан боғлиқ. Шу нуқтаи назардан миллий истиқлол ғоясининг тамойиллари бир-бири билан узвий диалектик алоқадорликда дейиш мумкин. Улар ўз навбатида миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлиги талабларига мос келиши билан узвий боғлиқ. Миллий истиқлол ғоясида инсонпарварлик, инсон қадр-қиммати, шаъни ва ор-номуси, ҳақ-ҳуқуқлари ҳамда манфаатларининг устуворлиги тамойилига таянади. Унда инсоннинг ҳаёти олий қадриятдир. Бу тамойил ўткинчи характерга эга бўлмай, балки

Ўзбекистоннинг демократик ривожланиш истиқболини ўзида мужассам этади. Бунда миллий ғоянинг инсонпарварлик ва демократик тамойиллари инсон ва жамият манфаатлари уйғунлигини белгилаб берувчи таянч нуқта ва жипслаштирувчи омил вазифасини ўтайди. Демак, миллий истиқлол ғояси муҳим икки бир-бири билан боғлиқ негизга таянади. Бу бир томондан, Ўзбекистон халқининг тарихи, турмуш тарзи, урф-одат, анъаналари, маданияти билан боғлиқ миллий-маданий мероси бўлиб, бу унинг асоси, бош негизи, таянчи ҳисобланади. Иккинчиси, дунё халқлари эътироф этиб, фақат эзгуликка, бунёдкорлик ишларига, ўзаро тотувлик ва ҳамжиҳатликка хизмат қилиб келаётган умуминсоний тамойиллардир. Шу маънода миллий истиқлол ғояси умумбашарий қадриятларни эътироф этади. Миллий қадриятларга содиқлик - миллий ғоянинг таянч негизларидан биридир. Бу тамойил Ўзбекистон ҳудудида истиқомат қилаётган ҳар бир фуқаронинг ўз миллий қадриятларини асраб-авайлаш, келажак авлодларга етказиши учун тўла имкониятлар яратилишини ифодалайди. Ўтмишдан қолган буюк маданий бойликларимиз, мумтоз қадриятларни ҳурмат қилиш, уларни ижодий жиҳатдан ўрганиш - бу тамойилнинг асосий жиҳатидир. Лекин у нарсани умумқонуният сифатида ҳисобга олиш керакки, умумбашарий қадриятлар аввало миллий-маънавий негизда шаклланади. Халқ, миллатнинг руҳияти, унинг миллий-маданий мероси орқали унинг ҳаётида, мақсад ва орзуларида, жамият қурилишида ўзининг аниқ ифодасини топади. Ижтимоий тараққиёт натижасида у ёки бу халқларга хос бўлган миллий-маънавий қадриятлардаги умуминсоний моҳияти дунё халқлари ривожи учун умумбашарий қадрият сифатида хизмат қилади. Улар бир-бирини бойитади айни пайтда ўзаро муштаракликка эга эканлиги билан ҳам ажралиб туради.

5.Миллий истиқлол ғоясининг турли хил фикр, ғояларга муносабати, ижтимоий маънавий ҳаётда акс этиши

Миллий истиқлол ғоясининг турли хил фикр, ғояларга муносабати, унинг ижтимоий маънавий ҳаётда акс этиши усулларини англаш учун энг аввало, турли хил ғоя ва мафкура тушунчаларининг мазмун-моҳиятини ўрганмоқ зарур. Маълумки, ҳар қандай тушунча, фикр ва қараш ҳам миллий ғоя бўла олмайди. Чунки, шахсий фикр - ўзига хос қарашдир, ижтимоий фикр эса - воқеликка нисбатан ўзгариш ёки ҳаракатни тақозо этадиган фаол муносабатни ифодалайди. Ғоя ана шу муносабатни ҳаракатга, жараёнга, зарурат туғилганда эса, бутун бир давр тарихига айлантиради.1 Демак, муайян бир ғоя дастлаб бирон-бир кишининг шахсий фикри сифатида пайдо бўлади. Жамият ҳаётида турли хил фикр, ва ғояларнинг ўрни муҳим. Лекин, «ягона фикр»га, «ягона ғоя»га интилиб, ҳукмронлик қилса, у жамият ривожига катта салбий таъсир кўрсатади. Демак, «икки одам айнан бир хилда фикрламайди» ёки турли халқлар, мамлакатлар ҳам айнан бир-бирига ўхшаши, яъни бир хил тарих, тил, маданият, урф-одат, қадриятларга амал қилиш ёки ягона ғоя ёки мақсадни, ривожланиш йўлини андоза сифатида олиши ва фақат унга таяниш мумкин эмас. У тараққиётнинг хилма-хиллиги қонунига тўғри келмайди. Миллий истиқлол ғоясининг ўзига хос жиҳати ҳам шундаки, у фикрлар ва ғоялар хилма-хиллигини тан олади. Жамият мафкураси сифатида бирон-бир фикр, ғояни «мутлоқ ғоя», «охирги, тугал» кўриниш сифатида даъво қилишга асосланмайди. Эркинлик, фикр эркинлиги, фикрлар хилма-хиллиги тамойиллари миллий истиқлол ғояси учун муҳим ўрин тутади ва жамият тараққиётини ривожлантирувчи омил сифатида намоён бўлади. Фикр эркинлиги ва фикрлар, ғоялар хилма-хиллигига асосланиш тараққиётни таъминлаб турувчи, инсон салоҳиятини ошириб турувчи ноёб имкониятдир.

Жаҳон тажрибаси шундан далолат берадики, ўз давлатчилигини қўлга киритиш, миллий ва ижтимоий озодликка эришиш ҳеч қаерда енгил ва осонликча бўлмаган. Мустақилликка эришган ҳар бир мамлакат ўз тараққиёт йўлини излайди, янги жамият барпо этишда ўз андозасини ишлаб чиқишга интилади. Ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий вазият, одамлар ўртасида таркиб топган муносабатлар, уларнинг дунёқараши, жумладан диний эътиқоди, руҳияти ва хулқ-атвор нормалари ҳам шуни тақозо этади. Масалан, дунёда ижтимоий тараққиёт йўлининг турли вариантлари мавжуд. Туркия, Жанубий Корея, Швеция моделлари ва бошқалар бунга мисолдир. Бир қанча мусулмон мамлакатлари ва янги индустриал мамлакатларнинг тажрибаси ҳам шуни кўрсатади. Иккинчи жаҳон урушидан сўнг Оврупо мамлакатлари ва Япония халқ хўжалигини қайта тиклаш ҳам бунинг амалий намунаси бўлди.

Ўзбекистон бошқа давлатлар тараққиёти жараёнида тўпланган ва республика шароитига тадбиқ қилса бўладиган барча ижобий ва мақбул тажрибалардан шак-шубҳасиз самарали фойдаланади. Гап бирон-бир моделни, ҳатто у ижобий натижалар берган тақдирда ҳам, кўр-кўрона кўчириб олиш тўғри эмас. Аксинча, аниқ-равшан воситалар ва усуллар қайси мамлакат учун мўлжалланган бўлса, ўша мамлакатнинг ўзига хос шароитидагина ижобий натижа беради.

Жаҳон ва ўзимизнинг амалиётимиздан олинган барча унумли тажрибани рад этмаган ҳолда *ўз ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий-ҳуқуқий тараққиёт йўлимизни танлаб олиш республиканинг қатъий позициясидир.* Бу - ўтмиш йилларининг хатоларини, давлат тузилишининг шакл ва усулларига нисбатан мавжуд қарашларни идрок этиш натижасидир. Бу - таркиб топган ижтимоий воқеликка берилган реал баҳодир. Бу - Ўзбекистон халқининг ижтимоий тараққиётига, муносиб турмуш шароитига интилишидир.

Шуни алоҳида таъкидлаш зарурки, сохта инқилобий сакрашларсиз, фожиали оқибатларсиз ва кучли ижтимоий ларзаларсиз, эволюцион йўл билан нормал, маданиятли тараққиётга ўтиш - танлаб олинган йўлнинг асосий мазмуни ва моҳиятидир. Одамларнинг онги ва турмушига ўнлаб йиллар мобайнида, кўпинча зўравонлик йўли билан сингдирилган нарсаларни бир зумда ўзгартириш мумкин эмас. Бунинг учун ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги муносабатларнинг кескинлашувига ва уларни бир-бирига қарама-қарши қўйишга барҳам бериш билан жамиятни янгилаш ва ўзгартириш зарурлигига одамларнинг ўзини ишонтириш, ҳаракатга келтирувчи кучларни ва меҳнатнинг рағбатлантирувчи омилларини ўзгартириш мумкин.

Мавжуд ижтимоий-иқтисодий муаммоларнинг кескинлиги, уларнинг ўзига хос хусусияти бу муаммоларни ҳал этишга алоҳида ёндашувни тақозо этади. Турмуш шароити ва тарзининг миллий хусусиятлари, Шарқ маданиятига мансублик ҳам шуни талаб этади.

Ўзбекистоннинг чинакам мустақиллигига эришишдан иборат ўз йўли республикани ривожлантиришнинг миллий истиқлол ғоясига асосланган қуйидаги асосий ўзига хос хусусиятлари ва шарт-шароитларини ҳар томонлама ҳисобга олишга асосланади.

Аввало, у аҳолининг *миллий-тарихий турмуш ва тафаккур тарзидан, халқ анъаналари ва урф-одатларидан келиб чиқади*. Чуқур илдизи ўтмишдаги анъанавий жамоа турмуш тарзига бориб тақаладиган коллективчилик асослари Ўзбекистон халқига тарихан хосдир. Катталарни ҳурмат қилиш, оила ва фарзандлар тўғрисида ғамхўрлик қилиш, очиқ кўнгиллилик, миллатидан қатъи назар одамларга хайрихоҳлик билан муносабатда бўлиш, ўзгалар кулфатига ҳамдард бўлиш ва ўзаро ёрдам туйғуси кишилар ўртасидаги муносабатларнинг меъёри ҳисобланади. Ўзбеклар диёрига, ўз Ватанига меҳр-муҳаббат, меҳнатсеварлик, билимга, устозларга, маърифатпарварларга нисбатан алоҳида ҳурмат-эҳтиром - Ўзбекистон аҳолисига хос фазилатлардир. Одамларнинг турмуш тарзида, руҳиятида, маънавий-ахлоқий қадриятларни шакллантиришда, исломга эътиқод қилувчи халқлар билан яқинлашиш истагида ҳам шу омил намоён бўлади.

Мазкур минтақанинг қадимий тарихи ва маданияти, бунда яшаб ўтган Шарқ мутафаккирлари ва файласуфларининг жаҳон маданиятини ривожлантиришга қўшган ғоят катта ҳиссалари ҳам бу ерда яшаётган одамлар турмушининг барча томонларига сезиларли таъсир ўтказган. Ўтмишдаги алломаларнинг бебаҳо мероси қанчадан-қанча авлодларнинг маънавий-руҳий онгини ва турмуш тарзини шакллантирган эди ва у ҳамон таъсир кўрсатмоқда.

Республикадаги ўзига хос демографик вазият - ғоят муҳим хусусиятлардан биридир. Республикамизда аҳоли ва меҳнат ресурслари ҳар бир юксак суръатлар билан ўсиб бормоқда. Аҳолининг ярмидан кўпроғи қишлоқ жойларда яшайди ва асосан деҳқончилик билан шуғулланади. Аҳоли таркибида 60 фоиздан кўпроғи болалар, ўсмирлар, 25 ёшгача бўлган йигит-қизлар ташкил этади.

Ўз аждодлари қадимдан яшаб келган жойларга боғланганлик, кўчиб юришга мойилликнинг йўқлиги республика аҳолисига хос хусусиятдир.

Республиканинг яна бир хусусияти - *миллий таркибининг ўзига хослигидир*. Этник таркибда туб аҳоли устун мавқени эгаллайди. Шу билан бир вақтда республика ҳудудида ўз маданияти ва анъанасига эга бўлган юздан зиёд миллат вакиллари яшаб турибди. Ўзбекистоннинг миллий-маданий жиҳатдан ғоят ранг-баранглиги миллий ўзлигини англаш ва маънавий қайта тикланишнинг кучайиб бориши билан узвий бирликда жамиятни

янгилаш, уни очиқ жамиятга айлантириш учун қудратли омил бўлиб хизмат қилади ва республиканинг жаҳон ҳамжамиятига қўшилиши учун қулай шароитларни вужудга келтиради.

Кейинги ўн *йиллар мобайнида маълум қадриятларга эга бўлган кишиларнинг муайян ижтимоий онги шаклланганлигини* ҳам эътиборга олмаслик мумкин эмас. Бир томондан, бу ижтимоий тенгликка, кафолатланган меҳнат қилиш ҳуқуқига, ялпи бепул таълим ва тиббий хизматга қатъий тарафдорликка интилишида намоён бўлмоқда. Иккинчи томондан эса, яккаҳокимликдан иборат маъмурий-буйруқбозлик тизими келитирб чиқарган инсонни мулкка эгаликдан ва хўжайинлик туйғусидан бегоналаштирилганлиги, тайёрга айёрлик руҳияти юзага келтирилганлигида кўринади.

Янгиланиш ва ижтимоий тараққиётнинг ўзимиз танлаган йўли -мураккаб жараён бўлиб, республика ижтимоий турмушининг иқтисодий, сиёсий, ижтимоий, маънавий-маданий ва бошқа барча соҳаларини қамраб олади.

Халқ давлат ҳокимиятининг манбаидир. Унинг хоҳиш-иродаси давлат сиёсатини белгилаб беради. Бу сиёсат инсон ва жамиятнинг фаровонлигини, Ўзбекистон барча фуқароларининг муносиб турмушини таъминлашга қаратилган.

Янгиланган жамиятнинг сиёсий ва давлат тузилиши инсонга унинг сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий турмуш тарзини эркин танлаб олишини кафолатлаб берганлиги билан характерланади.

Бу, сиёсий соҳада қуйидагиларни билдиради:

- халқнинг турмуш тажрибасига, республика аҳолисининг миллий ва маданий анъаналарига, барча ижтимоий гуруҳлари ва қатламларининг манфаатларига мос келадиган ҳақиқий демократия принципларини қарор топтириш. Халқ ҳам бевосита, ҳам ўз вакиллари орқали давлат ҳокимиятини амалга оширишда тўлиқ имкониятга эга бўлиши лозимлигини;

- қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимияти ваколатларини ажратиш асосида миллий давлатчиликни барпо этиш. Жамиятнинг сиёсий тизимини, давлат идораларининг тузилмасини тубдан яхшилаш, республика ҳокимияти билан маҳаллий ҳокимиятнинг ваколатлари ва вазифаларини аниқ белгилаб қўйиш, адолатли ва инсонпарвар қонунчиликни вужудга келтириш лозим бўлади.

Кучли ижроия ҳокимияти бўлмаса, ҳатто энг демократик йўл билан қабул қилинган қарорлар ҳам бажарилмаслиги ҳам мумкин. Бу эса қонуний қарорларнинг рўёбга чиқарилишини, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимоя қилинишини, сиёсий ва иқтисодий ислоҳотлар турмушга татбиқ этилишини таъминлайдиган президентлик ҳокимиятини мустаҳкамлаш ва ривожлантиришни тақозо этади;

- барча фуқароларнинг қонун олдидаги ҳуқуқий тенглигини ва қонуннинг устунлигини, жамият манфаатлари ҳимоя қилиниши ва аҳолининг хавфсизлигини кафолатлайдиган ҳуқуқий давлатни барпо этиш. Қонунийлик ва ҳуқуқ-тартибот тантана қилмаса, шахснинг ҳуқуқлари ва эркинликлари, қаттиқ интизом, ички уюшқоқлик ва маъсулият устувор бўлмаса, қонунлар ва анъаналар ҳурмат қилинмаса, ҳуқуқий давлатни тасаввур этиб бўлмайди;

- Ўзбекистонда туғилган, унинг заминида яшаётган ва меҳнат қилаётган ҳар бир киши, миллий мансублигидан ва эътиқодидан қатъи назар, Республикамизнинг тенг ҳуқуқли фуқароси бўлишга муносибдир, деган инсонпарварлик ва ватанпарварлик қоидасини рўёбга чиқариш. Авлод-аждодлари ёки ўзлари ўтмишдаги фожиали воқеалар сабабли хорижга кетиб қолишга мажбур бўлган ўзбеклар ҳам бемалол Республиканинг фуқароси бўлишлари керак. Ўзбекистон ҳудуди ўзбекларнинг миллий давлатчилиги бўлган бирдан-бир ҳудуд эканлигини эътиборга олиб, Республика ўзбеклар қаерда яшамасин, уларнинг ҳаммаси учун маданий ва маънавий марказ бўлиб қолиши лозим;

- озчиликдан иборат миллатларнинг манфаатлари ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларнинг маданияти, тили, миллий урф-одатлари ва анъаналари сақланиши ҳамда ривожланишини кафолатли таъминлаш, давлат тузилмаларининг фаолиятида ва жамоат турмушида фаол қатнашиш;

- бир мафкуранинг, бир дунёқарашнинг яккаҳокимлигидан қатъиян воз кечиш, сиёсий ташкилотлар, мафкуралар ва фикрлар хилма-хиллигини тан олиш. Бирорта ҳам мафкура мутлақ ҳақиқатни билишга даъво қилиши мумкин эмас. Маънавийлик ва

инсонпарварлик, республика ҳудудида яшаётган барча халқларнинг анъаналари ва урф-одатларини, дини, тили ва маданиятини ҳурмат қилиш қоидаларига устуворлик берилиши;

- чинакам демократиянинг зарур ва қонуний таркиби сифатида кўппартиявийликни амалда шакллантириш. Айни вақтда ҳокимиятни зўравонлик билан ўзгартиришни мақсад қилиб қўйган, республиканинг давлат мустақиллигига, ҳудудий яхлитлиги ва хавфсизлигига қарши чиқадиган, миллий ва диний адоватни авж олдирадиган, конституциявий тузумга, халқнинг демократик эркинликлари ва маънавий негизларига тажовуз қиладиган партиялар ва жамоат ҳаракатлари қонундан ташқари бўлиши кераклиги.

Ижтимоий ва маънавий соҳада:

- инсонпарварлик ғояларига содиқлик. Бу ғояларнинг олий мақсади инсон, унинг ҳаёти ва шахсий дахлсизлиги, эркинлиги, шон-шарафи ва қадр-қиммати, яшаш жойини танлаш ҳуқуқи. Ўзбекистоннинг кундалик ҳаётида инсон ҳуқуқларининг Умумий декларациясида мустаҳкамланган меъёрларни изчиллик билан, оғишмай қарор топтириш;

- маънавият ва ахлоқийликни қайта тиклаш. Халқларнинг маданий меросига эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш. Ноёб тарихий ёдгорликларни сақлаш ва таъмирлаш, ўзбек халқи яратган ва миллий бойлик бўлган санъат асарларини излаб топиш ва Ўзбекистонга қайтариш;

- қадимги ва замонавий маданий бойликларни, адабиёт ва санъатни билиш ҳамда кўпайтириш. Халқнинг миллий маданияти ва ўзига хослигини ифода этувчи восита бўлмиш ўзбек тилини ривожлантириш, бу тилнинг давлат мақомини изчил ва тўлиқ рўёбга чиқариш, Республика ҳудудида яшовчи халқларнинг миллий маданиятлари ва тилларига ўзаро ҳурмат билан муносабатда бўлиш;

- ҳурфикрлилик, виждон ва дин эркинлиги қоидаларини қарор топтириш. Бир дунёқарашнинг яккаҳокимлиги янгиланган жамиятга ётдир. Ҳар бир инсон ўз эътиқоди ва динга амал қилиш, ўзининг диний маросимларини бажо келтириш ҳуқуқига эга. Бугунги кунда дин барча иллатлардан, ёлғон ва риёкорликдан покланишга, юксак ахлоқий негизлар ва маънавий фазилатларни қайта тиклашга кўмаклашмоқда. Ислом - ота-боболаримизнинг дини - мусулмонларнинг онги, туриш-турмушининг моҳияти, ҳаётининг ўзидир. Давлат ҳар бир мусулмон учун муқаддас бўлган Маккага ҳаж қилишда зарур ёрдам беради;

- ижтимоий адолат қоидаларини рўёбга чиқариш, аҳолининг энг ночор қатламлари - кексалар, ногиронлар, етим-есирлар, кўп болали оилалар, ўқувчи-ёшларнинг давлат томонидан ижтимоий муҳофазага бўлган кафолатли ҳуқуқларини таъминлаш. Энг тараққий этган мамлакатларда инсонни ижтимоий муҳофаза қилиш тизими кенг қўлланилади, бунга ниҳоятда муҳим аҳамият берилади, бизнинг шароитимизда эса бу - фуқаролар тотувлигини сақлаб қолиш кафолатидир;

- ҳамма учун маъқул сифатли тиббий хизматни таъминлаш, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, чақалоқлар ўлимини камайтириш, одамлар умрини узайтириш бўйича самарали чора-тадбирларни амалга ошириш. Аҳолига юқори малакали тиббий ёрдам олиш шаклларини эркин танлаш имкониятларини яратиш;

- умумий таълим олиш, касбни ва тегишли махсус тайёргарликни ўтишни эркин танлашда барчага баравар ҳуқуқ бериш. Янги демократик таълим концепциясини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш лозим бўлади. Бунда ўзбек халқининг ва республика ҳудудида яшовчи бошқа халқларнинг миллий, тарихий ва маданий анъаналари, маънавий тажрибаси таълим ва тарбия тизимимизга узвий равишда киритилиши зарур;

- ижоднинг барча турларини ривожлантириш, одамларнинг истеъдод ва қобилиятларини намоён этиш учун шарт-шароитларни яратиш, маънавий мулкни ҳимоя қилиш. Кишилар шуни аниқ ва равшан англаб етишлари керакки, маънавий потенциални илдам ривожлантирмай туриб, республиканинг чинакам мустақиллигини ва равнақ топишини таъминлаб бўлмайди.

Фуқаролар тинчлиги ва миллатлараро тотувликни таъминлаш, қонунийлик ва ҳуқуқ-тартиботни қарор топтириш мана шундай сиёсий, давлат ва конституциявий тузумга эришиш калитидир.

Оила – жамиятнинг негизи. Бизнинг давлатимизни ҳам катта бир оила деб тушуниш мумкин ва лозим. Бунда ўзаро ҳурмат ва қаттиқ тартиб бўлмаса, оиланинг барча аҳзолари ўз бурчларини адо этмаса, бир-бирига нисбатан эзгулик билан меҳр-оқибат кўрсатмаса яхши ва муносиб тарзда яшаш мумкин эмас. Оила турмуш ва виждон қонунлари

асосига қурилади, ўзининг кўп асрлик мустаҳкам ва маънавий таянчларига эга бўлади, оилада демократик негизларга асос солинади, одамларнинг талаб-эҳтиёжлари ва қадриятлари шаклланади. Ўзбекларнинг аксарияти ўзининг шахсий фаровонлиги тўғрисида эмас, балки оиласининг, қариндош-уруғлари ва яқин одамларининг, қўшниларининг омон-эсонлиги тўғрисида ғамхўрлик қилишни биринчи ўринга қўяди. Бу эса энг олий даражада маънавий қадрият, инсон қалбининг гавҳаридир.

Мустақил ўзбек давлати - халқимизнинг тарихий ютуғидир. Ўз давлати билан фахрланиш ва фуқароларнинг ватанпарварлиги жаҳондаги кўпгина мамлакатларнинг илғор марраларга чиқиб олишида ёрдам берган. *Мамлакатимиз тупроғида яшаб турган ва ўзини ватанпарвар деб ҳисоблаган* ҳар бир киши унинг яхлитлиги ва бирлигини асраб-авайлаши шарт.

Ҳар бир инсоннинг, айниқса эндигина ҳаётга қадам қўйиб келаётган ёшларнинг онгига шундай фикрни сингдириш керакки, улар ўртага қўйилган мақсадларга эришиш ўзларига боғлиқ эканлигини, яъни бу нарса уларнинг собитқадам ғайрат-шижоатига, тўла-тўкис фидокорлигига ва чексиз меҳнатсеварлигига боғлиқ эканлигини англаб етишлари керак. Худди шу нарса давлатимиз ва халқимиз равнақ топишининг асосий шартидир.

Халқи юз йиллар мобайнида озодликни орзу қилган Ўзбекистон чинакам мустақилликни қўлга киритиб, гуллаб-яшнаши ва фаровонликка эришиши, тараққий этган демократик давлатлар қатори халқаро ҳамжамиятда муносиб ўринни эгаллаши – биз кўзлаётган олий мақсаддир. Бунга Мустақил Ўзбекистоннинг Конституцияси ҳуқуқий кафолат бўлиб хизмат қилади *[Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. –Т.: «Ўзбекистон». 1996й.]*.

6.Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар фанининг бошқа фанлар билан алоқадорлиги ва уни ўрганишнинг аҳамияти

Миллий истиқлол ғоясини фақат шу Фанни ўрганиш асосидагина эгаллаш мумкин деб қараш биртомонлама ва нотўғри тасаввурдир.

Аксинча, миллий истиқлол ғояси билан барча фанлар, хусусан фалсафа, ижтимоий гуманитар, иқтисод, ижтимоий-сиёсий фанлар узвий боғлиқ. Бу фанларнинг қандай ғояга асосланиши, уларни ўқитиш асосида ёшлар онги ва ишончига, қалбига қандай ғоялар сингдирилиши ҳар қандай жамият учун ҳам зарурий шартдир. Айниқса, мустабид тузум даврида бу фанларни ўта мафкуралаштириб, халқлар, мамлакатлар ва миллатлар тақдирига, унинг ривожланиш йўли, миллий-маданий меросига, қадриятларига ҳам «синфий» манфаатлар «коммунистик ғоя» талабларидан келиб чиқиб ёндашилганлигини аниқ ҳисобга олиш керак. Натижада Ўзбекистон халқи ҳаёти, тарихи «ўзга халқлар тарихи»ни ўрганишдан иборат бўлиб қолганди. Ёки миллий маданият, қадриятлар ўрнида «сохта байналмилаллаштирилган», моҳиятан миллийликни эътироф этмайдиган, миллий қадриятлардан бегона «шаклан миллий, мазмунан социалистик» бўлган тамойилга бўйсундирилган эди. Бутун таълим ва тарбия, фан ва илмий муассасалар, маданий-маърифий ишлар, адабиёт ва санъат, ижод учун «социалистик реализм» муҳим мезонга айланган, тўғрироғи айлантирилган эди. Шунга жавоб бериш ва шунга амал қилиниши шарт эди. Бу барча ижтимоий-гуманитар фанларнинг ягона қолипга солинишига «ягона коммунистик ғоя ва мафкура»нинг тарғиботчисига айланишига олиб келди. Оқибатда ижтимоий-сиёсий фанлар «ривожланишдан» «тўхтади». Фанларнинг эркин ривожланмаслиги оқибатида уларнинг самараси тушиб, тескари «натижа» берганлиги маълум.

Бугун миллий истиқлол ғоясининг бошқа фанлар билан муносабати тўғрисида фикр юритилганда аввало уни «коммунистик ғоя тамойилларидан туб фарқини ҳисобга олиш» муҳим аҳамиятга эга. Айни пайтда «фикрлар хилма-хиллиги», «ғоялар хилма хиллиги» тамойилига асосланишни, халқнинг миллий-маданий мероси ва қадриятларига таяниши ҳамда умумбашарий тамойилларни эътироф этиш қоидаси фанларнинг ривожи учун кенг имконият беради. Иккинчидан ҳар бир фан йўналишлари (соҳалари) орқали миллий истиқлол ғояси негизларини билиб олиш мумкин. Масалан, миллий истиқлол ғоясининг тарихий негизларини - тарих орқали, фалсафий жиҳатларини – фалсафа, иқтисодий асосларини - иқтисод, диний асосларини – диншунослик, адабиёт ва санъат билан боғлиқ томонларини ўрганиш орқали миллий ғоя кишиларнинг ишонч ва эътиқодига айланиб

боради. Бошқа фанлар ҳам ўз предмети мақсад ва вазифалари билан шу муштарак мақсадга хизмат қилиши табиий.

Миллий истиқлол ғоясини алоҳида фан сифатида ўрганиш эса унинг ўзига хос хусусиятларини, ишонч ва эътиқодга айланиш билан боғлиқ қонуниятларининг мавжудлигини англатади. Уни алоҳида ўрганиш юқорида қайд этилган фанларнинг бевосита вазифасига кирмайди. Шу маънода, миллий истиқлол ғояси билан боғлиқ бўлган қонуниятларни ўрганиш, унинг ўзига хос жиҳатларини билиш Ўзбекистон халқлари ҳаётида муҳим аҳамиятга эга. У қуйидаги йўналишларда ўзининг аниқ ифодасини топади.

- Миллий истиқлол ғояси Ўзбекистоннинг ҳар бир фуқаросига Ўзбекистон халқлари, ўзбек халқи ҳаёти, маънавий-руҳий, маданий мероси, миллий-маънавий қадриятлари билан яқиндан таништиради, унинг мазмун ва моҳиятини англашга ундайди. Бу уларни миллий-маънавий негизларига таянган ҳолда ривожланиш, уни қадрлаш туйғуларини шакллантиради ва мустаҳкамлайди;

- Миллий истиқлол ғояси тамойилларининг ҳар бир фуқаронинг ишонч ва эътиқодига айланиши, кишиларнинг ҳатти-ҳаракати ва фаолияти орқали уларнинг мамлакат олдида турган мақсадларни биргаликда амалга ошириш учун уларни муштарак мақсадлар атрофида жипслаштиради, маънавий-руҳий куч-қувват беради.

- Ёт, зарарли, бегона ғояларнинг таъсиридан сақлайди, ғоявий иммунитетни оширади. Президентимиз айтганларидек, «фикрга қарши фикр билан, ғояга қарши ғоя билан, жаҳолатга қарши фақат маърифат билан» курашишни талаб этади. Чунки, ўзининг фикри, ғояси бўлмаган одам ёт ва бегона, ёвуз ғояларга қарши кураша олмайди;

- Миллий истиқлол ғоясини ўрганиш орқали инсон турли хил ғоявий таъсирларнинг мақсад ва муддаоларини бир-биридан фарқлай олади. Фуқароларда хусусан ёшларнинг тарихий хотираси, миллий ўзлигини англаши миллий-маънавий қадриятларга бўлган соғлом муҳитни шакллантиради ва уни ҳурмат қилиш руҳида тарбиялайди.

- Миллий истиқлол ғоясини ўрганиш, миллий ғурур, авлодларга муносиб ворислар бўлиш, улар билан фахрланиш ва уларга ўхшаб ўз Ватанининг равнақига муносиб ҳисса қўшиш билан боғлиқдир. Ҳозирги замон илм-фан ютуқларини эгаллаш, фан ва технологияларни ўзлаштиришга даъват этади. Ватанпарварлик туйғуларини оширади. Ўз халқига ва миллатига бўлган садоқатини мустаҳкамлайди. Келажак авлодлар олдидаги маъсулиятни оширади. Ўзбекистонни озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаётга эга бўлган мустақил мамлакат сифатида дунё ҳамжамиятида ўзига хос ўринга ва нуфузга эга бўлиш учун фидойилик билан меҳнат қилишга хизмат қилади.

Мамлакатда фуқаролик жамияти қурилишида унинг аҳамияти доимо ошиб боради. Чунки, дунёда турли хил ғоялар, турли хил мақсадлар мавжуд бўлар экан, миллий истиқлол ғояси тизим сифатида амал қилиши керак. Шунда Ўзбекистон ўзининг тадрижий ривожига эга бўлади. Миллий ғоя ҳаёт ўзгаришлари билан боғлиқ ҳолда доимо янги-янги муаммоларга дуч келиши мумкин. Ҳар бир давр, замон ва макон ўзгаришлари, унга бўлган ишонч ва эътиқод заруратини доимо сақлаб қолади. Фақат уни янги шароитда янгича ёндашув, янгича технологияларни жорий этиш асосидагина одамлар онги ва тафаккури, ишонч ва эътиқоди билан боғлиқ маънавий-руҳий оламининг негизи бўлган миллий истиқлол ғояси узлуксиз равишда мустақилликни мустаҳкамлашга ва ривожлантиришга шарт-шароит яратади.

Мавзуни мустаҳкамлаш учун саволлар:

1. Миллий истиқлол ғояси нимани ўрганади ва унинг асосий мақсади нимадан иборат?
2. Фикр, ғоя, мафкура тушунчаларининг умумийлиги ва фарқлари. Шахс ва жамият.
3. Миллий мафкуранинг асосий мақсади.
4. Миллий истиқлол ғоясининг асосий вазифалари.
5. Миллий истиқлол ғоясининг аҳамияти.
6. Нима учун миллий истиқлол ғоясини фан деб биламиз?

3-мавзу: Жамият тараққиётининг ғоя, мафкуралар билан ўзаро боғлиқлиги.

1. Ғоя тушунчаси ва унинг ижтимоий моҳияти
2. Мафкура тушунчаси ва унинг моҳияти
3. Инсон ва жамият ҳаётининг муайян фикрлар, ғоялар, мафкуралар билан боғлиқлиги
4. Мафкура яккаҳокимлиги тушунчаси ва унинг моҳияти
5. Ғоя ва мафкурани мутлақлаштиришнинг ғайриинсонийлиги
6. Инсон ва жамият ҳаётида ғоя ва мафкураларнинг хилма - хиллиги. Мафкуравий плюрализм
7. Бунёдкор ғоялар ва мафкураларнинг жамият ҳаётидаги ижобий таъсири
8. Вайронкор, ёт ғоя ва мафкураларнинг жамият ҳаётига салбий таъсири
9. Фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя, жаҳолатга қарши маърифат билан курашиш зарурлиги

1.Ғоя тушунчаси ва унинг ижтимоий моҳияти

Ғоя инсон ва жамият тараққиётида асосий ўрин тутади. Инсон ва жамият ҳаётида муҳим ўзгаришларни амалга оширилишида муайян ғоялар таъсир қилади. Жамият тараққиётининг маълум даврларда тезлашуви ёки секинлашуви, жамият ҳаётида ижобий ёки салбий ҳолатларнинг рўй бериши, қандай ғоялар ҳукмронлик қилиши ва у қандай кучлар томонидан, қандай шароитларда, кимларнинг манфаатларига хизмат қилишига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Ғоя тушунчасининг моҳияти нимадан иборат? Инсон ўзининг ақл – заковати, иймон – эътиқоди ва ижодий меҳнати билан бошқа барча тирик жонзотлардан фарқ қилади.Инсон тафаккури воқеликни идрок этиш мобайнида турли фикрлар, қарашлар, ғоялар ва таълимотлар яратади. Демак, биринчидан, ғоя инсон тафаккурининг маҳсулидир.Иккинчидан, ғоя олдин мавжуд бўлмаган ўзида янгиликни ташувчи фикрдир.Учинчидан, олдин ғоя пайдо бўлади, ундан кейин ғоя асосида мафкура, мафкура асосида эса тизим, сиёсат пайдо бўлади.

Илмий-фалсафий адабиётларда «ғоя», «мафкура», «идея» ва «идеология» тушунчалари ишлатилмоқда. Идея ва идеология кўпроқ Ғарб давлатларида ҳамда рус тилидаги манбаларда учрайди. Идея ибораси юнон тилидаги idea сўзидан олинган, идеология учун ўзак бўлиб ҳисобланади ва тушунча ёҳуд фикр маъносини англатади. Идеология (idea- ғоя. Тушунча, iogos – таълимот) атамаси эса ғоялар тўғрисидаги таълимотни англатади ва икки хил маънода ишлатилади.

- ғояларнинг мазмуни, шаклланиши, аҳамияти тўғрисидаги билимларни ифодалайди ва илмий соҳа бўлиб ҳисобланади;

- муайян ғояни амалга ошириш, мақсадга етиш усуллари, воситалари, омиллари тизимини англатади.

Соғлом ва носоғлом, эзгу ҳамда ёвуз бунёдкор ёки бузғунчи ғоялар бўлиши мумкин. Ғояларнинг оддий фикрлардан фарқи яна шундаки, булар гарчи тафаккурда пайдо бўлса-да, кенг жамоатчиликнинг мақсадларини ифода этади. Уларнинг ишончи ва эътиқодига айланиб, эътироф этилганлигини билдиради, инсон (ва жамият) руҳиятига, ҳатто туб қатламларига ҳам сингиб боради. Ғоя шундай қувватга эгаки, у одамнинг ички дунёсигача кириб бориб уни ҳаракатга келтирувчи, мақсад сари етакловчи руҳий – ақлий кучга айланади. Уларни муайян мақсадга йўналтиради, сафарбар этади. Уларни жипслаштиради, ҳамжиҳат ва ҳамкорликка ундайди.

Ғоянинг ижтимоий моҳияти. Ҳар қандай ғоя ижтимоий характерга эга. Муайян ғоялар одатда алоҳида олинган шахс онгида шаклланади. Маълум бир муддатдан кейин эса жамиятнинг турли қатламларига тарқалади, турли элатлар ва миллатлар орасида ёйилади. Мустақил ҳаётга қадам қўйяётган янги авлод жамиятда мавжуд ғоялар таъсирида тарбияланади. Муайян қарашлар ва ғояларни ўз эътиқодига сингдиради, ўз навбатида янги ғояларни яратади ва тарғиб қилади.

Ғоянинг энг муҳим хусусияти – инсонни ва жамиятни мақсад сари етаклайдиган, уларни ҳаракатга кетирадиган, сафарбар этадиган куч эканидадир.

Инсон тафаккурининг маҳсули сифатида ғоя миллий-маданий меросни, умуминсоний қадриятларни, ижтимоий-маънавий ҳаётни, теварак оламни ўрганиш, билиш жараёнида вужудга келади. Ижтимоий онгнинг барча шакллари илм-фан, фалсафа, дин, санъат ва бадиий адабиёт, ахлоқ, сиёсат ва ҳуқуқ - муайян бир ғояларни яратади, уларга

таянади ва уларни ривожлантиради. Мазмуни ва намоён бўлиш шаклига қараб, ғояларни бир қанча турларга ажратиш мумкин:

- Илмий ғоялар; фалсафий ғоялар; диний ғоялар; бадиий ғоялар; ижтимоий – сиёсий ғоялар; миллий ғоялар; умуминсоний ғоялар в.ҳ.

1. *Илмий ғоялар* - фан тараққиётининг самараси, илмий кашфиётларнинг натижаси сифатида пайдо бўладиган, турли фан соҳаларининг асосий тамойиллари устувор қоидаларини ташкил қиладиган илмий фикрлардир.

Фан тараққиёти узлуксиз ва чексиздир. Бу жараёнда амалиётда тасдиқланмаган, эскирган қарашлар янги илмий ғоялар билан ўрин алмашаверади.

2. *Фалсафий ғоялар* ҳар бир фалсафий таълимотнинг асосини ташкил этадиган, олам ва одам тўғрисидаги энг умумий тушунча ва қарашлардир. Улар бизни ўраб турган дунёни билиш жараёнида кишилик жамиятининг тараққиёти мобайнида тўплаган билимларни умумлаштириш, инсон ҳаётининг маъно-мазмуни, унинг бахт-саодати каби масалалар устида мулоҳаза юритиш асосида шаклланади. *[Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.: «Янги аср авлоди». 2001. 27-29 б.]*

Инсоният тарихида турли халқларнинг ақл- заковат соҳиблари, доно файласуф ва илоҳиётчилари турфа хил ғоялар яратганлар.

3. *Диний ғоялар* деб, ҳар бир диний таълимот ва оқимнинг асосини диний иймон-эътиқоднинг негизини ташкил этувчи ақидаларга айтилади. Ибтидоий динлар ҳар бир нарсанинг жонли экани, жоннинг абадийлиги, бут ва санамларнинг, табиий жисм ва ҳодисаларнинг илоҳий қувватга эгалиги тўғрисидаги қарашларга асосланган эди. Масалан, ҳиндларнинг диний тасаввурларига кўра жон кўчиб юради, бу ҳаётда у инсонда бўлса, кейинги ҳаётда бошқа жонзотга ўтиши мумкин. Илоҳларнинг кўплиги ҳақидаги фикрга таянадиган **политеизм** динлари вақти келиб **монотеистик** - яккахудолик ғояси асосидаги динларга ўз ўрнини бўшатиб берган.

Яккахудолик ғояси миллий динларда (масалан, иудаизмда), айниқса жаҳон динлари - христианлик ва исломда ўз ифодасини яққол топган. Хусусан, ислом динида Аллоҳнинг ягоналиги ғояси асосида унинг барча ақидалари, рукнлари, талаб ва мажбуриятлари шаклланган.

4. *Бадиий ғоялар* - адабиёт ва санъат асарининг асосий маъно – мазмунини ташкил этадиган, ундан кўзланган мақсадга хизмат қиладиган етакчи фикрлардир. Улар ҳаётдан олинади, бадиий талқинлар асосида баён этилади, ўқувчида муайян таассурот уйғотади. «Қаҳрамон»ларни севиш, уларга эргашиш ҳоллари ҳам шу асосда рўй беради.

5. *Ижтимоий - сиёсий ғоялар* ҳар бир халқ ва умуман башариятнинг орзу-умидларини, мақсад-муддаоларини ифодалайди, эркин ҳаёт ва адолатли тузумни тараннум этади.

Миллий ғоя - инсон ва жамият ҳаётига маъно-мазмун бахш этадиган, уни эзгу мақсад сари етаклайдиган фикрлар, ғоялар мажмуидир. *Озодлик ва мустақиллик, адолат ва ҳақиқат, тинчликсеварлик ва инсонпарварлик ғоялари шулар* жумласидандир. Асрлар мобайнида бундай буюк, ўлмас ғоялар халқларга куч - қувват ва илҳом бағишлаб, уларни ўз эрки учун курашга сафарбар этиб келган.

Президент Ислом Каримов таъкидлаганидек, миллат тараққиётига, унинг юксалишига хизмат қиладиган, халқларни жипслаштириб, олий мақсадларга сафарбар этадиган ғоялар юксак ғоялардир. Одамлар орасида нифоқ, халқлар ўртасига низо соладиган, кишиларни турли тарафларга ажратиб, адоват қўзғайдиган тубан фикрлар бузғунчи ғояларга мисол бўлади. Аслида бундай қабиҳ ният ва соҳта шиорларни ғоя деб аташ ҳам шартлидир. Қайси ижтимоий бирлик ёки қатлам орасида тарқалган, қандай аҳоли гуруҳлари ёки элат-миллатларни ҳаракатга келтираётганига қараб ҳам ғояларни турларга ажратиш мумкин.

Ғояни моддийлаштирувчи, амалиётга айлантирувчи куч ким эканига қараб, синфий ғоя, миллий ғоя, умумхалқ ғояси, умуминсоний ғоялар ҳам мавжуд бўлиши мумкин. Албатта, муайян бир халқ оммасини маълум бир тарихий шароитда эзгу ҳаракатга ундайдиган ғоя мазмунан умуминсоний бўлиши ҳам ёки тор манфаатларни кўзлайдиган синфий ғоя жамият ва инсон манфаатларига зид, тажоввузкор бўлиши ҳам мумкин.

Эзгу ғоя - инсон тафаккурида вужудга келадиган, муайян фикрларнинг ижтимоий характерга эга бўлган, руҳиятга кучли таъсир ўтказиб, жамият ва одамларни харакатга келтирадиган, уларни бунёдкор мақсад-муддао сари етаклайдиган улуғвор фикрлардир.

2. Мафкура тушунчаси ва унинг моҳияти

Мафкура тушунчаси (арабча «мафкура» назарлар ва эътиқодлар тизими, мажмуи) деган маънони англатади. Мафкура тушунчасини таърифлашда фалсафий адабиётлар ва луғатларда бир қанча фикрлар берилади. Мафкура тушунчасига турли даврларда файласуф олимлар томонидан берилган таърифлар шакл ва мазмун жиҳатидан ҳар хил. Мафкурага жамиятдаги муайян сиёсий, ҳуқуқий, аҳлоқий, диний, бадиий, фалсафий, илмий қарашлар, фикрлар ва ғоялар мажмуидир, - деб таъриф берилади. Уларнинг барчасида жамиятдаги муайян сиёсий, фалсафий, ҳуқуқий, аҳлоқий, диний, бадиий, илмий қарашлар, фикрлар, ғоялар мажмуи сифатида асослаб берилади. Демак, мафкура - муайян ижтимоий гуруҳ ё қатламнинг, миллат ёки давлатнинг, жамиятнинг эҳтиёжларини, мақсад ва интилишларини, ижтимоий-маънавий тамойилларини ифода этадиган ғоялар, уларни амалга ошириш усул ва воситалари тизимидир. Унда манфаатлари ифодаланган куч ва қатламларнинг ўтмиши, бугунги куни ва истиқболи ўз ифодасини топади.

Ҳар қандай назария ёки таълимот бир тизимга солинган ғоялар мажмуидан иборат бўлади. Шу сабабли дунёқарашнинг негизини ва муайян ишонч эътиқоднинг асосини ҳам ғоялар ташкил этади.

Одамлар, ижтимоий синф ва қатламларнинг миллат ва давлатларнинг манфаатлари ва мақсадлари ҳам ғояларда ифода этилади. Ўз олдига қўйган мақсади, қандай жамият қурмоқчи экани, бунга қандай йўллар билан эришмоқчи бўлаётгани ҳақидаги ғоялар тизими ҳар бир миллат, халқ ва жамиятнинг миллий мафкурасининг асосини ташкил этади *[Қаранг: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент. «Янги аср авлоди». 2001. 31-б.]*.

«Ғоя» ва «мафкура» тушунчалари бир-бирига яқин бўлсада, уларни айнанлаштирмаслик керак, нима сабабдан?

Биринчидан, мафкура ғояга нисабатан мазмунан кенгроқ тушунчадир.

Иккинчидан, ҳар қандай мафкурада ижтимоий воқеликни сақлаб қолиш ёки ўзгартиришга қаратилганлик, яъни мақсадлар ботиний эмас, балки зоҳирий таркибда мавжуд бўлишини ва мафкуранинг ўзагини ташкил этишини таъкидлаш, жоиз.

Учинчидан, ҳар қандай ижтимоий ғоя фақат маълум бир мафкуравий қарашлар доирасидагина ўзининг уюштирувчилик ва йўналтирувчилик салоҳиятини, жозибадрлик кучини намоён қила олиши мумкин.

Ўзбекистон халқининг миллий истиқлол мафкураси жамиятни жипслаштиришга, буюк келажак йўлида ҳамжиҳатлик билан ҳаракат қилишга, барпо этилаётган эркин фуқаролик жамиятида ҳар бир юртдошимизнинг ўзига хос ўрни бўлишига эришишга сафабар этади.

Президент Ислом Каримов жамият мафкурасига шундай таъриф берган: «Одамларнинг минг йиллар давомида шаклланган дунёқараши ва менталитетига асосланган, айни вақтда шу халқ, шу миллатнинг келажагини кўзлаган ва унинг дунёдаги ўрнини аниқ - равшан белгилаб беришга хизмат қиладиган, кечаги ва эртанги кун ўртасида ўзига хос кўприк бўлишга қодир ғояни мен жамият мафкураси деб биламан» *[Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни - халқ, миллатни - миллат қилишга хизмат этсин. -Т.: «Ўзбекистон», 1998, 11- бет]* Бинобарин, миллий мафкура ҳар қандай халқни- халқ, миллатни- миллат қиладиган, унинг йўли ва мақсадларини аниқ- равшан чароғон этадиган маёқдир.

Инсоният тарихида турли шаклдаги жуда кўплаб мафкуралар яратилган, хилма-хил ижтимоий-сиёсий кучлар, ўз ғоялари ва таълимотлари орқали, мақсад ва ниятларига етишмоқ учун интилган. Мафкуралар, моҳиятига кўра, фалсафий, дунёвий, диний ва бошқа турли таълимотлар асосида яратилади.

Турли-туман ижтимоий-сиёсий кучлар ўз мафкураларини яратишда сиёсий ғоялар билан бирга, диний оқимлар ва илм-фан ютуқларига таяниши, улардан назарий асос сифатида фойдаланиши мумкин.

Мафкуранинг *фалсафий илдизлари* деганда унинг фалсафа илми хулосаларига асосланиши назарда тутилади. Бунда ҳар бир халқнинг ўзига хос фалсафий мероси, қарашлари, ғоялари уларнинг мақсадларида ўзининг иродасини топади. Шарқ ва Ғарб, дунё фалсафаси бунга мисолдир. Масалан, мазкур мафкуралар Рим империяси парчалангандан кейин ўз давлатчилигига эга бўлган халқларнинг ўзига хос қадриятлари ва менталитети заминида вужудга келган миллий фалсафалар асосида шаклланди. Шу боис ўша даврдаги италян, инглиз, француз, немис фалсафаси ўзи мансуб бўлган жамиятни бирлаштиришга хизмат қилди. Шу билан бирга, бу миллий мактаблар заминида вужудга келган фалсафий таълимотлар, маърифий қарашлар инсоният маданияти хазинасига салмоқли ҳисса бўлиб қўшилди. Жумладан, ҳақиқий миллий хусусиятларга эга бўлган Гегель фалсафаси Австрия – Венгрия империясидан ажралиб, мустақил йўлни тутган Прусс монархиясининг давлат мафкураси даражасига кўтарилган эди.

Мафкуранинг дунёвий илдизлари маърифий дунёга хос сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий муносабатлар, мажмуидан иборатдир. Умумэътироф этилган тамойиллар ва қонун устуворлиги, сиёсий плюрализм, миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенглик каби ғоялар дунёвий жамиятининг асосини ташкил этади. Бундай жамиятда инсоннинг ҳақ-ҳуқуқлари ва эркинликлари, жумладан виждон эркинлиги ҳам қонун йўли билан кафолатланади. Масалан, Ўзбекистонда мустақиллик йилларида диндан жамиятни маънавий янгилашда, ёшларнинг маънавий-ахлоқий тарбиясида фойдаланишга алоҳида эътибор берилмоқда. Диний қадриятлар тикланди Авесто она тилимизда чоп этилди, ислом динининг муқаддас китоби Қуръон, Ҳадислар, Имом Термизий, Имом Бухорий, Баҳоуддин Нақшбанд, Имом Мотуридий, Бурҳониддин Марғиноний, Абдулхолиқ Ғиждувоний, Хўжа Аҳрор Вали юбилейлари ўтказилиб, ёдгорлик мажмуалари тикланди, бой маънавий мероси ўрганилиб, улардан жамиятимиз тараққиёти йўлида кенг фойдаланилмоқда. Ушбу ҳайрли ишлар мамлакатимизда диний мерос ва қадриятлардан оқилона фойдаланилмоқда. Дунёвийлик дегани большевиклар ва ақидапарастлар айтганидек динни инкор қилиш ёки «даҳрийлик» дегани эмас, балки ундаги аҳлоқий ва фалсафий таълимотлардаги эзгу ғоялардан, қадриятлардан ўринли фойдаланиш учун бугунги кунда кенг имконият яратилганига ёрқин мисолдир.

Бу ҳақда Президент И.А.Каримов таъкидлаганидек, «дунёвийлик», айрим ақидапараст кимсаларнинг даъволаридан фарқли ўлароқ, асло даҳрийлик эмас. Биз бундай нотўғри ва ғаразли талқинларга мутлақо қаршимиз» *[Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси - халқ эътиқоди* ва буюк келажакка ишончдир. -Т., «Ўзбекистон», 2000, 26 - бет.].

Дарҳақиқат, яқин ўтмишимизда - даҳрийлик сиёсати ҳукмронлик қилган, диний қарашлар ва қоидалар хурофат деб аталган. Диний ақидапарастлар эса дунёвий илмларни даҳрийлик, худосизлик деб инсонни эътиқодидан айиришга уринди.

Мафкуранинг диний илдизлари - инсон онги ва руҳияти билан узвий боғлиқ экани ва шу боис унинг ғоявий илдизлари диний таълимотларига бориб тақалиши тушунилади. Яъни, кўпгина мафкураларда Авесто, Веда ва Упанишадлар, Инжил ва Қуръон каби китобларда зикр этилган эзгу ғоялар муайян даражада ўз ифодасини топганини кўрамиз.

Дунёвий ва диний қадриятлар бир-бирини бойитиб борган шароитда тараққиёт юксак босқичга кўтарилади. Бунга башарият тарихида ўчмас из қолдирган Имом Бухорий ва Мусо Хоразмий, Имом Мотуридий ва Абу Райҳон Беруний, Имом Ғаззолий ва Абу Наср Форобий сингари буюк заковат соҳиблари ёнма-ён яшаб, фаолият кўрсатган давр ёрқин мисол бўла олади. Илмий кашфиётлар бугунги кунда ҳам мафкура ривожига катта таъсир ўтказади. Замонавий фан ютуқлари, жумладан, космонавтика, бионика, биофизика, кибернетика ахборотлаштириш соҳасидаги оламшумул янгиликлар, клонлаштириш, инсоннинг ген-насл харитасини аниқлаш каби буюк кашфиётлар одамлар тасаввурини кескин ўзгартирмоқда.

Шу сабабли ҳам, илм – фан ва маданият борасидаги ютуқлардан оқилона фойдаланиш учун ҳам жамиятга соғлом ғоя, соғлом мафкура керак.

3.Инсон ва жамият ҳаётининг муайян фикрлар, ғоялар, мафкуралар билан боғлиқлиги

Ҳар қандай жамият ўзига хос ривожланиш йўлини танлар экан, олдига муайян мақсад ва вазифаларни қўяди. Зеро, бу вазифалар жамият, давлат, халқ ва миллат тараққиёти

ижтимоий-иқтисодий, сиёсий маърифий, таълим-тарбия ва мафкуравий жараёнларнинг узвий бирлиги асосида амалга ошади. Инсон ҳеч қачон ташқи дунёдан, ўзини қуршаб олган оламдаги ўзгаришлар, рўй бераётган ҳодисалар, воқеа жараёнлардан ажралиб қолган, уларни ҳис этмаган холда уларнинг таъсирисиз яшай олмайди. Халқлар, миллатлар, ижтимоий - сиёсий кучлар фаолиятида содир бўлган турли мазмундаги ҳодиса ва жараёнлар, айниқса ғоявий ҳамда мафкуравий омиллар одамлар онги, тафаккури ва дунёқарашига таъсир этади.

Ҳаётда мақсади, юксак ғояси, эзгу орзу – интилишлари бўлмаган инсон ва жамият аъзолари табиий эҳтиёжлар доираси билан чегараланиб, маънавий юксакликка эришиши қийин. Айрим ёвуз кучлар таъсир ўтказиш орқали ўз ғаразли ниятларига етиш мақсадида фойдаланишлари мумкин. Шу сабабли барча даврларда инсон ва жамият ўз мақсад муддоаларини ифода этадиган манфаатига зид бўлган зарарли ва бегона ғояларга қарши туради. Ҳар бир халқ, миллат ва жамият ўз манфаатига хизмат қилиб, унинг тараққиётини таъминлашга ёрдам берадиган муайян ғояга эҳтиёж сезади.

Бинобарин, ғоя муайян миллат ва халқнинг мақсад- муддоалари, манфаатлари замирида шаклланади ҳамда такомиллаша боради. Миллий истиқлол ғояси ҳам миллат манфаатларини, халқнинг орзу-истакларини ўзида мужассамлаштиради. У ўзининг ҳаётбахш ғоялари, буюк мақсадлари билан ўз куч ғайрати, ақл-заковати ва ҳатто ҳаётини, буюк ғоялар йўлида бахш этишга тайёр комил инсонларни тарбиялашга хизмат қилади.

Инсоният тарихидан маълумки, ер юзида дастлабки одамзод пайдо бўлиб, унинг уруғ, қабила жамоа ёки халқ сифатида шаклланиши рўй берган дастлабки даврлардаёқ уларни бирлаштириб турадиган умумий ғоя ва мафкурага эҳтиёж туғилган. Президент И.А.Каримов таъкидлаганидек: «Чунки, мафкура - жамиятда яшайдиган одамларнинг ҳаёт мазмунини, уларнинг интилишларини ўзида мужассамлаштиради». Дарҳақиқат, барча даврларда ҳар бир давлат, халқ, инсон ва жамиятнинг ўзига хос ғояси ва мафкураси бўлган. Чунки инсоннинг, жамиятнинг, халқнинг ўз олдига қўйган аниқ мақсади уни амалга оширишда жамият аҳлини бирлаштирадиган, сафарбарликка ундайдиган ғояси ва мафкураси бўлмаса у муқаррар равишда ҳалокатга маҳкум бўлади.

Ғоя ва мафкура инсон ва жамиятнинг ўз олдига қўйган аниқ мақсади бўлиб бусиз жамият ўз йўлини йўқотади. «Мақсад дегани,- деб ёзган эди Президент И.А.Каримов, - халқни, миллатни бирлаштирувчи, йўлга бошловчи бамисоли бир байроқ. Бу байроқ бутун Ўзбекистон халқининг руҳини, ғурур-ифтихорини, керак бўлса қудратини, орзу-интилишларини мужассамлаштирадиган улуғ кучдир. Давлатимизнинг, халқимизнинг, эл-юртимизнинг мақсади ўзининг улуғворлиги, ҳаётийлиги ва ҳаққонийлиги билан ҳаммамизни жалб этадиган бўлмоғи лозим. Токи бу мақсад халқни-халқ, миллатни-миллат қила билсин, қўлимизда енгилмас бир кучга айлансин»*[Каримов И.А. Миллий исстиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка* ишончдир -Т.: «Ўзбекистон», 2000, 6-бет.].

Мафкуранинг ҳаётийлиги одамларнинг, миллатнинг, жамиятнинг миллий манфаатини, орзу-интилишларини қай даражада акс эттиришига, уларнинг турмуш тарзи, дунёқараши, табиатига қанчалик мос бўлиши билан белгиланади. Ҳаёт синовларига бардош берадиган, одамларнинг эзгу мақсад-муддоаларини ифодалайдиган, уларга маънавий-руҳий қувват берадиган мафкурани кўпчилик қабул қилади. Фақат шундай ҳолдагина у кучли руҳий қудратга эга бўлади. Шу сабабли ҳам мафкура барча даврларда жамиятни юксак ва бунёдкор мақсадлар томон бирлаштириб, жамият аҳли ўртасида соғлом муносабатларни шакллантирган. Ҳамда эзгу орзулар, мақсад-муддаоларига эришишда маънавий-руҳий куч-қувват берадиган омил вазифасини бажариб келган. Шунинг учун ҳам ғоя ва мафкура барча инсонлар, халқлар, жамият ва давлат олдида турган муҳим вазифаларни амалга оширишда ёрдам берадиган, турли соҳада фаолият юритадиган жамият аҳлини бирлаштириб, уларни умумий мақсад сари сафарбар этадиган буюк кучдир.

Шу сабабли ҳам инсонлар, халқлар, жамият ҳаётида мафкура муҳим рол ўйнайди. Мафкуранинг ҳаётбахш кучи, аввало инсоннинг жамиятдаги ўрни ва аҳамиятини қандай тушуниши ва уни қандай ижтимоий мақомда тасаввур этишига боғлиқ. Чунки, инсонни ижтимоий ҳаракат ва фаолиятга ундаш ва шу тариқа кўзланган муайян мақсад-вазифаларга эришиш дунёдаги барча эзгу мафкураларнинг маъно-моҳиятини ташкил этади.

Шу сабабли ҳам миллий истиқлол ғоясининг асосий тушунча ва тамойиллари тизимида инсоннинг жамиятдаги ўрни бунёдкор куч сифатида белгиланган. Истиқлолнинг

бош ғояси ҳам, асосий ғоя ва тушунчалари ҳам бунёдкорлик фалсафаси билан йўғрилган. Чунки бунёдкорлик - халқимизнинг энг олижаноб фазилати. Президентимиз таъбири билан айтганда, ўзбек том маънода бунёдкордир, дўпписида сув ташиб бўлса ҳам дарахт кўкартиради. Дарҳақиқат, мустақиллик йилларида мамлакатимизда иқтисодий, ижтимоий, сиёсий-маданий, маънавий соҳаларда амалга оширилаётган ислоҳотлар, эркинлаштириш жараёнлари ва бунёдкорлик ишлари бунга ёрқин мисол бўлади.

4.Мафкура яккаҳокимлиги тушунчаси ва унинг моҳияти

Бу муайян давлат, жамият ёки бир гуруҳ давлатларда ягона мафкуранинг тўла ҳукмронлигини унга хос тамойилларнинг ўзгармас ақидалар тарзида жамият ҳаётида қатъий ва мутлоқ тартибда ўрнатилишини ифодалайди.

Ягона мафкура яккаҳокимлигининг моҳияти шундаки, бунда бирон-бир мафкуравий тизим ягона илмий, энг адолатли, жамиятдаги муайян қатлам манфаатларини ифода этувчи мафкура деб эълон қилинади. Ўзининг моҳияти ёки бирон бир жиҳати билан ундан фарқ қилувчи ғоялар, қарашлар, мафкуралар ёт ва душман мафкуралар сифатида қаралади. Фикрлар, ғоялар хилма-хиллиги инкор этилади.

Оқибатда, миллионлаб кишиларда ягона фикрга мослашиш, мутелик, лоқайдлик, боқимандалик, маҳдудлик, ўзга ғояларга ҳадиксираб қараш руҳияти шаклланади. Жамиятнинг маънавий ривожига, илм-фан равнақига жиддий зарар етказилади. Аслида бундай ягона мафкура яккаҳокимлиги ёвуз ниятларда амалга оширилади, давлат мафкурасига айланади. Ижтимоий ҳаётнинг ривожига салбий таъсир кўрсатади ва жамият ҳаётини, фикрлар эркинлигини бўғади.

5.Ғоя ва мафкурани мутлақлаштиришнинг ғайриинсонийлиги

Тарихдан маълум бўлган мустабид тузумларни қиёсий таҳлил этиш улар амал қилган мафкураларнинг қуйидаги умумий хусусиятларини ҳамда бу ғояни амалга ошириш билан боғлиқ қатор салбий оқибатларини аниқлаш имкониятини беради. Аввало, мустабидчилик мафкуралари ўз давлатларида ижтимоий ва шахсий ҳаётнинг барча соҳаларини тўлиқ қамраб олишга, ягона дунёқараш тизими ҳукмронлигини ўрнатишга интилдилар. Бу мафкуралар буюк ва ёрқин ўтмишни инкор этадилар. Улар жамиятни инқилобий йўл билан ёппасига қайта тузиш зарур ва уни амалга ошириш мумкин, деб исоблайдилар. Ўзларигача бўлган миллий маданий мерос ва қадриятларнинг барчасини ёхуд кўпчилигини бекор қилиб, уларни фақат ўз тамойиллари билан алиштирадилар.

Мустабид давлатларнинг ўзига хос бошқа характерли хусусиятлари жамиятнинг ҳарбийлаштирилиши, «ҳарбий лагер» ёки «қамал қилинган қалъа»дан иборат ғоявий-психологик вазиятни вужудга келтиришдан иборатдир. Бунда мамлакат ичида ҳарбий фанатизм вазияти авж олдирилибгина қолмасдан, шу билан бирга агрессив ташқи сиёсат ҳам амалга оширилди.

Бу сиёсат ҳарбий-ҳудудий ва мафкуравий босқинчилик қилишга, ўзининг мустабидчилик тартибларини кенг миқёсида қарор топтиришга қаратилади.

Лекин, тарихий ҳақиқат шундан иборатки, мустабидчилик мафкураларининг турли андозалари ва уларнинг лойиҳалари асосида яратилган, демократияга қарши тузумларнинг пировард натижада ҳалокатга учраши муқаррар. Шу сабабли яккаҳокимликка интилган, мутлоқ ҳақиқатни даъво қиладиган мафкуранинг истиқболи йўқ. Чунки, у яккаҳокимлик ўрнатиш баробарида ўзини бойитиб борадиган манба - фикрлар ранг-баранглиги ва қарашлар хилма-хиллигидан узилиб қолади. Муайян гуруҳ ёки партия ғоялари ҳукмрон мафкурага айланса, ҳурфикрлик, виждон эркинлиги ва қарашлар хилма-хиллиги чекланади. Мутлоқ ҳақиқатга эгалик даъвоси, мустабидлик тамойилларини кучайтиради.

Масалан, собиқ Иттифоқ даврида ягона коммунизм мафкураси ана шундай ҳолга тушган эди. Унинг асосий ғоялари собиқ шўролар ҳокимияти раҳбарлигида зўрлик билан амалга оширилди. Натижада бу мафкура якка ҳукмрон бўлиб қолган эди. У XX асрнинг 80-йилларида таназзулга юз тутди. 1991 йилда собиқ Иттифоқ тарқалиб кетиши билан узил-кесил инқирозга учради. Бунинг сабаблари нималардан иборат?

Биринчидан, у ўзини инсоният тафаккури эришган энг юксак чўққи, мутлақ ҳақиқат ифодаси деб ҳисоблаб, бошқа мафкураларни тан олмас, улар бизнинг душманимиз, деган ақида асосида муросасизларча иш тутар эди;

Иккинчидан, бу мафкура зўравонликка асосланган бўлиб, «мажбур қиламиз» қабилида иш тутар, унинг ғоялари ҳамма жойда, ҳамма вақт ҳеч истисно ва тўхтовсиз тарғиб қилинар, халқнинг эркин яшаши ва фикр юритишига йўл қўйилмас эди. Кимки бу ғояга қарши чиқса, шафқатсиз жазоланар, бутун давлат механизми ана шу жазони турли шаклларда амалга оширишга қаратилган эди.

Учинчидан, бу мафкура номигагина ижтимоий гуруҳлар мафкураси эди. Аслида собиқ Иттифоқ даврида зиёлилар, деҳқонлар, хизматчилар, қолаверса, «етакчи синф» бўлган ишчиларнинг орасида ҳам мафкурадан норози бўлганлар бор эди. Лекин метин мафкуравий девор ортидан уларнинг овози чиқмас эди;

Тўртинчидан, бу мафкура ҳеч кимга виждон эркинлиги, ўз фикрини очиқ баён этиш,жумладан, хориж фуқаролари билан холисона мулоқатда бўлишга ҳам йўл қўймас эди. Борди-ю кимдир шунга журъат этса, «халқ душмани», «буржуазия малайи»га айланар эди;

Бешинчидан, у миллийликдан бутунлай холи эди. Унда мавҳум байналмилаллик зўр бериб куйланарди. Кимки миллий қадриятлар тўғрисида гап очса, дарҳол «миллатчи»га чиқариб қўйиларди. Миллий тафаккурга эга бўлган шахс, мутахассис, зиёли, олим, бошқалар «қолоқ», «шубҳали киши» ҳисоланарди;

Олтинчидан, унда миллий тарих, хусусан, Ўзбекистон тарихи унинг ўтмиши мероси мутлоқ тан олинмас эди. Нари борса, улар кўпинча умумий тарзда қайд этиларди, холос;

Еттинчидан, халқларнинг динига, диний меросига, диний қадриятларига нисбатан мутлақо нотўғри муносабат ўрнатилган эди. Жумладан, халқимизнинг улуғ сиймолари Имом Бухорий, Имом Термизий, Аҳмад Яссавий, Нажмиддин Кубро, Баҳоуддин Нақшбанд, Маҳмуд Замаҳшарий, Имом Мотуридий, Сўфи Оллоёр каби алломаларнинг бой илмий меросини ўрганиш, улардан фойдаланиш тақиқланган эди;

Буларнинг барчаси большевистик - ягона коммунистик мафкуранинг тараққиёт талабларига мутлақо зид эканини яққол намоён этди. Шу боис у янги замонавий талабларга дош беролмай, ўз давлати билан бирга тарихга айланди.

Ягона мафкура ҳукмронлигини даъво қилиб, узоқ ўтмишга қайтишга чақирувчи ислом фундаментализми гўёки бундан мустаснодек туюлади. Бироқ, аслида бунда ҳам ўша андоза сақланиб қолади. Яъни, ислом фундаментализми тарих ғилдирагини ўрта аср жаҳолати даврига қайтариш ниқоби остида, бирхиллаштирган мустабид «келажак»нинг ўзига хос андозасини таклиф этадики, унда инсон фуқаролик ҳуқуқларидан тўлиқ маҳрум қилинади, ҳақиқатдан диний ақидапарастлик террорига дучор этилади.

Ягона мафкура ҳукумронлигининг жамият ҳаётида зарарли оқибатлари:

Шахс эркинлиги ва фикрлар хилма-хиллигига муросасизлик, миллатнинг ўзлигини инкор этиш, миллий ва диний қадриятларни рад этиш, миллийликни чеклаш, мутлоқ ҳақиқатни даъво қилиш, зўравонликка асосланганлиги, мутелик, қарамлик, боқимандалик, лоқайдлик, миллий маҳдудлик, сиёсий ташаббуссизлик, ўзга ғояларга ётқараш, жамиятнинг маънавий инқирози, тарихий хотирасизлик, она тилига писандсизлик билан қарашда яққол намоён бўлади.

Мустақиллик туфайли олдимизга қўйган олийжаноб мақсад-муддаоларимизга етиш, эски мафкуравий асоратлардан батамом халос бўлиш, ғоявий бўшлиқ пайдо бўлишига йўл қўймаслик, бегона ва ёт ғояларнинг хуружидан ҳимояланиш, бундай тажовузларга қарши тура оладиган ҳар томонлама баркамол инсонларни вояга етказиш зарурияти халқимиз ва жамиятимиз манфаатларига мос миллий истиқлол ғоясини шакллантиришни ва мустаҳкамлашни тақозо этади.

Маълумки, биз ўз миллий табиатимиз ва минг йиллик анъаналаримизга, урф-одатларимизга зид бўлган сохта коммунистик ғоялардан воз кечдик. Лекин мафкура дунёсида бўшлиққа йўл қўйиб бўлмаслиги, шундай ҳолат юз берган тақдирда бўш қолган мафкура майдонидан бизга бегона, орзу-интилишларимизга мутлоқ ёт ғоялар ўрин эгаллашга уриниши шубҳасиз. Табиатда бўшлиқ (вакуум) бўлмаганидек, жамиятда ҳам бўшлиқ бўлмайди. Маълум даврда олдинги фикр ўзгариши билан ўрнини янги фикр

эгаллайди, ғоянинг ўрнини ҳам бошқа ғоя эгаллайди, шу сабабли жамиятда ҳам инсон онги ва қалбида ҳам бўшлиқ бўлмайди.

Ҳозирги пайтда рўй бераётган айрим салбий ҳолатлар, ножўя ҳатти-ҳаракатлар, ёвуз ишлар, аввало, мафкуравий бўшлиқнинг юзага келиши учун йўл қўйилган камчилик ва эътиборсизлик туфайли содир бўлмоқда. Ғоявий бўшлиқни юзага келиши энг аввало чуқур ижтимоий-сиёсий, маънавий-психологик муаммо ва жараёнлар билан боғлиқ. Одатда, янги ғоялар турли таъсир кучига эга бўлади. Айрим гуруҳлар уларни тез қабул қилади, баъзи тоифаларнинг аввалиги мафкуравий ақидалардан юз ўгириши ва янги ғояларни қабул қилиши эса қийин кечади. Ғоявий бўшлиқ пойдо бўлишининг яна бир манбайи - жамиятда бу соҳадаги тарбиянинг етарли эмаслиги, мафкуравий жараёнларнинг ўз ҳолича ташлаб қўйилганлиги ҳам бўлиши мумкин. Агар давлат ёки миллат, ижтимоий гуруҳ ёҳуд қатлам ўз манфаатларини, мақсад-муддаоларини аниқ-равшан ифода этадиган ўз ғояларини кишилар, айниқса, ёш авлод онгига мунтазам сингдирмаса, ғоявий бўшлиқ пайдо бўлиши мумкин. Бундай шароитда ишонч-эътиқод сусайиб, мафкуравий таҳдидлар кучаяди. Ўз мустаҳкам ғояси йўқ, эътиқоди бўш одамлар эса, таъсирга тез берилувчан бўлади, ўз йўлини йўқотиб қўяди, бундай ҳол жамиятга жуда катта зарар етказади.

Собиқ мустабид тузум ўрнида янги мустақил давлатлар шаклланди. Ҳукмрон ягона мафкура барҳам топгач, унинг ҳудудида маълум муддат ғоявий-мафкуравий бўшлиқ (вакуум) ҳолати вужудга келди. Маълумки, умрини ўтаб бўлган ғоя, мафкура тараққиёт нуқтаи назаридан инкор этилар экан, жамиятда янги бир ғоя, илғор бир фикрнинг шаклланишига эҳтиёж сезилади. Бу зарурият теран англаб етилмаган ҳолда эса ғоявий вакуум - бўшлиқ юзага келади. Лекин, мафкура соҳасида бўшлиққа йўл қўйиб бўлмайди.

Хўш, аслида ғоявий бўшлиқ нима? Ғоявий бўшлиқ эски мустабид тузумдан янги тузумга ўтиш жараёнида олдин ҳукмронлик қилиб келган мафкура ўз мавқеини йўқотгач, тараққиёт талабларига мос равишда унинг ўрнини босадиган илғор ғоявий тизимнинг ҳали тўлиқ шаклланмаган ҳолатидир. Бундай шароитда турли хил мафкуралар ушбу ҳудудга ўз таъсир доирасини ўтказишга уринади.

1990 йилларнинг бошларида бундай мафкуравий бўшлиқ Ўзбекистон ҳудудида ҳам намоён бўлди. Унинг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилардан иборат.

- Ҳукмрон, яккаҳоким коммунистик мафкура таназзулга юз тутди ва ўрни бўшаб қолди;

- Ўзбекистон мустақил давлат сифатида қарор топган бўлса-да, унинг мафкураси ҳали тўла-тўкис шаклланмаган ва барча фуқаролар онгига сингиб улгурмаган эди. Тўғри, мустақиллик мафкураси ғоялари мамлакатимиз фуқароларининг маълум қисми онги, дунёқарашида ўз ўрнига эга бўлиб, Президент Ислом Каримов асарларида исботланган бўлса-да, аммо у ҳали тўла ҳолда барчанинг мустақил дунёқарашига, мустаҳкам ишонч ва эътиқодига айланмаган эди;

- Ўтиш даврида жамиятнинг ижтимоий ҳаёти соҳаларида фикрлар ва мафкуралар хилма-хиллигига ўтилди. Миллий маданий мерос ва қадриятларга, миллий истиқлол ғоясига бўлган ишонч ва эътиқодни эътироф этилиши муҳим бурилиш бўлди. Ўтиш даврида, янгича қарашлар мустаҳкам эътиқодига айланиб улгурмаган пайтда ташқи мафкуравий таъсирларнинг яхши ёки ёмон, фойдали ёки зарарли эканини ҳамма ҳам фарқлай ололмади. Ўзбекистондаги мафкура майдонига бегона, халқимизнинг орзу-интилишларига мутлақо ёт ғояларнинг ҳужуми ана шу билан боғлиқ геосиёсий, мафкуравий мақсадлар билан ҳам изоҳланади; масалан, мустақил мамлакатимиз тинч-осойишта яшаётган бир пайтда Афғонистон ва бошқа яқин ҳудудларидаги беқарор вазиятдан фойдаланиб, уларнинг ҳудудига ин қуриб олган баъзи бир экстремистик кучлар, террорчи тўдалар ўз жиноятқорона мақсадларини амалга оширишга, Марказий Осиё минтақасини мафкуравий курашлар майдонига айлантиришга урина бошлаган эди.

Ғоявий бўшлиқ мамлакат хавфсизлиги ва фуқаролар осойишталигига жиддий хавф солади. Чунки, ғоявий бўшлиқ, ғоявий заифликка, мафкуравий беқарорлик ва ғоявий парокандаликка олиб келади. Ғоявий парокандалик миллатнинг бирдамлигига, давлатнинг қудратига путр етказади, натижада давлатлар ва халқлар қарамликка, иқтисодий ва мафкуравий исканжага тушиб қоладилар, таназзул ва тушкунликка йўлиқадилар. Масалан, Чингизхон юртимизга бостириб келганда Муҳаммад Хоразм Шоҳ бошчилигидаги давлат қудрати ва лашкарларнинг сони жиҳатидан Чингизхондан бир неча баробар устун эди.

Лекин ғоявий барқарорлик Ватан мустақиллигини сақлаб қолиш учун бирдамлик йўқлиги, халқни умумий душманга қарши бирлашишга сафарбар этмагани сабабли парокандаликка олиб келди ва халқимиз асоратга тушиб қолди. Худди шунингдек Чор Россияси истилоси даврида ҳам кам сонли рус аскарларига қарши Бухоро Амирлиги, Хива ва Қўқон хонликларининг бир-бирлари билан келишмовчиликлари умумий душманга қарши кучларни бирлаштириш ғояси ўрнига, аксинча ўзларича бўлиниб қарши туришлари, тарқоқликлари охири оқибатда ҳалқни бирлаштириб, курашга сафарбар этмагани ўлкамизнинг қарамлик чангалига тушиб қолишига сабаб бўлди. Жамиятдаги барча қатлам ва гуруҳларни, халқни умумий мақсадлар ва туб манфаатлар йўлида бирлаштирадиган жамият мафкурасигина ғоявий заифлик, парокандаликка барҳам беради. Шунинг учун ўз келажагини ўйлаган ҳар бир давлат ва жамият ғоявий бўшлиқ ва мафкуравий парокандаликка йўл қўймаслик, эскирган ақидалар ва бегона қарашларни инкор этиш билан бирга, илғор фикрлар, улуғвор мақсад ва эзгу ғояларни одамлар онги ва қалбига сингдиришга ҳаракат қилади.

6.Инсон ва жамият ҳаётида ғоя ва мафкураларнинг хилма - хиллиги. Мафкуравий плюрализм

Мафкуравий плюрализм (лот. Pluralis-хилма-хиллик, ранг-баранглик) - ижтимоий-сиёсий ҳаётда турли қатлам,партия, гуруҳлар манфаатларини ифода этувчи ғоявий ранг-барангликни, қарашлар ва фикрлар хилма-хиллигини ифодалайди.

Инсон ва жамият ҳаётида ғоялар ва мафкуралар хилма-хиллигига амал қилиш - табиий, ижтимоий-маънавий эҳтиёждир.

Жамиятда ғоя ва мафкуралар хилма-хиллигининг сабаби, инсонларнинг турли хил фикр юритишлари, жамият аъзолари ҳар бирининг табиат-жамият ҳодисалари, олам ва одам тўғрисидаги фикрлари турличалиги билан характерланади. Шунингдек, ҳар бир инсоннинг, жамоанинг, ижтимоий қатлам, халқ ва миллатнинг, ижтимоий гуруҳларнинг ўзига хос фикрлари ва шу асосдаги ғоялари мавжуд бўлади. Уларнинг мақсад-муддаолари орзу истаклари, манфаатлари ҳам турличадир. Демак, уларнинг мақсад ва манфаатларини акс эттирадиган, уларга маънавий-руҳий куч бағишлайдиган ғоялари ва уларни амалга ошириш йўллари ҳам хилма-хил бўлиши табиийдир.

Жамиятда фикрлар хилма-хил ва ранг-баранг бўлиб, бир-биридан фарқ қилади. Қандай мақсадга қаратилгани ва йўналтирилганига қараб ҳам улар бир-биридан фарқланади. Эзгулик, яратувчилик, бунёдкорлик, ҳамкорлик, озодлик, эркинликка қаратилган фикрлар мамлакатда осойишталик халқлар ўртасида тотувлик барқарорликка хизмат қилади. Улар мамалакат тараққиётида муҳим ўрин тутади. Эзгулик ва яратувчиликни тарғиб қилувчи фикрлар эзгу ва бунёдкор ғояларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлади. Масалан, Зардушт таълимотидаги эзгулик ва яратувчиликни тарғиб қилувчи фикрлар асосида эзгулик ва бунёдкорлик ғоялари вужудга келган. Амир Темурнинг пароканда бўлган халқни бирлаштириш ва шу асосда Марказлашган давлат тузиш тўғрисидаги фикрлари негизида мамлакат ободлиги, халқ осойишталиги тўғрисидаги бунёдкорлик ғоялари пайдо бўлди. Фикрлар хилма-хиллиги, бир-биридан фарқ қилиш туфайли эзгу фикрларга зид бўлган бузғунчи, ёвуз ёки зарарли фикрлар ҳам мавжуд бўлади. Бузғунчи ва ёвуз фикрлар вайронкорликни, жаҳолатни, урушни тарғиб қилади. Бузғунчи фикрлар ижтимоийлашиб жамиятдаги муайян гуруҳлар, қатламлар онгига таъсир қилиб уларнинг ёвуз манфаатларини ифодалайдиган ғояга айланиши жамиятда беқарорлик муҳитини вужудга келтириб одамлар бошига катта кулфатларни, бахтсизликларни келтириб чиқариши мумкин. Масалан, ақидапарастлик, агрессив миллатчилик, буюк давлатчилик шовинизми, экстремизм, халқаро терроризм бунга мисолдир.

Жамиятда фикрлар хилма-хил бўлгани ва бир-биридан фарқ қилганидек ғоялар ҳам турли туман бўлиб, моҳиятига, ўз ўз олдига қўйган мақсади ва қайси ижтимоий гуруҳларнинг манфаатига хизмат қилишига қараб бир-биридан фарқ қилади. Ғоя билан ғоянинг бир-бирига ўхшамаслиги ва улар ўртасида фарқ бўлишини табиий жараён деб қараш керак. Қайси ижтимоий қатламнинг мақсадини ифодалаши ва кимларнинг манфаатига хизмат қилишига, қандай йўналишга эгалигига кўра ҳам ғоялар ранг-баранг бўлиши мумкин. Лекин, ғоя ва мафкураларнинг хилма-хиллиги ва бир-биридан фарқ қилиши табиий жараён сифатида қаралиши билан бирга, уларни бир-бирига яқин муштарак томонлари, айни пайтда бир-бирига мутлақо тўғри келмайдиган жиҳатлари ҳам бўлади.

Шубҳасиз, маълум бир ғоя ва мафкурани жамият аъзолари онгига мажбуран сингдириш ва унга риоя қилишни барчадан талаб қилиш – жиддий хатодир. Нима учун? Сабаби, масалан, собиқ «Иттифоқ даври»да Коммунистик ғоя ва мафкурани жамиятнинг барча аъзолари қайси қатлам, ижтимоий гуруҳ, қайси миллатга ва қайси динга мансублиги ва муддаолари эътиборга олинмасдан, улар учун мажбурий қилиб даҳрийликни даъво қилди ва оқибатда бу ғоянинг ҳаётий эканлигига одамларда шубҳа ва ишончсизлик ортиб борди.

Маълумки, мафкура муайян бир ижтимоий гуруҳнинг, миллатнинг, халқнинг, жамиятнинг манфаатларини ўзида мужассамлаштирган қарашлар, ғоялар тизимидир. Бу тизим ўзининг фалсафий, сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий, диний, бадиий негизларига эга. Демак, мафкура ўз моҳияти ва вазифаси жиҳатидан ниҳоятда ранг-баранг бўлиши табиийдир. Худди жамият ҳаёти турли қатламлар, йўналишлар ва даражаларга эга бўлганидек, мафкура ҳам хилма-хил бўлиши мумкин.

Ер юзидаги барча инсонлар ўз фикр-мулоҳазаларига эга бўлиб амалий фаолият юритадилар. Шу сабабли юнон файласуфи Аристотел иккита инсон айнан бир хилда фикрламайди, уларнинг олам ҳақидаги тушунчалари, фикрлари хилма-хилдир деганда, ҳақ эди. Дарҳақиқат, дунёдаги халқлар, миллатлар, мамлакатлар ва давлатлар ҳам бир-биридан фарқ қилади. Уларнинг диний эътиқодлари, маданиятлари, турмуш тарзи, психологияси, анъаналари, мақсадлари ва тараққиёт йўллари ҳам ранг-барангдир. Табиийки, уларнинг орзу-истаклари, ҳаётий идеаллари, муддаоларини акс эттирадиган ғоялар ва уларни амалга оширишда маънавий-руҳий куч бағишловчи мафкураси ҳам хилма-хил бўлиши табиийдир. Дарҳақиқат, дунёдаги ҳар бир давлатнинг, халқ ва миллатнинг, жамиятнинг мақсад ва манфаатларини ифодалайдиган ўзига хос ғояси ва мафкураси мавжуд.

Мамлакатда илғор ғоялар, мафкуралар қанча кўп бўлса, яъни мафкуравий плюрализм ҳукмрон бўлса, тараққиётнинг самарали йўлини танлаб олиш учун имконият шунчалик кенг бўлади. Фикрлар эркинлиги ва хилма-хиллиги мафкураларнинг мазмун жиҳатидан бойишига, бир-бирини тўлдиришига хизмат қилади.

Мустақил Ўзбекистон мафкура яккаҳокимлигидан воз кечди ва миллий тараққиёти учун кенг йўл очди. Мамлакатимизда мафкуралар ва фикрлар хилма-хиллигига алоҳида эътибор берилади. Ғоя ва мафкуралар хилма-хиллиги ижтимоий тараққиётга хизмат қиладиган янгидан-янги ғояларнинг пайдо бўлишига турли халқлар, элатлар, миллатлар ва сиёсий институтларнинг манфаатларини умумий тарзда рўёбга чиқаришга имконият яратади. Шунингдек у мамлакатимизда кўппартиявийлик тизимига ҳам шароит яратади. Сиёсий партиялар эса ўзлари мансуб бўлган қатламлар, сиёсий гуруҳларнинг манфаатлари, интилишлари, орзу-умидларини умумлаштирган ҳолда ўз ҳаракат дастурлари орқали намоён қилади.

Шу билан бир қаторда, тарихий тараққиётнинг маъсулиятли даврларида жамиятдаги барча ижтимоий гуруҳлар, миллат ёки сиёсий йўналишларни ўзида мужассамлаштирувчи, кўпчиликка мақбул, умум томонидан маъқулланадиган, жамиятнинг асосий манфаатларини ўзида муштараклаштирадиган мафкуралар ҳам бўлиши мумкин. Масалан, миллий озодлик кураши мафкураси, миллий мустақиллик мафкураси ва ҳаказо. Умуммилий ғоя жамият аъзоларининг, халқ оммасининг туб манфаатларини ва кўнглидаги орзу интилишларини ифода этгани, миллатларнинг бирдамлиги, жамиятнинг қудратини мустаҳкамлаши, фуқаролар ўртасидаги бағрикенглик муносабатларини ифода этгани сабабли одамларни улкан мақсадлар йўлида бирлаштирадиган жозиба кучига эга бўлади. Бундай ғоя жамиятда барқарорликни таъминлайди. Тарих сабоқлари шундан далолат берадики фикрини эркин ифода этадиган шахс, гуруҳ ёки ижтимоий қатлам, аввало, ўзининг аниқ-равшан, асосли қарашларига эга бўлиши, ўз нуқтаи назарининг оқибати учун маъсулиятни ўз зиммасига олиши, баҳс-мунозара маданияти талабларига амал қилиши лозим. Яъни, фикрлар ранг-баранглиги ва қарашлар хилма-хиллиги муайян жамиятнинг миллий манфаатларига, умумбашарий қадриятларга, қонун нормаларига, аҳлоқий мезонларга зид бўлмаслиги лозим. Шу сабабли жамиятда бунёдкор-яратувчанлик ғояларини илгари сурувчи ва ҳаётга тадбиқ этувчи кучлар жамият ахли ўртасида ўз ғояларини сингдиришга уринсалар кўпчилик онгига ижобий таъсир этиб, жамиятда барқарорлик, тинчлик, осойишталик ва яратувчилик ишларига ўз таъсирини кўрсатади. Масалан, бу илк ўрта асрларда мамалакатимиз худудида илм-фан, дин, маданият, адабиёт, ҳунармандчилик ривожланиб иқтисодий, ижтимоий, маданий-маънавий соҳаларда уйғониш содир бўлиб,

кўплаб етук алломаларнинг етишиб чиқишига олиб келади. Улар ўз таълимотларида буюк ғоялар яратиб, жамият тараққиётига ижобий таъсир кўрсатди. Дарҳақиқат, бунёдкорлик ғоялари инсонни улуғлайди, унинг руҳига қанот бағишлайди.

Жамиятда эзгу ғоялар барча даврларда инсонни юксак орзулар билан яшашга, олижаноб мақсадлар йўлида эътиқод билан курашишга ўргатади. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда амалга оширилаётган барча соҳалардаги бунёдкорлик ишлари бунга ёрқин мисолдир. Инсон ва жамият бор экан, эзгулик ғояларининг зидди бўлган зулм ва зўравонлик, қабоҳат ва жаҳолат янги-янги шаклларда намоён бўлиши ҳам мумкин. Лекин улар инсониятнинг адолат, тенглик, тинчлик, қардошлик, ривожланиш ва фаровонлик ғояларига таяниб, юксак мақсадлар сари интилишларини тўхтата олмайди. Эзгу ва юксак ғоялар одамларни ҳамиша олижаноб мақсадлар сари етаклайверади. Бунёдкорлик ғоялари юртни обод, халқ ҳаётини фаровон қилишдек олижаноб мақсадлар билан ажралиб туради. Улар инсоният тараққиётга эришган даврлардан буён жамият ҳаётининг энг эзгу ғоялари сифатида яшаб келмоқда.

7. **Бунёдкор ғоялар ва мафкураларнинг жамият ҳаётидаги ижобий таъсири**

Бунёдкор ғоя - инсонни улуғлайдиган, унинг куч-ғайрати ва салоҳиятини ошириб халқи, Ватани, бутун инсоният учун фойдали ишлар қилишга сафабар этадиган, ўзида тараққиёт, маърифат, дўстлик, тинчлик, адолат, ҳалоллик, поклик каби эзгу мақсадларни мужассам этадиган ғоядир.

Инсоният тарихи хилма-хил ғоя ва мафкураларнинг вужудга келиши, амалиёти, бир-бири билан муносабатидан иборат узлуксиз жараёндир. Бу жараёнда турли ғоялар у ёки бу кучларга хизмат қилиши, ўзига ишонган кишиларни қандай мақсадлар томон етаклашига қараб бир-биридан фарқланади.

Жаҳон тажрибасига назар ташласак, бутун дунё тараққиётига улкан таъсир кўрсатган назарий таълимот ва мафкураларни яратиш учун инсоният тарихининг турли даврларида улкан ақл-заковат, истеъдод ва теран тафаккур соҳиблари мислсиз заҳмат чекканини кўрамиз. Суқрот ва Платон, Конфуций ва Зардушт, Амир Темур, Алишер Навоий, Махатма Ганди каби буюк мутафаккирларнинг фаолияти бунинг яққол тасдиғидир.

Уларнинг ҳар бири ўз даврида ўзи мансуб халқни бирлаштирадиган улкан аҳамиятга молик ғояларни яратганлар. Бу ғояларга таяниб бунёдкорлик йўлида, эзгу мақсадларга эришиш учун ҳормай-толмай меҳнат қилганлар. Бу борада инсониятга эзгулик ғояларини тарғиб қилган Зардушт ҳам, «Ўзини англамоқ буюк саодат» эканлигини англатган Суқрот ҳам, «халқни якқалам қилдим», дея инсонпарварлик, адолат ғояларини куйлаган ва қониқиш ҳиссини туйган Навоий ҳам, Марказлашган давлат тузиб, халқни бирлаштириб, унинг адолат кучига ишончини мустаҳкамлаган Амир Темур ҳам, Ҳиндистон озодлиги йўлига умрини бахшида айлаган маърифат йўли билан ғолиб чиққан Махатма Ганди ҳам бугунги авлодлар учун ибрат намунаси бўлган улуғ инсонлардир.

Жамиятда эзгу мақсадларга хизмат қиладиган мафкураларга бунёдкор ғоялар асос бўлади.

Бунёдкорлик ақл-заковат, қалб бунёдкорлигига айланганда чинакам қадр-қиммат касб этади. Масалан, собиқ шўро даврида инсонлар қалбидаги бунёдкорлик туйғусини сўндирган тузум ўзича кўп ишларни, улкан режаларни амалга ошириш учун уриниб кўрди. Лекин қалб бунёдкорга айланмагани учун қилинган ишларда барака ва самара бўлмади. Қалб бунёдкорлиги эса эътиқод билан, пок ният билан нафақат бугунни ва эртани, балки олис келажакни ўйлаб яратишдир. Одамзодга азалдан ақл-заковат билан қалб бунёдкорлиги хос фазилатдир. Унинг қалби билан қўли бир маромда ишласа, ҳақиқий мўъжизалар бунёд этилади. Неча асрлардан буён дунёни ҳайратга солиб келаётган Миср эҳромлари, Шаҳрисабздаги Оқсарой, Самарқандаги Бибихоним, Тожмаҳал ёдгорлиги, Регистон майдонидаги мадрасалар мажмуи, Эйфель минораси, қанчадан-қанча санъат ва маданият дурдоналари - барчаси ана шундай бунёдкорлик намунасидир. Бундай мўъжизалар бизнинг маданий меросимизда, Хива, Бухородаги бетакрор обидаларимизда, мумтоз санъат асарларимизда юксак ахлоқийликка асосланган урф-одат ва анъаналаримизда ўз аксини топган.

Буюк донишманд бобомиз Баҳоуддин Нақшбанд «Дилинг - Оллоҳда, қўлинг - меҳнатда бўлсин» дея яратувчиликка даъват этганларида, ҳар қандай ишни ақл ва эътиқод билан бажаришни назарда тутганлар. Ушбу шиорда инсон кўнглида Оллоҳга эътиқод қўйиб, ўзи халол меҳнати билан тирикчилик ўтказиш ва илм-ҳунар ўргатиб Ватанни обод қилишга даъват этилади. Диний ишларни дунёвий ишлар билан боғлаб олиб бориш, дунёвийлик ва диний эътиқоднинг муштараклиги орқали жамиятда барқарорлик, осойишталик ва фаровонликка эришиш мумкинлиги ғояси тарғиб қилинади. Мустақиллик йилларида, Ўзбекистонда - Ислом динининг эзгу ғоялари миллий қадриятларимиз ва турмуш тарзимизга чуқур сингиб бормоқда. Умуман, эътиқодни фаолиятга, фаолиятни эса эътиқодга айлантириш халқимизга хос. Масалан, яхшиликни, яъни оддий инсоний фаолиятни эътиқод даражасига кўтарганимиз ёки Оллоҳга бўлган ишонч-эътиқодимизни фақат эзгулик йўлида хизмат қилдиришни анъанага айлантирганимиз (яъни, динни ниқоб қилиб мутаассибликка, жаҳолатга, бузғунчиликка берилмаганимиз) - бунинг тасдиғидир. Бунёдкор ғоялар билан қуролланган кишилар фаровон ҳаёт, эркин жамият қуриш учун кураш олиб борганлиги тарихдан маълум. Бундай жараён ижобий ғояларнинг туғилишига, улар эса ўз навбатида элатлар, халқлар, миллатлар манфаатларини ифодаловчи ҳаёт тарзининг шаклланиши учун асос бўлган. Шунингдек, миллий давлатларнинг юзага келишида бу ғоялар етакчи ва йўналтирувчи аҳамият касб этган. Буни биз ўзбек давлатчилиги ғояларининг шаклланиши ва такомили мисолида ҳам кузатишимиз мумкин.

Бунёдкорлик ғоялари юртни обод, халқ ҳаётини фаровон қилишдек олийжаноб мақсадлар билан ажралиб туради. Улар инсоният цивилизацияга эришган даврлардан буён жамият ҳаётининг энг эзгу ғоялари сифатида яшаб келмоқда. Президент Ислом Каримовнинг «Ўзбек том маънода бунёдкордир», деган сўзларида ҳам ана шу боқий ғояларнинг маъно-мазмуни ўз ифодасини топгап. Бундай бунёдкорлик халқимизга ота-боболаридан меросдир. Инсоният тарихида одамлар онги ва шуурига адолат, ҳақиқат, эзгулик, меҳнатсеварлик каби юксак ғоялар уруғини сепган зот, пайғамбар Зардушт яратган «Авесто» китобидаги юксак ғоялар буюк ватандошимиз Зардуштнинг ўлмас мафкураси эди.

Қарийб уч минг йил муқаддам - маърифат зиёсини жаҳолат булутлари қоплаб олган даврда буюк ватандошимиз Зардушт яккахудолик ва эзгулик ғояларини тарғиб қилишни бошлаган эди. Зардушт таълимотида инсонни эзгуликка даъват эътувчи ғоялар марказий ўринни эгаллайди.

Эзгулик ва ёвузлик кучлари ўртасида ғоявий кураш зардуштийлик динининг муқаддас китоби «Авесто»да ҳам баён этилган. Унда ҳарбий тўқнашувлар, босқинчилик урушлари, жониворларни, ҳайвонларни азоблаш, одамларга адолатсизлик, ёлғончилик, аҳдга вафосизлик, ҳиёнат қилиш ғоялари қораланиб, ўтроқ, осойишта, ҳаёт кечиришга, меҳнатга, деҳқончилик, чорвачилик билан шуғулланишга даъват этадиган ғоялар улуғланади. Зардуштийлик динида ер, сув, мусаффо ҳаво, она - табиат эъзозланади, қуруқ ер очиб уни боғу-роғга айлантирган одам илоҳиёт раҳматига учрайди, аксинча боғлар, экинзорларни, суғориш иншоатларини бузганлар катта гуноҳга қолади. Зардуштнинг бунёдкор ғоялари инсонларни тинч-тотув яшашга, ҳалол меҳнат қилиб Ватанни обод қилишга даъват этади.

«Авесто»да ватанпарварлик ғояси улуғланиб одамларни баркамол бўлишга даъват этилган. «Менга баркамол ва диногоҳ, ватансевар ва анжуманоро, аҳил, эзгу андишали, зулматдан, тангликдан қуқарувчи фарзандлар бағишла. Токи улар манзил, шаҳар ўлка ва унинг ном ҳамда овозасини кўтарсинлар*»[Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. А. Маҳкам таржимаси. Т., «Шарқ», 2001, 90,. 111-бетлар.],* дейилади. Шунингдек, асарда она заминни эъзозлаш, уни обод қилиш ғоялари тарғиб қилинади. Жумладан, «Авесто»да ёзилишича Заминни ҳаммадан кўпроқ бахтиёр қилган шахс, ҳаммадан кўп буғдой, гиёҳ ва мевали дарахтлар эккан зотдир! У қуруқ ерларга сув чиқарган ва сувли ерларни шудгор қилган зотдир… - дейилади.

Узоқ замон экилмаган ва омоч тегмаган замин бахтсиздир… Кимда-ким заминни чап ва ўнг қўл билан, ўнг қўл ва чап қўл билан шудгор қилса, замин унга фаровонлик бахш этади… Замин ҳам мўл-кўл меваларни инъом этади.

Ернинг шудгор қилиниб, сара уруғлар сепилиши буғдой майсасининг униб чиқиши ўша ердаги ёвуз кучлар, девларнинг бу ерларни тарк этиши тўғрисидаги ғоя Авестонинг Вандидат қисмига бағишланган бўлимида қуйидагича берилган:

Қачонки эгатларда уруғ етилса девлар ўринларидан қўпадилар.

Қачонки буғдой гуркираб кўкарса, девлар даҳшатдан титрай бошлайдилар.

Қачонки буғдой ун бўлса девлар нола чекадилар. Қачонки буғдой хирмонга уюлса, девлар нобуд бўладилар. Қай бир хонадонда буғдой бош чиқарса, девлар у хонадондан узоқлашадилар. Қай бир хонадонда буғдой омбори бўлса, гўё қиздирилган темир девлар бўйнини чирмаб ташлайди («Авесто», 115 – бет)

«Авесто»да акс этган Зардуштнинг «Эзгу ният, эзгу сўз ва эзгу амални олқишлайман! Ният, сўз ва амаллар ичидан мен эзгу ният, эзгу сўз ва эзгу амални танлайман. Мен барча қабиҳ андиша, қабиҳ сўз ва қабиҳ амалдан юз бураман***» [***Ўша жойда.***]*** деган ҳикматли сўзлари бугунги кунда ҳам катта тарбиявий аҳамиятга эга. Бу ўлмас ғоялар кейинчалик пайдо бўлган динлар, жумладан, христианлик ва ислом томонидан ҳам қабул қилинди. Демак, бу китоб ўз даврида шаклланган ғоялар тизимидан иборат бўлган жамият мафкураси эди.

Ҳиндистонда пайдо бўлган буддавийлик дини аста-секин Жанубий, Шарқий Осиёнинг кўпчилик халқининг мафкурасига айланди. Эрамизнинг биринчи асрида Рим империясида шаклланган христианлик дини жаҳоннинг кўпгина халқлари ва миллатлари томонидан қабул қилинди, улар маънавий ҳаётига сингди. VI асрнинг охирида Арабистон ярим оролида пайдо бўлган ўртадаги аҳиллик, биродарлик, ҳамжиҳатлик, эзгулик, яратувчилик ғояларини тарғиб қилганлиги сабабли дунёнинг юздан ортиқ мамлакатлари халқлари ўртасида тарқалди, уларнинг маънавий ҳаёти, турмуш тарзи ва маданияти ривожига ижобий таъсир кўрсатади.

Хитой ва ҳинд мутафаккирларининг жамият ривожи ҳақидаги қарашлари ва бунёдкорлик ғоялари ҳам Осиёнинг «шарқона» маънавиятида ўзига хос ўрин тутади. Жумладан, буюк Хитой мутафаккири Конфуций (мил.ав.551-479) ғоялари ҳанузгача Хитой халқи мафкурасида етакчилик қилиб келмоқда.

Конфуцийнинг - фалсафий ва ахлоқий ғоялари марказида инсон, унинг ақлий ва маънавий қиёфаси, оламдаги ҳамда жамиятдаги ўрни, вазифаси муаммолари туради. Бу ғоянинг асоси жамиятни ҳар қандай ижтимоий ларзалардан асраб қолиш ва инсонлар манфаатини юқори қўйишга қаратилган. Алломанинг мақсади халқни мавжуд тартиб-қоидаларни ҳурмат қилиш руҳида тарбиялаш бўлган. Бу ғояга кўра, инсонлар жамиятнинг табиий тараққиётига қарши чиқмаслиги, яъни инқилобий йўлни танламаслиги керак. Конфуций инсоният ҳақида фикр юритар экан, одамлар ижтимоий келиб чиқиши ёки жамиятдаги мавқеи орқали эмас, балки одамийлик, адолатпарварлик, ҳақгўйлик, самимият, фарзандлик иззат-ҳурмати каби юксак маънавий фазилатларга эришиши туфайли камолатга етишуви мумкин деб, ҳисоблайди.

Ҳаётнинг, борлиқнинг - моҳиятини англаш тўғрисидаги буддизм динининг асосчиси Сиддхартха Гаутама қарашлари муҳим ўрин тутади. Ҳар қандай инсоний туйғу, ҳиссиёт, эҳтирос ва истак азоб уқубатларни чуқурлаштиради. Ҳаёт азоб, туғилиш, севиш, ўлим, азобдан иборат. «Борлиқ гирдоби»дан чиқиб олиш учун ғафлатдан уйғониш, дунё моҳиятини англаш, ҳаётга чанқоқликдан, кўнгилхушликларга, лаззатларга, ҳокимиятга, бойликка интилишлардан воз кечиш лозим. Фақат шундагина «нажот топиш йўли»га кириш мумкин. Инсон бешта ахлоқий талабга амал қилиши талаб қилинади. Бу ахлоқий талабга кўра, ҳар бир киши ёмонлик қилишдан, ёлғон гапиришдан, ўғрилик қилишдан, ҳис-туйғуларга ортиқча берилишдан, ичкиликдан ўзини тийиш лозим.

Сиддхартха Гаутама инсонни ҳаётда азоб-уқубатлардан қутқаришнинг йўлларини топиш ҳақидаги таълимотида, унинг ечими инсонинг ўзига боғлиқлигини асослашга уриниб, инсон фақат ўз кучига таянган ҳолда «нажотнинг олижаноб қуйидаги саккизлик йўлидан» онгли ҳаракат қилиб собитқадам бориши орқали ўз мақсадига эришиши мумкин деган ғояни илгари суради. Бунинг учун:

1. Эътиқод тўғри шаклланган бўлиши;
2. Мақсад сари қатъий ҳаракат қилиши;
3. Тўғри тафаккур ва нутқ бўлиши;
4. Тўғри феъл – атвор бўлиши;
5. Тўғри турмуш тарзи бўлиши;
6. Куч - ғайратнинг тўғри мақсадга қаратилган бўлиши;
7. Фикр мақсаднинг тўғри йўналтирилган бўлиши;

8. Диққат-эътиборни тўғри орзу-ният қилишга қаратиш кераклиги *[Жўраев У., Сайджонов Й. Дунё динлари тарихи. -Т.: «Шарқ», 1998; 77-бет.]* таъкидланади.

Инсон ўзининг ҳаёт фаолияти давомида ушбу қоидаларга риоя қилса дунёнинг моҳиятини теранроқ англай боради, мақсад муддоасига эришиб, охир-оқибатда юксак камолатга ва осойишталикка эришади. Гаутама таълимотида асосан тақводорликнинг йўллари ва талаблари тўғрисида фикр юритилади. Бироқ, ушбу таълимотда илгари сурилган ижобий ахлоқий талаблар, инсонни ўзини идора қилишга даъват этувчи тўғри фикр юритиш, феъл-атворни тўғри бўлиши, турмуш тарзини тўғри ташкил этиш куч-ғайратни, ниятни тўғри мақсадга қаратиш ҳақидаги ғоялар инсонларни ўзига жалб этган ва одамлар ушбу таълимотни қабул қилиб унинг талабларини бажарганлар.

Инсоният доимо яхшиликни ёқлаб, ёмонликка қарши курашади, яратувчанлик ва бунёдкорлик унга хос бўлган буюк фазилатлардир. Шарқ халқларининг буюк ижодкорлиги, бунёдкорлиги ва қадриятлари турли даврлар таъсирида Ғарбга, хусусан, антик Юнон-Рим маданиятига ҳам кучли таъсир кўрсатди.

Масалан, А.Македонскийнинг устози, ўзининг бу жаҳонгир шогирди Осиёни маҳф этгач, унга юборилган «Авесто» китобини чуқур ўрганган қадимги юнон файласуфи ва қомусий олими Арасту (Аристотель, мил. ав. 427-348 йй) ўз ғояларини бойитди ва унга муҳим ўзгартиришлар киритди. У жамиятда бўлиб ўтаётган барча воқеликлар табиатга хос деб билади. Бу билан жамиятни тубдан ўзгартириш ғояларига қарши чиқади ва жамият ривожи табиий жараёнлар тарзида кечиши керак, деб ҳисоблайди.

Афлотун эса ғоялар умумий тушунчалар сифатида одам ақлига боғлиқ эмас, балки у илоҳий тушунчалар деб изоҳлаган эди. Унинг асосий ғояси - эзгулик ёки ягоналик эди. Бунда олий ғоя кўпинча худога тенглаштириларди. Бу файласуфнинг устози бўлган Суқрот (Сократ, мил. ав. 470-399 йй) эса баҳс орқали, яъни муайян масалаларни ўртага қўйиш ва уларга жавоб топиш йўли билан ҳақиқатни аниқлаш мумкин, деб билган. У эзгулик, билим ва донишмандликдир, яхшилик моҳиятини тўғри англаган инсонгина яхшилик қилади деб, тушунтиради. Суқрот адолатга хилоф бўлган давлат бошқарувининг ҳамма шаклларини танқид қилади, фақатгина адолатли демократик давлат бошқарувини ёқлаб чиқади.

Масалан, XX асрда дунё ҳамжамияти томонидан тан олинган японча тараққиёт моделини олайлик. Япон миллий мафкураси «миллий давлатчилик тизими» (кокутай), «фуқаролик бурчи», «япон руҳи», «тадбиркорлик», «умуммиллийлик», «фидойилик», «ватанпарварлик», «патернализм», «жамоага садоқат», «модернизация» каби ғоя ва тушунчаларига асосланиб, мамлакат эришган юксак натижаларга пойдевор бўлди.

Шундай бунёдкор ғоялардан бири Жанубий Корея мамлакати ривожига катта ҳисса қўшган фидойи инсон Йонг Ки-Кимнинг юксак ғояларга асосланган ватанпарварлик фаолияти ва бунёдкорлик ишлари диққатга сазовор. Ўтган асрнинг 30 йилларида «12 оила - қишлоқда» деган ҳаракатни бошлаб гиёҳ ҳам кўкармаган ташландиқ тепаликни сотиб олиб обод қилишга киришди. Кейинчалик фермерлар тайёрлайдиган «Канаан» (имкониятлар мактаби) ни очади. У ҳамиша фақат ташландиқ, гиёҳ ўсиши қийин бўлган ерларни олиб, обод қилиб одамларни ўз ташаббуси, ғояси билан орқасидан эргаштириб мамлакат ривожи ва ободонлигига ўз ҳиссасини қўшди. Бугунги кунда «Канаан» таълим даргоҳининг бош мақсади - тингловчиларда инсоний эътиқод туйғуларини шакллантириш, уларга инсоний фазилатлар - комиллик, ўзаро тенглик, биродарлик, ватанпарварлик ҳисларини сингдиришдир. Ватан ва миллат равнақи йўлида фидокорона меҳнат қилиш, туғилиб ўсган Ватанни жондан ортиқ севмоқлик шарт эканлиги ғояси ҳар бир тингловчига сингдирилади. Битта фидоий, ватанпарвар инсоннинг юксак ғояларга асосланган ишлари бугунги кунда кенг тарқалиб Жанубий Қуриянинг обод бўлишига катта ҳисса бўлиб қўшилмоқда.

Озодлик, мустақиллик, тинчлик, адолат, тенглик, ҳамкорлик, дўстлик, биродарлик, ҳурфикрлик, маърифатлилик, бағрикенглик, халқпарварлик, ватанпарварлик, инсонпарварлик, ташаббускорлик, меҳнатсеварлик, хайрихоҳлик, барқарорлик, тадбиркорлик, ишбилармонлик, ҳалоллик, поклик в.ҳ. бунёдкорлик ғояларининг кўринишлари бўлса, келажакка ишонч, адолат, ҳақиқатни тан олиш, журъатли бўлиш, собитқадамлилик, меҳр-мурувват, саховатлилик, байналминаллик, миллатлараро дўстлик ва биродарлик, фидойилик, юртга садоқатлилик, тараққийпарварлик, юрт ободлиги, иймон-эътиқодлилик, виждон эркинлиги, сафарбар этиш, уюштириш, фаровонлик,

ташаббускорлик, эзгулик, яратувчилик, фикр эркинлиги ва ғоялар хилма - хиллигини тан олиш, бағрикенглик, бунёдкор ғояларга хос хусусиятлардир.

5. Вайронкор, ёт ғоя ва мафкураларнинг жамият ҳаётига салбий таъсири

Вайронкор ғоялар - жамият, халқ ва давлатларнинг таназзулига сабаб бўлади, ғайриинсоний мақсадларга хизмат қилади.

Инсоният тарихида эзгулик ва бунёдкорлик ғоялари билан ёвузлик ва бузғунчилик ғоялар ўртасида ҳамиша кураш бўлганлиги тарихдан маълум. Ёвузлик ғоялари эса тарихда ҳамиша салбий ва ёвуз кучлар фаолияти ва ҳукмронлигини ифодалайди. Салбий юришларга туртки бўлган ғоялар, ирқчилик, «коммунизм», фашизм, терроризм, мустамлакачиликни тарғиб қилувчи ғоялар бунга мисол бўлади.

Инсониятнинг, жумладан, Ўзбекистонинг бир неча юз йиллик тарихида ҳам турли босқинчиликлар оқибатида зулм, зўравонлик, кулфат уруғларини сочиш ва қон тўкилишига сабаб бўлган бузғунчи ғоялар ва мафкураларнинг ҳалокатли таъсири билан боғлиқ воқеалар кўп бўлган. Бу ғоялар ўзларида мустабидлик интилишларини гоҳ яширин, гоҳ ошкора ифодалаган ҳолда амалга ошган.

Жумладан, большевизм билан бир қаторда, XX асрнинг бошида мустабид ғоя ва мафкуранинг бошқа шакли – фашизм пайдо бўлди.

Фашизм (итал Fasismo боғлам, бирлашма) - Ғарб мамлакатларида XX аср бошларидаги оғир иқтисодий, сиёсий ва маънавий бухронлар даврида вужудга келган ўта тажавузкор ва вайронкор ғоялар асосида шаклланган инсониятга қарши назария ва амалиёт. У жамиятда ўта реакцион ва тажавузкор доираларнинг дунёқараши ва манфаатини ифода этган ҳолда, очиқдан-очиқ террористик диктатурага, зўравонлик ғоясига таянади. Фашизмнинг - муҳим хусусияти очиқдан-очиқ шовинизм ва ирқчилик бўлиб, унинг моҳияти жамиятнинг барча тараққийпарвар қатламлари, илғор фикрли аъзоларига қарши куч ишлатишнинг энг оғир ва зарарли шаклларини қўллаш жараёнида яққол намоён бўлади. Фашизм ўз кирдикорларини яшириш ва хаспўшлаш учун сиёсий тилёғламалик, ёлғон ва бўҳтонлардан усталик билан фойдаланади.

Фашизмнинг ташқи сиёсати босқинчиликдан ва халқаро террорчиликдан иборат бўлиб, бундай сиёсий режимлар XX асрнинг 30-йилларида Италияда, Германияда, Португалияда, Испанияда ва Шарқий Европанинг бошқа бир қанча мамлакатларида ўрнатилган эди. Фашистлар Германияси Гитлер бошчилигида ва милитаристик Япония билан иттифоқ тузиб 1939-1945 йиллардаги Иккинчи жаҳон урушини бошлаган. Бу уруш инсониятга мислсиз кулфат ва фалокатлар келтирди, 50 миллиондан ортиқ одам ҳалок бўлди, юзлаб шаҳар ва қишлоқлар вайрон қилинди.

Ўтган асрнинг 70-йилларига келиб Португалия, Греция, Испанияда ҳам фашистик тартиблар барбод бўлди. Аммо, бугунги кунда ҳам баъзи мамлакатларда (Австрия, Германия ва б.) фашистик унсурларнинг муайян даражада фаоллашуви кузатилмоқда. Янги фашизм ғояси бугунги кунда инсоният учун зарарли эканлигини ҳар бир инсон англамоғи лозим.

Большевизм мафкураси бўлган коммунистик таълимот халқларнинг миллий-этник ўзига хосликларини йўқотиш, «пролетар байналмилаллиги» шиори билан майдонга чиққан бўлса, фашизм бир ҳукмрон миллатнинг «ирқий-этник софлиги»ни мутлақлаштиришни тарғиб-ташвиқ этди. У ирқчиликнинг ҳомийси ҳисобланади.

«Расизм» сўзи «раса» (ирқ) атамасидан келиб чиққан. Бу атама XVII асрдан бошлаб Европада «инсоният насли»ни турли ирқий гуруҳлар, жумладан, «оқ» ва «сариқ» ирққа ажратиш учун қўллана бошлади.

Ирқчилик - одамлар ўртасидаги ижтимоий тенгсизлик, босқинчилик, зўравонлик ва урушларни кишиларнинг турли ирқларга мансублиги билан оқлашга хизмат қилувчи ғайримиллий таълимот

Ирқчилик таълимоти «оқ танли»ларнинг афзаллиги, уларнинг азалдан «олий ирқ» этиб танлангани, бошқа ирқларнинг эса «оқ»ларга қараганда номукаммал яратилганлиги ва ҳамиша тараққиётнинг қуйи поғоналарида туришини «асослаб» беради. Унинг асосий ғояси ўзининг «илоҳий» табиатига кўра «оқ» ирқларни «қуйи» ирқлар устидан ҳукмрон қилишга даъват этишга қаратилган эди. Ирқчилик миллий мансублиги ва терисининг рангига кўра турувчи кишиларга тазйиқ ўтказиш, уларни ҳақоратлаш, уриш ва ўлдириш

каби ҳаракат-ҳодисаларда яққол намоён бўлди. У буюк давлатчилик, ашаддий шовинизм, «танланган» халқларнинг миллий афзаллиги ғоялари билан чамбарчас боғланиб кетади.

Ирқчилик таълимоти бошқа халқларга нисбатан босқинчилик, таълончилик амалиёти билан яқиндан боғликдир. Ирқчилик таълимоти билан қуролланган фашистлар Германияси «орийлар ирқи» ҳукмронлигини ўрнатиш мақсадида жаҳон урушини башлагани бунга яққол мисолдир. Ҳозир ҳам реакцион мафкурага асосланган кайфиятдаги айрим гуруҳлар, уларнинг назариётчилари ирқчилик ғояларини тарғиб этиб, «қолоқ» халқларнинг гўё мустақил ривожланишга руҳий тайёр эмасликларини даъво қилмоқдалар. Дунёнинг турли минтақаларидаги бундай қарашлар ва ҳаракатларни халқлар озодлигини бўғишга, улар устидан ҳукмронлик ўрнатишга интилиш деб тушуниш мумкин. Собиқ Иттифоқ парчаланиб кетганидан сўнг баъзи империяча фикрловчи айрим сиёсатдонлар ва уларнинг назориётчилари қарашларида ҳам ирқчилик кайфиятлари пайдо бўлганини кузатиш мумкин. Бундай қарашларнинг асоссиз эканини ҳаёт кўрсатмоқда. Маълумки, ирқлар одамларнинг иккиламчи, ташқи насли хусусиятлари (баданининг ранги, юз-бош тузилиши каби белгилари) бир хил бўлган тарихий шаклланган гуруҳлардир. Дунёда европалик, мўғул ва негрлик белгиларига қараб ажратиладиган уч асосий ирқ бор. Инсоннинг жисмоний тузилиш асослари (суяк, мушак, мия ва тананинг бошқа аъзолари) барча ирққа мансуб кишиларда бир хилдир. Бутун инсоният ягона биологик турга - «Homo sapiens» мансубдир. Тарихий тараққиёт давомида ирқларнинг аралашуви, ирқий белгиларнинг ўзгариши содир бўлиб келган ва у ҳозир ҳам давом этмоқда. Барча ирқлар маданий тараққиётга бирдек қобилиятлидирлар. Ирқчилик инсониятга қарши ғоядир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида барча ирқлар ва миллатларнинг тенг ҳуқуқлилиги белгилаб қўйилган. Бу қоида жаҳон ҳамжамиятининг халқаро ҳуқуқ меъёрларига жавоб беради.

Яна бир ёвуз ғоя - терроризм бугунги кунда ҳам инсониятга катта таҳдид солмоқда.

ТЕРРОРИЗМ (лот. Terror – қўрқув, даҳшат) - маълум ёвуз мақсад йўлида, куч ишлатиб, одамларни жисмоний йўқ қилишдан иборат бўлган ғояга асосланган зўравонлик усули. Қўрқитиш ва даҳшатга солиш орқали ўз ҳукмини ўтказишга уриниш террорчиликка хосдир. У иқтисодий, сиёсий, диний, ғоявий, ирқий, миллий, гуруҳий, индивидуал шаклларда намоён бўлиши мумкин. Жамиятга доимий қўрқув, фитна, ғаламислик муҳитини вужудга келтириш, зўравонлик йўли билан жамият барқарорлигини бузиш, гуноҳсиз кишилар, жумладан, болаларнинг ҳалок бўлишига олиб келадиган сиёсий мақсаддаги ўлдириш ва портлатишлар бу мудҳиш ғоянинг асл моҳиятини ташкил этади.

Терроризм ҳаракатлари инсоният тарихида янгилик эмас. У ҳамма вақт инсоният ҳаётига таҳлика ва таҳдид солиб, турли ғаразли мақсадларнинг, ғоялар ва хохиш иродаларнинг тимсоли сифатида яшайди. Терроризм маълум бир гуруҳнинг шахсий манфаатлари, ўз орзу-умидлари ва ғайриинсоний ҳатти-ҳаракатларнинг мажмуасидир. Айни пайтда у ана шу мақсадларнинг амалга ошиши учун ҳар қандай хунрезликлардан, қотилликлар ва зулмдан қайтмайди.

Терроризм хатти-ҳаракатларининг мазмуни ва моҳияти бевосита зўравонлик, инсон ҳаётига таҳдид ва унинг ҳуқуқларини паймол этиш билан боғлиқ бўлган, бутун мамлакатни хонавайрон қилишга олиб келган, халқ, миллат ва мамлакат тақдирини бутунлай бошқа ўзанга буриб юбориб, ўз мақсади ва ғояларининг рўёбга чиқиш учун ҳеч нарсадан тап тортмасликдир. Айни пайтда у ҳар қандай фикрлаш, ақл-идрок доирасида иш юритишдан холи бўлган шафқатсизлик, ашаддий хунхўрлик, жазава ва тазйиқ билан ёвуз ниятини амалга оширадиган бир тўда оломон фаолиятидир.

Терроризм турли мамлакатларда турли шаклларда ва ҳар хил мақсадлар асосида дунёга келади, урчийди ва кўпаяди. Маълум бир мамлакат халқларининг дунёқараши, маънавий-руҳий қиёфаси, аниқроғи, эҳтиёжлари, турмуш тарзи бевосита ана шундай жараёнларнинг шаклини, қиёфасини, моҳиятини ва ривожланиш жараёнларини, бошқача қилиб айтганда, эволюциясини белгилайди.

Ўзларининг ёвуз ниятларига эришиш учун ҳокимиятни қўлга киритишни кўзловчи кучларнинг зўравонлиги ва қўпорувчилиги сиёсий терроргa мисол бўлади. Сиёсий терроризм нафақат жиноятчи гуруҳлар, ҳатто баъзи реакцион агрессив руҳдаги расмий сиёсий кучлар томонидан уюштирилиши ва қўлланиши ҳам мумкин.

Чоризм империясининг колониал ва шовинистик сиёсати, совет империясининг ғоявий қатоғонлари халқимизга қарши ўзига хос террор эди. Бугунги кунда ҳам мустақил ривожланиш йўлидан бораётган мамлакатимизга нисбатан ғараз ният билан қаровчи «ёвуз» кучлар террорчилик йўли билан тараққиёт йўлимиздан чалғитишга, бизни қарамликка, асоратга солишга уринмоқда. Улар ватанфуруш хоинлардан ҳам, террорчиликни «касб» қилиб олган, «буюртма» бўйича қўпорувчилик ва босқинчилик билан шуғулланувчи ёлланма халқаро террорчи, жиноятчи гуруҳлардан ҳам фойдаланмоқдалар. 1999 йил февраль воқеалари, Америка Қўшма Штатларида 2001 йил 11 сентябрда содир бўлган воқеалар, дунёнинг турли мамлакатларида амалга оширилаётган хунрезликлар террорчилар ўз мақсадлари йўлида ҳеч нарсадан топ тортмасликларини кўрсатиб турибди.

Терроризм қандай байроқ кўтариб чиқмасин, қандай шиорлар билан ниқобланмасин, унинг реакцион, жинояткорона моҳиятини фарқлаб олиш, ёвуз ниятини очиб ташлаш онгли, ҳурфикрли инсоннинг, ҳар бир ватанпарвар фуқаронинг бурчидир.

Ёвуз ғоялардан яна бири буюк давлатчилик шовинизми ва агрессив миллатчиликдир.

Буюк давлатчилик шовинизми - бир давлатнинг бошқа давлат ёки давлатлар устидан сиёсий, мафкуравий, иқтисодий ва ҳарбий ҳукмронлигини ўрнатишга қаратилган назария ва амалиёт.

Хусусан XIX аср охиридан бошлаб Россия империясининг ҳукмрон доиралари бошқа халқларга, жумладан, Ўрта Осиё халқларига нисбатан ана шундай сиёсат олиб борганлар. Иккинчи жаҳон урушидан кейинги даврларда ҳам бир қанча мамлакатлар буюк давлатчилик сиёсатини хилма-хил кўринишда олиб бордилар.

Президент И.А.Каримов ўзининг «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари» асарида буюк давлатчилик шовинизми ва агрессив миллатчилик хавфсизлигимизга таҳдид солаётган муаммолардан бири эканлигини алоҳида таъкидлаган: «Ўтган мустақил ривожланиш йилларида давлатимизнинг суверенитети ва барқарорлигига таҳдид сақланиб қолмоқда. Бу таҳдид буюк давлатчилик шовинизми ва агрессив миллатчилик руҳидаги шиорларда, билдирилаётган фикрларда, шарҳларда ва муайян ҳатти-ҳаракатларда намоён бўлмоқда» [Каримов И.А. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлатлари. -Т.: «Ўзбекистон», 1997, 51- бет].

Буюк давлатчилик шовинизми ғайриинсоний хусусиятга эга бўлиб, бошқа халқларни қарам қилиш, иқтисодий, сиёсий, маданий ҳаётда уларни камситишнинг ўзига хос шаклидир.

Шовинизмнинг тарихан ҳалокатли эканлигига сабаб шуки, ҳаддан ташқари кучайиб кетган ва айниқса, ўз миллий мумтозлигига ишонишга асосланган буюк давлатчилик зўравонлик асосига қурилганлигидадир. Бу эса, ўз навбатида, буюк давлатчилик шовинизми ва агрессив миллатчиликни ифода этувчи давлатларнинг ўзида кўплаб қурбонлар ва йўқотишларга олиб келади.

Шу боис айтиш мумкинки, шовинизм пировардида давлатнинг ўзига зарба беради, унинг пойдеворини кучсизлантиради, ички зиддиятларни кучайтиради. У жамиятни парчалаб юборишга ва унинг учун оғир бўлган оқибатларни келтириб чиқаришга қодир. Гарчи тарихий даврлари ва шарт-шароитлари турлича бўлсада, Рим, Усмонлилар, Германия ҳамда Россия ва Совет империяларининг тарихидан бунга кўплаб мисоллар топиш мумкин.

Шовинистик кучлар бугунги кунда, биринчидан, мамлакат аҳолисига ахборот орқали ва мафкуравий йўл билан тазйиқ ўтказиш, иккинчидан, минтақа давлатлари ичида зиддиятларни юзага келтириш, учинчидан, жаҳон афкор оммасида Ўзбекистон ҳақида нотўғри тасаввурларни шакллантиришга ҳаракат қилмоқда. Бу йўлда улар хилма-хил усул ва воситалардан фойдаланмоқдалар.

Буюк давлатчилик шовинизми ҳам жаҳолатнинг бир кўриниши. Унга қарши фақат маърифат билан курашиш мумкин. Бунда айниқса, халқаро ҳамжамият, жумладан, унинг тенг ҳуқуқли аъзоси бўлган ҳар бир давлат билан ўзаро манфаатли алоқалар ўрнатиш яхши омил бўлиб хизмат қилади. Ана шундагина минтақамиз ҳеч қачон цивилизациялар тўқнашмайдиган, балки улар бир-бирига ижобий таъсир этиб, бир-бирини бойитадиган маконга айланади.

Диний ақидапарастлик эса - сиёсий мақсадлар йўлида мавжуд ижтимоий муаммоларни илк, яъни мазкур дин пайдо бўлган пайтдаги арконлар асосида ҳал этмоқ ниятидаги ҳаракат ва қарашлардан иборат.

Ақидапарастлар диний эътиқод шаклланишининг бошланғич даврида белгиланган, ўша замондаги сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий шароитларга мос бўлган барча йўл-йўриқларнинг қаътий ҳамда оғишмай бажарилишини талаб қиладилар ва шу тариқа диний оқимларни ифодалашда қўлланадиган ислоҳот шаклини шарт қилиб қўядилар.

Ислом ниқобидаги ақидапарастларнинг асосий ғояси - «соф ислом» қатъиятларига (принципларига) қайтиш, мақсади эса исломий давлат жорий этишдан иборат. Ақидапараст гуруҳлар ҳақиқатни тушунтириш, ишонтириш каби усуллар орқали тарғиб этишни тан олмайди. Улар ўз ғоялари бидъатли, ғайриинсоний бўлишига қарамасдан, ўта жоҳил ва бошқаларга нисбатан муросасиз муносабатда бўладилар. Ўзини шак-шубҳасиз ҳақ деб билиш, ҳақиқатни фақат мен биламан, деган қарашга асосланган манманлик эса, зўравонликни юзага келтиради. Яъни, ақидапарастлик экстремизмнинг пайдо бўлишига замин яратади.

Ўзбекистонда диний экстремизм ва ақидапарастликнинг ислом ниқобидаги экстремизми ва ақидапарастлиги шакли мавжуд ва айнан шу омил миллий хавфсизлигимизга таҳдиддир.

Ақидапарастларнинг ғоялари ўта зарарли бўлиб, уларнинг фикрича биз миллатимизни жаҳонга танитган алломаларимиз Хоразмий, Беруний, Форобий, Ибн Сино, Навоий, Улуғбек ва тарихимиздаги барча улуғ зотлардан маҳрум бўлишимиз керак. Чунки ақидапарастлар назарида қаерда тасаввуф бўлса, комил инсон ғояси бўлса, буларнинг барчаси исломга ва бизга ёт ва бегона эмиш. Улар комил инсонни куфр, деб билишади. Уларнинг фикрича инсон комил бўлиши мумкин эмас. Имом Термизий, Нажмиддин Кубро, Абдулхолиқ Ғиждувоний, Баҳоуддин Нақшбанд, Аҳмад Яссавий сингари буюк зотлар, жумладан ота-боболаримиз хилхоноларини ва муқаддас жойларни тавоф ва зиёрат қилмаслик керак эмиш. Буларнинг барчаси бизнинг турмуш тарзимиз, миллий хусусиятларимиз, анъаналаримизнигина эмас, халқимизнинг ўзига хос психологиясини ҳам барбод қилишга қаратилгандир. Тасаввуфнинг комил инсон ғоясида инсоннинг эрки ва тараққиёти ифодаланганлиги диний ақидапарастлар ғазабини келтиради. Ақидапарастлик - жаҳолатдан бошқа нарса эмас. У инсонни бир муте, қул, тақдирнинг ўйинчоғи деб қарайди, инсон қалби, маънавий эҳтиёжлари билан мутлақо ҳисоблашмайди.

Фундаменталистлар эса тасаввуф таъсирида шаклланган адабиёт, фалсафа, санъатдан ҳам воз кечиш, умуман ақл ва ҳис билан яратилган барча нарсаларни йўқ қилишни талаб қиладилар.

Ақидапарастлик ва фундаментализмнинг намоён бўлишига ҳаракатни дунёнинг баъзи мамлакатларида бугунги кунда мавжуд ҳукмрон диндан бошқа динни тарғиб қилганлар жазоланганлиги, бошқа дин ва унинг маданий ёдгорликларига муросасиз муносабатда бўлиб, уни йўқ қилишга уринишларида кўришимиз мумкин. Масалан, Афғонистон ҳудудидаги буддизм динига мансуб 15 аср илгари бунёд этилган Бамиён шаҳридаги маданий ёдгорликлар ҳам йўқ қилинишига фатво берилиб, дунёдаги энг йирик ва ноёб Будда ёдгорликлари ўққа тутилиб, бузиб ташланди. Бу жоҳилона ҳатти-ҳаракатлар ислом дини ва тасаввуф таълимотининг ўзга динларга бағрикенгликка асосланган муносабатларига мутлақо зид бўлганлиги учун ҳам бутун дунё мусулмонлари ва барча тараққийпарвар кучлар томонидан қораланди.

Ислом динининг тасаввуф таълимоти аҳли эса тарихда ҳаётга, жамият ва инсон масалаларига кенг қараганлар. Бу чин маъноси билан инсонпарварлик таълимотидир. Чунки суфийлар, гарчи чин мусулмон сифатида шуҳрат қозониб, ислом дини учун курашган бўлсаларда, аммо ҳеч қачон ўзга динларни камситмаганлар. Шу сабабли ҳам тасаввуф диний бағрикенглик таълимоти, инсон камолатига йўл қидирган ҳамда жаҳолатга қарши курашиб келган маърифий таълимотдир.

Ақидапарстликка қарши турадиган куч - бу илм-маърифатдир. Асримиз бошида ҳам жадидлар янги мактаблар ташкил этиб, ёшларга дунёвий билим бериб, ақидапарастликка қарши курашган эдилар. Ақидапарастлар «динни тозалаш», «соф динга қайтиш» ниқоби остида ташвиқот олиб бориб, одамларни таҳликага солиш, қонли жиноятлар содир этиш, жамиятни хавф остига қўйишга уринмоқдалар. Уларнинг бу ҳатти-

ҳаракатлари ёш мустақил давлатимизга очиқдан-очиқ тажовуздан бошқа нарса эмас, у миллий мустақиллигимизга ҳам қатта тахдиддир.

Диний экстремизм - маълум сиёсий мақсадлар йўлида ва дин ниқоби остида мутаассиблар ёки уларнинг иродасига кўра иш кўрувчи гуруҳлар томонидан олиб бориладиган ўта ашаддий ҳаракатлар ва қарашлар мажмуини англатади.

Бошқачароқ айтганда, диний экстремизм - муайян диний йўналиш ва ташкилотлардаги ашаддий мутаассиб унсурлар сиёсий фаолиятининг мафкураси. Бу фикрнинг исботи сифатида «Мусулмон биродарлари» ва ундан ажралиб чиққан кўплаб диний экстремистик руҳидаги гуруҳ ва ташкилотлар таянадиган асосий ғояларни эслаб ўтишимиз мумкин.

«Мусулмон биродарлари» ҳеч қандай маъмурий-жуғрофий ҳудудни тан олмайдилар ва пировард мақсадда ер юзидаги барча мамлакатларда ягона мусулмонлар бирлиги ва уларнинг диний ва дунёвий ҳокимиятини ўзида мужассамлаштирган «халифа» раҳбарлигидаги ягона мусулмон давлати қуришни кўзлайдилар. Бу шартни бажармоқ, ниятга етмоқ учун ҳар қандай хунрезликка ва биродаркушликка фатво берилади ва ҳаказо.

Диний экстремизм намоён бўлишига кўра ҳудудий, минтақавий, халқаро шаклларга бўлинади. Бундай қарашлар жуда қадимий илдизларга эга бўлиб, ҳеч қачон чегара билмаган, миллат, ҳудудни тан олмаган диний экстрамизм барча динлар доирасида ривожланган. Диний экстремистлар қаерда ва қайси дин байроғи остида фаолият кўрсатмасин, асосий мақсади диний давлатни барпо қилиш бўлиб бу мақсадга ўзаро низолар, ихтилофлар, қуролли тўқнашувлар орқали яъни қон тўкиш ва зўрлик билан эришишни кўзлайдилар.

Бу эса мустақилликка ҳам, тараққиётга ҳам катта ғов бўлади. Экстремистик гуруҳларнинг ягона мақсади ҳокимиятни қўлга олиш бўлиб, бу йўлда улар энг жирканч усулларни қўллашдан ҳам тап тортмайдилар. Бугунги кунга келиб экстремизм нафақат ислом дунёсида балки бошқа динлар тарқалган ҳудудларда ҳам, тўла-тўкис намоён бўлиб қолмоқда.

Дунёда инсон ҳуқуқлари ва демократик тамойиллар устувор бўлиб бораётган, қонун ҳамда халқаро ҳуқуқ қоидалари мамлакатлар, халқлар, давлатлар орасидаги муносабатларнинг асосий тамойилига айланаётган ҳозирги даврда диний экстремизмга ўрин қолмаяпти. Аммо, бу унга қарши курашмаслик, ҳушёрликни оширмасликни билдирмайди. Мазкур соҳада ҳам Президентимиз уқтирганлари каби огоҳлик, эзгу ғоялар йўлида кураш олиб бориш ҳаёт ва фаолиятнинг асосий мезони бўлиб қолмоқда.

Диний экстремизмни келтириб чиқарувчи сабаблар:

- Диндан фойдаланиб динга алоқаси бўлмаган сиёсий ва бошқа тажовузлар ва мақсадларни амалга ошириш учун интилиш;

- Динни ниқоб қилиб, турли сиёсий можаролар, зиддиятларни келтириб чиқаришга уриниш;

- Инсон, миллатларининг ўз тақдирини ўзи белгилаш ҳуқуқини эмас, балки диннинг яшашга бўлган ҳуқуқини эътироф этиш;

- Динни дунёқараш, тафаккурнинг ягона воситаси деб ҳисоблаш;

- Ўз-ўзидан равшанки, бу ҳодисалар Ўзбекистонинг мустақиллигини мустаҳкамлаш, унинг хавфсизлигини таъминлаш зарурлиги нуқтаи назаридан қараганда бутунлай зарарли ғоялардир.

Ҳозирги кунда бизнинг турмуш тарзимизга, руҳиятимизга нисбатан қилинаётган маънавий-маърифий ҳуружларнинг усуллари тобора нозиклашиб бораяпти. Зарарли ғояларни турли кинофильмлар, телевидение кўрсатувчлари ва радио эшиттиришлари шаклида, газета-журналлар, интернет тармоғи ва бошқа йўналишларда узлуксиз равишда тиқиштирилиб, бизнинг миллий қадриятларимизни барбод этишга, мафкуравий иммунитетимизни сусайтиришга, ёшларимизни сохта ғояларнинг таъсирига олишга мунтазам ҳаракат қилинмоқда. Ёт, зарарли ғояларнинг мамлакатимизга кириб келиши халқнинг миллий ғоясини (мақсад ва интилишларини), тараққиёт йўлини ўзига хос ва мос бўлмаган йўналишга бурib юбориш, мамлакатларнинг ижтимоий, маънавий, сиёсий ҳаётини ўзгартириб юбориши мумкин. Бегона ғояларнинг мамлакатга кириб келиши ва фуқаролар ўртасида тарқалиши катта хавф, салбий оқибатларини келтириб чиқариши мумкинлигини эътиборга олиб Абу Наср Форобий ўз вақтида бегона ғояларнинг зарари

тўғрисида: «Ўзга, бегона ғоялар кириб келиб, халқнинг турмуш тарзи, урф-одатлари, анъаналарини тубдан ўзгартириб юбориши мумкин» *[Абу Наср* Форобий «Фозил одамлар шаҳри» -Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993.], деб ёзган эди.

Масалан: Собиқ иттифоқ даврида юртимизга бегона ғоялар кириб келди. Бегона ижтимоий, иқтисодий, маънавий, сиёсий ҳаёт қарор топди. Турмуш тарзимиздан бегона урф-одат, анъаналар жой олди. Ўзимизга хос ва мос бўлмаган коммунизм ғояси билан яшай бошладик. Халқимизнинг азалий турмуш тарзи, урф-одатлари психологияси, қадриятлари, инсоний муносабатлари, тарбиясига ўта салбий таъсир кўрсатди.

Бундай ғоялар инсон табиатига зид бўлиб, салбий томонга ўзгартиради, унда носоғлом турмуш тарзини шакллантиради, фикрлар хилма-хиллигини чеклайди, қарамлик, тобелик, мутелик муҳитини яратади. Миллий тафаккур тарзини ўз негизларидан бегоналаштиради, бегона урф-одат, анъаналарни тарғиб қилади, уларнинг кириб келишига муҳит яратади, мамлакатни, халқни ўз миллий қадриятларидан, охир-оқибат ўз тараққиёт йўлидан бегоналаштиради, жамиятда халқлар ва миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенгликка раҳна солиб, ички ихтилофлар, парокандаликка олиб келади.

Оилада ёшларга соғлом тарбия бериш, фуқароларнинг имон эътиқодини мустаҳкамлаш, миллий ғурур ва ифтихор билан яшашга эришиш, ҳар томонлама комил шахслар қилиб тарбиялаш, мафкуравий иммунитетни кучайтириш, фуқаролар онгида миллий истиқлол ғояларини шакллантириш орқали унинг олдини олиши мумкин.

Миллий истиқлол ғоясига зид салбий ҳолатларни:

Бефарқлик, мақтанчоқлик, хушомадгўйлик, ҳасадгўйлик, манманлик, ҳақиқатни менсимаслик, таниш-билишчилик, маҳаллийчилик, мансабпарастлик каби ҳолатларда ҳам кўриш мумкин. Уларни бартараф этиш учун: жамиятда эркин фикр ва фикрлашлар, ғоялар хилма-хиллиги, танқид ва ўз-ўзини танқид муҳитини яратиш, демократия ва ошкоралик муҳитини кучайтириш, соғлом ва эркин рақобат муҳитини яратиш, жамиятда илм-маърифатнинг мавқеини янада ошириш зарур.

6.Фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя, жаҳолатга қарши маърифат билан курашиш зарурлиги

Коммунистик мафкура исканжасидан озод бўлганимиздан сўнг турли ғоялар ҳаётимизга ўз таъсирини ўтказишга ҳаракат қилмоқда. Ота-боболаримиздан қолган буюк меросни англай бошлаган бир пайтимизда унинг барчасини барбод қилишга қаратилган зарарли ғояларга қарши турадиган куч миллий ғоядир. Миллий ғоя бугунги кунда халқимиз жамиятимиз учун ҳаётий зарурият, мамалакатимизда фуқаролар тотувлиги ва бирдамлигини таъминлайдиган тараққиётимизга кафолат бўладиган, инсонларга эзгу мақсадларига эришишда маънавий-руҳий кучдир. Миллий ғоя эзгу мақсад йўлида жамият аъзоларини бирлаштиради, уларга руҳий мадад беради, ҳар қандай кўринишдаги зарарли иллатларни инкор этади. Фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя билан, жаҳолатга қарши маърифат билан курашишга даъват этади. Жамиятда осойишталик, тинчлик, ўзаро ишонч, барқарорлик муҳитини яратишга хизмат қилади. Шу сабабли, миллий истиқлол ғояси мамлакатимизнинг буюк келажаги пойдеворини яратишда муҳим восита, инсоннинг онги ва қалбини эгаллашга қаратилган ҳар қандай зарарли, бегона ғояларга қарши турадиган омилдир.

Ватанимиз мустақиллигига таҳдид солувчи, фуқароларимиз онги ва қалбини эгаллашга қаратилган зарарли ғояларнинг хавфи ядро майдонидаги хавфдан ҳам ортиқ. Жумладан, «ҳозирги замондаги энг катта хавф - инсонларнинг қалбини ва онгини эгаллаш учун узлуксиз давом этаётган мафкуравий курашдир. Эндиликда ядро майдонларида эмас, мафкура майдонларида бўлаётган курашлар кўп нарсани ҳал қилади» [Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси- халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. -Т.: «Ўзбекистон», 2000, 6-7 бетлар].

Бугунги кунда қурол-яроғ кучи билан зўравонлик қилишлар ўрнида энди халқларни, мамлакатларни, дунёни забт этиш учун жуда катта мафкуравий қудратга, ғоявий асосга эга бўлиш кераклигини ҳаёт кўрсатмоқда. XX аср цивилизацияси дунёни ақл-идрок билан забт этиш тамойилини келтириб чиқарди. Шунинг учун ҳам бугун давлатлар қудрати, мамлакатлар салоҳияти ядровий полигонлар билан эмас, ғоявий, мафкуравий полигонлардаги салоҳияти билан ўлчанади. Буни Президент Ислом Каримов: «Ҳозирги вақтда қудратли давлатлар ва муайян сиёсий марказлар ўз мақсадларига эришиш учун, аввало, забт этмоқчи, ўз таъсир доирасига олмоқчи бўлган мамлакатларнинг аҳолиси онгини

ўзига қарам қилишга интилади» *[Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси- халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. -Т.: «*Ўзбекистон», 2000, 7 бет.], - деб таъкидлайди.

Дарҳақиқат, жаҳон сиёсатида мафкуравий таъсир ўтказиш орқали халқларни, мамлакатларни забт этиш тамойили кучаймоқда. Ғоявий тазйиқнинг бундай шакли турли-туман.

Юртбошимизнинг «Бугунги кунда ғояни тақиқ билан, маъмурий чоралар билан енгиб бўлмайди. Ғояга қарши фақат ғоя, фикрга қарши фақат фикр, жаҳолатга қарши маърифат билан баҳсга киришиш, олишиши мумкин» [Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин, -Т.: «Ўзбекистон», 1998, 10- бет.], деган фикрлари бугунги кунда ҳар бир ватандошимиз учун дастуруламалдир.

Бугун миллий уйғониш руҳи, миллий ғоя ҳаётимизга тобора чуқурроқ кириб бормоқда. Шунингдек, баъзи хорижий мамлакатларда турли ғоя ва қарашлар ниқоби остида бизнинг миллий қадриятларимизга, умуман, барча миллат вакиллари ҳурмат қиладиган инсонийлик тамойилларига мутлақо тўғри келмайдиган номақбул ҳаракатлар телевидение орқали тез-тез кўзга ташланиб турибди. Дарҳақиқат, бундай ғайриинсоний ҳаракатларни кўрганда, инсон беихтиёр ўйлаб қолади: аслида демократиядан мақсад инсоннинг қадр-қимматини жойига қўйиш эмасми? Куппа-кундуз куни қип-яланғоч кўчага чиқиб турли намойишлар ўтказиб кимларнидир ҳуқуқини талаб қилмоқчи бўлаётган кимсалар аслида одамзоднинг энг буюк бойлиги бўлмиш юксак туйғуларини ерга урмаяптими, ақл-заковат ва тафаккур, ор-номус соҳиби бўлган инсоннинг қадрини туширмаяптими? Инсонийликни ҳар нарсадан азиз билган халқимиз бундай «демократия», бундай «эркинлик»ни асло қабул қилолмайди. Шу сабабли ҳам бундай ёт ва зарарли ғоя ва ҳаракатларнинг турмуш тарзимизга кириб, ёшларнинг қалбини эгаллаши ва миллий урф-одат, қадриятларимизни қадрсизлантиришига муросасиз бўлиш ҳар бир маърифатли инсоннинг ватанпарварлик бурчидир. У миллий ғоямизга тўғри келмайди.

Айрим кучлар томонидан «демократия тарғиботи» шаклида амалга оширилаётган ишлар тўғридан-тўғри Ғарб турмуш тарзининг зўрма-зўраки «сохта демократия» шаклида тиқиштирилишига айланиб кетаяпти. Бир пайтлар «жаҳон пролетариати инқилоби» қандай экспорт қилинган бўлса, бугун беҳаёлик, уятсизлик, шафқатсизлик ва зўравонлик сингари соғлом инсон табиатига зид ҳолатлар шундай экспорт қилинаяпти.

Бундай ғоялар зарарли. Унга нисбатан кучли ғоявий иммунитет зарур. Шунинг учун: «Ҳар қандай касалликнинг олдини олиш учун, аввало, киши организмида унга қарши иммунитет ҳосил қилинади. Биз ҳам фарзандларимиз юрагида она Ватанга, бой тарихимизга, ота-боболаримизнинг муқаддас динига соғлом муносабатни қарор топтиришимиз, таъбир жоиз бўлса, уларнинг мафкуравий иммунитетини кучайтиришимиз зарур» *[Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси -халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. -Т.: «Ўзбекистон», 2000, 12- бет]*. Ушбу вазифани миллий истиқлол ғояси бажаради. Миллий истиқлол ғояси ҳар қандай кўринишдаги зарарли иллатларни, зўравонликни, ахлоқсизликни эътиқодсизликни, жаҳолат ва маърифатсизликни, бузғунчи фикрларни ва ёвуз ғояларни инкор этади, ёшлар иродасининг бақувват бўлишига, уларда соғлом фикр ва шу асосда имон-эътиқоди мустаҳкамланишига, Ватанни бой тарихи урф-одат, анъаналарига, динига хурмат билан муносабатда бўлишга ўргатади. Уларни ўз мустақил фикрига эга бўлган, жаҳолатнинг ҳар қандай кўринишига илм-маърифатни қарши қўядиган, миллий ғурур, ифтихор билан яшашга даъват этади.

Дарҳақиқат, миллий истиқлол ғояси мамлакатимизда бирон-бир мафкуранинг мутлақлашуви, яккаҳоким ақидага айланишига йўл қўймайди. У фикрлар ранг-баранглигига асосланади. Ижтимоий ҳаёт, сиёсий ташкилот, мафкураларнинг хилма-хиллигига таянган ҳолда, жамиятнинг самарали ривожланишини таъминлашга хизмат қилади. Миллий истиқлол ғояси фикрлар хилма-хиллигига кенг йўл очади, одамларнинг эркин тафаккурининг уйғониши ташаббускорлигини рағбарлантиради. Ҳар қандай кўринишдаги зарарли ва бузғунчи фикрларни ва ғояларни рад этади, шу асосда жамиятнинг барқарор тараққиётига хизмат қилади.

Турли-туман, бир-биридан фарқ қиладиган дунёқарашлар, сиёсий, миллий, диний оқимлар, мазҳаб ва секталар ўртасидаги фикр талашувлари гоҳо баҳс-мунозара доирасидан чиқиб қонли тўқнашувлар, қирғинларга сабаб бўлмоқда, турли мамлакатларда кўплаб кулфатларни келтириб чиқармоқда. Ушбу омилларнинг миллатимизга, мустақиллигимизга,

маънавиятимизга зарари борлигини таъкидлаб, Юртбошимиз «Миллатни асраш керак» деган ғояни илгари сурди.

Миллатни асраш - ўзлигимизни, одоб-ахлоқимизни, меросимиз, қадриятларимиз ва миллий руҳимизни зарарли ғоялар ва мафкуралар таъсиридан авайлаб асраш, уларга қарши фуқароларимиз ва ёшларимиз қалбида мафкуравий иммунитетни шакллантириш деган маънони ҳам англатади.

Халқимизни турли ғоявий ва мафкуравий таҳдидлардан асраш, жамиятда мафкуравий иммунитет ҳосил қилиш учун уни, аввало, тараққиёт қонуниятларини ўзида чуқур акс эттирадиган соғлом, инсонпарвар ғоя ва мафкура билан қуроллантириш керак. Миллий истиқлол ғоясининг асосий вазифаси эса халқимизда миллий эътиқод ва дунёқараш асосларини шакллантиришдан иборатдир.

Миллий истиқлол ғоясига ишонч ва эътиқоди бўлган ҳар бир киши носоғлом фикрга – соғлом эзгу фикр билан жавоб беради. Ўзининг фикрига эга бўлади. Ўзининг эркин фикрига эга бўлмаса, жавоб бера олмайди.

Худди шундай ёвуз ғояга - эзгу ғоя билан, жаҳолатга маърифат билан жавоб беради. Бугунги мафкура соҳасида бўладиган турли хил курашларда ана шу йўл билан ғолиб бўлиб, миллий ўзликни сақлаб қолиш мумкин.

Мавзуни мустаҳкамлаш учун саволлар:

1. Жамият тараққиёти нима учун муайян фикрлар, ғоялар, мафкуралар билан боғлиқ?
2. Мафкура бўлмаса, нима бўлади?
3. Қандай бунёдкор ва вайронкор ғояларни биласиз?
4. Мафкуравий иммунитет нима?
5. Ғоя ёки мафкурани мутлақлаштириш деганда нимани тушунасиз?

5-мавзу: Глобаллашув шароитида ғоявий –иқтисодий курашнинг кескинлашуви

1. Глобаллашув тушунчаси ва унинг моҳиятий
2. Глобализм ва аксилглобализм
3. Глобаллашув ва миллий маънавият
4. Глобаллашув ва миллий ғояга эҳтиёж
5. Миллий истиқлол ғояси ва шахсий эътиқод

1.Глобаллашув тушунчаси ва унинг моҳияти

XXI аср бошларига келиб дунё мамлакатлари ўртасидаги ўзаро таъсир шу қадар кучайиб кетдики, бу жараёндан тўла иҳоталаниб олган бирорта ҳам давлат йўқ, деб тўла ишонч билан айтиш мумкин. Ҳаттоки, халқаро ташкилотлардан узоқроқ туришга интилаётган, уларга аъзо бўлишни истамаётган мамлакатлар ҳам бу жараёндан мутлақо четда эмас. Глобаллашув шундай жараёнки, ундан четда тураман, деган мамлакатлар унинг таъсирига кўпроқ учраб қолиши мумкин. Бундай ғайри ихтиёрий таъсир эса кўпинча салбий оқибатларга олиб келмоқда.

Глобаллашувнинг турли мамлакатларга ўтказаётган таъсири ҳам турлича. Бу ҳол дунё мамлакатларининг иқтисодий, ахборот, маънавий салоҳиятлари ва сиёсати қандай экани билан боғлиқ. Дунёда юз бераётган шиддатли жараёнларнинг ҳар бир мамлакатга ўтказаётган салбий таъсирини камайтириш ва ижобий таъсирини кучайтириш учун шу ҳодисанинг моҳиятини чуқурроқ англаш, унинг хусусиятларини ўрганиш лозим. Бу ҳодисани чуқур ўрганмай туриб унга мослашиш, керак бўлганда, унинг йўналишини тегишли тарзда ўзгартириш мумкин эмас. Глобаллашув яна шундай жараёнки, уни чуқур ўрганмаслик, ундан фойдаланиш стратегияси, тактикаси ва технологиясини ишлаб чиқмаслик мамлакат иқтисоди ва маданияти, маънавиятини тоғдан тушаётган шиддатли дарё оқимига бошқарувсиз қайиқни топшириб қўйиш билан баравар бўлади.

Мустақиллик даврида мамлакатимиз олимлари ўтказган ва ўтказаётган тадқиқотларга кўз югуртириш бу соҳадаги ишлар эндигина бошланаётганидан гувоҳлик беради. Глобаллашувнинг миллий маънавиятга ҳам таъсир ўтказади. Ҳар қандай сиёсат, жумладан иқтисодий сиёсат ва маънавият соҳасидаги сиёсат ҳам илмий асосга эга бўлгандагина муваффақият келтиришини назарда тутсак, бу масалада олимларимиз сиёсатчиларимизга етарли кўмак беришларини эътироф этишга тўғри келади. Мамлакатимизнинг жаҳон майдонида олиб бораётган сиёсати кўпроқ самара ва муваффақият келтиришини истасак, глобаллашувнинг моҳияти, йўналишлари, хусусиятларини чуқурроқ тадқиқ ва таҳлил қилиш зарур. Айнан шу жараённи чуқурроқ таҳлил этиш орқали сиёсатчиларнинг тўғри йўл танлаши ва қарорлар қабул қилиши учун имконият яратиш мумкин.

Глобаллашув - турли мамлакатлар иқтисоди, маданияти, маънавияти, одамлари ўртасидаги ўзаро таъсир ва боғлиқликнинг кучайишидир.

Глобаллашувга берилган таърифлар жуда кўп. Лекин унинг хусусиятларини тўлароқ қамраб олгани бизнингча, француз тадқиқотчиси Б.Банди берган таъриф. Унда глобаллашув жараёнининг уч ўлчовли эканига урғу берилади:

- глобаллашув-муттасил давом этадиган тарихий жараён;
- глобаллашув-жаҳоннинг гомогенлашуви ва универсаллашуви жараёни;
- глобаллашув-миллий чегараларнинг «ювилиб кетиш» жараёни.

Б.Банди таърифида келтирилган глобаллашув ўлчовларининг ҳар учаласига нисбатан ҳам муайян эътирозлар билдириш мумкин. Лекин жаҳонда юз бераётган жараёнларни кузатсак, уларнинг ҳар учови ҳам унда мавжуд эканини кўрамиз.

Глобаллашувнинг мамлакатлар иқтисодий сиёсати ва маънавиятига ўтказиши мумкин бўлган ижобий ва салбий таъсири Ҳиндистоннинг машҳур давлат арбоби Маҳатма Гандининг қуйидаги сўзларида яхши ифодаланган: «Мен уйимнинг дарвоза ва эшикларини доим маҳкам беркитиб ўтира олмайман, чунки уйимга тоза ҳаво кириб туриши керак. Шу билан бирга очилган эшик ва деразаларимдан кираётган ҳаво довул бўлиб уйимни ағдар-тўнтар қилиб ташлаши, ўзимни эса йиқитиб юборишини ҳам истамайман».

Шунинг учун ҳам миллий истиқлол ғоясини бугунги глобаллашув жараёнида уйимизни, ҳаётимизни тоза ҳаво билан таъминлаб, айни пайтда «довуллар»дан сақлаш омили эканлигини англаш муҳим.

2. Глобализм ва аксилглобализм

Ҳозирги замон глобаллашувининг жараёни ўта мураккаб жараён. Унинг турли мамлакатлар иқтисоди, сиёсати ва маънавиятига ўтказаётган таъсири яна ҳам мураккаб бўлгани сабабли унга нисбатан ҳам жаҳонда бир-бирига нисбатан рақобатда бўлган икки гуруҳ: глобалистлар ва аксилглобалистлар гуруҳлари вужудга келди.

Глобаллашув тарафдорлари глобалистлар деб аталади. Улар орасида давлат арбоблари, сиёсатдонлар, саноатчи ва бизнесменлар кўпроқ учрайди. Глобаллашув мухолифлари эса аксилглобалистлар номини олган бўлиб улар орасида кўпроқ сўл кучлар, касаба уюшмалари ва ёшлар ташкилотининг вакиллари бор. МДҲ ҳудудида аксилглобалистлар Россия Федерацияси ҳудудида фаол ҳаракат олиб бормоқда. Бу ерда улар турли анжуманлар, семинарлар ўтказиш учун тўпланиб турадилар.

XX аср ўрталарида глобаллашувнинг институтционаллашуви, яъни ташкиллашуви кучайгандан кейин бу жараённинг ўзи ҳам кескин тезлашди ва шиддатли тус олди. Институционаллашувнинг кучайганини Бутунжаҳон савдо ташкилоти, Халқаро Валюта жамғармаси, Жаҳон банки, Европа тараққиёти ва тикланиш банки ташкилотларининг вужудга келгани мисолида ҳам кўриш мумкин.

Глобаллашувнинг тезлашиши ва кучайишига жавоб сифатида аксилглобалистларнинг фаолияти ҳам кучайди. Улар глобаллашувнинг фақат салбий оқибатларига эмас, умуман унинг ўзига ҳам қарши чиқа бошладилар. Масалан, россиялик файласуф ва ёзувчи А. Зиновьев «Аксилглобализм векторлари» номли анжуманда сўзлаган нутқида шундай дейди: «Глобаллашув янги жаҳон урушидир. У янги типдаги жаҳон уруши. Бу урушда тирик қолишнинг қаршилик кўрсатишдан бошқа йўлини кўрмаяпман. Фақат қаршилик!» - деган эди.

«Аксилглобализм векторлари» анжуманидаги яна бир маърузачи А. Паршев эса глобаллашувга қуйидагича таъриф беради: «Аслида глобаллашувнинг асосий мазмуни

бошқа мамлакатларда ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг қўшимча қийматини, дунёдаги асосий заҳираларини ўзлаштиришдан иборат».

Албатта бу фикрга турлича муносабат билдирилиши мумкин. «Глобаллашув»ни фақат салбий ҳодиса сифатида баҳолаш ва унга қарши туриш ижтимоий ҳаётдаги турли хил табиий, ижтимоий боғлиқликларни инкор этишга олиб келиши мумкин. Глобаллашув жараёни «мафкуралашишдан», унинг мақсадларидан холи бўлиши керак.

Таҳлил шуни кўрсатадики, глобализм тарафдорлари ҳам, душманлари ҳам асосий эътиборни иқтисодиёт соҳасига қаратишади. Глобаллашувнинг маънавиятга таъсири ва маънавий глобаллашув масалалари социология, фалсафа, маданий антропология фанларида ўзининг аксини етарли даражада топиши керак.

3. Глобаллашув ва миллий маънавият

Миллий истиқлол ғояси муайян тушунчаларга асосланади. Улар турли хил бўлиб, жамиятда шаклланган ва мавжуд бўлган фикрлар хилма-хиллиги билан кишиларнинг ўзаро ижтимоий муносабатлари асосида амалий ҳатти-ҳаракати орқали намоён бўлади.

Маънавиятни ҳам бир уйга тўпланган бойликка қиёсласак, ташқаридан кираётган шамол уй ичидаги нарсаларни остин-устин қилиб ташлашини ҳеч бир хонадон соҳиби истамайди. Худди шу каби биз ҳам ёт ғоялар, оқимлар ва мафкуралар маънавиятимизга вайронкор таъсир ўтказишига қарши ҳимоя чоралари кўришимиз табиий. Четдан ўтказиладиган мафкуравий таъсирга қарши ҳимоя чоралари кўришдан аввал қандай таъсирларни маъқуллаш лозиму, қандайларини рад этиш кераклигини аниқлаб олиш лозим. Ҳозирги кунда бирорта ҳам миллий маънавият йўққи, у бошқа халқлар маънавиятидан тўла иҳоталанган бўлса. Ҳатто, Австралия чакалакзорлари, Африка саванналари ва Жанубий Америка чангалзорларида турмуш кечираётган қабилалар ҳам қўшни қабилалар ва замонавий тамаддун таъсирини ўзида ҳис қилиб туради. Қолаверса тарихни таҳлил қилиш бошқа халқлар маънавиятидан баҳраманд бўлган халқлар маънавияти юксакликларга кўтарилгандан гувоҳлик беради.

Ўрта Осиё халқлари маданияти ва маънавияти ҳам Шарқ ва Ғарбни туташтирган карвон йўлларида жойлашгани сабабли ҳам Шарқ, ҳам Ғарб маданиятидан баҳраманд бўлган. Муҳими шундаки, халқимиз Ғарб ва Шарқ маънавиятидан баҳраманд бўлиб уларнинг ижобий томонларини ўзлаштирибгина қолмай, уларга ижодий ёндашиб янги чўққиларга кўтаришди. Бу фикрнинг тасдиғини маънавиятнинг таркибий қисмлари бўлган илмий билимлар, диний эътиқод, санъат мисолида ҳам кўриш мумкин. Фақат Ватанимиз эмас, умумжаҳон маданияти тарихидан мустаҳкам ўрин эгаллаган алломаларимиз ижоди ҳам шу фикрни тасдиқлайди. Масалан, ана шундай аждодларимиздан бири Абу Райҳон Беруний Хитой ва Ҳиндистон, Юнонистон ва Рим фалсафасини, табиий фанларини чуқур ўзлаштирган эди. Ҳиндистонда бўлган пайтида у ҳинд фани ва маданиятини ўрганар экан, қадимги манбаларни ўрганиш учун қадимги ҳинд тили-санкритни билиш лозимлигини англайди. У санскритни ўрганишга киришади ва қисқа фурсатда уни чуқур ўзлаштиради. Энди қадимги ҳинд маданияти ва фанини асл манбалардан ўргана бошлайди. У шунингдек, юнон ва Рим маданияти ва фанини ўрганиш учун юнон ва лотин ҳамда қадимги яҳудий тилларини ўзлаштирган эди.

Жаҳон маданияти тарихида чуқур из қолдирган Абу Наср Форобий ҳам ўнлаб тилларни билган ва ўнлаб халқлар маданияти ва маънавиятини чуқур ўрганган. Бундай мисолларни жуда кўплаб келтириш мумкин. Энг муҳим жиҳати шундаки, ўша буюк аждодларимиз жаҳон халқлари маънавиятини ўрганибгина қолмай, уларни чуқур таҳлил қилишди, тегишли жойларини ривожлантириб оламшумул кашфиётларни очишди.

Аждодларимиз тарихи жаҳон халқлари маънавиятига ҳурмат билан қараш, керакли жойларини ўрганиб, ижодий ривожлантириш орқалигина маънавият чўққисига эришиш мумкинлигидан гувоҳлик беради. Бизга таъсир ўтказаётган ёки таъсир ўтказмоқчи бўлаётган ғояларнинг қай бирини қабул қилиш ва қай бирини рад этиш лозимлигини аниқлаш учун жиддий таҳлил лозим. Ана шундай таҳлилни ўтказиш учун эса баъзан эринчоқлигимиз, баъзан уқувсизлигимиз халақит бермоқда. Бунинг оқибатида эса қабул қилиш бўлган ғояларни рад этиш ва рад этиш лозим бўлган ғояларни қабул қилиш ҳоллари ҳам учраб турибди.

Шундай ғоялар борки, улар очиқ чеҳра билан эшигимизни тақиллатиб, кириб келади. Шундай ғоялар ҳам борки, улар «ўғри» каби туйнук қидиради.

Эшик қоқиб келадиган ғоялар миллий маънавиятни бойитишга, ривожлантиришга хизмат қилади. Бу умуминсоний эзгу-ғоялардир. Чунки, миллий маънавиятлар ўзаро таъсир жараёнида ривожланади. Ҳар қандай халқ маънавияти ривожига назар ташланса унинг бошқа халқлар удум ва анъаналарини қанчалик ўзлаштириб ва ривожлантириб борганини кўриш мумкин.

Ўзбек миллий маънавияти ҳам узоқ ва яқиндаги қўшниларнинг илғор анъаналарини ўзлаштириш натижасида бойиб борди. Маънавиятимизнинг ривожланиш тарихини кузатсак, бунга яна бир бор ишонч ҳосил қилиш мукин. XX аср бошларидаги ўзбек маданияти ва маънавияти ва унинг аср охиридаги ҳолати ўртасида анча жиддий тафовут бор. Бу тафовутни адабиёт, санъат, фан, ҳатто оддий юриш-туриш ва кийим-кечак, турмуш соҳаларида ҳам кузатиш мумкин.

XX аср бошида ўзбек адабиётида драматургия жанри ҳали шаклланмаган эди. Демак миллий театр санъати тўғрисида сўз ҳам юритиш мумкин эмас эди. Мунаввар қори Абдурашидхонов, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Фитрат сингари маърифатпарварларнинг саъй-ҳаракатлари туфайли драматургия шакллана бошлади ва кейинроқ театр санъати вужудга келди. Ўша пайтларда театр санъатини ўзбек миллати учун ёт, бегона ғоя деб эълон қилганлар оз эмас эди. Драматургия ва театрни рад қилиш фақат даҳанаки танқид билан чегараланмаган. Санъатнинг бу турларини Ўзбекистонга олиб киришга ҳаракат қилаётган инсонларни мазах қилиш, масхаралаш, ҳатто сазойи қилиш ўзларини миллий маънавият ҳимоячилари, деювчилар томонидан амалга оширилган эди. Ҳамма нарса учун олий ҳакам ҳисобланадиган вақт эса, театр санъати миллий руҳиятимиз ва маънавиятимизга ёт, деювчиларнинг ўзлари миллий маънавият ривожига ғов бўлганини кўрсатди. Ҳозирги кунда ҳар миллион кишига ҳисоблаганда театрлар сони бўйича Ўзбекистон дунёдаги энг илғор ўринлардан бирини эгаллайди ва театр миллий маънавиятимизнинг узвий қисмига айланган.

Миллий кийимлар ҳам миллий қадриятлардан бири ҳисобланади. XX аср давомида ана шу қадриятимизнинг ҳам тадрижини кузатсак, ғаройиб ҳодисаларнинг гувоҳи бўламиз. Ўтган аср бошларида маҳаллий эркакларнинг қишки кийими телпак ёки этикдан иборат эди. Ёзги кийим эса дўппи, кўйлак ёки яктак, оқ лозим ва шиппак ёки кафшдан иборат эди.

Спорт соҳасидаги атамаларни глобаллашув жараёнига ҳам тадбиқ қиладиган бўлсак, вайронкор ғоялардан ҳимояланишнинг энг самарали йўли уларга қарши ҳужумга ўтишдир. Яъни, биз ёт ғоялардан ҳимояланиш билангина шуғулланмай, ўз ғояларимиз, анъаналаримиз, турмуш тарзимизни дунёга ёйиш учун ҳаракат ҳам қилишимиз зарур.

Тарихимиз илм-фан, дин, санъат соҳасида юртимизда етишиб чиққан алломалар бутун дунёга донг таратганидан, демакки бутундунё маънавиятига катта таъсир ўтказганидан гувоҳлик беради. Абу Наср Форобий жаҳон фалсафаси ривожига сезиларди ҳисса қўшган бўлса, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Замаҳшарий, Хоразмий, Мирзо Улуғбек сингари алломаларимиз жаҳон фанини янги поғоналарга кўтаришди. Исмоил Бухорий, ат Термизий, Мотуридий, Абдухолиқ Ғиждувоний, Баҳовуддий Нақшбандий, Аҳмад Яссавийлар эса, Ҳадис, калом, фиқҳ илмлари ва тасаввуфда порлоқ юлдузлар ҳисобланишади. Амир Темур ва Мирзо Бобурнинг ҳарбий санъати нақадар юксаклигини бутун жаҳон эътироф этади.

Шўролар даврида миллий қадриятларимизни дунёга ёйиш уёқда турсин ўз юртимизда қадрлаш учун ҳам йўл берилмади, кўпчилик қадриятларимиз эса топталди. Мустақилликка эришганимиздан кейин ўша топталган қадриятларимизни тиклаш имконига эга бўлдик. Бундан ташқари миллий қадриятларимизни тарғиб қилиш имконига ҳам эга бўлдик. Ўзбек миллий курашини дунёга ёйиш бўйича қилинган ишлар, дунёнинг кўпчилик мамлакатларида ўзбек кураши федерацияларининг тузилиши бунинг яққол мисоли. Дунё бугун Ўзбекистонни миллий-маданий мероси, бой тарихи, тили, маданияти, урф-одат ва анъаналарининг умуминсоний ғоялар билан мужассамлиги, санъат ва архитектура, фан ва маданият соҳасида эришаётган ютуқлари орқали ҳам кашф этмоқда. Демак, биз глобаллашув жараёнида пассив қабул қилуви томонгина бўлмай, фаол тарғиб қилувчиларга ҳам айланишимиз мумкин.

4. Глобаллашув ва миллий ғояга эҳтиёж

Миллий маънавиятимизни ва маънавий ўзлигимизни таҳдидлардан ҳимоя қилиш учун миллий истиқлол ғоясидан самаралироқ ва кучлироқ восита йўқ. Шу масалада миллий истиқлол ғоясининг жуда муҳим функцияси, яъни миллий ва маънавий ўзликни ҳимоялаш

каби муҳим функцияси намоён бўлади. Миллий истиқлол ғояси ана шу функцияни бажариши учун эса ёшлар ва аҳоли онгида фақат билим, тасаввур сифатида эмас, ишонч ва эътиқод сифатида шаклланиши лозим.

Миллий истиқлол ғоясининг шакллантирилиши ва унинг ўқувчилар, талабалар, кенг аҳоли томонидан ўрганишга киришилиши мамлакатимиз маънавий тараққиётида алоҳида босқични ташкил қилади. Аслида миллий истиқлол ғоясининг негизлари чуқур. У халқимизнинг миллий маданий меросидан, эзгу ғояларидан озиқланади. Лекин, бу ғояни ёшлар ва аҳоли онгига сингдириш учун муайян пойдевор керак эди. Яъни, аввало миллий қадриятларни, миллий маънавиятни тиклаш, миллий ғурурни уйғотиш, бир сўз билан айтганда, миллий истиқлол ғояси томир отиши ва гуркираб ривожланиши учун замин тайёрлаш лозим эди. Мустақиллик қўлга киритилгандан буён ўтган давр ичида маънавият соҳасида улкан назарий, маърифий ва амалий ишлар бажарилди. Маънавият ва маърифат кенгашлари тузилди, юзлаб мақола ва рисолалар нашр этилди, тадқиқотлар ўтказилди, таълим тўғрисида миллий дастур қабул қилинди. Бир сўз билан айтганда, миллий истиқлол ғоясини кенг тарғиб қилиш учун замин яратилди.

Миллий истиқлол ғоясини тарғиб қилишда, бизнингча баъзан биртомонламаликка йўл қўйилмоқда. Бу ғояни тарғиб қилишда иштирок этаётган мураббий ва ўқитувчилар, тадқиқотчиларнинг чиқишларида, мақола ва рисолаларида маърифатчилик билан чекланиш кўзга ташланмоқда. Ҳолбуки, маънавиятни ривожлантиришда асосий ёндашув маърифий ёндашув бўлса ҳам миллий истиқлол ғоясини тарғиб қилишда бу ёндашув билан чекланиб бўлмайди. Бу ҳол миллий истиқлол ғоясининг хусусиятлари билан боғлиқ.

Миллий ғоя жамиятни жипслаштирувчи, уни ижтимоий тараққиёт кўндаланг қўяётган масалаларни ҳал қилишга, четдан бўлаётган ғоявий, маънавий таҳдидлардан ҳимоялашга қаратилган кучдир. Жаҳондаги глобаллашув жараёнлари ана шу ғояга бўлган эҳтиёжни кескин кучайтиради. Аслини олганда глобаллашув жараёни бўлмаса, миллий ғояга ҳам эҳтиёж ошмас эди. Чунки, глобаллашув бўлмаганда ҳар бир халқ ва миллатнинг маънавияти ўзича мавжуд бўлар ва имконият даражасида ривож топарди. Ташқи таъсир ва таҳдиднинг йўқлиги эса миллий ғояга эҳтиёжни ҳам долзарблаштирмас эди.

Миллий истиқлол ғоясининг моҳияти шундаки, у одамлар онгида, хотирасида ғоялигича қолмай амалиётга, ҳаётга айланган тақдирдагина ҳақиқий миллий ва ҳақиқий истиқлол ғояси бўлиши мумкин. Шундагина у глобаллашув шароитида миллий маънавиятни ва маънавий ўзликни ташқи носоғлом мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қиладиган кучга айланади.

5. Миллий истиқлол ғояси ва шахсий эътиқод

Миллий истиқлол ғоясининг ҳаётимиз жараёнига сингиб кетишини таъминлаш учун ғоялар амалий ҳаракатларга айланиши жараёнини синчиклаб ўрганиш лозим. Бунинг учун даставвал, ғоя бевосита амалиётга, амалиёт дастурига айланиши мумкинми? Агар мумкин бўлса, бу жараён қандай юз беради? деган саволларга жавоб топиш зарур.

Замонавий психология, ижтимоий психология ва бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар нуқтаи назаридан бу саволга “кўпинча айланмайди” деб жавоб бериш керак. Чунки инсон онгида, миясида ўнлаб, юзлаб ва ҳатто минглаб ғоялар бўлади. Уларнинг барчаси ҳам амалиётга айланавермайди. Чунки, айни бир инсон онгида айни бир пайтнинг ўзида ўнлаб турли хил, жумладан, диний, аҳлоқий, сиёсий, илмий, бадиий ва бошқа хил ғоялар бўлиши табиий. Улар бир-бирларини тўлғазиши ва кўпинча бир-бирларига тўла мос келмаслиги мумкин. Натижада, шахс бу ғоялардан энг зарурларини ва ўзи энг тўғри, деб билганларини ажратиб ҳаётга тадбиқ қилади ёки унга амал қилади. Ана шу танлаш, яъни ғоянинг амалиётга ўтишидаги муҳим босқични тўлароқ ва чуқурроқ англаш учун шу танлаш мезонларини аниқлаб олиш зарур.

Ғояларни саралашда шахс фойдаланадиган мезонларнинг энг муҳимларидан бири, саралаб олинаётган ғоянинг ёки мақсаднинг шахс, миллат, халқ ёки жамият манфаатларига, эҳтиёжларига, қурилмаларига, эътиқодига мослигидир. Бу ҳодисалар, яъни манфаатлар, эҳтиёжлар, установкалар, эътиқодлар ва уларнинг ғоялар билан ўзаро алоқадорлиги мураккаб. Бунинг устига бу муаммо жаҳон фанида ҳам кам ўрганилган. Мамлакатимиз психолог олимлари бу муаммо устида энди бош қотира бошладилар.

Муаммонинг мураккаблигини ҳисобга олиб биз унинг фақат бир жиҳати яъни ғоялар ва эътиқод алоқадорлиги тўғрисида фикр юритмоқчимиз. Эътиқод шахс онгида

шундай муҳим ўрин тутадики, унинг ҳаёт йўналиши, ҳаёт тарзи, интилишлари мана шу эътиқод билан белгиланади.

Инсон онгига йўл топаётган, кириб бораётган ғоялар ҳам мана шу эътиқод чиғириғидан ўтказилади. Эътиқодга мос келмайдиган ғоялар рад этилади. Лекин, ғоя ва эътиқод алоқадорлиги фақат бир томонлама жараён эмас. Уларнинг алоқадорлиги фақатгина эътиқоднинг назоратчилиги, ғояларни элакдан ўтказиши билан чекланмайди. Шундай ҳолатлар ҳам бўладики, инсон онгига кириб келаётган ғоя ундаги эътиқодни мустаҳкамлайди ёки бўшаштиради, баъзан эса шу ғоянинг ўзи эътиқодга айланади.

Мустақиллик қўлга киритилгач, мамлакатимизда кенг қамровли ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар бошланди. Бу ислоҳотлар жараёнида мулкни давлат тасарруфидан чиқариш, хусусийлаштириш, ижтимоий-сиёсий ҳаётни эркинлаштириш сингари кўплаб тадбирларни амалга оширишга киришилди. Ислоҳот ижтимоий руҳият соҳасида ҳам амалга оширила бошлади. Бу соҳадаги энг муҳим вазифа одамларни мустақил фикрлашга ўргатиш эди. Бунинг учун эса уларни собиқ шўролар тузуми қолипларидан, боқимандалик, ўзибўларчилик кайфиятидан ёт ва бегона ғояларга бўлган эътиқоддан халос қилиш керак эди. Бу йўналишда муайян ишлар амалга оширилди. Бироқ бу жараён мамлакатимизда миллий истиқлол ғоясининг асосий тушунча ва тамойиллари шаклланиши билан ўзининг якунловчи палласига кирди. Чунки, табиатда бўлмагани сингари инсон онгида ҳам мутлақ бўшлиқ бўлмайди. Собиқ тоталитар тузум сарқитларини инсон онгидан супуриб ташлаш учун кучли маънавий қурол керак. Бундай қурол вазифасини фақат миллий истиқлол ғояси бажариши мумкин. Чунки, ҳаётбахш ғоя билан қуролланмай туриб эски ғоялар таъсиридан тўла қутилиш мумкин эмас. Шуниси ҳам борки, миллий истиқлол ғоясидан жамият аъзоларининг кўпчилиги хабардор бўлиши эски тузум сарқитларини супуриб ташлаш учун кифоя қилмайди. Миллий истиқлол ғояси ишонч ва эътиқодга айлангандагина эскилик сарқитларини супуриб ташлаши мумкин.

Жамиятда ғоянинг эътиқодга айланиши унинг амалиётга ўтишидаги муҳим босқичдир. Шахс эътиқодига айланган ғояни рўёбга чиқариш учун ҳаракат қила бошлайди. Эътиқод қанчалик кучли бўлса, уни амалга ошириш учун шахс шунчалик эҳтирос билан ҳаракат қилади. Кучли эътиқод йўлида шахс билимини, кучини, бойликларини, ҳатто ҳаётини ҳам аямайди. Тарихдан бунга кўплаб мисоллар келтириш мумкин. АҚШ Президентларидан бири Т.Жефферсон “Озодлик шундай дарахтки, у баъзан одам қони билан суғориб туришларини талаб қилади”, деганда худди шундай эътиқодли одамларнинг озодликни ҳимоя қилиш йўлида улар ўз жонидан кечишга ҳам тайёр туришларини назарда тутган эди. Юртимиз тарихида озодлик дарахтини ўз қони билан суғорган ёки суғоришга тайёр турган қаҳрамонлар кўп бўлган. Ўғизхон, Широқ, Тўмарис, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Бобур Мирзо сингари шахслар шулар жумласидандир. Улар эътиқодлари туфайли озодлик, юрт мустақиллиги йўлида бутун куч-ғайратларини, зарур бўлганда жонларини ҳам аямадилар.

Мустақилликни ҳам озодликка ўхшатиш мумкин. Улар - эгизак. Мустақилликсиз озодлик бўлмайди ва аксинча - озодликсиз мустақилликка эришиб бўлмайди. Мустақилликни ҳимоя қилиш учун жон фидо қилишга тайёр ўғлонлар бўлмаса у қуриб қолади. Мустақиллик дарахти гуллаб-яшнаши учун унинг пойига кўпроқ тер тўкиш керак. Ватан ўғил-қизлари қанчалик кўп меҳнат қилиб тер тўксалар, мустақиллик дарахти, унинг илдизлари, илдизлари орасидаги ўқтомир-миллий истиқлол ғояси шунчалик барқ уриб ривожланади. Лекин фақат маърифат билан қаноатланилса, нари борганда истиқлол ғоясини изоҳлаб, тушунтириб бериш мумкин, изоҳлаш ва тушунтириш йўли билан эса одамларнинг фақат фикрига, хотирасига таъсир ўтказса бўлади. Миллий истиқлол ғоясини яхши тушуниб олган талаба ёки ўқувчи имтиҳонда “аъло” ёки “яхши” баҳо олиши мумкин, лекин унда бу ғояга эътиқод шаклланмаган бўлса бу билимни у тезда унутади. Эътиқод шаклланиши учун фақат билимнинг ўзи кифоя қилмайди. Эътиқод, хусусан ғоявий эътиқод билим ва ҳис-туйғунинг фарзандидир. Ғоявий эътиқоднинг отаси билим бўлса, онаси ҳис-туйғудир. Улардан бири бўлмаса ғоявий эътиқод ҳам бўлмайди. Шу хусусияти билан ғоявий эътиқод эътиқоднинг бошқа турларидан, айтайлик диний эътиқоддан фарқ қилади. Диний эътиқод шаклланиши учун дин арконлари тўғрисида чуқур билим бўлиши шарт эмас. Диндорларнинг кўпчилигида ана шундай чуқур диний билим йўқ, лекин уларнинг талай қисмидаги эътиқод билимдон уламоларнинг эътиқодидан кучлироқ бўлиши мумкин. Бунинг

сабаби шундаки, диний эътиқод билимни инкор қилмайди, лекин унда эҳтирос устиворлик қилади. Дин бўйича жуда кўп билимга эга бўлган одамнинг эътиқоди суст ва бунинг аксича, оз билимга эга бўлган одам кучлироқ эътиқодга эга бўлиши мумкин. Шунинг учун илм, маърифат билан бирга унга амал қилиш муҳим. У эътиқодни мустаҳкамлайди.

Илмига амал қилмаган мулладан бешак, афзалдир устига китоб ортилган эшак, деганда Шайх Саъдий билимдон, лекин эътиқодсиз муллаларни назарда тутган эди.

Миллий истиқлол ғоясининг моҳиятига монанд тарзда уни ёшлар ва аҳоли онгига сингдириш бўйича олиб борилаётган ишлар маърифийлик билан чекланмай эътиқодни шакллантириш учун амалиётга йўналтирилиши муҳим. Бунинг учун эса эътиқоднинг ўзига хос хусусиятлари, унинг шаклланишидаги босқичлар, мураккабликлар, нозикликларни доимо ёдда тутиш зарур бўлади.

Миллий истиқлол ғояси ҳам ишонч ва эътиқодни ҳамда унга амал қилиб ёндоша бошлаган кишилар фаолиятида самара беради. Ишонч ва эътиқоднинг мустаҳкамлиги кишиларнинг миллий ва умуминсоний қадриятларига, маданий мероси, урф-одатлари, анъаналарини, тили, тарихини ҳурмат қилиши, унга бўлган эътиқоди ва садоқати орқали намоён бўлади. Шунда у миллатни глобаллашув жараёни билан айрим таҳдидлардан сақлайди.

Мавзуни мустаҳкамлаш учун саволлар:

1. Глобаллашув деганда нимани тушунасиз?
2. Нима учун мафкура полигонлари ядро полигонларидан кучли?
3. Икки қутбли дунё нима эди ва нега барҳам топди?
4. Япон тажрибаси нима?
5. Қандай мафкура полигонларини биласиз?

6-мавзу: Хозирги даврда гоявий таҳдидларнинг йуналишлари ва ахборот ҳавфсизлиги.

1. XXI асрда ғоявий-мафкуравий муносабатлар кескинлашувининг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий сабаблари.
2. Мафкуравий таҳдиднинг ошкора ва ёпиқ характери.
3. Ахборот ҳавфсизлигининг локал ва глобал ахамияти. Хавфсизлик ва барқарорликка таҳдидлар ва мафкуравий иммунитет
4. Ғоявий ҳимоянинг хориж тажрибаси намуналари

1.Мафкуравий иммунитет - хавфсизликнинг маънавий асоси

Мустақилликни мустаҳкамлашнинг муҳим шартларидан бири бу ғоявий тарбияни кучайтиришдан иборатдир. Бу борада кишиларимизда ёт ва зарарли ғояларга қарши курашиш учун мафкуравий иммунитетни шакллантириш зарур. Албатта, мафкуравий иммунитетни шакллантириш кишилар онгига бир хил ғояни зўр бериб тиқиштириш эмас, балки одамларда оқ-қорани ажратиш, зарарли ғояларга қарши ҳушёр ва огоҳ бўлиш хусусиятларини тарбиялаш демакдир. 1999 йил февраль, 2004 йилнинг мартидаги Бухоро ва Тошкент шаҳрида содир этилган террористик воқеалардан тўғри хулоса қилиш муҳим. Ҳар бир давлат, жамиятнинг қудрати унинг ички хавфсизлиги ва барқарорлигига таянади. Яъни жамият, миллат ўз ғоясида мустаҳкам турса, иккиланмаса, ҳар қандай душман қўллаши мумкин бўлган мафкуравий таҳдидларидан қўрқмаса, бундай миллатни енгиш мумкин эмас. Аксинча, жамият ичида ғоявий парокандалик, бўлинишлар бўлса, (бунга тарихда мисоллар кўп) душманларга, уларнинг ёт мафкураларига йўл очиб беради. Бундай миллатни енгиш, мустамлака қилиш осон кечади (бунга ҳам тарихда мисоллар кўп). Бу ҳақда А. Орипов:

Туркистоннинг болалари, мақтовимга қулоқ тутманг,
Гина қилсам чиданг, аммо гапларимни ҳеч унутманг.

Ўт кетсин у қора кунга - бировларга қул бўлдингиз,
Шарқу Ғарбнинг ўртасида оёқ ости йўл бўлдингиз[1].

деган эди ўзининг «Туркистоннинг болалари» шеърида. Шундай экан, барқарорлик ва хавфсизлик – жамиятнинг онглилигига, англанган тўғри тушунча ва билимларга фаол амал қилишига, фикрий, ғоявий бирлигига, булар эса хавфсизлик маърифатига таянади.

Мамлакатимизнинг хавфсизлиги, барқарор тараққиёти ҳеч бир ўзбекистонликни бефарқ қолдирмаслиги керак. Чунки улар ўз, ягона Ватанининг тарихи қандай машаққатли, азобли асрларни ўтказиб, мустақилликка эришганлигини яхши биладилар. Шундай экан, Ватан - Ўзбекистоннинг посбони ҳам миллатидан, динидан, туғилган жойидан, касбу-ёшидан қатъий назар унинг ўзбекистонлик бўлишидир. Демак, мамлакатимизнинг хавфсизлиги учун энг биринчи кафолат – ўзбекистонликларнинг миллий истиқлол ғояси атрофидаги жипслигидир. Шу тариқа миллий ғоя бизни ўтмишимиз, ҳозирги ҳаётимиз ва келажагимиз билан боғлаб туради. Шу сабабли Ўзбекистон халқининг миллий истиқлол ғоясига асосланган иммунитети - Ватан хавфсизлиги даражасининг муҳим кўрсаткичларидан бирига айланади.

Миллий истиқлол ғояси халқ фаровонлиги, юрт тинчлиги, Ватан равнақи, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенглик, комилликка таянар экан, ана шу ғояларга қарши қаратилган хатти-ҳаракатлар ташқи ва ички таҳдидларни олдини олади. Ташқи таҳдидлар - Ўзбекистоннинг давлат чегарасидан ташқаридан кириб келувчи, ички таҳдидлар эса Ўзбекистон давлати мамлакатнинг ичидан чиқаётган таҳдидлардир. Биз кўп асрлар ана шу ички таҳдидлар туфайли мустамлакаликда яшаб келдик.

Ички таҳдидлар - ўз Ватанига, ватандошига, ватандошларига зарар етказишга қаратилган ғоя, фикр, хатти-ҳаракатлардир. Носоғлом маҳаллийчилик, ёнидагиларни менсимаслик, ватандошларнинг ҳаққига хиёнат қилиш, «маънавий эмиграция» (бахтини ўз ватанидан эмас, ўзга жойларда қидириш), одамларни бой-камбағалга бўлиб муомала қилиш, порахўрлик, коррупция, қўполлик, ашаддий миллатчилик, меркантилизм, ортиқча мол-дунёга ҳирс қўйиш, бефарқлик, лоқайдлик, ўзлигини англамаслик ва бошқа иллатлар билвосита ички таҳдидлар вазифасини бажаради. Улар қанча кенг тарқалса, ўзбекистонликларнинг ғоявий бирлигига шунча кўп зарар етказади, пароканда қилади, ҳамжиҳатлик бўлмайди. Ғоявий бирлиги мўрт миллатнинг давлат хавфсизлиги ҳам мўрт бўлади.

Барча замон ва маконларда маънавияти кучли, ишонч ва эътиқоди мустаҳкам миллат бир жону бир тан бўлиб, муаммоларни тез ва соз ечган, пешқадам бўлган. Мафкуравий бирлиги ичидан ёки ташқаридан бузилган миллатлар эса, мағлуб бўлиб, мустамлакага айланган. Бунинг тарихий мисолини Билга хоқоннинг турк халқига бундан 1266 йил олдин тошга битилган мурожаатида ҳам кўрамиз. Бу битик мафкурасизликнинг аянчли оқибатларини тасвирлайди. Билга хоқон турк элининг адашуви натижасида унинг бошига қанчалар фалокат ёғилганини куйиниб айтади. «Табғач халқи сўзи ширин, нафис ипаклари билан алдаб, йироқ халқни шундай яқинлаштирар экан. Яқин бўлгандан сўнг ёвуз илмини у ерда кўрсатар экан... Ширин сўзига, нафис ипаклигига алданиб, кўп турк халқи, ўлдинг. Эй, турк халқи, ўлдинг...»

Ушбу тарихий мисол «мафкура бўлмаса одам, жамият, давлат ўз йўлини йўқотиши муқаррар» эканлигини кўрсатиб туради.

2.Мафкуравий иммунитет

Гўдак дунёга келганида, иссиқдан, совуқдан, ташқи механик таъсирлардан ўзини хавфсиз қилиш,сақлаш, ҳимоя қилишни билмайди. Ўзини ўзи ҳимоя қилишнинг шартли рефлекслари аста-секин, улғайиш давомида пайдо бўлади. Натижада балоғатга етгач, ўспирин ўзини ўзи ҳимоя қилишнинг барча кўникмаларига эга бўлади.

Одамнинг маънавиятига таҳдид соладиган хавфлар ва улардан ўзини онгли ҳимоя қилиш кўникмалари таълим-тарбия, ота-оналар ўгитлари, яхшилик ва ёмонликларни кўриши ва билиши жараёнида шакллана боради. Болага илк ёшидан бошлаб нима яхши, нима ёмон, уларга қандай муносабат билдириш керак, деган саволларга асосланган боғча, мактаб тарбияси, ундан кейин ижтимоий тарбия йўлга қўйилсагина ҳар бир миллат соғлом, ишончли, мустаҳкам иммунитетга эга бўлади. Иммунитет эса ўз навбатида одамни тўғри йўлдан «озиш»дан, турли йўлларга адашиб, кейин пушаймон бўлишлардан, бахтсизликдан,

миллатни эса - парокандаликлардан, парчаланишлардан, синфий, маҳаллий ёки бошқа бўлинишлардан асраб туради. Демак, мафкуравий иммунитет - давлат ва миллатнинг маънавий бирлиги, маънавий соғломлигини ҳимоя қилувчи ғоявий қалқон вазифасини бажаради. Шунинг учун ҳам Президент Ислом Каримов «*Фарзандларимиз юрагида она Ватанга, бой тарихимизга, ота-боболаримизнинг муқаддас динига соғлом муносабатни қарор топтиришимиз, таъбир жоиз бўлса, уларнинг мафкуравий иммунитетини кучайтиришимиз зарур*»лиги ҳақидаги фикрни алоҳида таъкидлаганлар.

«Иммунитет» сўзининг маъноси Ўзбекистон миллий энциклопедиясида қуйидагича берилган: (лот. - бирон нарсадан халос, озод бўлиш, қутулиш) - тирик мавжудотларнинг ўз бутунлиги ва биологик ноёблигини бузувчи ёт омиллардан ҳимояланиши, қаршилик кўрсатиши, резистентлиги. Ёт омилларга бактерия ва уларнинг токсинлари, вируслар, замбуруғлар, содда жониворлар, гельминтлар, кўчириб ўтказилган аъзо ва тўқималар, организмнинг ўзгарган ўз ҳужайралари (мас., ўсмасимон ҳужайралар) ва б. киради. Бу омиллар организм учун ирсий бегона бўлган кимёвий агентлар – антигенларни тутиб қолади[2].

Организмни инфекцион агентлар ва бошқа ёт моддалардан ҳимоя қилиш омиллари табиати бўйича учга бўлинади:

Биринчиси. Филогенетик иммунитет - анатомик ва физиологик белгилар билан таъминланиб, наслдан-наслга ўтадиган номахсус ҳимоя омиллари ёки организмнинг номахсус резистентлиги. Бу омиллар патоген агентлар билан биринчи бўлиб алоқа қилади, шунинг учун уларнинг фаолияти ҳисобига одам организмининг кўпгина юқумли касаллик қўзғатувчиларга чидамлилиги таъминланади.

Иккинчиси. Туғма иммунитет (турга хос, табиий) – бир биологик турнинг маълум бир патоген агентга нисбатан чидамлилиги бўлиб, наслдан-наслга ўтади.

Учинчиси. Орттирилган иммунитет – ҳаёт давомида организм иммун системасининг ёт антигенлар билан таъсирлашуви ҳисобига юзага келадиган ҳимоя бўлиб, наслдан-наслга ўтмайди.

Мафкуравий иммунитет маънавий, маърифий, сиёсий, иқтисодий билимларни оддийгина қабул қилиб олишини эмас, балки уларни онгли равишда тушуниб етишни, бу билимлардан замонавий ижтимоий воқеаларга мафкуравий курашлар воқелигидан келиб чиқиб, муносабат билдириш кўникмаларини шакллантириш, айрим носоғлом ғояларга жавоб бериш, уни қабул қилмаслик ҳолатидир.

«… Ана шунда жоҳил ақидапарастликнинг «даъвати» ҳам, ахлоқни рад этадиган, биз учун мутлақо бегона ғоялар ҳам ўз таъсирини ўтказа олмайди»[3]. Мафкуравий иммунитет ўз-ўзидан намоён бўлмайди. Унинг намоён бўлиши учун ички ёки ташқи ғоявий, фикрий таъсир бўлиши керак. Инсон қаршисида янги, нотаниш ғоя, таклиф турганида, ёки икки йўлдан бирини танлашга тўғри келганида уларни ўз манфаатлари “кўриги”дан ўтказади. Унинг ўша пайтдаги манфаатларига кўпроқ мос келган, бошқа ғоялар, таклифларни енгган ғоя энди унинг ҳаракатларини бошқара бошлайди. Масалан, Даврон кечқурун “Интернет синфи”га бориб, мутахассислиги бўйича янгиликларни тўпламоқчи эди. Шунда курсдош ўртоғи Баҳодир унинг хонасига кириб, унга дискотекага боришни, спиртли ичимликлар билан ҳордиқ чиқаришни таклиф қилди. Даврон унамади, Баҳодир ҳам бўш келмай, уни астойдил кўндиришга киришди, қизиқтира бошлади. Давроннинг бугун кечқурунга мўлжалланган нияти, кичик “ғояси”нинг амалга ошиши хавф остида қолди. Мана шу типик вазиятда ҳам ўзига хос ғоялар курашининг кичик намунаси мужассам. Давроннинг Интернет синфида ишлаш, билимини ошириш нияти, қарори, ғояси мустаҳкам бўлса, у ушбу ғоясини ҳимоя қилади. Натижада Баҳодир даъват қилаётган дискотекага бориш ғояси енгилади. Даврон ўзининг касбий, илмий карьераси йўлида яна бир қадам олдинга кетади.

Мафкуравий иммунитет муайян ғоялар тўқнашган вазиятларда намоён бўлади. Мафкуравий иммунитет фикрий жараён натижаси бўлганлиги туфайли у илмий асосланган, далиллар системасига қурилади. Талаба мафкуравий иммунитетининг таркибини мафкуравий билим (вайронкор ва бунёдкор ғояларнинг моҳияти, фарқи ҳақидаги) (Ҳ) ҳис-туйғу, (И) ирода, (К) кўникма ва малакалар (М)тизими ташкил қилади. Мафкуравий кўникмалар билим, фаолият ва ҳатти-ҳаракатлар бирлигида намоён бўлади. Малакалар эса ёт ғоялар таъсирига қарши қаратилган автоматлашган муносабат, адекват йўл ва

усуллардир. Шу тариқа мафкуравий иммунитетнинг формуласини қуйидагича ифодалаш мумкин:

МИҚБ+Ҳ+И+К+М

Мафкуравий кўникма ва малакаларнинг ҳосил бўлишида миллий ғоя негизлари муҳим роль ўйнайди. Агар мафкуравий таҳтид сезилганда, нима қилиш кераклигини ўйлаб ўтирмай ва айрим ҳаракатларга алоҳида диққат қилиб ўтирмай ғояга ғоя билан жавоб бериш амалда бажарила бориладиган бўлса, мафкуравий иммунитет амалий шаклланди, деб ҳисоблаш мумкин.

Ўз миллатини, унинг шаън-шавкатини, салоҳияти ва қадриятларини оёқ ости қилган, унинг дардига малҳам бўла олмайдиган киши қандай мавжудот бўлса бордир, аммо инсон эмас. Сиз Ўзбексиз ва, аввало шу билан бахтлисиз.

Ғайбуллоҳ Ас-Салом

Миллий истиқлол ғояларига шахснинг ишончи, мустаҳкам иродаси унинг мафкуравий иммунитети манбаи ҳисобланади. Бундай мафкуравий иммунитетга эга бўлган шахс ёт мафкуралар таъсирига берилмайди, чунки Миллий истиқлол ғояси мафкуравий иммунитетни шакллантиришда ўзига хос имконият ва хусусиятларга эга.

Мафкуравий иммунитет миллий мустақилликнинг афзалликларига бўлган ишончга қурилади. Бу ишонч эса ишонтириш, тушунтириш натижасида ҳосил бўлади. Масалан, Ўзбекистон - дунёвий давлат. Дунёвий давлат фаолиятининг асосий тамойиллари, афзалликлари уларни диний давлат билан таққослагандагина кенг ва тўлиқ тушунчаларни беради. Бу дунёвий миллий-демократик тузумнинг моҳияти ва афзалликларини англаб етишга олиб келади. Тараққиётнинг «Ўзбек модели» ривожланишининг умумий қонуниятларини, ҳамда бошқа давлатларда юз бераётган жараёнлар, ҳодисаларни қиёслаш, англаб етишга имкон беради.

Демак, мафкуравий иммунитетни шакллантириш-муайян мафкуравий вазиятда инсоннинг ўзи, халқи, Ватани манфаатлари бирлигидан келиб чиқиб, ёт ғояларга қарши тура олиш малакаларидир.

3.Ғоявий манипуляция

Инсон бирор жисмоний касалликка чалинса, унинг олдини олиш, даволаш мумкин. Миллат маънавиятининг заифлиги, унинг характеридаги хафсаласизлик, бефарқлик, ғайратсизлик, ўзаро ички муносабатларда алдамчилик, қўполлик, жоҳиллик, худбинлик, ялқовлик ва бошқа нуқсонларда намоён бўлади. Демак, ҳозирги ўзимизни ўзимиз баркамол қилишимизга тўсқинлик қилаётган маънавий жароҳатларимизни даволашимиз учун масалага аниқ, яъни реал миллий характерни ўрганиш ва ўзгартириш омили сифатида ёндошмоғимиз зарур.

Натижада миллатнинг ўз аҳволига ўзининг муносабати, ижобий жиҳатларни ошириш ва қусурларни маърифий йўл билан даволаб, кучлантириб, жаҳоннинг илғор миллатлари сафига қўшилиши мумкин.

Жамиятнинг ўз эртаси ва келажагига ишончи ўз-ўзидан ҳосил бўлмайди. Бунинг замирида миллат бахт саодати йўлида, демак хар бир фуқаро манфаатидан келиб чиқувчи махсус фаолият - мафкуравий тарбия ётади. Мафкуравий тарбия деганда гап, «кишилар дунёқарашини бошқариш хақида эмас, балки одамларнинг тафаккурини бойитиш, уни янги маъно ва мазмун билан тўлдириш»ни ҳам англатади.

Мафкуравий тортишувларда таҳдид солувчи ҳам, ўзини ҳимоя қилувчи ҳам - ғояни оммалаштириш услубларидан фойдаланади. Бу - мафкуравий тарбия услубларидир. Демак, қайси томоннинг енгишини пировард натижада илмга асосланган тарғибот ва ташвиқот ҳал қилади. Шу тариқа мафкуралар тортишуви - тарғибот ва ташвиқотлар тортишувига айланади, дейиш мумкин. Шу сабабли «Миллий истиқлол мафкураси том маънодаги миллий мафкурага айланиш учун қатор талабларга жавоб бериши зарур. Ана шундай талаблардан бири - ҳар қандай ёвуз ғояга қарши жавоб бера олишидир.[4.]

Жамиятга ёт мафкуралар ўз ғояларини бирданига олиб кира олмайди. Улар аввало маҳв қилиниши керак бўлган миллат азалдан ишониб келган нарсаларга ишончини, умидини сўндиради. Бунинг учун миллат ишониб келган нарсалар ёмонланади, обрўсизлантирилади. Натижада мафкуравий иммунитетни синдиришнинг биринчи босқичи амалга ошади - миллат ўзи ишониб келган ғоялар, қадриятларга бефарқ муносабатда бўла бошлади. Азалий қадриятларга амал қилинмай қўйилади, одамларда уларга амал қилмаётганларга лоқайд

муносабат урф бўлади. Қадриятлар, ғоялар қадрсизланади, аҳамиятсиз нарсаларга айланиб қолади. Бўшлиқ ана шундай яратилади, «очиб олинади».

Мафкуравий бўшлиқ очиб олингач, энди унинг ўрнини тўлдириш ўз ғоясини жозибали тасвирлай бошланади. Бузғунчи ғояга хос «янгилик» ва у бераётган ваъдалар одамлар қулоғи ва кўзи орқали онг ва қалбига кира бошлайди. Мафкуравий бўшлиқ шу тариқа тўлдира бошланади. Ёлғон ғоя одамлар онгига кирса, у ҳам катта кучга айланади.

Ҳозирги фан ва технологиялар равнақи даврида бошқа кишиларнинг онги ва қалбига яширин, ғараз мақсад билан таъсир кўрсатишни ифодалашда м а н и п у л я ц и я (manus – қўл), сўзи, яъни объект устидан бирор мақсадда иш олиб бориш маъносида ишлатилмоқда. Бунда чаққонлик, маҳорат талаб қилиниши кўзда тутилади. Шу сабабли «манипуляция»ни кўчма маънода «одамлар билан объект сифатида муносабатга киришиш» деб ҳам тушуниш мумкин. 1969 йил Нью Йоркда чоп қилинган «Замонавий социология луғати»да бу ҳақда «бошқаларга билдирмасдан, асл мақсадни яширин тутган ҳолда бошқалар устидан ҳукмронлик қилиб, ўзи истаган хулқ-атворни шакллантириш» дейилади.

Биз учун муҳим жиҳати шундаки, ушбу вазиятда шахс ва унинг мафкуравий иммунитетига таъсир кўрсатиш жараёни манипуляция тушунчасида акс этади. Чунки, масалан, «даъватчи»нинг таъсири биринчидан шахсга нисбатан зўрлик, куч ишлатилмайди, балки маънавий, психологик хусусиятга эга; иккинчидан, бу таъсирда асл мақсад яширин қолади. Шунинг учун ҳам «ислом дини ниқобида» деган ибора ишлатилади; учинчидан, ғоявий манипуляция, зимдан таъсир кўрсатувчидан маҳорат ва билимни талаб қилади. Шундай экан, ғоявий манипуляцияни мафкуравий кураш, ёт мафкуралар томонидан қўлланилаётган таъсир технологиясининг таркибий қисми, деб аташ мумкин. Яъни манипуляция одамни у ёки бу ишни қилишга эмас, (тарғибот ва ташвиқотдан фарқли ўлароқ), балки шу ишни қилишга ҳоҳиш, истак уйғотишга хизмат қилади.

Бунда, яъни ғоявий манипуляцияда қандай жараёнлар кечади? Аввало ғоявий манипулятор (даъватчи)нинг мақсади - унга ўз тасаввурларини ўзгартиришга олиб келувчи белги, билимлар бера бошлайди. Натижада объект (шахс)нинг дунё, дин, ҳаёт, яшашдан мақсад каби тасаввурлари, қадриятлари тизимида даъватчи-манипулятор кутаётган тартиб пайдо бўлади ва етакчилик қила бошлайди. Бу эса шахснинг хулқ-атворига таъсир кўрсатади, шахс ўз характеридаги ўзгаришларни сезмайди ва «мен тўғри йўл тутаяпман, чунки ...», деган асосга эга бўлиб қолади.[5]

Шу ўринда Президент Ислом Каримовнинг «80-йилларнинг охирида мамлакатимизда ўзини «дўст», «диндош», миллатдош қилиб кўрсатиб, гўё ислом динининг софлиги учун курашга «даъват» этувчи айрим кимсалар кириб келди... Жуда «чиройли даъват»лар билан чиқиб, айрим ёшларни ўзига маҳлиё қилишга эришди ҳам. ... улар дин инқоби остида ҳаракат қилаётган халқаро террорчилик ҳаракатининг бир тўдаси экани ошкора бўлди...»[6], деган фикрларини эслаш ўринлидир. Бу ўгитлар бизни нафақат огоҳликка, балки мафкуравий кураш майдонига чорламоқда. Бу курашда бизга ота бобларимизни кўриб, синаб айтган ҳикматлари ҳам қўл келади.

4.Мафкуравий иммунитет ҳақида тарихий битиклар

Жаҳон тажрибасига назар ташласак, миллатнинг мафкураси бир эмас, балки бир неча авлоднинг умри давомида ишлаб чиқилиши ва такомилга эришувига гувоҳ бўлишимиз мумкин. Бутун халқни барлаштирадиган байроқ бўлмиш миллий ғояни шакллантириш учун инсоният тарихининг турли даврларида битилган битикларда ҳам ўз ифодасини топган, унинг ёрқин ифодасини қадимги Шарқ ва ислом фалсафасининг буюк намояндалари ижодида ҳам учратиш мумкин.

Инсоният тарихида мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш, бунга эришилмаганда бу қандай фожиаларга олиб келиши мумкинлиги ҳақида битиктошларда қолдирилган миллатга огоҳлантириш даъватлари мавжуд. Мана шулардан бири:

Самимий, носамимийни ажратмайсан, ким қаттиқ гапирса, самимийни ҳам танимайсан. Ўшандайлигинг учун тарбият қилган ҳоқонингнинг сўзини олмайин ном-нишонсиз кетдинг.

Кул тигин битиги

«Азизим, сен душман сўзларига дарҳол ишониб қўя қолма унинг сўзлари ҳийла ва алдовдан иборат бўлиб, у ўз мақсадига эришиш учун ўзини ниҳоятда, мулойим қилиб кўрсатади. Ички оламини ташқи олами билан бўяб кўрсатади. Сени ғафлатда кўргач, тадбир

ўқини мақсад нишонига уради. У пайтда сен учун чора-тадбир кўриш фурсати ўтган бўлиб, ҳасрат ва надомат ёрдам бермайди. Чунончи айтадилар:

Душман иши аввал іийла-ю, найранг,
Сўнг ҳужум бошлайди қилади гаранг.
Бу селнинг йўллари тўсилмаса гар,
Юзланар беҳисоб фитна-ю зарар.
Фитна йўлин бугун тўсмасанг маҳкам,
Эртага кучаяр бўлиб мустҳікам!

Хўжа Самандар Термизий

Халқчил талқинда мафкуравий таҳдидни - даъватчининг суҳбатдошини ўзига оғдириб олиш учун қилинадиган уринишларига, мафкуравий иммунитетни эса шахснинг «оғмасдан», ўзлигида собит ва содиқ тура олишига ўхшатиш мумкин. Шунинг учун ўз қарашига, шахсий фикрига эга бўлмаган оғма одамларни ўзбеклар «бетутруқ», «субутсиз», «унга ишониб бўлмайди», «иккиюзламачи», «сотқин», «хоин» каби сўзлар билан атайди.

Бу каби мисоллар мафкуравий иммунитетни синдириш, бўшлиқ ҳосил қилиб, ўз ғоясини сингдириб, халқ онг ва қалбини эгаллаш, ғояни оммалаштиришнинг жуда кўп намуналари учради. Чунки тарғиботчилар олишуви, кураши нақадар узоқ тарихга эга. Бу ҳақда Хитойлик файласуф ва ҳарбий кўмондон Сун Цзы (э.о. VI асрда) шундай деган эди:

- «Сиз рақиб мамлакатдаги барча яхши нарсаларни бузинг, айнитинг;
- Рақиб давлатдаги атоқли арбобларни шерик қилиб олиб, жиноятга бошланг;
- Рақиб давлат раҳбариятининг обрўсини тўкинг, қулай пайтда уларнинг жамоат олдида шармандасини чиқаринг;
- Бу ишда ўша мамлакатдаги энг паст, мараз одамлар билан шериклик қилинг;
- Рақиб мамлакат одамлари орасида келишмовчилик, жанжал чиқаринг;
- Ёшларни кексаларга қарши гиж-гижланг;
- Ҳукуматни яхши иш юритишига ҳар қандай йўл билан қаршилик кўрсатинг;
- Рақиб қўшинларининг таъминоти, тартибига тўсиқлар қўйинг, бузинг;
- Аскарларини қўшиқ ва куйга ошифта қилиб, иродасиз қилинг;
- Душманингизнинг анъаналарини қадрсизлантиринг, худоларига ишончини синдиринг;
- Бузуқ аёлларни юбориб, уларни янада кучлироқ айнитинг;
- Рақиб томон ҳақида маълумот олишга, бу ишда улар орасидан шериклар топишга, уларга пул тўлашда жуда сахий бўлинг;
- Умуман пулни ҳам, ваъдаларни ҳам аяманг, чунки улар ажойиб натижаларни беради»

Ўзбеклар бир-бири билан саломлашгач, «Нима гаплар?» ёки «Еган-ичганинг ўзингга, кўрган-эшитганингдан гапир», - дейди.

Айниқса, ўз шахсий манфаатларига тегишли муаммоларга дуч келганларида одамлар унинг сабабларини ахтара бошлайдилар. Шу сабабли, газеталар шарҳи, телевидениенинг келаси ҳафта кўрсатувлари ҳақидаги хабарлари, иқтисодиёт, масалан, валюта курси, сиёсий ҳаёт янгиликлари олдиндан тарқатилади. Ҳар бир киши, ўзига керакли маълумотни танлаб тинглайди, эшитади ва ўз саволларига жавоб топади. Ўзининг сувга чанқоғини қондиргани каби «ахборот чанқоғини» ҳам қондиради.

Агарда расмий оммавий ахборот воситалари одамларда туғилган саволларга жавоб топа бера олмаса, одамлар бу саволларга жавобларни ўзлари «тўқийдилар». Бу тарихда кўп кўрилган.

Мафкуравий курашлар тарихида тарғибот усулларидан, жумладан миш-мишларнинг келиб чиқиш сабаблари, мақсадалари ҳақида улуғ алломаларимиздан Абу Райҳон Беруний бундан минг йил бурун ўз даври услубида шундай ёзган эди:

«Хабар берувчилар сабабли ростлик ва ёлғонлик тусини олади. Чунки одамларнинг мақсадлари хилма-хил; халқлар ўртасида тортишиш ва талашиш кўп»[7], - деб ёзади ва миш-миш тарқатувчиларнинг ёлғон сўзлашидан аниқ манфаатлар ётиши ҳақида шундай дейди: «...бир киши ўзини кўрсатиш мақсадида бошқа бир зид жинсни айблаб, ёлғон гап ёяди, чунки у шу билан (зид жинс устидан) ғалаба қозонган ва ўз истагига эришган бўлади.

Бу икки хил хабарнинг ёмон истак ва ғазаб тақозосидан келиб чиқишлиги маълум. (Иккинчи бир киши эса) ўзи севадиган бир табақага миннатдорчилик билдирмоқчи бўлиб

ёки ёмон кўрадиган бир синфни хафа қилмоқчи бўлиб, улар ўртасида ёлғон хабар тарқатади. Бу хил (хабар тарқатувчи) аввалги хабар берувчи мухбирга яқин бўлади. Чунки бу хабарни дўстлик ёки душманлик натижасида тарқатган бўлади.

(Шунингдек) учинчи бир киши ўзининг паст табиатлилиги сабабли бирон яхшиликка эришиш ёки ўзининг юраксиз ва қўрқоқлиги сабабли ёмонликдан қутулиш учун ёлғон хабар тарқатади.

Шундай кишилар ҳам бўладики, уларнинг табиатига ёлғон хабар тарқатиш ўрнашиб қолиб, гўёки унга шу вазифа юклангандек бўлади ва ёлғон хабар тарқатмасдан тинчиёлмайди. Бу, ёмон хоҳишлардан ва табиатига бузуқ фикрларнинг жойлашганлигидан келиб чиқади.

Баъзи киши (ёлғон хабар тарқатувчига) тақлид қилиб, билмасдан ёлғон хабар тарқатади...»[8]

XIX асрнинг иккинчи ярмидан ўзбек халқи миллий маданияти, маънавияти тараққиётида мустамлакалик даври бошланди. Мустамлакачилик сиёсатида Туркистонни нафақат сиёсий, иқтисодий, балки маънавий мустамлакага айлантириш режаси турарди. Буни уларнинг ўзлари ҳам яширмас эдилар. Бу ҳақда М.А. Муропиев 1882 йил 30 август куни Тошкент ўқитувчилар семинариясидаги йиғилишида "...мусулмонларимиз маорифининг асосида уларни руслаштириш... исломни бузиш... умуман диний жиҳатларни бузиш... ётмоғи лозим (344-151) деган бўлса; Туркистон генерал губернатори И.А.Куропаткин эса кундаликларида; "Биз 50 йил туб-жой аҳолини тараққиётдан четда... тутдик", - деб қайд этган эди (344-165).

Агар фашизм ўз мафкуравий хуружларини «энди босиб олиниши керак бўлган халқлар»га қарши ташкил этган бўлса, собиқ мустабид тузум эгаллаб олинган аҳоли учун тузди. Ленин мафкурани одамлар тафаккурини ўзгартиришда қанчалик кучли омил, куч эканлигини ҳисобга олиб, «партия сиёсий фаолиятда идеологияга таянган ва таянади», деб уқтирди. Собиқ совет мафкураси ўзбек халқининг «эски одатларини йўқотиш» шиори остида миллий ғурурни, мустақиллик ғояси, унинг курашчиларини мафкуравий заифлаштириш мақсадида мактабдан ташқари минглаб маърифий-сиёсий оқартув бўлимларини очди. Ўзбек халқининг тафаккурини советлаштиришга бундай ёндашув уларнинг манфур мақсадларига тезроқ етказди: совет декретлари тарғиботи, партия дастури тарғиботи, Конституция тарғиботига бағишланган митинглар, митинг-концертлар, ташвиқий судлар, ташвиқий мавсумлар, қишлоқларда юриб шўро тузуми моҳиятини тушунтиришлар, театр, концерт, кўргазма, маърузалар, кино, қироатхоналарни ишга солди. Агитпоезд, агитпароход, клуб, «қизил чойхоналар», сиёсий суҳбат, «сиёсий кун» , диспут, кечалар, жанговар варақалар, «Чақмоқ», кинолекторий, оғзаки журналлар каби тарғибот-ташвиқотнинг юзлаб усулларидан фойдаланиб, маккор шўро халқимизнинг онгида советнинг сохта ғояларини сингдирди.

Иккинчи жаҳон уруши арафасида фашизм эса ўзининг «оммавий психологик қирғин қуроли»ни яратди. Унинг нишони - инсоннинг онги, туйғулари ва уларга таянувчи маънавий, мафкуравий иммунитети эди. Геббелснинг «тарғиботчилар қўшини» ана шу онг ва туйғуларни ва уларга таянган иммунитетни забт этишга киришди.

Геббелснинг тарғибот вазирлиги тарғиботчилари овозида сохта назокат, жозиба барқ урди. Ёлғон ва алдов меъёри оширилди. Содда, мўмин-қобил шарқликларнинг ҳушёрлигини сусайтириш мақсад қилиб қўйилди. Шу мақсадда улар Шарқ халқларининг «оғир аҳволи»га «қайғуриб», мустамлакачиликдан қутилишлари (ўша пайтда шарқ мамлакатларининг кўпчилиги Англиянинг мустамлакаси эди)га ўз «беғараз» ёрдамларини таклиф қилдилар.

Ватан хоинларини ёллаб, улардан ёзма ва оғзаки тарғиботда фойдаланилди. Мақсад, халқни ўзларига оғдириб, шерик қилиб, ундан сўнг уни қулга айлантириш эди. Агар бунинг иложи бўлмаса, бу иш ҳеч бўлмаса, шарқ халқларининг фашизмга қарши бирлашувининг олдини олишда асқотиши керак эди. Масалан, фашистлар ўзларининг Берлин ва Римдан узатиладиган радиоовозларида миллий озодлик кураши олиб бораётган «дўст Ҳиндистон халқи»га самимий ҳурматларини, бой ва қадимий ҳинд маданиятини жуда севишларини, Ҳиндистонни Англия мустамлакачилигидан озод қилиш иштиёқида эканликларини» ҳар куни такрорладилар.

Шунингдек, фашист мафкурачилари ҳам ислом динини ниқоб қилиб, фойдаланишга уринди. Улар ўша пайтларда айрим Шарқ мамлакатларида панисломизм ғоялари кўтарилганлигини билиб олишди. Натижада барча шарқ мамлакатларини ягона панисломизм байроғи остида (Германия ва Италия ҳомийлиги остида) бирлаштиришга ҳаракат қилишди. Мақсад аниқ эди: ё ўзига шерикка айлантириш, ё бўлмаса, шарқ мамлакатларининг фашизмга қарши бирлашувига йўл қўймаслик, уларни тушовлаб туриш эди.

Тарғибот шу қадар андишасиз эдики, улар Гитлер ва Муссолинини азалдан ислом ва мусулмонларнинг ҳомийси, ғамхўри бўлиб келганликларини, шу сабабли Муссолининг халифалик давлатини тузиб жамики мусулмонларнинг раҳбари - ҳалифа лавозимини бажаришга рози эканлигини эълон қилдилар. Бу ҳақда «Пополо д¢Италия» газетаси ўзининг 1937 йил 20-март сонида: «Мусулмон дунёси азал-азалдан ягона доҳий, ҳомийга муҳтож бўлиб келмоқда... Бўшаб қолган ҳалифлик - «ислом динининг раҳнамоси» лавозимини дуче (Муссолини. М.Қ) ўз зиммасига олишга тайёр», деб ёзган эди.

Бироқ шарқ халқлари бу алдовдан ўзларини ҳимоя қилувчи мафкуравий ҳимоя тизими (ҳозирги ибора билан айтганда - мафкуравий иммунитети)ни ярата олдилар. Бу ҳақда Сурияда чиқадиган «Ат-Тариқ» (Йўл) газетаси 1942 йилдаги 6-сонида «Фашизмга қарши курашиш - ҳар бир арабнинг миллий бурчидир! Биз фашизмга қарши курашар эканмиз, бу бизнинг ҳаётимизга хавф солаётган таҳдидга қарши курашамиз», деган умуммиллий шиорни кўтариб чиқди. Шарқ мамлакатларидан фашист даъватчиларини бирин-кетин ҳайдаб чиқара бошладилар.

Якка мантиқ, расмийлик, ёпиқ жамият, табақалаштирилганлик, системалилик, тайзиқ, оммавийлик тамойилларига қурилган коммунистик мафкура даври ўтгач, айрим мамлакатларда мафкурага қўшиб, тарғибот-ташвиқот тизимидан ҳам воз кечди. Чунки, мустақиллик қўлга киргач, ёш давлатлар ўз мустақилликларига таҳдид солаётган ички ва ташқи хавфларни дастлаб кутмадилар, шу сабаб уларга қарши тайёргарлик ҳам кўрмадилар. Бундай вазият, вақт ва имкониятдан фойдаланган янги, ёт сиёсий гуруҳлар ўз ғояларини тарғиб-ташвиқ қилишда анча ишларни қилиб олишади.

Натижада нафақат одамларнинг мафкурасида, балки айрим давлатларнинг ахборот майдонида ҳам бўшлиқ пайдо бўлди. Бу тезда ўз асоратларини кўрсата бошлади. Чунки ягона ахборот майдони таъминланмаган эди. Дин ниқобида ҳокимият учун кураш халқлар қалби ва онгини эгаллашга ҳаракат ҳам шундай вазиятда бошланди.

«Томчида қуёш акс этгани сингари алоҳида олинган ҳар бир шахсда миллат яшайди..»

Ғайбуллоҳ Ас -Салом

5.Хавфсизлик ва барқарорликка таҳдидлар ва мафкуравий иммунитет

Ҳозирги воқеликда Миллий истиқлол ғояси ва ёт мафкуралар орасидаги муносабатлар мафкуравий кураш, мафкуравий қарши туриш, психологик уруш шаклларида кечмоқда. Ёт мафкуралар мафкуравий курашларнинг минг йиллик услубларини, шунингдек, замонавийлаштирилган услублари: ахборот майдонини эгаллаб олиш; мафкуравий диверсия, сиёсий индоктринация, мафкуравий инфильтрация, дезориентация, мафкуравий қўпорувчилик ҳаракатларини қўллаш орқали халқимизда Ўзбекистоннинг буюк келажагига ишончсизлик уйғотишга, давлат сиёсатини обрўсизлантиришга, одамларнинг ўзини Ватан, миллат ҳимоясидан четга тортишга, лоқайдликка эришишга интиладилар. Бунда улар бирор хусусий фактни умумлаштириш (экстраполяция), ёлғонни ҳақиқатга ўхшатиб тасвирлаш, кичик муаммодан катта ёлғон ясаш, бир нарсани такрорлайвериш, туйғуни ақлдан устун қўйиш, тингловчининг шахсий манфаатни биринчи ўринга қўйиб, (унга дўст бўлиб кўриниш) «ҳасратлашиш», ҳукуматларни халқларга ёмон кўрсатиш, миллат душманларига раҳмдиллик, ҳамфикрлик туйғуларини уйғотиш, масалан одамларга таниш, қадрдон маълумотларни ишлатиб, (фалон жойда фалон воқеа бўлди), деб ростга ёлғонни улаб юбориш услубларидан мафкуравий курашда фойдаланаяпти.

Ҳар қандай жамият бундай маккор таҳдидларни енгиши учун ўзида огоҳлик, мафкуравий хавфсизлик, тўкислик, жанговарлик, сафарбарлик, умуммиллий бирлик каби ижтимоий сифатларга эга бўлиши керак. Бунинг учун Миллий истиқлол мафкурасининг ёт мафкураларга қарши кураш услублари, жумладан, бузғунчи ғоялар моҳиятини фош қилишга қаратилган тарғибот, мафкуравий мониторинг ва таҳдидлар моҳиятини халқимиз онги ва

қалбига етказиш, жаҳолатга қарши маърифат тарқатиш услубларидан доимо ва ҳамма жойда фойдаланиш тақозо қилинади.

Собиқ совет мустабид тузуми даврида ёш авлодлар онгини коммунистик тарбия ўз исканжасида тутди. Коммунистик мафкура инсонлар онги ва қалбини эгаллаган эди.

XXI аср бошида мафкуравий курашларнинг Шўро даврида кўрилмаган, янги таҳдидлар билан ва илмий-технологик асосга қурилган тарғиботлар кураши даври, деб ҳам тавсифлаш мумкин. Чунки Шўро даврида қўлланилган тарғибот-ташвиқот, мафкуравий кураш усуллари ҳозир ишламайди. Бизга таҳдид солаётган мафкуралар «мафтункор» кўринса-да, ёки «оммабоп» бўлса-да, пухта, илмий технологик асосга қурилганлиги сир эмас. Чунки уларнинг тарғиботи олдинги ва ҳозирги замонавий мафкуравий кураш усулларига эга. Фақат ғоя, мақсаднинг шакли ўзгарган. Масалан, ана шундай ғоялардан бири «халифалик давлатини тузиш» ғоясидир. Бу ғоянинг мазмун ва моҳият жиҳатдан зарарли эканлигини чуқур англаш зарур.

Халифа сўзининг луғавий маъноси, ўринбосар, терминологик маъноси мусулмон жамоаси ва мусулмон давлатининг диний ҳамда дунёвий бошлиғи деб тушунилади. Халифалик давлати мутлоқ монархия типидаги давлат бўлиб, давлатни халифа бошқаради. Халифалик давлатини бошқарув тизими ислом-шариат қонунлари билан белгиланади. «Ҳизбут-таҳрир» даъво қилган халифалик давлати эса «Ислом Низоми» номли китобида баён қилинган қонунларга асосан бошқарилади. Ваҳоланки, Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.) дан ривоят қилинган ушбу Ҳадиси шарифда аниқ айтилган: «Халифалик мендан сўнг, умматим ичида 30 йилдир, ундан кейин подшоҳлик бўлади».

Бу мўътабар саҳиҳ Ҳадис Имом Термизий ва Абу Довуддан ривоят қилинган. Ҳозирда «Ҳизбут-таҳрир» тарафдорлари минглаб бегуноҳ кишиларнинг ноҳақ қони тўкилсада, халифалик барпо этилишини мажбурий деб даъват этмоқдалар. Уларнинг бундай ҳатти-ҳаракатларидан кўзланган мақсад конституциявий тузумни зўрлик билан ағдаришдан бошқа нарса эмас. Шу сабабли улардан соф исломий қадриятларимизни, ўзбеклигимизни (чунки Ҳалифалик давлатида ўзбек деган сўз ўчириб ташланади, давлат тили - араб тили, пойтахт ҳам бошқа жойларда бўлади), ота-боболар дини ҳақиқий исломни ҳимоя қилишга қодир бўлиши муҳим. Шундай лаҳзаларда беихтиёр оловқалб Чўлпоннинг ватанпарварона хайқириғи эсга тушади: *«...Улардан бизга дўст йўқ... Бизнинг дўстимиз - ўзимиз! Бизнинг дўстимиз - миллат! Улар - миллат душманлари... Биз уларга душман! Шуни унутмангиз!»* (Кеча ва кундуз). Миллатни, Ватанни, ота-боболаримиз иймонини, ўзбеклигимизни, мустақиллигимизни ҳимоя қилиш ҳар бир фуқаронинг бурчидир. Агар уларнинг руҳларни чирқиратиб, миллатни, Ватанни дин ниқобидаги ёвуз ғоялардан ҳимоя қила олмасак, нима бўлади? Қайтиб озод бўла олмаймиз. Ўзбек ҳам бўла олмаймиз, Ватанда бегона бўламиз. Чунки, Ҳалифага ўз ота-бобоси удумларини унутган манқуртлар керак. Улар ҳалифанинг пахтасини экиши, териши керак. Уларнинг меҳнатидан ҳалифаликка олтинлар оқиб бориши керак. Ҳалифа эса ўзи бу дунё лаззатини суради. Қулларига у дунё лаззатларини беради. Акс ҳолда ҳалифалик ғояси бунчалик сиёсий мақсадларни кўзда тутмаган бўларди. Бу дунё, ўткинчи дунё саодатига қизиқмас, курашмас эди. Тоат-ибодат, беш вақт намозга даъват қилиб қўя қолар эди. Шундай эмасми?!

«Ҳизбут-таҳрир» - суннийлик доирасидаги диний-сиёсий партия бўлиб, 1952 йилда Қуддус шаҳрида ташкил этилган. Бу партия фаластинлик Тақийиддин Набоҳоний (1909-1978) томонидан, «Ал-Ихвон ал муслиман»даги Сайид Қутб билан келиша олмай қолганларидан кейин ташкил этилган.

1952 йилда Тақийиддин Набахоний томонидан ер юзининг мусулмон давлатларида мавжуд бўлган тузумни ўзгартириб, «халифалик» давлатини тузишлик ва бу мақсадни амалга оширишлик учун «Ислом дини» ниқоби остида «Ҳизбут-таҳрир» (Озодлик) партиясига асос солиниб, бу партиянинг идоравий тўпламлари ва бошқа қонунлари ишлаб чиқилган эди. Унинг аъзолари ёшларни диний фанатизм ва экстремизм руҳида тарбиялашнинг барча усуллари - даъват, ишонтириш, инонтириш, варақа ва миш-мишлар тарқатиш, ҳалқа дарс услубларини қўллаб, фуқаролар ўртасидаги, давлат ва шахс ўртасидаги муносабатларни кескинлаштиришга ҳаракат қилди. Улар гўё фақат «ҳақиқий» мусулмонлар ҳокимиятга келса, «исломий тартиб»ни ўрнатиш учун кескин ва агрессив ҳаракатларга имконият яратилади, деб ўйлайдилар.

Бу ҳаракатлар моҳияти ҳақида Президент Ислом Каримов «Инсоният тарихида диний онгнинг ажралмас қисми бўлган одамлардаги эътиқоддан фақат бунёдкор куч сифатида эмас, балки, бузғунчи куч, ҳатто, фанатизм (ўта кетган мутаассиблик) сифатида фойдаланилганлигини кўрсатувчи мисоллар кўп. Айнан фанатизм иллатига йўлиққан одамлар ёки уларнинг гуруҳлари жамиятда беқарорлик тўлқинини келтириб чиқаришга қодир бўладилар»[9] дея алоҳида таъкидлайди.

Шунингдек, Ўзбекистоннинг Марказий Осиёдаги ўрнини ҳисобга олиб, улар диний оқимлар Ўзбекистонда ривожлантирилса, бунинг таъсири тезда Марказий Осиёга ёйилишига умид қиладилар. Чунки диний алломалари айни Мовароуннаҳрдан чиққанлиги бу ўлка халқи миллий характери, маънавиятининг шаклланишига сезиларли ҳиссасини қўшганлигини биладилар. Шу асосда улар диний ниқоб остида ёшларнинг мафкуравий иммунитетини сусайтириб, уларга давлатимизнинг демократик сиёсати тамойилларини қоралаб, давлат ва халқ ўртасида зиддият келтириб чиқаришга умид қиладилар. Шу сабабли Ҳизбут таҳрир дастлаб ёшларда сохта исломий фикрларга ишончни оширишни ўзининг асосий вазифаси деб билди. Буни улар сақофий (тушунчага оид) амаллар, яъни сиёсий амал-тадбирларидан энг муҳими, деб ҳисоблади. Бошқача қилиб айтганда, ёшларнинг мафкуравий иммунитетини сусайтириш, енгиш ва ўзларининг сохта ғояларини сингдиришни биринчи вазифа қилиб олдилар.

Бундай сохта ғоянинг таъсирига тушган, алданган бир ёшнинг хатини эътиборингизга хавола этамиз:

«Мен турли алдовларга учиб, «Ҳизбут Таҳрир»дек манфур оқимнинг қора гирдобига тушиб қолганман. Динни ўрганишга бўлган қизиқишим ва бу йўлда кабиҳ ниятли «сохта мулла»лар даъватига кўр-кўрона эргашганим туфайли, охир-оқибатда хиёнаткор кимсага айландим. Надоматлар бўлсинким, биз ёшлар Оллоҳнинг буюк неъмати бўлган тинчлик ва осойишталикнинг қадрига етмадик. Мактубимни йўллашимдан мақсад, ҳали-ҳануз ёшларни йўлдан ураётган кимсаларнинг қора қилмишидан тенгдошларимни огоҳ этишдир. Менинг қисматим ғафлатда қолган тенгдошларимга сабоқ бўлса, ажаб эмас.

1999 йилнинг охирларида Лазиз мени Саидкарим деган боланинг уйига таклиф қилди. У ерда Саидкарим беш-олти нафар болага «Ислом низоми» деган китобдан дарс ўтар эди. Ўша кунги дарс сўнгида у: «Мана шу болалар ҳам қасам ичиб, «Ҳизбут Таҳрир»га аъзо бўлди, сенинг ўртоғинг ҳам аъзо. Сен ҳам аъзо бўлгин», деди. Ҳали илмим йўқлигини тушунтирсам, илмни кейин олаверишим, қасам ичиб, «Ҳизбут Таҳрир»га қанча эрта аъзо бўлсам, савоби шунча кўп бўлиши, ҳозир эса гўёки савобсиз юрганлигим, илмни ишлатганим билан савобим йўқлиги каби гаплар билан бошимни қандай қилиб айлантириб қўйганлигини сезмабман. Шундан сўнг ҳафтада бир марта дарсларга қатнайдиган бўлдим... Ҳозир ўйлаб қарасам, қайси бир кимса ёзган «Ислом низоми» китобини Қуръон билан тенглаштирар эканмиз...

«Ҳизбут Таҳрир»га асосан мактабда яхши ўқимаган, тарбияси бўш оилаларнинг фарзандларини даъват қилардик. Чунки уларни бошқариш жуда осон. Илмли одам «Ҳизбут Таҳрирчиларнинг фаолияти жиноят эканлигини тушунади. Илми йўқлар эса ўзлари қилаётган даъватларининг мазмунини ҳам англаб етмасди. Яна қандай қилиб бозорларда, аҳоли кўп бўлган жойларда ғавғо чиқариш, фитна уюштириш кераклиги ҳақида ҳам айтиб берилар эди. Бу ишлар одамларда давлат тузумига нисбатан норозилик туғилиб, бизга кўпроқ қўшилади, «Ҳизбут Таҳрир» кучаяди, деган мақсадда қилинар эди.

...Жамоат транспортида аҳолини давлат тузумига нисбатан норозилик келтириб чиқариш учун «очиқ даъват»лар қилдик. Энди ўйлаб кўрсам, «Ҳизбут Таҳрир» бошлиқлари юрагимизга қўрқув солиб, жиноятга ундаган экан. Илмсизлигим мени ана шу йўлга бошлади...» дейди бу ҳақда номини айтмасликни сўраган, ҳидоят йўлига қайтган ёшлардан бири[10].

Одамларни у ёки бу мақсадга йўналтириш, тарбиялаш икки томонлама жараён. Бунда тарғибот субъектлари (тарғиботчилар, ТВ, радио, матбуот) ва тарғибот объектлари (шахс, аҳоли) иштирок этади. Тарғибот ва ташвиқотнинг самарадорлиги халқ, жамоа сиёсий онгида тарғиботгача ва тарғиботдан кейинги даражалар орасидаги фарқда билинади. Жамоа мафкурасидаги ўзгаришлар илмий ютуқларга асосланган ҳолда олиб бориш, тарғибот ва ташвиқот самарасини, ютуқ ва камчиликларини аниқлаш ва такомиллаштириш мумкин бўлади.

Мафкуравий тарбия самарадорлиги энг аввало жамиятни мафкуравий тарбиялашдан натижа қандай бўлиши керак эканлигини аниқ белгиланишига боғлиқ.

XXI асрда ҳам ғоявий тортишувлар тўхтамаяпти. Шу боис халқимизнинг эртанги мафкуравий бирлигини таъминлаш ғоявий тарбиянинг изчил, доимий асосга қўйилишини тақозо этди.

Президент И.А.Каримов мафкура жабҳасига оид муҳим фикрларни билдириб, қуйидагиларни айтди. Жумладан, «Минтақамизда «Ҳизбут таҳрир» каби экстремистик, айирмачилик ташкилоти фаолияти тобора хавфли тус олмоқда. У конституциявий дунёвий давлат тузумига қарши чиқиб, ўрта асрлардаги ислом ҳалифалигини тузиш тўғрисидаги бўлмағур ғояни тарғиб қилмоқда... Лекин, таассуф билан тан олиш керакки, бу ёвуз кучга қарши курашдаги ҳаракатларимизда ҳамжиҳатлик ва изчиллик кўзга ташланмаяпти...»[11]

Миллий мафкуравий иммунитет ҳар бир йигит-қиз, фуқародаги мустақилликнинг сиёсий моҳияти, Президент Ислом Каримов асарларида кўтарилган сиёсий ғоялар, ислоҳотлар ютуқлари ва муаммолари, ички ва ташқи сиёсатга доир чуқур билимларга таянади. Ҳар бир киши, ёки жамоа, жамият мафкуравий иммунитетини беш даражага бўлиб ўрганиш, баҳолаш ва шу асосда такомиллаштириш мумкин: Бунда:

биринчи**,** яъни мафкуравий иммунитетнинг қуйи даражаси - шахс, жамоа, жамият юқоридаги билимлардан хабардор эмас; бузғунчи мафкуравий ғояларга бефарқ, лоқайд;

иккинчи даражаси - билимлар бор, лекин улар ҳис қилинмаган, системалашмаган, шу сабабли уларни бузғунчи мафкуравий ғояларга қарши ишлатишга тайёр эмас;

учинчи даража - мафкуравий билимларга эга, лекин улар назарий, шахс, жамият уларни қўллашга қийналади;

тўртинчи даража - асосли билимларга эга, вазиятни тўғри баҳолай олади; ички ва ташқи сиёсий, мафкуравий таъсирларга қарши иммунитети шаклланган ва уни онгли равишда ишлатади;

бешинчи - олий даража - мукаммал ғоявий, сиёсий, иқтисодий билимларга эга ва бу билимларни бемалол амалда қўллаб, бузғунчи мафкуравий, сиёсий ғояларни доимо, ҳамма жойда фаол фош қила олади.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, кейинги йилларда айрим ёшларда миллатга, Ватанга фойда келтиришни ўйлаш, мустақилликни мустаҳкамлашда фойдали инсон бўлиб етишиш ҳисси махсус, илмий асосда шакллантирилмаганлиги туфайли шахсий манфаатни ўйлаш, енгил йўллар билан тўкис хаётга интилиш ҳисси намоён бўлмоқда. Шу билан бирга айрим фуқаролар орасида маънавий чекланганлик, дунёқарашнинг торлиги, миллий одоб меъёрларига риоя қилмаслик, сўз ва иш орасидаги тафовут, миллий ғурурнинг сустлиги каби нохуш кўринишлар учраб турадики, уларни биргалашиб бартараф қилиш лозим.

«Сенинг хавфсизлигинг, сенинг ҳузур ҳаловатинг, сенинг фаровонлигинг учун ватан керак бўлса, муносиб фуқаро бўл.»

К. Гелвеций.

Шахснинг мафкуравий иммунитетини, унинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги, позициясини мамлакат, давлат учун фавқулоддаги ҳолатларда кузатиш мумкин.

1999 йил 11 май.

Югославиядаги Хитой элчихонаси ёнига бомба тушди.

Хитой шаҳарларида ўн минглаб ёшларнинг норозилик намойишлари бошланди. Одамлар кўкракларига «Мен-нишонман! Мени от» деган плакат-расмларни ёзиб чиқишди. Бошқа мамлакатлардаги мусофир хитойлар ҳам шундай намойишлар уюштиришди. Хитой ёшларининг миллий бирлиги, миллий орияти, сиёсий, мафкуравий бирлиги намоён бўлди. Миллий давлатчилик, ватанпарварлик, фидойиликни ўзида мужассам қилган Хитой миллий характери ўзини кўрсатди. Бу бирликка ҳавас қилиш керак. Ўзбек характерини миллат, давлат, Ватан шаъни дахлсизлиги учун истаган пайтда намоён бўладиган ишончли фазилатлар билан қуроллантириш керак[12] .

Мафкуравий иммунитет шахс томонидан Ватан, миллат учун кўнгилли, ғоявий асосланиб амалга ошириладиган кундалик ишларда намоён бўлади. Бу фаоллик миллий бирлик, маънавий юксалишга халақит бераётган сифатлар, ёт қарашлар, миллий хавфсизлигимизга ички ва ташқи таҳдидларга очиқ ва мардона қарши туришни ҳам ўз ичига олади. Бошқача қилиб айтганда, - Элим, юртим деб яшашнинг ҳар бир кишида, жамоада, жамиятда намоён бўлишини англатади. Бу эса миллий ғояни амалий кучга айлантириш ва

бузғунчи мафкуравий таъсирлардан аҳолини, ёшларимизни ҳимоя қилишнинг шартларидан биридир. Зеро «Фикр ва сўз амалиётга йўналтирилганда уларнинг ҳар иккиси ҳам моддиятга - нарсага айланади»13

Ёт мафкуралар тарғиботининг «меҳрибонлиги», «холислиги» ва «бетарафлиги», «ёқимлилиги», «дўстоналиги»нинг ортида нима ётганини доимо билишлари лозим. Яъни уларнинг замирида Ўзбекистоннинг ривожланиб кетишига қараб мунтазам тактикасини ўзгартириб турувчи жонсарак ақидапарастлик тарғиботи натижаси ва амалиёти ётганини, уларнинг анъанавий фундаменталистик назария ва ғояларни замонавий усулларда «жонлантираётганини» тушуниш зарур.

Шу билан бирга айрим ёшлар ҳар хил ёт ғояларни холис ахборот манбаи сифатида қабул қилаётганликларини ҳам таъкидлаш керак. Ёт мафкураларни кўр-кўрона қабул қилиш зарарли.

6.Ғоявий ҳимоянинг хориж тажрибаси намуналари

Жаҳоннинг демократик мамлакатлари тажрибасида мафкуравий тарбиянинг бой имкониятлари, турли намуналари тўпланган. Ёш авлодни, бутун жамиятни ўз давлати, мамлакатининг мафкураси руҳида тарбиялаш – социологик, педагогик, психологик муаммо сифатида фаол ўрганилиб, тезкор замонавийлаштирилиб келинмоқда. Ўтган асрнинг 60-70 йиллари Ғарбий Европа ва АҚШда мафкурасизлашувга, яъни ижтимоий ҳаётни мафкурадан холи этишга уриндилар. Лекин бу йўл ўзини оқламади. Чунки тарбиядаги мафкуравий бўшлиқ ўз асоратларини кўрсата бошлади. Бу ҳақда нуфузли немис нашрларида: «Ҳозирги ёшларимиз ўртасида лоқайдлик, руҳсизлик, бефарқлик, англанмаган норозилик, беқарорлик кайфиятлари тарзида намоён бўлаётган «ёшлар маданияти» деб аталувчи хатти-ҳаракатлар кучаймоқда. Бу – ёшларнинг ўз аждодлари ижтимоий ва маданий қадриятларидан бегоналашаётганликларининг белгиларидир», - деган ташвишли фикрлар билдирила бошланди. Натижада «мафкуравий янгиланиш», «қайта мафкуравийлашув»га кучли зарурат туғилди ва мафкурасизлик хатосини тузатишга киришилди. Шу тариқа, Ғарбий Европа ва АҚШнинг позитивистик педагогикаси ижтимоий қадриятларга эътиборни, мафкуравий тарбияни ўз ичига олувчи «мактабда ўқувчиларни сиёсий индоктринациялашни амалга ошириш» концепциясини ишлаб чиқиб, амалга ошира бошлади.

АҚШда мафкуравий тарбия, яъни «сиёсий ижтимоийлашув» концепциясининг мақсади ёшларни америкалаштиришдир. Бу – уларга ўз Ватани - АҚШ сиёсий системаси ва маънавиятини мукаммал сингдириш, эътиқодига айлантиришнинг илмий-педагогик системасидир. Мафкуравий тарбияни амалга ошириш учун адаптация курслари, турли ўйинлар орқали ўқувчилар америка жамиятининг бўлажак «намунавий фуқаролари» сифатидаги ахлоқий, мафкуравий вазифаларини, бурчларини адо этишга амалий тайёрланадилар. Ёшлар жамиятлари, уюшмалари, «очиқ эшикли уйлар», касбий клублар ҳам мазкур мақсадга хизмат қилади. Ёшларни мафкуравий тарбиялашнинг ўша йиллардаги асосий вазифаси - уларни коммунистик мафкурага қарши ғоявий қуроллантириш эди.

Америка мактабларида мафкуравий иммунитетни шакллантириш - ўз миллий манфаатларини ҳимоя қилувчи восита сифатида қаралади. Буни тушунса бўлади, зеро, бугунги ёш авлоднинг ғоявий, мафкуравий бирлиги - эртага Америка халқининг ғоявий, мафкуравий бирлигини англатади-да! Шу сабабли АҚШнинг «Миллат» («The Nation») журнали «Агар ижтимоий фан ўқитувчиси мактаб синфидан ўзининг либерал қарашларини билдирадиган жой сифатида фойдалана бошлар экан, у тез орада ишсизга айланади», - дея огоҳлантиради.

Хуллас:

1. Диний ақидапарастлик ва бошқа ёт мафкуралар энг аввало ёшларнинг айрим қисмининг ғоявий-сиёсий тажрибасизлигига таянади. Ёт мафкура ва бузғунчи таъсирлар билан кураш мафкуравий тарбияда лоқайдлик, бефарқлик кайфиятининг ҳар қандай кўринишларига муросасизликни тақозо қилади.

2. Қарши тарғибот самарадорлигининг зарурий тамойилларидан бири - унинг тезкорлигида бўлиб, унда муайян минтақавий шароитларни, кишиларнинг ёш хусусиятларини, олий ўқув юртининг у ёки бу муддатда ҳал қила олиши мумкин бўлган мафкуравий имкониятларини ҳисобга олиш кўзда тутилади.

3. Шахснинг мамлакат ичкарисида ва ташқарисида содир бўлаётган воқеаларни мустақил таҳлил қила олиши, мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлайди.

Чунки мафкуравий таҳдид ўзининг мазмуни, тамойиллари, услублари ва шаклларига кўра мураккаб ҳодисадир. Унга: Мустақил Ўзбекистоннинг ҳаётий ютуқларини далил-исботсиз атайлаб қоралаш, мустақилликка эришган мамлакатларнинг ҳаммасида бор бўлган умумий муаммоларни «фақат Ўзбекистонда бор» деб талқин қилиш, эришилаётган ижтимоий-иқтисодий сиёсат ютуқлари моҳиятини, ҳукуматимизнинг ташқи ва ички сиёсатини сохталаштириш, бузиб кўрсатиш; айрим мамлакатлар турмуш тарзи, сиёсий тизимини бир ёқлама кўкка кўтариш; миллий ғояларимизни обрўсизлантириш; кўп миллатли Ўзбекистонда аҳоли ўртасида ижтимоий ҳамкорликни бузишга қаратилган кайфиятларни тарқатиш ва низолар келтириб чиқаришга уриниш; одамларнинг диний туйғуларини жунбушга келтириш, диний ёвқарашни пайдо қилиш каби йўналишлар хосдир.

Мавзуни мустаҳкамлаш учун саволлар:

1. Мафкуравий иммунитет нима?
2. Мафкуравий бўшлиқ қандай оқибатларга олиб келиши мумкин.
3. Тарихни сохталаштириш деганда нимани тушунасиз?
4. Мафкуравий иммунитет элементларини биласизми?
5. Мафкуравий таҳдид деганда нимани тушунасиз?
6. Ғайри инсоний ғояларга хос умумий хусусият нима?

7-мавзу: Жамият барқарорлигини таъминлашнинг ижтимоий асослари.

1. Миллий ғоянинг миллий ва умумбашарий тамойиллари
2. Миллий ғоя - эркин ва фаровон ҳаёт қуриш омили сифатида.
3. Жамият барқарорлиги-эркин ва фаровон ҳаёт қуриш омили
4. Одамларнинг турмуш даражаси ва фаровон ҳаёт боғлиқлиги
5. Эркинлик ва тараққиёт ғояларининг муштараклиги
6. Ёшлар - эркин ва фаровон ҳаёт бунёдкорлари

1. Миллий ғоянинг миллий ва умумбашарий тамойиллари

Миллий истиқлол ғоясининг маъно-мазмунини ва унинг миллат ҳаётидаги ўрнини мукаммал тушуниб етиш учун энг аввало, унга замин бўладиган негизни аниқлаб олиш назарий ва амалий аҳамиятга моликдир. Шу нуқтаи назардан миллий истиқлол ғоясининг тарихий, фалсафий илдизлари унинг тамойиллари ҳам бир-бири билан узвий боғлиқликдадир. Уларнинг узвий боғлиқлиги негизида умуминсоний қадриятлар устуворлиги ётади. Демак, унинг асосий тамойилларидан бири инсонпарварлик ғояси билан боғликдир. Дарҳақиқат бугунги кунда бу сўзни жуда кўп ишлатамиз. Лекини аслида нега инсонпарварлик миллий ғоянинг асосий тамойилларидан бири бўлиб қолмоқда деган савол ҳам такрор-такрор ёдга тушади. Бунинг биринчи сабаби мустақиллик туфайли инсонпарвар ва демократик жамият барпо этиш имконияти вужудга келди. Ана шу имкониятни воқеликка айлантиришда иккита муҳим масалани ҳал этиш зарурати вужудга келди.

Улардан биринчиси - одамлар онги ва тафаккуридаги мустабид тузум асоратларидан, унинг ғайриинсоний ғояларидан, шунингдек, якка мафкурачилик тамойилидан тозалашдир. Бунга эришишнинг бир қатор йўналишлари мавжуд. Энг муҳими янги жамиятда инсоннинг туб манфаатларига мос ижтимоий муносабатларни шакллантиришдан иборатдир. Бунда миллий ғоянинг инсонпарварлик ва демократик тамойиллари инсон ва жамият манфаатлари уйғунлигини белгилаб берувчи таянч нуқта ва жипслаштирувчи куч ҳисобланади.

Иккинчи сабаби - инсонпарварлик тамойилида умумбашарий тамойиллар билан бир қаторда миллат тафаккури, руҳияти ва фикрлаш тарзи, қарашлар хилма-хиллиги ўзаро уйғунлаштириладики, бу жараёнда мамлакатимиз тараққиётида барқарорлик, хавфсизлик масалалари билан ҳамжиҳатликда туташган ҳолда намоён бўлади.

Миллий ғоянинг умумбашарий тамойиллари ҳақида фикр юритганда яна бир муҳим муаммо «инсонпарварлик ҳуқуқи» масаласининг мустақиллик йилларида устувор

йўналишга эга бўлаётганлиги тасодифий ҳол эмас. Маълумки, инсонпарварлик ҳақида жуда кўплаб Шарқ ва Ғарб мутафаккирлари ўз фикрларини баён этишган. Масалан, қадимги Хитойда илк инсонпарварлик ғоясининг ижтимоий фикрлари Конфуций (э.о. 511-479 й.й.) таълимотида, қадимги Марказий Осиёда «Авесто» китобида, буддизм динида, Христиан динининг ажр ғоясида, яъни жафокашлар ва бечораларга илоҳий салтанатда бахт ва озодлик беришни ваъда қилганлиги Ислом динида етти ақидада ўз ифодасини топган. Шунингдек, халқаро ҳуқуқдаги «Инсонпарварлик ҳуқуқи» атамаси ҳам мавжудки, ушбу атама биринчи марта қуролли можаро юзага келган ҳолатда маданий қадриятларни ҳимоя қилиш тўғрисидаги конвенцияда ишлатилган эди[1].

Миллат тақдирига дахлдор бўлган ғоялар энг аввало, миллий замин билан боғлиқ бўлади. Унга таянмаган, ундан баҳра олмайдиган ёки ундан узилиб қоладиган ғоялар миллат манфаатларига ҳам хизмат қилаолмайди.

Бу жараёнда икки муҳим қонуният амал қилади:

Биринчи қонуният миллатнинг мавжудлиги унинг ўзига хос хусусиятлар ва менталитетга эга эканлиги. Улар миллат тараққиёти ва истиқболи учун асосий манба ҳисобланади. Ўз негизлари асосида ривожланиш йўлидан бормайдиган миллат истиқболда, ўзлигини йўқотади. Уни ҳисобга олиш, амал қилишини миллатнинг ўз негизларига таяниб ривожланиш қонунияти – деб айтиш мумкин бўлади.

Иккинчи қонуният ҳар қандай жараёнда бўлгани каби миллий ривожланишда ҳам ворислик қонуни амал қилади. Унинг мазмуни шундаки, барча жараёнлар ўз-ўзидан пайдо бўлмайди, балки улар шу йўналишда мавжуд бўлган олдингилари билан боғлиқ бўлади. Унинг негизида юзага келади, ундан кейинги тараққиёт учун хизмат қилиши мумкин булган элементларни қабул қилиш асосида, янгиси шакллана бошлайди. Бу жараён ворислик қонуни ҳисобланади.

У миллатнинг ўз негизига асосланиб ривожланиши шарт бўлгани учунгина эмас, балки барча жараёнлар учун ҳам амал қилади. Бу ворисийлик қонуниятнинг характерли хусусияти ҳисобланади.

Унинг миллий тараққиёт учун аҳамияти шундаки, у миллатнинг ўз негизлари асосида ривожланиши учун имкониятлар салмоғининг мустахкам бўлишига хизмат қилади.

Миллий ғоя шаклланишида ана шу икки қонуниятнинг уйғунлиги асосий ҳисобланади.

Албатта, миллий ғоя негизлари фақат миллатнинг тор доирадаги заминлари билан чекланмайди. Шунинг билан бир қаторда умумбашарият эришган илғор ютуқларга ҳам таянади.

Шунинг учун ҳам Президент Ислом Каримов мамлакатимиз ўз мустақиллигини қўлга киритгандан кейин уни янгилаш ва ривожлантиришнинг қуйидаги тўртта асосий негизини белгилаб берган эди. Булар:

- умуминсоний қадриятларга содиқлик;
- халқимизнинг маънавий меросини мустаҳкамлаш ва ривожлантириш;
- инсоннинг ўз имкониятларини эркин намоён қилиши;
- ватанпарварлик[2] кабилардир.

Кўриниб турибдики, уларда миллий ғоя тамойиллари умуминсоний қадриятлар билан ўзаро уйғунлашиб кетган.

Ана шу негизлар асосида миллий ғоямизнинг асосий тамойиллари шаклланади. *Хўш тамойил нима? Тамойил бирор бир таълимот, дунёқараш ёки фаолиятнинг қатъи амал қиладиган қоидаси ва меъёрини англатувчи тушунча ҳисобланади.*

Шу маънода ҳам миллий ғоянинг ўзига хос тамойиллари мавжуд бўлиб, улар асосида миллий ривожланишнинг долзарб вазифалари амалга оширилмоқда.

Миллий ғоянинг асосий тамойилларини қуйидагилар ташкил қилади:

- миллий онг, миллий тафаккурнинг ва миллий ўзликни шакллантиришга йўналтирилганлиги;
- миллатни бирлаштиришга қаратилганлиги;
- миллат манфаатини ифодалаши;
- миллий урф-одатлар, анъаналар ва қадриятларнинг мустахкамланиши ва ривожланишига асос бўлиши;

- миллий ғурур, ифтихор ва маъсулиятнинг шаклланиши ва мустахкамланишига замин бўлиши;
- кўп миллатли мамлакатимиз аҳолисида ягона Ватан руҳиятининг шаклланишига асос бўлиши;
- миллий мерос, тарихий хотирани асраш, ўзлаштириш ва кейинги авлодга етказишнинг маънавий-руҳий манбаси бўлиши;
- ёшларимизда Ватанпарварлик, миллатпарварлик, халқпарварлик ва умуминсонийлик маънавий, руҳий салоҳиятининг шакллантиришга қаратилганлиги;
- миллатимизнинг мустақил субъект сифатида мақомини акс эттириш;
- миллатимизнинг озодлиги, мустақиллиги ва тараққиётига маънавий-руҳий салоҳият бўлиш;
- миллатимизнинг ўзи билан ёнма-ён яшаётган миллат ва элатлар вакилларини ўз атрофига уюштириш, улар билан тинч-тотув яшаш, уларга хурмат, эҳтиром билан қараш, ёрдам кўрсатиш, хамкорликни мустахкамлаш ва улар асосида ягона ўзбекистон халқи туйғуларининг шаклланишига манба бўлиши;
- миллатимизнинг замонавий цивилизацияларига муносиб ҳисса қўшишига маънавий-руҳий, куч- қудрат ва илҳом бағишлаши;
- Ўзбекистон халқида миллий хавфсизлик ва миллий тараққиёт руҳиятини шакллантириш ва мустахкамлашнинг назарий асоси бўлиш;
- комил инсон ғоясини ўзида акс эттириш кабиларни ташкил қилади.

Миллий ғоя миллий онг ва тафаккур маҳсули ҳисобланади. Уларнинг ривожланиши натижасида миллий ўзликни англаш юзага келади. Миллий тафаккур миллат ҳаёт тарзи, хусусиятлари ва фаолияти, унинг мақсадлари ва манфаатлари негизларининг миллий онгида намоён бўлишидир.

Миллий онг миллатнинг ўзига хослиги асосида ривожланиб боришидаги кўрсаткичи бўлса, миллий ўз-ўзини англаш манфаатларни ҳимоя қилишда ҳаракатга келтирувчи ички маънавий-руҳий салоҳиятидир.[3]

Аслида миллий онг, миллий тафаккур ва миллий ўзликни англашдан иборат бўлган учликка амал қилмаган уни ўзида акс эттирмаган ёхуд уни ривожлантиришга ва мустахкамланишига йўналмаган ғоя ўзига миллий ғоя мақомини ҳам олаолмайди. Чунки, ана шу учликнинг миллат мавжудлигининг ҳам реал ифодаси ҳисобланади. Миллий ғоя миллий онг ва миллий тафаккурнинг олий кўриниши, унинг реалликка айланишининг белгиси ҳисобланади. Уларнинг ўзаро таъсири натижасидагина миллий ўзликни англаш омили шаклланади ва миллатнинг «мен»и юзага келади. Шунинг учун ҳам уларни ўзида акс эттириш миллий ғоянинг бош тамойили ҳисобланади.

Миллат ўз-ўзидан шаклланмайди, балки у жамият тарихий тараққиётининг мевасидир. Унинг тўлақонли миллат мақомига етиши учун ҳар бир этник бирлик, миллий тилнинг, маданият, урф-одат, анъаналар, қадриятлардаги ўзига хослиги, миллий ўзликни англашнинг шаклланганлиги лозим.[4]

Ана шу ўзига хослик орқали миллий ғоя намоён бўлади. Миллий ғоя ўзига хосликни мустаҳкамлайди, ва унинг миллат вакиллари дунёқарашига айланишида асосий омил бўлиб хизмат қилади. Бу жараён ўз навбатида миллий тотувлик, ҳамжиҳатликнинг вужудга келишига олиб келади.

Шу маънода унинг энг муҳим тамойили миллатни бирлаштиришга қаратилганлиги ҳисобланади.

Миллий манфаатлар миллий ғояда мустаҳкам ифодаланган бўлсагина миллий ҳамжиҳатлик мустаҳкам бўлади ва миллат барқарор тараққиётга эришиши мумкин бўлади. Шу маънода ҳам миллий ғоянинг қудрати миллий манфаатларни тўлақонли ифодалаши билан белгиланади.

Миллий ғоянинг яна бир тамойили, унинг миллий урф-одат, анъана ва қадриятларни мустаҳкамлаш ва ривожланишига асос бўлиши ҳисобланади. Улар миллатнинг ўзига хослигини энг юксак даражада ифода этади. Унинг мустаҳкамланиши ва ривожланиши миллий ғояга боғлиқ бўлади.

Миллий ғурур, ифтихор ва маъсулият каби туйғуларнинг шаклланиши ҳам миллий ғоя билан боғликдир.

Миллий ғурур ҳар бир инсоннинг миллат вакили сифатида ўз-ўзини англаши натижасида содир бўладиган ички руҳий кайфияти ҳисобланади. Бу туйғу ўз она замини, авлод-аждодлари томонидан қолдирилган моддий, маънавий меросдан, ўз миллатининг жаҳон цивилизациясига қўшган ҳиссаларидан, ўз Ватанининг тараққиётда эришган ютуқларидан, миллатининг ўзга миллатлар олдидаги қадр-қиммати, обрў-эътиборидан руҳининг кўтарилиш ҳиссиётдир.

Миллий ифтихор ҳар бир миллат вакилининг ўз миллатининг, тараққиётнинг барча йўналишларида эришган ютуқларидан фаҳрланиш, хурсанд ва шодланиш кайфияти ҳисобланади.

Миллий маъсулият эса ҳар бир миллат вакилининг ўз миллати бугунги, эртанги куни ва истиқболи учун ўзини даҳлдор эканлигини ҳис қила билишдир.

Бу туйғулар негизида миллий ғоя туради. Унинг асосий вазифаси ҳам ана шу туйғуларни шакллантиришга йўналганлиги билан белгиланади. Чунки, улар ҳар бир миллатнинг тараққиётга эришиш ва юксалишида асосий омил булади.

Инсоният ақл заковати юксалиб бораётган, унинг олдида ечиш мураккаб булган глобал муаммолар кўлами кенгайиб бораётган ва дунёда барча мамлакатларда халқлар биргалашиб яшашлари авж олиб бораётган бугунги кунда миллий ғоя тор манфаатлар эмас, балки мамлакатда яшаётган барча ҳалқларнинг манфаатларини ифода этиши ва уларда ягона Ватан туйғусини шакллантиришга хизмат қилади. Албатта, Ватан туйғусини шакллантириш бу ҳар бир миллатга хос булган хусусиятларнинг барбод бўлишига эмас, балки умумхалқ руҳиятининг шаклланишига олиб келади. Ягона Ватан руҳияти на фақат мамлакат номи билан аталувчи миллат вакилида, худди шунингдек, унда яшаётган ўзга миллат ва элат вакилларида ҳам Ватанпарварлик, унга эгалик қилиш, унинг истиқболи олдида маъсуллик каби ҳиссиётининг шаклланишига олиб келади. Шунинг учун ҳам миллий ғоя бугунги кунда бир миллат доирасидан умумхалқ доирасигача бўлган манфаатларни уйғунлаштиришга асос бўлмоқда.

Миллий мерос, тарихий хотирани асраш, ўзлаштириш ва уларни кейинги авлодга етказишда миллий ғоя маънавий-руҳий манба ҳисобланади. У ана шу маънавий-руҳий салоҳиятдаги миллийликни «асраш», уларга куч-қувват бағишлаб туриш вазифасини амалга оширади. Шунинг билан бир қаторда миллат вакилларини миллий-маънавий бойликлар билан озуқлантиради, уларда ўз меросини асраш ва уни кейинги авлодга етказиш руҳиятини ҳам шакллантиради.

Бу жараёнда миллий ғоя бир томондан миллий-маънавий бойликларни асраш омили бўлса, иккинчи томондан миллат авлодларини ўзаро боғлаб туриш вазифасини ҳам бажаради. Ундаги мавжуд миллийлик омили авлодларни ўзаро маънавий-руҳий жиҳатдан боғлаб туради ва шу тариқа миллий мерос ва тарихий хотирага умрбоқийликнинг бахш этилишида миллий ғоя асосий омилдир.

Миллий ғоянинг миллий мерос ва тарихий хотиранинг асоси бўлиши на фақат миллий ўзига хосликни шунингдек миллат вакилида юксак ирода, эътиқод каби фазилатлар шаклланишида ҳам манба ролини бажаради. Президент Ислом Каримов таъкидлаганидек «Тарихий хотираси бор инсон-иродали инсон… Ким бўлишидан қатъий назар, жамиятнинг ҳар бир аъзоси ўз ўтмишини яхши билса, бундай одамларни йўлдан уруш, ҳар хил ақидалар таъсирига олиш мумкин эмас. Тарих сабоқлари инсонни ҳушёрликка ўргатади, иродасини мустаҳкамлайди».[5]

Мамлакат ёшларида Ватанпарварлик, миллатпарварлик, халқпарварлик ва умуминсонийлик каби туйғуларни шакллантириш ҳам миллий ғоянинг муҳим тамойили ҳисобланади. Чунки, бошқа ҳар қандай ғояларга қараганда ҳам унда ўзини англаган ҳар қандай инсон қалби, юраги ва онгига таъсир этувчи нозик туйғулар мужассамлашган. Хусусан, инсон ўзини-ўзи англаб, мен кимман, менинг авлод-аждодларим ким, қайси миллатга мансубман, менинг она заминим қаерда - деган саволларни ўзига бериш ва унга жавоб топишни миллий ғоядан, унинг улкан негизларидан излайди. У саволларга бошқа бирорта ғоя жавоб бера олмайди. Чунки, инсон миллийлик руҳиятидан туғилишидан бошлаб, эхтимол она бағрида ҳали у дунёга келмасдан олдин бахраманд бўлса ажаб эмас. Зеро, янги дунёга келган гўдакни ўзга миллат вакили олиб тарбияласа ҳам, у балоғат ёшига етганида ўз миллий негизларига талпинади, ҳеч бўлмаганда ўз миллати вакиллари билан яқинроқ бўлишга мойил бўлади. Бу ҳаёт тажрибасидан ўтган ҳақиқатдир. Шу тариқа

улуғаяётган миллат вакилларига Ватанпарварлик, миллатпарварлик, халқпарварлик ва умуминсонийлик каби фазилатларини миллий ғоя сингдириб боради.

Миллий ғоянинг яна бир тамойили, биринг иккинчисига ўхшамайдиган хусусиятларга эга эканлиги, ўзгаларнинг маънавий-руҳий холатини айнан қабул қилаолмаслиги билан боғлиқдир. Бир миллатнинг маънавий-руҳий салоҳияти шакл ва мазмун жиҳатдан иккинчисида такрорланмаслиги уларнинг ҳар бирига ўзига хос «индивидуаллик» бахш этади. Ана шу «индивидуаллик» миллий ғояда ўз ифодасини топади. Бу ҳар бир миллатнинг мустақил субъект сифатидаги мақомини таъминлаб туради. Ўзига хос «индивидуаллик» миллий-маънавий тараққиёт гўзаллигини ифодалайди ва уларнинг илғор қирралари орқали умумбашарийликка дахилдор бўлган маънавий бойлик вужудга келади.

Миллий ғоянинг асосий тамойилларидан яна бири унинг миллатнинг озодлиги, унинг мустақиллигини таъминлашда маънавий-руҳий манба бўлишидир.

Миллатнинг мустақил бўлиши, унинг ўз тақдирини ўзи ҳал этиш имкониятига эга бўлишида миллий ғоя асосий манба бўлади. Чунки, у на фақат миллатга мустақил субъект мақомини бахш этади, шунинг билан бирга унинг мустақил тараққий қилишини зарурият ва эҳтиёжга айланишини таъминлайди.

Чинаккам миллий тараққиёт ғоялари, ҳар доим ўзида адолат, тенглик, тинчлик ва демократия тамойилларини акс эттиради. Улар ҳар бир миллат учун энг зарур эҳтиёж ҳисобланади. Чунки, адолат бузилган жойда зиддият, тенгсизлик мавжуд булган шароитда ишончсизлик, тинчлик бўлмаган жойда парокандалик, демократия бўлмаган жойда инсоннинг эркин нафас олиши имкониятини юзага чиқариш мумкин бўлмайди.

Кўриниб турибдики, уларнинг ҳар бири миллатнинг истиқболи учун зарур бўлган омиллардир. Миллий ғоя шу маънода ҳам уларни ўзида мужассамлаштириши ҳамда миллий тараққиётнинг асосий кўрсаткичларига айланишига хизмат қилади.

Улар ҳар қандай илғор миллий ғоянинг умумбашарийликка дахлдор бўлган қирралари ҳисобланади. Улардан маҳрум бўлган миллий ғоя, чинаккам умуммиллий ғоя даражасига кўтарила олмайди.

Миллий ғоя миллатнинг манфаатлари ва эҳтиёжларини умуминсоний тамойиллар билан ўзида уйғун ҳолда акс эттириши билан ҳам характерланади. У умуминсоний тамойилларга зид эмас, балки ғоянинг миллий тамойиллари негизида, уларнинг энг илғор жиҳатлари, умуминсоният манфаатларига мос келиши ҳисобига умуминсоний тамойиллар тизими шаклланади. Яъни, умуминсоний тамойиллар негизида ғоянинг миллий тамойиллари шаклланмайди, аксинча миллий тамойилларнинг илғор, барча халқлар манфаатлари ва эҳтиёжларига жавоб берадиган жиҳатлари ҳисобига умуминсоний тамойиллар шаклланади.

Ана шу хулосага мувофиқ миллий ғоянинг умуминсоний тамойилларини қуйидагилар ташкил қилади:

- миллий маҳдудлик, агрессив миллатчилик ва шовинизмдан холи бўлиш;
- уруш оловини ёқиш, ўзга миллатларга зулм ўтказишдан холи бўлиш, мамлакатлараро беқарорликни вужудга келтириш воситасига айланмаслик;
- адолат, тенглик, тинчлик, бунёдкорлик ва демократия ғояларини ўзида ифода эттириш;
- жаҳон халқлари яратган цивилизация ютуқларини асраш ва кейинги авлодга етказишда маънавий-руҳий омил бўлиш;
- инсониятга хавф солаётган глобал муаммоларнинг таҳдидини кенг ташвиқот қилиш ва унга қарши курашда жаҳон халқлари бирлигини вужудга келтиришга хизмат қилиш;
- диний бағрикенглик ғояларини ўзида ифодалаш;
- инсон хақ-ҳуқуқлари, шахс эркинлиги ва ҳур фикрлиликни ҳимоя қилиш;
- қонун устворлигини, миллатлараро ҳамжиҳатлиликни ва сиёсий барқарорликни вужудга келтириш ва мустаҳкамлашга асос бўлиш;
- ҳар бир миллатнинг урф-одатлари, анъаналари ва қадриятларини ҳурмат қилиш, илғор тажрибаларини ўрганиш ва ўз миллати эришган ютуқларини уларга етказиш;

вайронкор ва турли ғаразли ғояларга қарши кураш ва бунёдкор ғоялар ривожланишининг омили бўлиш кабилардир. Улар ўз мазмун ва моҳияти жиҳатдан ҳар бир миллий ғоя учун хос бўлган умуминсоний тамойиллардир.

Халқимиз асрлар давомида озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт орзусида яшаб келди. Бу ғоя халқимизни эркинлик ва юксалиш паллаларида ҳам, ўз мустақиллигидан жудо бўлган даврларда ҳам тарк этмади. Бугунги кунда Ўзбекистон халқининг миллий тараққиёт йўлидаги асосий мақсади - озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этиш бўлиб, бу ғоя миллатимизнинг азалий орзу-умидларини, интилишларини, бунёдкорлик фаолиятининг маъно-мазмунини ифодалайди. Инсон муайян маконда туғилади ва ҳаёт кечиради, шахс сифатида шаклланади. Ана шу макон унга Ватан саналади. Дилида Ватан туйғуси шаклланмаган, киндик қони тўкилган заминга меҳр туйғуси жўш урмаган кишини чинакам Инсон деб бўлмайди. Шу билан бирга инсон бахт-саодат учун туғилади. У ана шу бахт-саодатга ўзи туғилиб-ўсаётган Ватанида эришмоқни орзу қилади. Бу унга ўз бахт-саодатини юрт ривожи, унинг озод ва ободлиги билан уйғун кўришни англатади.

«Озод Ватан», «Обод Ватан», «Эркин ва фаровон ҳаёт» тушунчалари шу жиҳатдан ўзига хос маъно ва мазмун касб этади.

Озод Ватан – ўз тақдирини ўзи мустақил ҳал этиш ҳуқуқини тўла рўёбга чиқара олган миллатнинг яшаш макони бўлиб, жаҳон ҳамжамиятида ўз ўрнига, нуфузига ва мавқеига эга бўлган мамлакатдир.

Обод Ватан – фуқаролари эркин ва озод яратувчанлик фаолияти билан банд бўлган, тўла ижтимоий-сиёсий хавфсизликда фаровон ҳаёт қуриш иштиёқида яшаётган ҳудуддир.

Эркин ва фаровон ҳаёт – одамларнинг юқори даражадаги моддий ва маънавий неъматларга эркин тарзда, ўзларининг бор қобилиятлари ва имкониятлари эвазига эришишидир.

Мустақиллик миллий қадриятлар, маданият ва анъаналарни, маънавиятни тиклаб, одамларимиз қалбида миллий ғурур ва ифтихор ҳамда ватанпарварлик туйғуларини камол топтиришга замин яратди. Шунингдек, мустақиллигимизнинг ўзига хос мафкурасига айланган миллий истиқлол ғояси минг йиллар давомида шаклланиб, сайқалланиб келган миллатимиз маънавияти сарчашмаларидан, бутун инсоният тўплаган тажриба ва қадриятлардан озиқ олади. Шу маънода ушбу ғоянинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари ҳақида батафсилроқ тўхталиб ўтиш жоиз.

Бу соҳадаги энг асосий вазифамиз - деб таъкидлайди Президент Ислом Каримов, - миллий қадриятларимизни тиклаш, ўзлигимизни англаш, миллий ғоя ва мафкурани шакллантириш, муқаддас динимизнинг маънавий ҳаётимиздаги ўрнини ва ҳурматини тиклаш каби мустақиллик йилларида бошлаган эзгу ишларимизни изчиллик билан давом эттириш, уларни янги босқичга кўтариш ва таъсирчанлигини кучайтиришдир.

Лекин турли қараш ва фикрга эга бўлган ижтимоий қатламлар, сиёсий куч ва ҳаракатларнинг ўзига хос мақсадларини уйғунлаштирувчи ғоя – юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ манфаати - барчамиз учун бирдек муқаддас бўлиши шарт.

Том маънода мана шундай олижаноб туйғулар миллий ғоя ва миллий мафкурамизнинг маъно-мазмунига, мана шу юртда яшайдиган ҳар қайси инсоннинг ҳаёт дастурига айланишига эришиш даркор[1]. Юртимизда яшаб ижод қилган ислом фалсафаси намоёндалари - имом Бухорий, имом Ат-Термизий, Аҳмад Яссавий, Абулқосим Замахшарий, Абдухолиқ Ғиждувоний, буюк қомусий олимлар - Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Улуғбек, мутафаккир шоирлар - Юсуф Хос Хожиб, Алишер Навоий, улуғ саркардалар ва давлат арбоблари Амир Темур, Бобур, Абдуллахон ижодида ва амалий фаолиятларида эркин, фаровон жамият ғоялари акс этганлиги бежиз эмас. Шу билан бирга Шарқ мутафаккирлари инсонпарвар жамият қуриш ғоясини одил шоҳга боғлайдилар (Фаридиддин Аттор, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Жалолиддин Румий, Баҳовиддин Нақшбанд, Нажмиддин Кубро, Ғаззолий, Бедил ва б.)[2]. Бу каби мутафаккирлар ҳоким ва халқ, шоҳ ва салтанат муносабатларида адолатли иш тутиш, давлатни қонунлар орқали бошқариш, қабул қилинаётган тадбирларнинг халқ томонидан қўлланиши каби ижтимоий муаммоларни кўтарадилар.[3] Бу озод Ватан, халқпарвар тузум идеалларини асослаш эди.

Тасаввуфнинг кўпгина намоёндалари ҳам ўз илмий ва амалий фаолиятларида эркин жамият ғоясини илгари сурганлар. Ҳасан Басрий, Абдулла Ансорий, Абулҳасан Ҳаракоий, Баҳоуддин Нақшбанд, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Хўжа Аҳрор Валий, Маҳдуми Аъзам Косоний адолат, ҳақиқат куйчилари бўлдилар.

Дарҳақиқат, барча даврлар ва халқлар мутафаккирлари бахт-саодат келтирадиган тузум ҳақида орзу қилиб келганлар. Бу ҳақда кўплаб мутафаккирларимиз қарашлари тўғрисида кўп ва хўп гапириш мумкин. Лекин биргина Форобий қарашлари мисолида бахт-саодатга, фаровонликка жамият аҳли қандай эришади деган ғоянинг миллий ғоямизда акс этган жиҳатларига тўхталиб ўтиш жоиз.

Форобий фикрига кўра, ҳар бир инсон ўз табиати билан шундай тузилганки, у яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга муҳтож бўлади, у бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди, уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эҳтиёж туғилади. Шу сабабли кўп кишиларнинг бирлашуви орқалигина одам ўз табиати бўйича интилган етукликка эришуви мумкин. Бундай жамоа аъзоларининг фаолияти бир бутун ҳолда уларнинг ҳар бирига яшаш ва етукликка эришув учун зарур бўлган нарсаларни етказиб беради. Шу маънода, Форобий фикрига кўра, ҳақиқий бахтга эришиш мақсадида ўзаро ёрдам қилувчи кишиларни бирлаштирган жамият фозил жамиятдир.

Абу Наср Форобий ўзининг «Талхису Наволиси Афлотун» («Афлотун қонунлари моҳияти») асарида фозил жамият концепциясини баён қилишни қонунлар ҳақида фикр юритишдан бошлайди. Буюк мутафаккирнинг фикрига кўра, инсоннинг хавфсиз яшаши учун биргина фаровонликнинг ўзи етишмайди. Инсон жасорати эса ташқи урушдаги жасорат эмас, балки одамларнинг ўз иллатлари устидан ғолиб келиб, тинчликни таъминлашларидир[4]. Демак, инсонларнинг ўзаро муносабатларини такомиллаштиришга қаратилган ҳаракатидан фаровон жамият сари интилишнинг илк босқичи келиб чиқади.

Форобийнинг қарашларига кўра, «энг мушкул иш - қонунни жорий қилишдир. Қонунга шубҳа билан қараш ҳамда қонун устидан арз қилиш эса энг осон ишдир.» Бугунги ҳуқуқий давлат барпо этиш жараёнларида бу каби ўгитларнинг ўзига хос ўрни бор. Айниқса унинг қонунга ҳурмат билан қарашнинг аҳамияти ҳақидаги фикрлари эътиборга молик. Буюк аллома шундай деб ёзади: «Қонуннинг ўзи ўз ҳолича олийжаноб ва юқори мартабали бўлиши керак ва унинг номидан ҳамда у (қонун) ҳақда нимаики гапирилса ҳам мўътабар ҳисобланиши лозим… Халқ қонунларга эҳтиёж сезиши ва уларни чуқур ўрганиши зарур, чунки улар кейинчалик халқнинг ўзига фойда келтирадилар. Акс ҳолда қонундан кўзланган мақсадга эришиб бўлмайди»[5].

Демак, Форобий ҳар қандай одамда ҳам таҳсинга лойиқ инсоний қувват ҳам ҳайвоний куч мужассамлигини таъкидлаган ҳолда қонун айнан таҳсинга сазовор инсоний қувватни ривожлантиришга қаратилган бўлиши зарурлигини уқтиради. Шаҳарнинг ҳамма аҳолисига келганда, агар улар таҳсинга сазовор қувват касб этишга кучлари етмаса, йўл кўрсатувчи қонун соҳибларининг адолатларига бўйсуниши керак бўлади.

Фозил жамият ҳақидаги тасаввурларни бугунги кунда демократия деб номланаётган қадриятлар тизимига кўп жиҳатдан мослигини кўрамиз. Хусусан, демократиянинг асосий мезонларидан бири бўлган қонунларни жорий қилиш муаммоси ҳам бундан мустасно эмас. Унинг фикрига кўра, чинакам қонун ўрнатувчи янги қонун қабул қилаётганида мамлакатдаги барча табақалар, авлодларга, вилоятлар аҳолисига бахт-саодат, шод-хуррамлик, эркинлик ва фаровонлик келтиришини ҳисобга олади. Қонун турли-туман феъл-атвор ҳамда хислатларга эга бўлган одамлар хайрихоҳлик билан кутиб олишига арзийдиган бўлиши зарур.[6]

Маълумки, Форобий фозил жамиятнинг асосий хусусияти деб бахт-саодатга интилишни тушунади ва бахт-саодатга интилмайдиган жамиятни жоҳил жамият деб баҳолайди. Бахт-саодат эса олий даражадаги эзгулик бўлиб, унга соғлиқ, гўзаллик, бойлик каби қадриятлар етаклайди. Жоҳил ва адолатсиз одамлар учун эзгулик йўқ ва улар бахтга эриша олмайдилар. Улар учун ҳатто ҳаёт ҳам бир кулфатдир. Мутафаккир фикрига кўра, саодатга оқиллик ва унга ҳамиша интилиб яшаш орқали эришиш мумкин. Шундай экан, қонун мустаҳкам руҳ ва оқил идрок тарбиясига йўналтирилгандагина фаровонлик томон етаклайди. Демак, раҳбар халқ, оммани тарбиялашга, унинг руҳи ва идрокини мустаҳкамлашга ҳаракат қилмоғи зарур.

Бугунги кунда биз барпо этаётган жамиятнинг олий мақсадларидан бири инсонларнинг фаровон ҳаётини таъминлашдир. Жамиятни бошқаришда одамларни фароғатга келтирадиган бирдамликка етакловчи, интизомни шакллантирувчи қонунларни яратиш айни шунга хизмат қилади. Шунга боғлиқ тарзда айтиб ўтиш жоизки, XX аср бошларида озод юрт қайғусида яшаган Абдулла Авлоний бу ҳақда шундай деган эди:

«Интизом деб қиладурган ибодатларимизни, ишларимизни ҳар бирини ўз вақтида тартиби ила қилмакни айтилур. Агар ер юзида интизом бўлмаса эди. Инсонлар бир дақиқа яшолмас эдилар… Алҳосил, ҳар бир миллатнинг тараққий ва таолийси ишларини вақтида низомдан чиқармай тартиб ила юритмакға боғлиқдур… Ишларини тартиб узра юритган кишиларнинг ишлари ерида, ўзлари тинч ва роҳатда умр ўткарурлар»[7]

Ўз юртларини озод ва обод кўришни орзу қилган жадид зиёлилар ҳам тарбия масаласига алоҳида эътибор қилганлари бежиз эмас эди. Яна бир бор Авлонийнинг Форобий фикрларига ҳамоҳанг фикрига эътибор берайлик. «Ҳар бир миллатнинг саодати, давлатларнинг тинчи ва роҳати – деб таъкидлайди Авлоний, - ёшларнинг яхши тарбиясига боғлиқдур».

Кўриниб турибдики, Форобий ва Авлоний турли даврда яшаганликларига қарамай, одамларни эркин ва фаровон жамиятга *тарбия* орқали етаклашга даъват қилганлар.

Форобий ғоясига кўра, фозил жамият фақатгина одамлар жамоаси борлиги учунгина фозил деб аталмайди, балки адолатли қонунларга ва бошқарув қоидаларига риоя қилгани, доно раҳбарга эга бўлишга, одамларнинг таҳсинга лойиқ одатлари ва ахлоқини рўёбга чиқаришга шарт-шароит яратган жамият бўлгани учун ҳам фозилдир.

Мамлакатдаги тузумнинг гўзал ва яхши бўлиши хукмдорнинг билимдонлиги ва ўзга тузумлардаги фаровонлик ва бошқа ижобий жиҳатлардан хабардорлик билан боғлиқ деган фикр ҳам Форобийни замонавий демократия назариётчилари қаторига қўйишимизга имкон беради. Бунинг устига, фуқаролик жамияти ҳақидаги ҳозирда кўплаб билдирилаётган фикр-муҳазалар ҳам мутафаккирнинг назаридан четда қолмаган. Форобий мамлакат аҳолиси хушхулққа эга бўлмаган тақдирда кучли ҳокимиятга эҳтиёж туғилади деб таъкидлайди. «…Ҳокимият ихтиёрий қабул қилинганда кўпроқ маъқул ва ҳар томонлама қулай ҳисобланади… жоҳил одамлар устидан ҳукмронлик ва уларни ҳокимиятга бўйсундириш ҳақиқатан тўғри иш бўлиши билан бирга, эркин ва меҳр-шафқатлиларни бўйсундириш ўта бемаъниликдир»[8]. Дарҳақиқат, комил инсон устидан ҳукмронликка эҳтиёж йўқ. Комилликка интилувчи инсонлар фаолияти фозил жамиятни шакллантирувчи омиллардан биридир.

Мутафаккир фозиллар шаҳрининг зидди бўлган шаҳарлар (жамият) ҳақида ҳам фикрлар билдирадики, бу ҳолат ҳозирги замон жамиятининг айрим жиҳатларига танқидий муносабатда бўлишни талаб қилади. Форобийнинг огоҳлантириши шундаки, жоҳил жамият аҳолиси бахт-саодатга интилмайди, бахт-саодат нималигини билмайди ҳам. Чунки, жаҳил одам ҳеч қачон бахт топмаган ва бахт-саодатга ишонмайди ҳам. Фаровонликка келсак, жаҳил одам (ҳақиқий ободонликни билмасдан) баъзилар назарида бахту-давлат бўлиб кўринадиган ўткинчи, юзаки нарсаларни, мол-дунёни, жисмоний лаззатларни, хирсу-шаҳватни, обрў, амал, шон-шуҳратни ҳақиқий бахт, фаровонлик деб ўйлайди. Шу неъматлардан ҳар бири жаҳил одам назарида ҳаётдан мақсад, бахт-саодат бўлиб кўринади.

Моддий ва маънавий неъматларнинг барчаси биргаликда уйғунлашган чоғдагина ҳақиқий бахт-саодатга эришиш мумкин. Бу неъматларнинг тескариси – тан касалликлари, камбағалчилик, завқ ва лаззатдан маҳрумлик, ҳурмат ва обрўнинг йўқлиги – бахтсизликдир. Ёлғиз жисми талабларини, ҳирсини қондириш, ишрат, кайф-сафога интилиш бахт-саодатни билдирмайди. Эҳтиролар тизгинини жиловламай, шахсий истакларини тинимсиз қондиришга интилишлар ҳам шулар жумласидандир. Форобий шунингдек бир-бирларини мақташни, кўкка кўтариш, бир-бирларининг олдида ёки бегоналар кўзига улуғвор, шон-шавкатли бўлиб кўринишга сохта уринишларни ҳам жоҳилликнинг кўриниши сифатида баҳолайди.

Фаровонликка интиладиган жамият аъзоларининг ўз ғоялари, ихтиёрий амал қилишга жазм этган қадриятларига собитлигини талаб этади. Форобий фикрига кўра, фозил жамият аҳолисининг назарий қарашлари ва амалий ишларига нисбатан бегона ғоялар аста кириб олиб, уларнинг қарашларини ўзгартириб юбормаслиги керак. *Зеро, инсон бахт-саодат нималигини тушунган бўлсаю, унга эришишни мақсад қилиб олмаса, ғоя ва хоҳишига айлантирмаган бўлса, унга нисбатан озгина бўлсада, шавқ ва завқ сезмаса, истак ва мулоҳазасини, куч ва қувватини бошқа нарсаларга сарфласа, бу қилмишлари ноўриндир.* Инсонлик моҳияти ҳақиқий бахт-саодатга эришув экан, инсон бу мақсадни ўзининг олий ғояси ва истагига айлантириб, бу йўлда барча имкониятлардан фойдаланса, у бахт-саодатга эришади. Инсон аввало бахт-саодатнинг нима ва нималардан иборат эканлигини билиши, унга эришувни ўзига ғоя ва энг олий мақсад қилиб олиши, бутун вужуди билан мафтун

бўлиши керак. Кейин бу бахт-саодатга олиб борадиган амал ва воситаларнинг нималардан иборат эканлигини билиб олиши зарур. Сўнгра эса бахт-саодатга эритирадиган ишларни шахсан бажаришга киришмоғи лозим бўлади. Форобийнинг ушбу фикрлари бугунги кунда ўз миллий ғоясининг пировард мақсади сифатида фуқаролик жамиятини барпо этишни кўзлаётган жамиятимизнинг мақсадларига ҳамоҳанг эканлигини англаш мушкул иш эмас.

Хуллас, фаровон жамият ғояси мустақил ва барқарор тараққиёт йўлига кираётган жамиятлар учун икки ҳисса қадрлидир. Шу маънода унинг умуминсоний жиҳатларига, демократик моҳиятига улкан эътибор берилаётганлиги табиийдир. Президент Ислом Каримов миллий ва умуминсоний қадриятларга таянган ҳолда озод ва обод Ватан, демократик жамият қуриш жараёнига давлат сиёсати даражасида эътибор қаратаётганлиги ҳам шундан. Зеро, *мамлакатимизда фаровон, илғор жамият барпо этиш - мақсад, амалга оширилаётган ислоҳотлар - восита бўлиб, жамиятимизда ҳукм сураётган ижтимоий-сиёсий барқарорлик ўз навбатида ислоҳотлар учун шарт-шароитдир.*

2. Миллий ғоя - эркин ва фаровон ҳаёт қуриш омили сифатида.

Мамлакатимизда демократик институтлар ва фуқаролик жамияти асосларининг шаклланиши ҳақида фикр юритар экан, Президент Ислом Каримов жамиятнинг демократиялашувини узоқ муддатли жараён сифатида баҳолайди, демократия ғояларини шунчаки баён қилиш, юқоридан тушириш билан уни одамларимиз ҳаётига сингдириб бўлмаслигини уқтиради. «Демократия, - деб таъкидлайди И.А.Каримов, - жамиятнинг қадриятига, ҳар бир инсоннинг бойлигига айланмоғи керак. Бу эса бир зумда бўладиган иш эмас. Халқнинг маданиятидан жой ололмаган демократия турмуш тарзининг таркибий қисми ҳам бўла олмайди. Бу тайёргарлик кўриш ва демократия тамойилларини ўзлаштиришдан иборат анча узоқ муддатли жараёндир»[9].

Демократияни жамиятнинг устувор қадриятига, унинг барқарор тараққиёти омилига айлантириш демократик ривожланиш анъаналарини авайлаб ўстириш, жаҳон халқлари демократик анъаналарини, адолатли жамият орзуси йўлида инсоният тўплаган тажриба ва амалиётни муттасил ўзлаштириш зарур**.** Бунда шарқона демократия тамойиллари таянч бўлиб хизмат қилади.

Аммо, инсон табиати зиддиятлидир. У бошқалар интилишларига тескари бўлган интилишларга эга бўлиши ва шу вақтнинг ўзида ўзгалар билан ҳамкорликка мойил бўлиши мумкин. Инсон табиатига хос ана шу қарама-қаршилик унинг жамиятдаги ҳаёти ва ҳатти-ҳаракатларини ҳам белгилайди. Одамлар бир томондан шахсий эркинликка интилсалар, иккинчи томондан ижтимоий тенгликни талаб қилишга мойил бўладилар. Одамлар ўз манфаатларини кўзлашлари билан бирга умумийижтимоий манфаатларга ҳам интиладилар. Аммо бу қарама-қарши тенденцияларни, шахсий манфаат билан жамият манфаатларини қандай қилиб мувофиқлаштириш мумкин? Жамият бу муаммонинг ечимига демократия механизмларини ишга солиш орқалигина кела олади. Айнан демократия ва умумий манфаатлар вобасталиги ижтимоий муносабатларни мувозанатга келтиришга хизмат қилади. Демократия доимий қутб - «зиддият - келишув - бирдамлик» орқали ўзига йўл очар экан, кишиларнинг ўзаро розилиги, келишувига таянади. Гап шундаки, демократия - бу ёлғиз ўз мақсад ва талабларини амалга ошириш воситаси бўлмай, балки ўзаро муносабатларнинг мақбул қоидаларига риоя этишдир. Умуминсоний, хусусан демократик қадриятларга таянган миллий истиқлол ғояси ана шу қутбий интилишларни мувофиқлаштириш орқали умумий манфаатларни ўзида ифода этади.

3. Жамият барқарорлиги-эркин ва фаровон ҳаёт қуриш омили

Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёти йилларида шу нарса аниқ исботини топдики, озод ва фаровон ҳаётни барпо этишнинг асосий омилларидан бири - барқарорлик¬дир. Охирги йилларда жаҳон ҳамжамиятида барқарор ривожланиш концепцияси кенг оммавийлашмоқда. Хусусан, БМТ ҳужжатларида ҳам барқарор тараққиёт олий қадрият сифатида талқин этилади, унинг универсал хусусиятлари, турли моделларининг кучли ва заиф томонлари таҳлил этилади.

Мутахассислар орасида барқарорлик деганда демократик тузилмаларнинг тез ўзгарувчан ижтимоий жараёнларга нисбатан акс-таъсир кўрсата олиш қобилияти тушунилади. Бунда барқарорлик демократиянинг вазифаси деб қаралади, у ўзига кишиларнинг фуқаролик жамияти институтлари воситасида давлатни бошқаришдаги иштирокини ҳам ўз ичига қамраб олиши зарур. «Кучли давлатдан - кучли жамиятга ўтиш»

қоидаси ҳозирда демократик институтларни жорий этишни жадаллаштириш, жамиятдаги ижтимоий барқарорлик жамоатчиликнинг фаоллигига асосланиши зарурлигини кўрсатмоқда.

Ўз ўрнида айтиб ўтиш жоизки, «барқарорлик» тушунчаси кўплаб ёндашувларни ўзига жамлаган. Уларни қуйидаги кўринишда умумлаштириб келтириш мумкин: а) жамиятда ноқонуний зўрлик ва куч ишлатиш таҳдидининг бўлмаслиги; б) бирмунча узоқ вақт давомида бир ҳукуматнинг амал қилиши, унинг ўзгарувчан шароитларга самарали тарзда мослашувчанлиги; в) конституцион тартибнинг барқарорлиги; г) барқарор легитим ҳокимиятнинг барқарор мавжудлиги; д) сиёсий тизимда тузилмавий ўзгаришларни бошқариш имкониятининг мавжудлиги; и) сиёсий кучларнинг мувозанати ва б.

Фикримизча, бу демократлашув жараёнини бошдан кечираётган жамиятларга хос умумий меъёрлардир. Аммо умумийлик доимо хусусийликдан таркиб топади. Бизнинг мамлакатимизда барқарор тараққиёт, унинг асосий омиллари ва шартлари Ислом Каримовнинг «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари» китобида батафсил келтирилган. Мамлакатимизнинг барқарор тараққиёти мавжуд шарт-шароит билан боғлиқ ҳолда таҳлил этилган ва унинг шартлари кўрсатилган. Булар: а) маънавий қадриятлар ва миллий ўзликни англашнинг тикланиши; б) давлатчиликни шакллантириш ва мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш; в) демократик институтларни ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантириш; г) бозор муносабатларининг қарор топиши ва мулкдорлар синфининг шаклланиши; д) кучли ижтимоий сиёсат ва аҳоли ижтимоий фаоллигининг ортиши[10].

Бир сўз билан айтганда, барқарорлик бирор-бир сиёсий объект ёки институтнинг ҳолатинигина эмас, балки ички ва ташқи муносабатлар тизимини ҳам ифодалаши зарур. Ижтимоий-сиёсий барқарорлик демократик тартиб билан бирга узвийликни, давомийликни ҳам талаб этишини айтиб ўтиш зарур.

Шундай қилиб, демократиятни таъминлаш бошқарув тизимини, фуқаролик тартибини, бошқарувнинг қонунийлиги ва ишончлилигини ифодаловчи ижтимоий-сиёсий барқарорлик шароитидагина амалга оширилиши мумкин. Бу эса озод ва обод Ватан барпо этиш йўлини таъминлайди.

Демократик жараёнлар самараси фақатгина сиёсий институтларга эмас, фуқароларнинг уларга жалб этилишига ҳам боғлиқ. Сиёсий ҳаётдаги иштирок демократик тартиб ва жараённинг муҳим мезони бўлиб, унда сиёсий субъектларнинг сиёсий муносабатлар ва ҳокимият тизимига жалб этилганлиги даражаси айниқса, сайловлар жараёнида яққол кўзга ташланади. Шу маънода демократия жамиятда сайловчилар овози учун ошкора, барчанинг кўзи олдида ҳалол рақобатга киришишни ва аҳолининг кенг гуруҳларининг сиёсий жараёнга «киритилганлигини» тақозо этади. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт қуриш ғояси эркинлаштириш, эркин меҳнат фаолияти ва тадбиркорликни ривожлантириш жараёнлари билан узвий боғлиқ. Боқимандалик ёки сохта «умумий тенглик» ғоясига асосланиб эркин ва фаровон ҳаёт қуриб бўлмайди. Дунёдаги бирорта жамият бу йўл билан фаровон ҳаётга эришган эмас. Эркин иқтисодий фаолиятга асосланган бозор иқтисоди, мулк хилма-хиллига таяниш, эркин ва соғлом рақобат муҳитида ўрта мулкдорлар қатлами шаклланиб боради. Бу эса ўз навбатида озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт қуришнинг социал негизи, ижтимоий таянчи ҳисобланади.

Хўш, ўрта ижтимоий қатламнинг ўзи нима? Ўрта қатлам - бу ўз шахсий мулки, яъни турар жойлари, шахсий транспорт воситаларига эга бўлган, ўзини ва ўз оиласини ҳаётини муносиб тарзда таъминлай оладиган, ўзининг ва оила аъзоларининг фундаментал эҳтиёжларини (таълим олиш, дам олиш, сифатли тиббий хизматдан фойдаланиш) қондириш учун етарли моддий имкониятлари мавжуд бўлган, маънавий ҳаёти мазмунли бўлган ва энг муҳими - бу имкониятни ўз иш ҳақи ва даромадлари эвазига таъминлай оладиган ҳамда фаол равишда жамият ижтимоий-сиёсий ҳаётида иштирок этадиган фуқаролардир.

Жамиятнинг айнан ўрта қатлами миллий бойликнинг асосий қисмини яратади, давлат қарамоғида боқимандаларча кун кечирмайди ва жамиятнинг “умуртқа суяги” ни ташкил этади. Бундай қатламнинг шаклланиши шунингдек жамиятнинг кескин табақалашувига - ошиб-тошиб кетган бойлару, камбағал-қашшоқларга бўлиниб кетишига йўл қўймайди. Жамиятда турли ижтимоий гуруҳларнинг манфаатларини уйғунлаштириш, фуқаролар бирдамлигини таъминлаш асосида умумий фаровонликни ўрнатишнинг энг

синалган воситаларидан бири ҳам жамиятда ўрта қатламни барпо этиш эканлигини шундан кўрса бўлади.

Мамлакатимизда бозор муносабатларининг шаклланиб бориши жараёнида даромадлари, турмуш даражаси ва сифатига кўра бир-бирларидан фарқланувчи қатламлар шаклланмоқда. Бу табиий ҳол. Аммо бундай ҳолатни ҳамма ҳам тўғри баҳолайвермайди. Бунга айрим шахсларнинг бойликка ружу қўйиши, очкўзлик, исрофгарчилик, ўзаро ёрдам ва қариндош-уруғчиликнинг яхши жиҳатларини менсимаслик, ўзини кўз-кўз қилишдек иллатлар ҳам сабаб бўлмоқда. Бунга айримлар учун ҳаёт тарзига айланган таъмагирлик, пораҳўрлик, тўрачилик каби жирканч қиёфага кираётган ҳолатларни қўшадиган бўлсак, ҳалол меҳнат кишисининг руҳий изтиробларини тушуниш қийин эмас. Шу маънода Президентимизнинг бозор механизмларини ҳаётга тадбиқ этиш билан бирга қонунчиликни мустаҳкамлаш ва бунда маънавий асос бўлиб хизмат қиладиган ахлоқ нормаларини ҳам ижтимоий ҳаётда кенг ёйиш тўғрисида куюниши бежиз бўлмай, адолатли жамият қуришга нисбатан халқимизнинг интилишини ифодалайди.

Бозор муносабатлари қарор топаётган ҳозирги кунда баъзилар фақат яхши еб-ичиш, кийинишнигина ўз ҳаётларининг бош мақсади деб биладилар. Бундайлар ўртасида кўзга ташланиб турувчи истеъмолчилик ҳол нисбатан “зиёнсиз” бўлиб туюлган маънавият ва ахлоқни менсимасликдан бошланиб, охир-оқибат қонунни четлаб ўтиш, кейинчалик уни бузиш ва оёқ ости қилиш каби жамият учун ўта хавфли оқибатларга олиб келиши тайин.

Ҳозирда мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий тараққиётини барқарор тараққиёт манфаатлари асосида йўлга қўйишнинг назарий-амалий ва илмий асосларини ишлаб чиқиш талаб этилади. Айниқса, ижтимоий жараёнларни олдиндан кўра билиш, уни прогнозлаш, зарур ўзгартиришлар киритиб, уларнинг самарасига гувоҳ бўлгач, олинган тажрибаларни аста-секин кенгроқ кўламда тадбиқ этиш кўзланган мақсадга олиб келиши мумкин.

Шундай экан, ҳозирги даврда ижтимоий жараёнларнинг ривожланиш тенденцияларини олдиндан башорат қилиш, ислоҳотлар учун ўта муҳим йўналишларни лойиҳалаштириш, моделлаштириш катта аҳамиятга эга. Зеро, уларнинг натижалари ва хулосалари ислоҳотни юритиш сиёсатида катта ёрдам беради.

Мамлакатимизда эркинлик тамойилларининг борган сари кенг илдиз отиши, эркин меҳнат фаолияти, тадбиркорликнинг ривожланишида мулкдорлар қатламининг шаклланиши ва мустаҳкамланиши учун замин яратмоқда.

2004 йил 7 февралда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил якунлари ҳамда 2004 йилда иқтисодиётни янада эркинлаштиришнинг асосий йўналишларига бағишланган мажлисида қилган маърузасида Президент Ислом Каримов жамиятимизда тадбиркорлик руҳини қарор топтириш йўлидаги, хусусан кичик ва ўрта бизнес ривожига тўсиқ бўлаётган бюрократик иллатларни асосли танқид қилди, бу соҳадаги долзарб чора-тадбирларни белгилаб берди.

Умуминсоний тамойилларга асосланган фаровон ҳаёт қуриш ғояси халқ ҳукуматга эмас, ҳукумат халққа хизмат қилишини талаб этади. Лекин бунга эришиш учун демократияни яратиш, уни ижод қилиш, унга кўникиш, у билан яшаш кўникмалари, тажрибаси, бир сўз билан айтганда демократик маданият ҳам зарур. Демократик жараёнлар тарихи шундан гувоҳлик берадики, уни ўрганишдаги энг осон йўл - тақлид, энг ишончлиси - ўрганиш ва энг аччиғи - тажрибадир. Омманинг сиёсий-ҳуқуқий маданиятини такомиллаштириш ва барпо этишда демократия маданияти муҳим ўрин тутади. Ўз шахсий манфаатидан келиб чиқиб, ўз ҳуқуқларидан фойдалана олувчи, ўз тақдири учун масъулиятни қўлга ола билиш билан бирга ўзи ва фарзандлари учун эркинликни амалга оширишнинг ижтимоий ва сиёсий воситаларини ўрганиш қобилияти ҳам зарур. Демократия иложи борича кўпроқ одамларнинг сиёсий, ҳуқуқий, қолаверса, умумий маданияти билан, уларнинг жамият ҳаётидаги кенг иштироки билан боғлиқ.

Биз интилаётган барқарор тараққиётга эришишда инсонларнинг турмуши яхши бўлиши, маълумотли бўлишлари, ҳалол даромад топа олишлари, ижтимоий

таъминотга боғланиб қолмасликлари ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Муҳими, фаровон ҳаётга эришиш учун одамлар эркин меҳнат маҳсулининг «таъмини» тотиб кўришлари, ҳалол йўл билан юқори даромад қилиш ҳадисини олишлари зарур. Фуқароларнинг иқтисодий эркинлигининг ошиши эса уларнинг сиёсий эркинлигини ҳам юксалтиради, ижтимоий-сиёсий жиҳатдан фаоллаштиради.

Мамлакатимизда фаровон ҳаётни барпо этиш йўлида иқтисодиётни дастлабки турғунлаштиришга қаратилган саъй-ҳаракатлар даври кейинчалик жамият ҳаётини демократик жараёнлар билан тўлатиш, амалда демократик институтларни барпо этиш, иқтисодда сезиларли жонланиш жараёнлари билан бирга кечди. Юзлаб замонавий саноат корхоналари ва иншоотлари барпо этилди. Эндиликда иқтисодий юксалиш даври бошланиб, бунда жамият ҳаётининг барча соҳаларини қамраб олувчи жараёнлар ва институтлар мустаҳкам, қайтарилмас хусусиятга эга бўла бошлади. Одамларимизнинг ҳаёти яхшиланмоқда.

Лекин, иқтисодий фаровонлик ва сиёсий самарадорликнинг ўзи эркин ва фаровон ҳаёт учун етарлими? Бу фақатгина иқтисодий ва ижтимоий шарт-шароитларгагина эмас, балки сиёсий институтлар тизимига ҳам боғлиқ бўлиб қолмоқда. Бошқача айтганда, Ўзбекистонда демократия мустаҳкам оёққа туриши жараёнида уни парваришлаш, озор бермай, сабр-тоқат билан такомиллаштириш, уни эркин ва фаровон ҳаёт қуриш воситасига айлантириб бориш зарур. Фуқароларимиз эса иқтисодий ҳаётда ҳам, инсонлараро муносабатларда ҳам бир томондан эркинликни, иккинчи томондан тартиб-интизомни нозик уйғунлаштира олиш салоҳияти ҳисобга олиш маданиятини эгаллашлари лозим бўлади.

Албатта, ўтиш даврида иқтисодий демократия муҳим рол ўйнайди, зеро у аҳолининг ўз даромадларига кўра юқори ва қуйи қатламлари ўртасидаги тенгсизлик даражасининг тез ўсиб боришининг олдини олади. Ўзбекистонда мулкий қутбланиш, жамиятнинг ошиб-тошиб кетган бойлар ва камбағал-қашшоқларга ажралиб қолишига йўл қўймаслик сиёсатининг белгилаб берилганлиги куртак отаётган демократияни муҳофазалаш эҳтиёжидан ҳам келиб чиқади. Бу сиёсатнинг изчил амалга оширилиши мамлакатимизда демократиянинг келажагини кўп жиҳатдан белгилайди.

4. Эркинлик ва тараққиёт ғояларининг муштараклиги

Маълумки, мамлакатимизда эркинлаштириш жамият демократлашувининг муҳим йўналиши сифатида эътироф этилади. Бу ҳам бизнинг ғоямиз ҳисобланади. Лекин бу ўз навбатида эркинликни улкан ижтимоий-сиёсий қадрият сифатида англашни талаб этади.

Ўз ўрнида шахсий мазмунда эркинлик тушунчасининг ижобий ва салбий жиҳатларга эга эканлигини таъкидлаган бўлардик. Унинг *ижобий жиҳати* шахснинг ўз манфаатларига мувофиқ равишда ҳатти-ҳаракатлар содир қилиш имкониятини ифодалайди. Бунда шахс маълум ҳатти-ҳаракат содир қилиши мумкинки, унинг бу интилишлари ўз навбатида бошқаларнинг манфаатларига зид келмаган тақдирда адолат чегараси, эрклар тенглиги уйғунлашади. Аксинча, шахс ҳатти-ҳаракати ташқаридан бўладиган таъсирлардан бутунлай озод бўлган тақдирда ва у ўз мақсадларига эришишда ҳеч бир акс таъсирни тан олмаган тақдирда эркинликнинг *салбий ҳолати* юз беради.

Албатта, эркинликнинг ҳар икки жиҳати ўртасида мураккаб, зиддиятли ва ҳатто қарама-қарши муносабатлар мавжуд. Эркинликнинг айнан ижобий ва салбий хусусиятлари мувозанати шахс эркинлигини белгилайди. Шарқ ва Ғарб жамиятшунослари аввалдан шахс эркинлигининг руҳий-лирик (Навоий, Бедил), ижтимоий-руҳий (Форобий, Лебон, Тард, Ортега-И-Гассет), руҳий-индивидуал (Фрейд), контракцион (Дьюи, Мид), ҳатти-ҳаракатли (Вебер), социометрик (Морено), ижтимоий (Франкфурт мактаби), феноменологик (Шюц), бегоналашув (Фромм), аномик (Дюркгейм, Мертон), манфаатли (Рассел), зиддиятли (Дарендорф), экзистенциал (Хабермас) талқинини баён этиб келганлар. Аммо ҳозирда масаланинг асос моҳиятини шахс эркинлигини таъминлашда сиёсий ва ҳуқуқий-юридик институтларнинг адолатли тузилмасини шакллантиришга эътибор қилиш ташкил этмоқда.

Ўз ўрнида яна шуни шуни таъкидлаб ўтиш зарурки, сиёсий фикриёт тарихида эркинлик ва тенглик нисбати муаммолари баҳсларга сабаб бўлиб келмоқда. Аслида, энг асосий муаммо - бу қадриятлардан қай бирига кўпроқ истак билдиришда эмас, балки уларни биргаликда мувофиқлаштиришдир. Аслида фуқароларнинг ўз тараққиётлари бўйича имкониятларга тенг ҳуқуқларини кафолатлаш муҳимроқ. Агарда бу таъминланмаса, тенгликка путур етади, агар бундан кўпроғи талаб қилинса - эркинликка зарар етади. Бошқача айтганда, шахс эркинлиги, тенг имкониятлар, ҳуқуқлар ҳамда бурчлар тизимига асосланган ҳар қандай демократик жамият эркинликлар ва тенглик зиддиятларида шахс такомилига таяниш зарур. Зеро, фаровон ҳаётни таъминлаш аввало шахснинг фаоллигига боғлиқ.

Ўзбекистон фаровон жамият қуриш йўлида аниқ натижаларга эришмоқда. Шу ўринда инсоннинг жамият хаётида тутган ўрни ва ролининг миллий ва умуминсоний мезонларини англаш ҳозирги пайтда амалий аҳамият касб этмоқда. Бунинг яна бир жиҳати шундаки, демократик тараққиёт йўлига ўтган ва ўтаётган мамлакатларда инсоннинг жамиятдаги ўрни масалаларига қарашда туб ўзгаришлар содир бўлмоқда. Инсон тараққиёти тўғрисида сифат жиҳатдан янги концепциялар ҳам қарор топдики, бу жаҳон ҳамжамиятининг диққат эътиборига сазовор бўлди.

Тадқиқотчиларнинг кўрсатишича, иқтисодий юксалиш ва инсоний тараққиёт ўртасида бевосита боғлиқлик мавжуд. Одамларга сарфланадиган инвестициялар одамларнинг ўзига керакдир. Ўзига тўқ, соғлом аҳоли, яхши таълим олган ва малакали ишчи кучи бир вақтнинг ўзида жамият юксалишида асосий омил ҳисобланади. Халқаро экспертларнинг ҳисобларига кўра, иқтисодий самарадорликнинг 60 фоизи инсон омили воситасида ва қолган 40 фоизи табиий капитал аталмиш заҳиралар (ер ости бойликлари ва б.) ва техник капитал - машиналар, жиҳозлар ва ҳ.к. эвазига таъминланади. XXI асрда инсон омилини сафарбар қилмай ижтимоий тараққиётга эришиб бўлмайди. Инсон тараққиёти муаммоларини сиёсат марказига қўйиш механизмлари йирик мутахассисларни ўйлантирмоқда. Бу соҳада йирик ўзгаришлар юз бериши керак. Янги аср учун тараққиёт стратегиясини танлашда инсон учун, унинг имкониятларини очиш учун, яъни инсонни ривожлантиришга мамлакатимизда алоҳида эътибор берилмоқда.

Дарҳақиқат, инсон салоҳияти аввалгидан ҳам кўп аҳамиятга эга бўлмоқда. Даромадни аҳоли жон бошига ҳисоблаганда энг юқори даражага эга бўлган дунё давлатлари орасида табиий заҳиралари ниҳоятда кам давлатлар оз эмас (Япония, Швейцария, Дания). Шу вақтнинг ўзида табиий заҳираларга ўта бой бир қатор мамлакатлар (Россия, Бразилия, Аргентина) аҳоли жон бошига ҳисоблаганда паст даромадлар даражасига эга. Демак, мамлакат тараққиёти меҳнат кишисининг яратувчилик кучини сафарбар этишга кўп жиҳатдан боғлиқ. Ҳар бир жамият аъзосининг ҳиссаси эвазига мамлакатнинг юксалиши мумкинлиги Германия, Япония, Жанубий Корея, Хитой тажрибасидан маълум.

Узоқ муддатли даврда иқтисодий юксалиш ва инсоний тараққиёт йўналишлари бир-бирига мос келса ҳам, бу алоқа ҳар бир мамлакат учун давлат сиёсатига боғлиқ бўлади. Айрим мамлакатлар пухта ўйланган давлат сиёсати туфайли аҳоли соғлиғини сақлаш, таълим даражасини ошириш ишида иқтисодий юксалишдан олинган самарадан фойдаланишда катта ютуқларга эришмоқда. Ўзбекистон ҳукумати бу йўналишдаги кўпгина дастурларни эълон қилди ва уларни амалга оширмоқда. Бу эса мустақиллик шароитида инсон ислоҳотлар учун эмас, ислоҳотлар инсон учун хизмат қилиши, инсоннинг жамиятга муносабати унинг жамиятда ўз ўрнини топишига боғлиқлигини теран англашга олиб келади. Демак, инсон омили асосида фаровон ҳаётга эришилади. Бугунги кунда бу ҳам миллий истиқлол ғоясида акс этаётган қадриятларимиздан биридир.

5. Ёшлар - эркин ва фаровон ҳаёт бунёдкорлари

Президент И.А.Каримовнинг «Биз ҳеч кимдан кам эмасмиз ва кам бўлмаймиз» деган чақириғининг заминида бой мазмун мужассам. Бунда бугунги ютуқларимиздан фахр туйғуси ҳам, эркин бунёдкорлик фаолиятига чорлов ҳам, мамлакатимизнинг буюк келажагига ишонч ҳам ўз ифодасини топган. Лекин бу аввало ёшларимизга, ўсиб келаётган авлодга ғамхўрлик, меҳр-муҳаббат, уларнинг куч ва имкониятларига катта ишончни англатади. Мустақиллик даврида ҳар бир ёшнинг қобилиятлари ва имкониятларини намоён қила олишлари учун тўлиқ имкониятлар яратиш том маънода давлат сиёсатига айланди. Бунда ёшларни жисмонан бақувват, маънан баркамол, ақлан юксак, руҳан уйғоқ авлод қилиб тарбиялаш миллат ғояси сифатида илгари сурилди. Таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилишдан тортиб болалар ва ўсмирлар спортини ривожлантиришгача бўлган барча кенг миқёсдаги ислоҳотларнинг мақсади ҳам шунга қаратилган.

“Яшаш қаерда яхши бўлса, шу ер мен учун Ватан” деб юрганлар топилади. Бундай қарашда, ҳақиқий Ватанпарварлик туйғусининг мужассам эмаслигини кўрамиз. Чунки, биринчидан, “Яшаш”дан маъно ва мақсад фақат яхши еб-ичиш, роҳат ва фароғатни ўйлаш, ўзи учун “барча қулайликларга” эга бўлган “ҳузур-халоват”дангина иборат эмас. Фақат шу билан ҳаётнинг маъно-мазмуни, яшашдан мақсад белгиланмайди; Иккинчидан, бундай тоифа одамлар, ҳақиқий Ватан туйғусини англамайдилар, ёки уни англашдан йироқ. Ўзининг шахсий манфаатларини ҳамма ҳам ўйлайди, лекин уни фақат ўз қобуғида “ялонғоч”

ҳолда тасаввур этиб, “Ватан” туйғусини идрок этмаслик, охир оқибатда бу одамни туғилган жой, улғайтириб ҳаётга йўлланма берган ота-она, жамоа, эл-юрт, халқ, миллатининг мақсад ва муддаоларидан, орзу-истакларидан, тарихи, қадриятларидан ўзини бегона тутишга олиб келади. Бундай одамда Ватанни англамаслик ва ундан “бегоналик” туйғуси мужассам. Бундай одамда Ватанда яшаб, Ватандан ташқарида ўзини кўриш билан боғлиқ руҳий ҳолат мужассам.

Уни бунга нима ундайди дейиш мумкин? Қандай сабаблар шунга олиб келади? Бунинг сабабини шундай тоифа “одамларнинг ўзлигидан” қидирмасдан, саволга жавоб топиб бўлмайди. Одам ўзлигини қандай англаса, Ватанини ҳам шундай англайди. Ўзлигини англамаган одам Ватанини ҳам англамайди. Уни Ватани, тарихи қизиқтирмайди. У ўзи учун яшашнинг маъносини қаерда бўлмасин яхши яшашда деб билади. У ўзининг халқи, ота-онаси, миллати, мамлакати олдида ҳам фарзандлик, фуқаролик бурчини сезмайди. Унинг мақсади нима қилиб бўлса ҳам “пул топиш”, яхши яшаш”. Шу қоида унинг учун “ота-онадан”, эл-халқдан ҳам юқори, Ватанидан ташқари “Ватан” бўлиб кўринади.

Бундай одамларнинг маънавий дунёси жуда “мўрт” ва моддийлик асосига қурилган. Бир томонлама, инсоний моҳиятдан йироқ, Ватанидан бегона “мени”га эгадир. Ҳар бир инсон ўз “мени”га албатта эга бўлиши табиий ҳолат. Лекин унинг “мени” бошқа “инсонлар” “мени” билан, халқи, миллатининг “борлиғи” билан муштарак ҳолда шаклланади. Ҳақиқий Ватанпарвар инсонлар ўзининг “мени”ни Ватанининг тақдиридан, миллати, халқининг маданий қадриятларидан, орзу-истакларидан айри ҳолда тасаввур эта олмайди. “Мен”нинг ўзига хослиги ана шу миллий руҳиятга таянса, унга амал қилиб умуминсоний моҳият касб этсагина киши ўзининг ҳақиқий “мени”га эга бўлади. Албатта ҳар бир инсон учун Ватандан азиз ва мўътабар, муқаддас макон йўқ. Ватан дегани киндик қони тўкилган шунчаки жой эмас, у ундан кўра азиз бўлган халқининг ўтмиши, бугуни ва келажаги ҳамдир. Шунинг учун ҳам “Ватан” муқаддас. Ватан учун ҳар бир инсон ўзлигини бахшида этса, Ватан ободлиги, озодлиги йўлида, ўзининг фарзандлик бурчини адо этган бўлади. “Ватан учун чала иш қилиб бўлмайди”. Ватан учун чала иш қилиш, бу энг катта гуноҳдир. Ёки, унинг учун ҳеч нарса қилмасликдир.

Шунинг учун ҳам, Ватанни англамаслик, унинг учун ўзлигини бағишламаслик маърифатдан, маънавиятдан йироқ, ўзлигини англамаган одамнинг ишидир. Бундай одамлар “бахт”, “саодатни” фақат моддий нарсаларда кўрадилар. Моддий бойликка эга бўлишни бахт деб тасаввур этадилар. Лекин, “Бойлик”нинг фақат моддий томонини кўришнинг ўзи етарли эмас. Ҳақиқий бахтни моддий ва маънавий бойликни ўзида уйғун мужассам эта олган одамгина аниқ ва мукаммал ҳис эта олади. Инсонни қорни тўқ, моддий ҳаёти бутун бўлиши мумкин, лекин ҳақиқий бахтли, бахтиёр бўлмаслиги мумкин. Ҳаётнинг ана шу делиммаси, доимо инсонларни ўзининг синовидан ўтказиб келган ва келмоқда.

Шунинг учун ҳам, инсон Ватандан ташқарида яхши яшаши, қорни тўқ, усти бутун, халқимиз тили билан айтганда “егани олдида, емагани ортида” бўлиши мумкин, лекин у ҳақиқий бахтли бўлмаслиги мумкин. Бахтни инсон ўзидан ўз Ватанидан қидириши, топиши мумкин холос. Уни четдан қидириш, охир оқибатда афсуслик, маънан қониқмаслик йўлидир.

Инсон ёшлик даврида, унинг ўзига хос баланд-парвозли юқори кайфияти, шижоатга ундайдиган руҳий қувватлари мустаҳкам бўлади. Унинг Ватан меҳри билан уйғун бўлишига эришиш, шуни ҳис этиб яшаш, кишини Ватанга хизмат қилишга ундайди. Инсон Ватанда яшаб, ундан ташқарида бўлиши ҳам, ёки Ватанидан ташқарида бўлиб, ўзининг Ватанидан ҳеч қачон айри ҳолда ҳис этмаслиги ҳам мумкин. Гап, унинг қаерда яшаши тўғрисида эмас, энг муҳими Ватанга муносабати, Ватан учун нима қилаётганлигидадир. Ватанни ўйласа, Ватан учун қайғурса, халқининг эркин ва фаровон ҳаётга эришишида озгина бўлсада, ўзининг ҳиссасини қўша олса шунинг ўзи ҳақиқий Ватанпарварликдир. Бу Ватаннинг шарафи, шони-шуҳратини баланд тутиш, уни қадрлаш ва қадрига етиб, қайғура олиш билан боғлиқ маънавий ҳодисадир. Бу Ватани бор ҳар бир одамга берилган улуғ неъматдан, ҳар бир киши тириклик пайтида тўғри фойдалана олиши керак.

Эркин ҳаёт - бу инсоннинг ўзи ихтиёри, қобулиятини эркин намоён этиш ва эта олишидир. Ҳаёт эркин бўлган жойда тараққиёт бўлади. Шунда инсон ўз салоҳиятини юзага чиқара олади. Унинг салоҳияти тараққиётнинг муҳим омилига айланади. Эркин ҳаёт инсонга қобулиятини, салоҳиятини юзага чиқаришга, ўзи севган касб, меҳнат фаолиятини

эркин танлаш билан шуғулланишга ва ҳаммага бир хил имконият ярата олинган ҳаётдир. Бу фаровон ҳаётга эришишнинг муҳим ўлчовидир. Ана шундай ҳаётни яратишни ўзининг олдида мақсад қилиб қўйган мамлакатда, фуқаролар озод ва обод Ватанга эга бўладилар. Бу унинг миллий истиқлол ғоясининг бош ғояси эканлиги, шубҳасиз чуқур фалсафий маъно ва аҳамият касб этади.

“Эркин ҳаёт” дегани бу хохлаган ишни қилиш эл-халқ, Ватан олдида ҳеч қандай маъсулият сезмаслик дегани эмас. Бу инсонларга ўз касбини эркин танлаш, ўзининг қобулиятига мос ишни, бировнинг таъсири, кўрсатмаси билан эмас, ўз хохиш-истаги билан бажариши учун имконият эканлигини билдиради. Инсон уни ўз халқи, Ватанинг равнақи йўлида фойдаланишни кўнглида тугиб ишлаши лозим. Унинг қўли, ақл-заковати буюк бунёдкорлик ишларига йўналтирилиши муҳим. Ҳаёт эркинлиги кенг маъно касб этади. Уни жамият миқёсида кўрганда: мулк хилма-хиллиги, бозор иқтисоди билан боғлиқ эркин рақобат, сиёсий институтлар фикрлар хилма-хиллиги ҳам ижтимоий ҳаётнинг асосларини эркинлик тамойилига қўйилганлигини билдиради. Эркин ҳаёт дегани бу рақобатга кириша олиш имкониятидир. Ўз салоҳиятини юзага чиқариш учун баҳслашиш, ўзлигини намоён эта олиш, бунёдкорлик йўлида орзу-мақсадларга етишиш учун яшаш, шунга интилиш, хохиш-истак сезишдир.

Бугун Ўзбекистон ёшлари мустақиллик туфайли дунёнинг турли жойларида ўқияпти, ишлаяпти. Улар орасида хизмат вазифасини бажариб юрганлар билан бирга турли соҳаларда фаолият юритаётган тадбиркорлар, ишбилармонлар ҳам кўплаб топилади. Шубҳасиз, бу катта имконият. Бу имкониятдан ёшларимиз Ўзбекистон учун, ўз халқи, Ватанининг келажаги учун фойдаланишни кўнгилларига тугуб олганлари кўп. Лекин афсуски, бу имкониятни бошқа мақсадлар йўлида фойдаланиб юрган айрим ёшлар ҳам топилади. Яқинда “Ўзбекистон телевидениясі орқали” бир журналистнинг хорижда бўлиб, у ерда таҳсил олаётган Ўзбекистонлик айрим ёшлар билан учрашгани, таъсуротлари ёзилган кўрсатувни томоша қилдим. Шунда Ватандан ташқарида таҳсил олаётган ёшларга қарата, хайрлашиш олдидан, эртага Ўзбекистонга қайтишини, Ватанларига қандай истак ва фикрларнинг борлигини сўраганларида, аксариятларини бир-бирларига қараб, “ҳеч қандай гап йўқ” дегандай маъносиз бир кайфиятда ўзларини тутишлари, кишида таажжуб туйғуларини уйғотмасдан қолмайди.

Бугун қаерда ўқимайлик, ёки ишламайлик, қандай меҳнат фаолияти, йўналишда банд бўлишимиздан қатъий назар, унинг самарасидан кўзланган мақсад Ўзбекистоннинг истиқболи ва истиқлолига хизмат қилиши керак. Бунинг учун эса қалбимизда ана шу Ватан ва халқимизга бўлган ишонч ва эътиқод қанча мустаҳкам бўлса, шунча унга хизмат қилган бўламиз. Шунда биз “қаерда яшаш яхши бўлса шу ерни Ватан” деб эмас, туғилиб ўсган, халқимизнинг тақдири билан тақдири туташ бўлган Она Ватан - Ўзбекистонни Ватан деб биламиз. Ватан ягона ва битта бўлади.

Бугунги кунда юртбошимизнинг узоқни кўзлаган ёшлар сиёсатининг ҳаётийлиги ўзининг тасдиғини топмоқда. Малакатимиз фуқароси ўзбек ўғлони Рустам Қосимжоновнинг Ливиянинг пойтахти Триполи шаҳрида ўтказилган шахмат бўйича жаҳон чемпионатида барча рақиблари устидан ғолиб келиб, жаҳон тожига эга бўлганлиги бунга ёрқин мисол бўла олади. Албатта. Бу каби оламшумул ғалабалар озод Ватанга муносиб фарзанд бўладиган ҳар томонлама етук авлоднинг, миллат шаъни ва ғурурини ҳимоя қила оладиган истеъдодли, соғлом, ақлий ва жисмоний салоҳияти билан ўз мамлакатининг шуҳратини янада оширишга тайёр бўлган ёш авлод улғайиб келаётганининг далилидир. «Юртимиз ҳаётидаги бу тарихий воқеа - дейилади Президент И.А.Каримовнинг шахмат бўйича жаҳон чемпиони Рустам Қосимжоновга юборилган табригида - мустақиллик одамларимиз учун, аввало ёш авлод учун нақадар катта имкониятлар очиб берганини, бизнинг ҳеч кимдан кам эмаслигимиз ва ҳеч кимдан кам бўлмаслигимизнинг яна бир амалий тасдиғидир».

Дарҳақиқат, келажакка йўналтирилган миллий истиқлол ғоясининг ҳаётийлиги мана шу каби натижалар билан ўз тасдиғини топиб бораверади. Зеро, баркамол авлод тарбияси миллий истиқлол ғоясининг мақсадларидан биридир.

Мавзуни мустаҳкамлаш учун саволлар:

1. Демократиянинг асосий тамойилларини айтинг.

2. Демократик институтларнинг кўринишлари мавжуд?
3. Кучли давлатдан кучли фуқаролик жамияти сари бориш нимани билдиради?
4. Миллий ғоя ва демократиянинг уйғунлиги нималарда кўринади?

8-мавзу: Тафаккур ўзгариши ва маънавий янгиланишда миллий ғоянинг роли

Режа:

1. Мустақилликни мустаҳкамлашда миллий ғоядан кўзланган мақсадлар
2. Миллий ғоя - Ўзбекистон халқининг асосий мақсад ва муддаоларининг ифодаси
3. Миллий истиқлол ғоясининг мустақилликни мустаҳкамлашда намоён бўлиши

1.Мустақилликни мустаҳкамлашда миллий ғоядан кўзланган мақсадлар

Мустақиллик йилларида эришилган ютуқлар, мавжуд муаммоларни холисона таҳлил қилиш, тегишли хулоса ҳамда сабоқлар чиқариш - миллий ғоянинг зарурлиги ва аҳамиятининг тобора ортиб боришини кўрсатмоқда. Мамлакатимиз Президенти И.А.Каримов миллий истиқлол ғояси ва мафкурасини шакллантириш зарурати ҳақида мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ фикр юритиши тасодифий ҳол эмас эди. Негаки, «Миллий мустақил давлат бор экан, унинг мустақиллиги ва эркинлигига, анъана ва урф-одатларига таҳдид соладиган, уни ўз таъсирига олиш, унинг устидан ҳукмронлик қилиш, унинг бойликларидан ўз манфаати йўлида фойдаланишга қаратилган интилиш ва ҳаракатлар доимий хавф сифатида сақланиб қолиши муқаррар».

Демак, миллий ғоянинг зарурлиги энг аввало, мамлакатимиз мустақиллигини мустаҳкамлаш учун зарурдир. Унинг зарурати қуйидаги мақсадларни амалга ошириш билан боғлиқ ҳолда намоён бўлади.

- олдимизга қўйган олижаноб мақсад-муддаоларимизга, яъни озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этиш;
- эски мафкуравий асоратлардан батамом халос бўлиш;
- ғоявий бўшлиқ пайдо бўлишига йўл қўймаслик;
- узоқ даврлар мобайнида одамлар онгида ҳукмрон бўлган бегона ва ёт ғояларнинг янада қайтадан тикланишига йўл қўймаслик;
- халқимиз табиатига зид бўлган ўзга ғоялардан, айниқса ёш авлодни ҳимоя қилиш;
- ҳар қандай тажовузкор ғояларга қарши тура оладиган, ҳар томонлама баркамол авлодни вояга етказиш заруратининг мустақилликни мустаҳкамлашдаги ўрнини англаш орқали ҳаракат дастурига эга бўлиш;
- мустақил давлатимизнинг ҳар бир фуқаросида Ватан тақдири учун маъсуллик туйғуси бўлиши учун ҳам зарур.

Мустақилликни мустаҳкамлашда миллий ғоядан кўзланган мақсадларнинг кенг қамровли илмий-назарий ва амалий йўналишлари Президент Ислом Каримовнинг асарларида, нутқ ва маърузаларида ўзининг аниқ консептуал ифодасини топган.

Мустақиллик йилларида жамиятимиз аъзоларининг дунёқараши, фикрлаш тарзида теран ўзгаришлар юз бермоқда. Ана шундай шароитда халқимизни бирлаштирадиган, бунёдкорлик фаолиятига сафарбар этадиган, унинг эзгу мақсадлари ва ҳаётий манфаатларини ўзида мужассам этадиган миллий ғоя ва мафкурани яратиш ижтимоий-сиёсий ва маънавий тараққиётимизнинг муҳим шарти ҳамда заруратига айланди.

Мустақилликни мустаҳкамлашда миллий ғоянинг зарурлиги ва унинг аҳамияти ҳам ички, ҳам ташқи сиёсатимиз истиқболлари, самарадорлиги билан боғлиқ. Шу нуқтаи назардан миллий ғоянинг зарурлиги жамиятимизни тараққий топган демократик мамлакатлардаги каби эркин ва фаровон ҳаёт барпо этиш билан ҳам боғлиқ.

Демак, миллий ғоянинг негизини ҳам биз учун энг асосий, энг муҳим устувор мақсад, тенгсиз олий неъмат - мустақилликни бундан буён ҳам асраб-авайлаш, ҳимоя қилиш ва мустаҳкамлаш бўлиб қолаверар экан, унинг зарурлиги ҳеч бир даврда ўз аҳамиятини йўқотмайди.

2. Миллий ғоя - Ўзбекистон халқининг асосий мақсад ва муддаоларининг ифодаси.

Ҳаётий кузатишлар, баъзан зиёлиларимиз ўртасида ҳам бизга миллий ғоя, миллий мафкура нима учун, ким учун керак, унинг маъно-моҳияти нимадан иборат, деган муҳим масалага яна бир бор

ойдинлик киритиш зарурати мавжуд. Бунда, яъни миллий ғояда Ўзбекистон халқининг мамлакатимиз ривожида белгилаб олган асосий мақсад ва муддаоларининг ифодаси мужассамлашган.

Биринчидан, ўзининг келажагини кўрмоқчи ва қурмоқчи бўлган ҳар қандай давлат ёхуд жамият, албатта ўз миллий ғоясига суяниши ва таяниши зарурлиги билан боғлиқ;

Президент Ислом Каримов таъбири билан айтганда, «давлат тизими, уни бошқариш ва олиб борилаётган сиёсат аввало аниқ ва равшан ифодаланган мафкура асосига қурилмоғи лозим. Яъни, олдин давлат қурилиши ва ундан кейин мафкура пайдо бўлиши ўзи ғайритабиий ҳол. Буни яхши англаб олишимиз лозим. Яъни, олдин ғоя пайдо бўлади, ундан кейин ғоя асосида мафкура, мафкура асосида эса тизим, сиёсат пайдо бўлади»[2]. Демак, ўз миллий ғоясига таянмаган жамият инқирозга дучор бўлиши, ўз йўлини йўқотиб қўйиши муқаррар.

Иккинчидан, миллий ғоя Ўзбекистон халқининг асосий мақсад ва муддаоларининг ифодаси сифатида шунинг учун ҳам зарурки, одамлар онгини, тафаккурини ўзгартирмасдан туриб, кўзланган олий мақсад – озод ва обод жамиятни, эркин ва фаровон ҳаётни барпо этиб бўлмайди. Бунинг учун эса, одамлар муайян ғояга ишониши ва таяниши зарур. Бу жараён ўз-ўзидан ҳаракатга келмайди, албатта. Негаки, кенг халқ оммасини бирон бир ғоянинг илғор ва инсонпарвар эканига ишонтирмоқ учун, аввало, мазкур ғоянинг тўғри, ҳаётий ва илғор эканлигига ишонтириш зарур. Ишонтирмоқ учун унинг илмий ва ҳаётийлигига алоҳида эътибор қаратиш билан бирга миллий ғоянинг ўзи мамлакатимиз халқининг асосий мақсад ва муддаолари ҳамда манфаатларини ифодалаши керак.

Учинчидан, миллий ғоянинг зарурлиги миллатнинг ўзлигини тўла англаш жараёни билан боғлиқ. Негаки, миллат ўзлигини тўла англамас экан, бирон-бир буюк ўзгаришлар қилиб бўлмайди. Миллий ўз-ўзини англаш у ёки бу миллатни ўзга миллатлардан ажралиб кетишига эмас, балки ўзлигини англаган миллатларнинг маърифатлашган ҳамкорликларининг мустаҳкамланиб боришига хизмат қилади. Ана шундай ўта мураккаб вазиятда миллий ўзликни англашда миллий ғояга асосий таянч куч, илмий-назарий ва амалий дастур сифатида ҳар бир инсоннинг руҳи, кайфияти, ҳиссий кечинмаларига кириб бориш орқали унинг қалби ҳамда онгига таъсир кўрсатади. Бу миллий ғоянинг халқ ҳаётига яқин, унга бевосита дахлдор эканлигини таъкидлаш лозимдир.

Демак, Ўзбекистон мустақиллигини мустаҳкамлашда миллий ғояда бугунги ҳаётнинг энг долзарб муаммолари, унинг стратегик мақсадлари билан диалектик боғланиши унинг яшаш шартидир.

Тўртинчидан, мамлакатимиз мустақиллигини мустаҳкамлашда миллий ғоянинг зарурлиги яна бир муҳим ҳолат билан яъни бугун бизнинг тарихий ўзгаришлар даврида тоталитар тузумдан эркин демократик бозор муносабатларига асосланган демократик тузумга ўтиш шароитида яшаётганлигимиздан келиб чиқмоқда. Бу даврнинг ўзига хос хусусиятларини чуқур таҳлил қилган мамлакатимиз Президенти И.А.Каримов шундай хулосага келади:

«Бу ўтиш даври ўзига хос, жуда катта ғов ва тўсиқларга дуч келиши, қаттиқ курашлар орқали кечиши барчамиз учун аён бўлмоғи даркор. Халқимиз ва жамиятимизни мана шу даврда янги уфқлар сари бошлаш, даъват қилишда мақсадларимиз аниқ бўлиши керак. Бундай мақсадларга эса аввало чуқур ўйланган ва пухта ишланган мафкура асосида

етишиш мумкин»[3]. Демак, миллий ғоя мустақилликни мустаҳкамлаш ғоясининг ўзаги бўлган - танлаган тараққиёт йўлимизнинг тўғри адолатли ва ҳаққоний эканлигига, у мана шу заминда истиқомат қиладиган ҳар бир инсоннинг ҳаётий манфаатларига мос тушишига кенг оммани ишонтириш орқали уларни бунёдкорлик ишларига сафарбар этиш учун хизмат қилади.

Мустақилликни асраб-авайлаш, ҳимоя қилишда миллий ғоянинг ўрнини ҳеч бошқа бирон бир омил босолмайди. Шу нуқтаи назардан давлат сиёсатининг устувор йўналишлари, мақсад ва вазифаларини маънавий жиҳатдан таъминлаш, бугунги кунда мамлакатимиз тақдири учун ўта долзарб масаладир. Бунинг ёрқин ифодаси Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг ўн тўртинчи сессияси (2004 йил 29 апрель)даги «Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ» ҳақидаги нутқида ҳамда Олий мажлиснинг мамлакатимиз фуқароларига мурожаатномасида баён этди. Хусусан унда шундай дейилган: «Бугун башарият ўзига хос ва зиддиятли бир даврда яшамоқда. Бир томондан илм-фан ва техника, юксак технологиялар тараққий этиб, инсонпарварлик ғоялари, демократик қадриятлар, ўзаро ҳамкорлик дунё бўйлаб қарор топиб бормоқда. Айни вақтда ер юзининг турли минтақаларида қуролли можаролар рўй бераётган, халқаро терроризмнинг янги-янги хуружлари оқибатида минг-минглаб одамларнинг ҳаётдан кўз юмаётгани ҳам шу замоннинг очиқ ҳақиқатидир»[4].

«Мафкура ҳар қандай жамият ҳаётида зарур. Мафкура бўлмаса одам, жамият, давлат ўз йўлини йқотиши муқаррар. қаердаки, мафкуравий бўшлиқ вужудга келса, ўша ерда бегона мафкура ҳукмронлик қилиши ҳам тайин». Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин.

И.А.Каримов

3.Миллий истиқлол ғоясининг мустақилликни мустаҳкамлашда намоён бўлиши.

Маълумки мустақиллик туфайли бўлган бошқа халқлар қатори биз ҳам ўз миллий табиатимиз ва минг йиллик анъаналаримизга, урф-одатларимизга зид бўлган сохта коммунистик ғоядан воз кечдик. Лекин инсоният тарихи шу нарсани қатъий равишда исботлаганки, мафкура дунёсида бўшлиққа йўл қўйиб бўлмас экан. Қаерда шундай ҳолат юз берган тақдирда бўш қолган мафкура майдонини бизга бегона, орзу-интилишларимизга мутлақо ёт ғоялар эгаллашга уриниши ҳам тарихан исботланганлиги шубҳасиз. Агарда ён-атрофимиздаги воқеликка теранроқ назар ташлайдиган бўлсак, табиий захираларга бой, геополитик нуқтаи назардан ғоят қулай ҳудудда жойлашган юртимизга кўз олайтирадиган, бизга таъсирини ўтказишни истайдиган турли носоғлом кучлар мавжудлигини инкор этолмаймиз. «Улар - деб таъкидлайди - Президент Ислом Каримов - ўз ниятларини амалга ошириш учун ҳеч нарсадан тап тортмаслиги бугунги кунда аён бўлиб қолди. Бу кучлар катта маблағ ва замонавий қурол-аслаҳаларга эга. Лекин уларнинг энг ёвуз қуроли – миллий қадриятларимизга тўғри келмайдиган, энг ёмони, эртага ўрнимизни эгаллаши лозим бўлган ёш авлоднинг қалби ва тафаккурини заҳарлайдиган бузғунчи мафкурадир.

Ҳозирги пайтда рўй бераётган айрим салбий ҳолатлар, ножўя ҳатти-ҳаракатлар, ёвуз ишлар, аввало, мафкуравий бўшлиқ туфайли содир бўлмоқда». Шу ўринда нега айнан ғанимларимиз ҳали ҳаётий тажрибага эга бўлмаган, оқ-қорани таниб улгурмаган ёшларга қаратмоқда деган савол туғилади. Чунки айнан ёшлар мамлакатимиз мустақиллигини мустаҳкамлашда асосий таянч куч. Айни пайтда, ёшларимизнинг кўнгли очиқ, содда, ишонувчан.

Миллий истиқлол ғоясининг мустақилликни мустаҳкамлашда намоён бўлиш жараёни ўзининг бир қатор хусусиятларига ҳам эга. Улар қуйидагилардан иборат.

· Бугунги кунда одамзод маълум бир давлатлар ва сиёсий кучларнинг манфаатларигагина хизмат қиладиган, олис-яқин манбалардан тарқаладиган, турли маъно-мазмундаги мафкуравий кучларнинг таъсирини доимий равишда сезиб яшаши. Ахборот асри, электроника асри деб аталаётган XXI асрнинг бугунги кунида бу таъсирлардан холи бўлиш деярли имконсиздир. Демак, бугунги кунда «мафкура полигонлари ядро полигонлари»га нисбатан ҳам кўпроқ кучга эга. Бу унинг хусусиятларидан биридир.

· Агар ҳарбий, иқтисодий, сиёсий тазйиқ бўлса, буни сезиш, кўриш, олдини олиш мумкин. Аммо мафкуравий тазйиқ, унинг таъсири ва оқибатларини тезда илғаб етиш ниҳоятда қийин.

· Миллий ғоя - миллат тафаккури ва онгининг маҳсули. Лекин айни вақтда сиёсий онг даражаси ҳар бир миллатнинг ривожини белгилайдиган омил ҳамдир. Демак, онгни, тафаккурни ўзгартирмасдан туриб эса ҳеч бир жамият ўзининг олий мақсадига эриша олмайди. Биз ҳам кишилар онги ва тафаккурини ўзгартирмасдан туриб озод ва обод жамиятни барпо этолмаймиз.

Миллий истиқлол ғоясининг мустақилликни мустаҳкамлашда намоён бўлишида у ўзида нималарни мужассамлаштириши ва қандай талабларга жавоб бериши муҳим.

Миллий мафкура, - аввалambор, ўзлигимизни, муқаддас анъаналаримизни англаш туйғуларини, халқимизнинг кўп асрлар давомида шаклланган эзгу орзуларини, жамиятимиз олдига қўйган олий мақсад ва вазифаларни қамраб олиши шарт.

· Жамиятимизда бугун мавжуд бўлган хилма-хил фикрлар ва ғоялар, эркин қарашлардан, ҳар қандай тоифалар ва гуруҳларнинг интилишлари ва умидларидан, ҳар қандай инсоннинг эътиқоди ва дунёқарашидан қатъий назар, уларнинг барчасини муштарак миллий байроқ атрофида бирлаштирадиган, халқимиз ва давлатимизнинг дахлсизлигини асрайдиган, эл-юртимизни энг буюк мақсадлар сари чорлайдиган миллий истиқлол ғояси - мафкура бўлиши керак.

· Миллий мафкура ҳар қандай тажаввузкор миллатчилик ва шунга ўхшаган унсурлардан, бошқа элат ва халқларни менсимаслик, уларни камситиш кайфияти ва қарашларидан мутлақо холи бўлиб, қўшни давлат ва халқлар, умуман жаҳон ҳамжамиятида, халқаро майдонда ўзимизга муносиб ҳурмат ва иззат қозонишда пойдевор ва раҳнамо омилидир .

· Миллий ғоя биринчи навбатда ёш авлодимизни ватанпарварлик, эл-юртга садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг қалбига миллий-маънавий қадриятимизга мос инсонпарварлик ва одамийлик фазилатларини пайванд қилишдек олижаноб ишларимизда мададкор бўла олади.

Миллий ғоя Ватанимизнинг шонли ўтмиши ва буюк келажагини узвий боғлаб туришга, ўзимизни улуғ аждодларимиз боқий меросининг муносиб ворислари деб ҳис қилиш, шу билан бирга, жаҳон ва замоннинг умумбашарий ютуқларига эришмоққа йўл очиб берадиган ва шу мақсадларга муттасил даъват қиладиган ғоядир.

Демак, миллий ғоя, миллий ифтихор кундалик машаққатли ишларимизда ва бунёдкорлик фаолиятимизда кучимизга куч, ғайратимизга ғайрат қўшиб, ҳақиқатан ҳам келажаги буюк давлат қураётганимизга мустаҳкам ишонч бағишлайди.

Мустақил Ўзбекистон учун, унинг тараққиёти ва буюк келажаги учун эндиликда бир қанча муҳим вазифа ва муаммоларни ҳал этиш асосий масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Ана шундай вазифалардан бири миллий истиқлол мафкурасига ишонч ва эътиқодни мустаҳкамлашдан иборатдир. Миллий истиқлол мафкурасини мустаҳкамлаш зарурлиги фикримизча, бир қатор шарт-шароитлардан келиб чиқади. Улар асосан қуйидагилардан иборат:

· Ўзбекистон ўзининг мустақил тараққиёт йўлига қадам қўйган дастлабки пайтларда – эски, ягона мафкурадан бутунлай воз кечилаётган, янги мафкура эса ҳали ишлаб чиқилмаган, илмий асослаб берилмаганлиги билан боғлиқ эди.

· Инсоният тарихий тараққиёт таҳлили шуни кўрсатадики, ҳеч қандай жамият мафкурасиз яшай олмаган. Дунёдаги ҳар бир жамиятнинг, ҳар бир давлатнинг ўзига хос, ўзига мос келадиган, унинг учун хизмат қиладиган, туб мақсадлари ва манфаатларини ҳимоя қиладиган мафкураси бўлган. Демак, одамлар қайси бир жамиятда яшамасин нимагадир ишониши, эътиқод қилиши, қандайдир бир соғлом ғояга, таълимотга асосланиб иш кўриши, фаолият кўрсатиши тарихий заруратдир.

· Мустақил Ўзбекистон учун, миллий истиқлол мафкурасининг тарихий зарурати – демократик жамият қуришда унинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, маданий-маънавий заминларини яратиш ва мустаҳкамлаш учун ўзимизга хос ва мос миллий мафкура сув ва ҳаводек зарур эди. Буни бизга мустақиллигимизнинг деярли ўтган йиллари тажрибаси ва ҳаётнинг ўзи очиқ-равшан кўрсатиб турибди. Демак, миллий ғоя - жамият ҳаётининг

барча жабҳаларини ўзида қамраб олади ва унинг маънавий негизининг мезонига айланади. Шу нуқтаи назардан кишиларга маънавий таъсир этишнинг асосий воситаси ҳамдир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримов кенг жамоатчиликни, олимлар, шоирлар, ёзувчиларни мафкура масаласига жиддий эътибор беришга чақириб 1993 йилдаёқ, яъни мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ «олдимизда турган энг муҳим масала, бу миллий истиқлол мафкурасини яратиш ва ҳаётимизга тадбиқ этишдир» - деб уқтирган эди[5].

Дарҳақиқат мустақил Ўзбекистон миллий истиқлол мафкураси олдида буюк мақсад-муддаолар, ўта долзарб вазифалар турибди. Унинг асосий мақсадларидан бири - Ўзбекистон ҳудудида яшовчи ҳар бир фуқарони, ҳар бир миллат ва элат кишиларини баркамол инсон қилиб тарбиялаш мустақилликнинг онгли фидойисига айлантиришдир. Негаки жамият тараққиётини, мустақиллик билан боғлиқ бўлган улкан вазифаларни бажаришга оммани сафарбар этишни миллий ғоясиз тасаввур этиш мумкин эмас. Инсоннинг фаоллиги унинг илғор, бунёдкор, ўзимизга хос ва мос миллий ғояга қатъий амал ва эътиқод қилишига боғлиқ. Демак, истиқлол мафкураси бутун Ўзбекистон халқининг миллий руҳини, маданий меросини, ҳис-туйғусини, миллий ғурур ва ифтихорини, куч-қудратини, орзу-интилишларини ўзида мужассамлаштиради. Ана шундай қудратли омил бўлган мафкуранинг шаклланишида тарихий билимлар, тарихий хотираларнинг аҳамияти беқиёсдир. Шу ўринда Н.Остроумов афсус билан айтган хулосаларини келтириш мақсадга мувофиқ. «Беихтиёр ўйлаб қоласан киши, - деб ёзади у ўз кундаликларида, қолоқ ва ожиза қуролланмаган бегона халқларни босиб олишимиз мумкин экан-у, бироқ бошқа камчиликларимизни ҳисобга олмаганда, ўзимизга ортиқча баҳо беришимиз, бепарво танбаллигимиз ҳамда давлат идора усулидаги қолоқлигимиз туфайли уларни бошқаришни билмас эканмиз. Биз чет мамлакатларга нисбатан маданиятимиз пастлигича қолмоқдамиз… Биз маҳаллий аҳолининг на тилини, на урф-одатларини, на динини ўргандик»[6].

Мустақилликни мустаҳкамлашда Ўзбекистон учун миллий истиқлол мафкурасининг тарихий зарурлиги ва унинг демократик жамият қуришдаги ўрни яна бир қатор мавжуд муаммоларни ҳал этиш билан боғлиқ. Улар қуйидагилардан иборат.

-биринчидан, миллий истиқлол мафкураси кишиларда миллий маданиятнинг, миллий онгнинг, миллий ғурурнинг ўсиши ва ривожланишини таъминлаш омили сифатида мустақилликни мустаҳкамлашда муҳим аҳамиятга эга.

-иккинчидан, миллий истиқлол мафкураси миллий қадриятлар, миллий бирдамлик ва ҳамжиҳатлик туйғусини шакллантириш орқали ёшларда ватанпарварликни тарбиялайди ва мустақилликни мустаҳкамлашга хизмат қилади.

-учинчидан, мустақил Ўзбекистон учун миллий истиқлол мафкураси халқни меҳнатни севиш ва қадрлашга даъват этиш, меҳнатсиз ризқ-насиба, моддий-маънавий бойлик ва келажак йўқ эканлигини, мустақиллигимизнинг барқарорлиги ва тақдири ҳам унга боғлиқлигини одамлар онги ва қалбига чуқур сингдиради.

Миллий истиқлол мафкураси бир миллат-ўзбекларнинг манфаати билангина боғланган эмаслигини алоҳида таъкидлаш зарур. Ўзбекистонда истиқомат қилаётган ўзбеклар, қозоқлар, қирғизлар, тожиклар, туркманлар, руслар, украинлар, яҳудийлар, хуллас Республикамизни ўзининг жонажон Ватани деб билган, у билан фахрланадиган барча миллат ва элатларнинг тенг ҳуқуқлигини миллий ғурурини манфаатларини ҳимоя қилиш мафкурамиз моҳиятида асосй ўринни эгаллайди. Шунингдек миллий истиқлол мафкураси заминида жаҳондаги барча илғор давлатлар, халқлар томонидан эътироф этилган умуминсоний қадриятларни, ижобий тажрибаларни ҳам ҳисобга олади ва таянади.

Мустақил Ўзбекистон учун миллий истиқлол мафкурасининг тарихий зарурлиги ва унинг демократик жамият қуришдаги ўрни – Президентимиз Ислом Каримов томонидан мутлоқ янги ғояларнинг ишлаб чиқилиши билан бир қаторда бир қанча давлатларнинг тажрибалари ўрганилмоқда. Фикримизнинг исботи сифатида биргина Ўзбекистон Конституцияси лойиҳасини тайёрлашда 30 га яқин хорижий давлатлардаги қонунчилик тажрибалари ўрганилганлигини келиштириш ўринлидир. Натижада коммунистик мафкурадан, синфийликдан, партиявийликдан ҳоли бўлган асосий қонун яратилди.

Мустақиллик туфайли биринчи маротаба Конституциямизда мафкуралар ва фикрларнинг хилма-хиллигига кенг ўрин бирилди. Масалан, Конституциянинг 12-моддасида: «Ўзбекистон Республикасида ижтимоий ҳаёт сиёсий институтлар, мафкуралар ва

фикрларнинг хилма-хиллиги асосида ривожланади. Ҳеч қайси мафкура давлат мафкураси сифатида ўрнатилиши мумкин эмас» - деб ёзиб қўйилган. Бу қоида Республикада ижтимоий-сиёсий барқарорлик ва истиқлол мафкурасини ишлаб чиқишда ҳамда мустақилликни мустаҳкамлашда муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда.

Инсоният тарихий тараққиётидан шу нарса маълумки, ҳар қандай соғлом янги ғоя кенг жамоатчиликнинг онгига чуқур сингса, ҳаётда чуқур илдиз отса, амалиётда ўзини тўла оқласа ўшанда реал воқеликка, катта ижтимоий кучга айланади. Айни пайтда одамларимизда мустақиллигимиз ҳақида билим ва ғоя, миллий истиқлол мафкураси тўғрисида тасаввур бўлса-ю, лекин ана шу билим ва ғоя иймон ва эътиқодга, дунёқарашга айланмаса, бундай мафкуранинг замини бўш бўлади, мустақилликни мустаҳкамлашда, асраб авайлашда амалий аҳамияти бўлмайди. Шу нуқтаи назардан Президент Ислом Каримовнинг «Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли», «Ўзбекистон келажаги буюк давлат», «Янги уй қурмай туриб, эскини бузманг», «Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик», «Ўзбекистон XX аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шароитлари ва тараққиёт кафолатлари», «Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда», «Тарихий хотирасиз келажак йўқ», «Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат қилсин», «Миллий истиқлол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир»[7] ва унинг Олий Мажлис 2-чақириқ 9-сессиясида қилган маърузасида ҳамда асарларидаги бебаҳо илмий-назарий қоидалар, дастурий йўл-йўриқлар халқимизнинг ғоявий-сиёсий, умуман бутун маънавий дунёсини миллий истиқлол ғояси негизлари асосида бойитишда, унга ишонч ва эътиқодни мустаҳкамлашда айниқса катта аҳамиятга эга. Ушбу китобларда мустақиллигимизнинг мустаҳкамлашнинг энг долзарб муаммоларининг назарий асослари, илмий-амалий ечимлари чуқур ва ҳар томонлама ёритилибгина қолмай, айни бир пайтда миллий истиқлол мафкурамизни одамлар онги ва қалбига сингдиришнинг йўл-йўриқлари ҳам кўрсатиб берилган. Бироқ бу анча мураккаб, маъсулиятли жараёндир. Шошма-шошарлик қилиш, ўйламасдан иш тутиш, ўзибўларчилик асосида ҳаракат қилиш, юксак маъсулиятни унутиб қўйиш миллий истиқлол мафкурасини турмушга жорий этиш масаласига катта зиён етказиши ҳеч гап эмас. Бундан жуда эҳтиёт бўлмоқ лозим. Чунки «Мафкура - ўтмиш ва келажак ўртасидаги кўприкдир»[8]. Дарҳақиқат шу ўринда биз яна инсоният жамияти ўз тараққиётида эришган барча ютуқлар, энг аввало умуммиллий мафкуранинг барчани бирлаштирувчи восита бўлганлигини инобатга олишимиз зарур. Президент Ислом Каримов бу масаланинг янада долзарблигини Олий Мажлиснинг 2-чақириқ I-сессиясида сўзлаган маърузасида (22 январь 2000 йил) «Бизнинг бош стратегик мақсадимиз қатъий ва ўзгармас бўлиб, бозор иқтисодиётига асосланган эркин демократик давлат барпо этиш, фуқаролик жамиятининг мустаҳкам пойдеворини шакллантиришдан иборат. Бу – лўнда қилиб айтганда, ривожланган давлатларнинг тажриба ва тараққиёт моделларидан кўр-кўрона нусха кўчирмаган ҳолда, уларга хос юксак ҳаёт даражаси ва сифатига эришиш демакдир. Бу мамлакатимизда миллати, тили ва динидан қатъий назар ҳар бир инсоннинг барча ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатланадиган, фаровон турмуш тарзи таъминланадиган демократик ривожланиш йўлини изчил давом эттириш демакдир». Бу борада қуйидаги муҳим масалаларга алоҳида эътибор берилди:

· Мамлакатимиз сиёсий ҳаётининг барча соҳаларини, давлат ва жамият қурилишини эркинлаштириш. Бунда жамиятимизда мавжуд бўлган турли манфаатлар, қарама-қарши кучлар ва ҳаракатлар ўртасидаги мувозанатни таъминлайдиган самарали механизмни шакллантирсак, ҳаётимизнинг барқарор ва мустаҳкам тараққиётини мукаммал кафолатлаган бўлар эдик. Миллий истиқлол мафкураси ва унинг демократик жамият қуришдаги ўрни, энг аввало мамлакатимиз сиёсий ҳаётида ҳақиқий маънодаги кўппартиявийлик муҳити қарор топиши билан боғлиқдир. Бу борада Президент Ислом Каримов иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг биринчи сессиясида қилган маърузасида қуйидаги вазифани қўйди: «Ҳар бир партия муайян ижтимоий қатламга таянган ҳолда, ана шу тоифа манфаатларининг ҳимоячиси сифатида ўзининг аниқ ва равшан ҳаракат дастурига эга бўлиши керак. Унда ҳар қайси партиянинг мақсад ва вазифалари, жамият тараққиёти борасидаги муқобил таклифлари ўз ифодасини топиши лозим.

· Амалдаги кўппартиявийлик - бу ҳар хил қараш ва ғоялар ўртасидаги баҳс-мунозара, турли партиялар, жумладан, мухолиф партиялар учун ҳам сиёсий рақобат

майдони демакдир»[9]. Бироқ бизнинг фикримизча, ўтиш даврида, ҳар қандай жамиятда бўлганидек, мухолифат, башарти у жамиятни янгилашнинг ташкилотчиси бўлишга интилаётган бўлса, аҳолининг муайян ижтимоий қатламлари ва гуруҳларининг теран манфаатлари ва интилишларининг ҳақиқий ифодачиси ва ҳимоячиси бўлиши лозим.

· Мухолифат конституциявий мезонлар доирасида фаолият кўрсатиб, аниқ дастурий ҳужжатга эга бўлиши керак. Ана шу дастурий мақсадларидан келиб чиқиб, аҳолини айниқса сайлов даврида, ўзи таклиф этаётган ислоҳотлар ва янгиланиш йўли ҳозирги шароитда жамият учун энг тўғри ва энг мақбул йўл эканлигига ишонтира олиши лозим.

· Ҳақиқий мухолифатнинг вужудга келиши учун, унинг ҳокимият билан ғоявий ва амалий таклифлар кирита биладиган, жамиятимизнинг турли сиёсий қатламлари манфаатларининг ифодачиси тариқасида майдонга чиқа оладиган мухолифат бўлиши учун сиёсий вазият ва барқарорликни таъминловчи механизм ва системалар кучли бўлиши керак. Бугунги кунда барча соғлом фикр юритувчи, мустақиллигимизни мустаҳкамлаш ва Ватанимизнинг буюк келажаги учун курашаётган кишиларнинг барчаси сиёсий мухолифатни айнан шундай ҳолдаги мухолифатни кўришни истайди ва тушунади. Албатта, бунинг учун матбуот, ахборот воситаларининг демократик тамойилларга таяниши мустақилликни мустаҳкамлашнинг муҳим шартидир.

Бинобарин ҳар бир давлат, жамият ўзи бажараётган тарихий вазифани асословчи ва барча ижтимоий қатламлар, миллатлар ва элатлар, диний эътиқодлар вакилларини шу вазифа атрофида бирлаштирувчи, жипсловчи умуммиллий мафкурага эга бўлганлар. Чунки шундай қилингандагина, биринчидан, бирон бир мафкура давлат мафкураси даражасига чиқмайди. Иккинчидан, бундай иш умумжамият, умуммиллий мафкурани янада аниқлашга, бойитишга хизмат қилади, унинг ҳар бир фуқарога етиб боришини таъмин этади. Бундай фикрга келишимизнинг илмий-назарий асоси, учинчидан, ҳозирги даврда илғор давлатларда барча ижтимоий қатламлар ўз ғояларини демократия, инсонпарварлик, ижтимоий адолат қоидалари ҳамда талаблари асосида яратишга интилаётганликларидир. Албатта, уларнинг орасидаги муросасизлик ўрнига ҳар бир масалада *консенсус*, яъни муроса-ю-мадора тамойилларидан келиб чиқиш тобора устун келмоқда.

Мустақил Ўзбекистон худди шу йўлдан бормоқда. Бу мафкура халқимиз тарихини, маданиятини, фалсафасини, ахлоқини, сиёсий онгини, бадиий дидини, диний анъаналарини ва келажак, истиқболларини аниқ белгилаб бериши билан ҳам алоҳида ўрганишга зарурат мавжуд. «Ўзбекистон Россиядан келтирилган коммунистик мафкурани қабул қилмайди, қабул қила олмасди ҳам. Европада илдиз отиши мумкин бўлган нарса Шарқда униб ўса олмайди. Буни ҳамиша ҳисобга олмоқ керак. Бу ўринда Шарқнинг турмуш тарзини, руҳиятини, фалсафасини, унинг буюк Ислом динини ҳисобга олмоқ зарур! Асосий вазифамиз ҳеч қандай ижтимоий ларзаларсиз, очлик, қашшоқликсиз, одамларга зиён етмайдиган тарзда ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг янги босқичига ўтишдан иборат. Бу маънода ҳам Ўзбекистоннинг ўз йўли бор»[10].

Бу мустақиллигимизнинг ўзига хос пойдеворидир. Шунга таянган ҳолда қурилаётган жамият мустақил ва мустаҳкам бўлади. Демак, мустақилликни мустаҳкамлашда Ўзбекистон миллий истиқлол мафкурасининг илмий-назарий жиҳатлари қуйидаги хулосаларда ўз ифодасини топади:

- Мафкура Ўзбекистон жамияти ҳаётида ҳам зарур, чунки мафкура бўлмаса одам, жамият, давлат ўз йўлини йўқотиши муқаррар.
- Ўз поёнига етган XX аср кўп синовлар, азобу уқубатлар, хатолар фожиалар, урушлар, қатағонларни бошидан кечиришининг асосий сабабларидан бири ҳам мафкуравий курашлар миллий-маданий мерос ва қадриятларни инкор этиш, ўзга ғояларни зўрлаб киритиш заминида рўй берди. Бу ҳақиқатни ҳеч қачон ёдимиздан чиқармаслигимиз керак.
- Инсоният тарихида ахборот асри деб тан олинаётган, яъни XXI асрда ҳам, турли хил эски ва янги мафкураларнинг ўзаро кураши ҳар қачонгидан ҳам кўра шиддатли тус олмоқда. Дарҳақиқат ҳозирги даврда дунёда икки қарама-қарши қутб барҳам топган бўлса-да, турли хил мақсад ва манфаатларни ифода этувчи мафкуралар тортишуви тўхтагани йўқ. Натижада бугунги кунда ҳам баъзан бир-бирига мутлақо зид дунёқарашлар, сиёсий, миллий, диний оқимлар, мазҳаб ва секталар ўртасидаги фикр талашувлари гоҳо баҳс-мунозара

доирасидан чиқиб қонли тўқнашувлар, оммавий қирғинларга сабаб бўлмоқда. Бу мустақиллик учун катта хавф-хатардир.

Ана шундай фожиаларнинг олдини олиш, уларни тинч йўл билан ҳал этишнинг бирдан бир воситаси мафкуравий таҳдидлардан сақланишдир, ўз миллий истиқлол ғоясига эга бўлишдир. Негаки, мафкуравий кураш ва тортишувлардан кўзланган асосий мақсад - инсон, аввалambор ёшлар қалбини эгаллаш, уларни ўз дунёқарашига бўйсундириш, маънавий жиҳатдан заиф ва тобе қилиш. Президент Ислом Каримов ибораси билан айтганда, «фикр қарамлиги, тафаккур қуллиги эса ҳар қандай иқтисодий ва сиёсий қарамликдан ҳам кўра даҳшатлидир»[11]. Таъбир жоиз бўлса, айтиш мумкинки, ахборот ва электроника асри деб аталаётган янги XXI асрда инсон ҳар қачонгидан турли маъно-мазмундаги мафкуравий кучларнинг таъсиридан холи бўлиши деярли имконсиздир. Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда мафкура полигонлари ядро полигонларига нисбатан ҳам кўпроқ кучга эга. Иккинчидан, мафкуравий курашнинг кишиларни доимо огоҳ бўлишга ундовчи томони шундаки, агар ҳарбий, иқтисодий, сиёсий тазйиқ бўлса, буни сезиш, кўриш, олдини олиш мумкин. Аммо мафкуравий тазйиқ, унинг таъсири ва оқибатларини тезда илғаб етиш ниҳоятда қийинлиги билан ажралиб туради. Ҳамда унинг илмий-назарий асослари ҳақидаги яна бир хулоса бу табиатда ҳам, жамиятда ҳам ваакум-бўшлиқ бўлиши мумкин бўлмаганидек, мафкура соҳасида ҳам бўшлиқ вужудга келишига асло йўл қўйиб бўлмаслигидир. Бу мустақилликни асраб-авайлаш, мустаҳкамлашнинг муҳим шартидир. Миллий ғояга ишонч ва эътиқод қанча мустаҳкам бўлса, у инсонларнинг шахсий, оилавий ҳаётида, ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳалари орқали мустақилликни мустаҳкамлаб беришга хизмат қилади.

Мавзуни мустаҳкамлаш учун саволлар:

1. Миллий ғоя нима учун зарур?
2. Миллий истиқлол ғояси нималар билан боғлиқ ?
3. Миллий ва умуминсоний ғурур деганда нимани тушунасиз?
4. Миллий истиқлол ғоясининг асосий ғояларини айтиб беринг.
5. Мафкуралар хилма - хиллиги деганда нимани тушунасиз?

Annotatsiya

Bakalavrlar tayyorlash bo'yicha qabul qilingan yangi Davlat ta'lim standartining o'quv rejasiga muvofiq mazkur fanni o'qitish ko'zda tutilgan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, ushbu dastur tuzildi.

Iqtisodiy oliy o'quv yurtlari bakalavriatda keng ixtisosdagi iqtisodchi-bakalavrlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan fanlar orasida «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani muhim o'rin egallaydi. Iqtisodchi-bakalavr «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining metodologiyasini mukammal egallagandagina o'z faoliyatida amaliy va nazariy malakasini uyg'unlashtira oladi.

Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar kursida mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi tomonidan «o'zbek modeli» deb atalgan o'zimizga xos va o'zimizga mos taraqqiyot yo'lining mazmun-mohiyati yanada chuqurroq ochib berilgan. Mazkur fan, kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangilanishlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini kengroq anglash imkonini beradi. Fan milliy mafkuraning mohiyati, ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asosiy orzu intilishlari, hayotiy ideallarini aks ettiradi.

Mazkur kursni o'qitishning asosiy maqsadi iqtisodchi-bakalavrlarni milliy mafkuraga oid bilimlar bilan qurollantirish, hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni hosil qilishdir. Shuningdek, ularni jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni tahlil qilishga va bu sohadagi muammolarni ilmiy hal etishga tayyorlashdan iboratdir.

G'oya, mafkura va Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillarning mazmun-mohiyatiga aloqador bo'lgan nazariyalar, yo'nalishlarni bplishi va undan fopdalana olish ko'nikmalariga ega bo'lmog'i zarur.

Iqtisodchi-bakalavrlarning materiallarni o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat ishi, test sinovlarini o'tkazish, joriy baholash va oraliq nazoratni o'tkazish ko'zda tutilgan. Fanni o'zlashtirish yakuniy nazorat bilan tugallanadi.

«Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda g'oya va mafkuraga oid tushunchalar, kategoriyalar, tamoyillar, vazifa va maqsad kabilar katalogini ishlab chiqish, hamda o'quv maqsadini test topshiriqlariga ko'chiriga, o'quv maqsadlariga erishishning yangi uslublaridan foydalanish, bakalavrlar faolligi orqali ularni o'zlashtirishga o'rgatish, bilim va ko'nikmalarni to'liq egallashga, o'quv maqsadlarini me'yorlashtirilgan baholashga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishchi o'quv dasturiga yangi ishlab chiqilgan talablarga muvofiq innovatsiyalar ham kiritildi:

- Jamiyatning mafkurasiz bo'lmasligi, inson va jamiyat o'z taraqqiyotida qo'ygan barcha vazifalarini amalga oshirishda g'oya va mafkuralarning o'rnini jamiyat taraqqiyotidagi isbotlash.
- Jamiyat va tsivilizatsiyalar rivojini bunyodkor g'oyalarning tarixiy falsafiy ildizlarini ko'rsatish bilan bir qatorda bugungi kundagi xalqaro miqyosda keng yoyilgan shovinizm, buyuk davlatchilik, terrorizm, tajovuzkor millatchilik, fashizm g'oyalarining vayronkor yo'nalishlarini va uning salbiy tomonlarini ko'rsatish orqali talabalarda ularga nafrat tuyg'usini shakllantirish.
- Hozirgi davr globallashuv jarayonida dunyoning mafkuraviy manzarasini va uning ayrim yo'nalishlarini ko'rsatish.
- Globallashuv jarayonida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi – inson ongi va qalbi uchun kurash jarayonining davom etayotganligi bilan bog'liqligi.

- XXI asrning dastlabki 20 yilligida buyuk davlatlar tomonidan g’oyaviy kurashning yangi shakl-shamoyillarining milliy manfaatlarni himoya qilish aqidasi bilan “monand” holda namoyon bo’lish xususiyatlarini fosh etish.

Foydali maslahatlar

Iqtisodiy oliy o'quv yurtlari bakalavriat keng ixtisosdagi iqtisodchi bakalavrlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan fanlar orasida "Milliy g'oya : asosiy tushuncha va tamoyillar" fani muhim o'rin egallaydi.Iqtisodchi bakalavr "Milliy g'oya : asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining metodologiyasini mukammal egallagandagina o'z faoliyatida amaliy va nazariy malakasini uyg'unlashtira oladi.

O'zbekistoning ijtimoiy hayotida milliy g'oya azaliy boy tarixiy merosga tayangan holda yoshlar ongiga etkazib borish ijtimoiy hayotning navbatdagi dolzarb masalasiga aylangan. Mustaqillikga erishish natijasida mamlakatni ijtimoiy–siyosiy hayotida ulkan tarixiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Milliy g'oyaning mazmun-mohiyati Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida o'zining teran ifodasini topgani va bu borada konseptual qarashlar tarqqiyotining "O'zbek modeli" degan nom bilan dunyo hamjamiyatida e'tirof etilgani ko'pchilikka ma'lumdir.

Hozirgi murakkab davrda O'zbekistonni har tomonlama kuchli taraqqiy etgan davlatga aylantirish, uning buyuk kelajagini ta'minlashga qaratilgan bu modelda milliy g'oya asosidagi davlat va jamiyat qurilishi masalalari muhim o'rin tutadi.

O'quv uslubiy majmuanina ayrim jihatlari yangicha nuqtai nazardan yondoshishga harakat qilindi.

Birinchidan: Fanning aksariyat mavzularida asosiy diqqatni asl manbalarga qaratish va ularni tahlil qilishga harakat qilingan .

Ikkinchidan: Milliy g'oya fanining barcha mavzularida boy tariximizda o'tgan mutafakkir olimlar mashxur G'arb olimlari va birinchi navbatda I.Karimovning asarlari va chiqishlari nuqtai nazarida yondoshishga e'tibor qaratilgan.

Uchinchidan: Milliy g'oyaning umuminsoniy va milliy tamoyillari bo'yicha yangi nazariy fikrlar va xulosalarni taqdim etishga harakat qilingan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalar uchun "Milliy g'oya : asosiy tushuncha va tamoyillar" fanidan na'munaviy va ishchi dasturlar, davlat ta'lim standarti, milliy kadrlar tayyorlash dasturi, asosida yaratilgan ushbu O'UM har bir mavzuga yangicha, ilmiy holislik va nazariy teranlik bilan yondoshishga intilgan. Avvalo "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" mustaqil dunyoqarash va tafakkur shakillantirish, ma'naviy merosimizni tiklash, mafkuraviy imunitet shakillantirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqorolik jamiyatini shakillantirish va uning qonuniyatlarini bilashga jiddiy e'tibor qaratilgan.

O'UM ning asosiy maqsadi milliy g'oya deganda asrlar davomida avlodlar e'zozlab qilinayotgan, mamlakatimizda har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib ma'naviy ehtiyojga aylanib ketgan eng ezgu orzu intilish va umid maqsadlarning mazmun mohiyatini ifoda qilishga qaratilgan.

Barchamizga ayonki inson qabiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi shuning uchun O'UMning vazifalaridan bittasi yangi avlod yangi yosh mutahassislarni tarbiyalashda birinchi galda yoshlarning ma'naviy dunyosini shakillantirish, Vatanparvarlik tuyg'usi va tushunchasini boyitish.

Mazkur O'UMga yangi ishlab chiqilgan talabalarga muvofiq innovatsiyalar ham kiritilgan.

- Jamiyatning mafkurasiz bo'lmasligi, inson va jamiyat o'z taraqqiyotida qo'ygan barcha vazifalarini amalga oshirishda g'oya va mafkuralarning o'rnini jamiyat taraqqiyotidagi isbotlash.
- Jamiyat va tsivilizatsiyalar rivojini bunyodkor g'oyalarning tarixiy falsafiy ildizlarini ko'rsatish bilan bir qatorda bugungi kundagi xalqaro miqyosda keng yoyilgan shovinizm, buyuk davlatchilik, terrorizm, tajovuzkor millatchilik, fashizm g'oyalarining vayronkor yo'nalishlarini va uning salbiy tomonlarini ko'rsatish orqali talabalarda ularga nafrat tuyg'usini shakllantirish.
- Hozirgi davr globallashuv jarayonida dunyoning mafkuraviy manzarasini va uning ayrim yo'nalishlarini ko'rsatish.
- Globallashuv jarayonida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi – inson ongi va qalbi uchun kurash jarayonining davom etayotganligi bilan bog'liqligi.
- XXI asrning dastlabki 10 yilligida buyuk davlatlar tomonidan g'oyaviy kurashning yangi shakl-shamoyillarining milliy manfaatlarni himoya qilish aqidasi bilan "monand" holda namoyon bo'lish xususiyatlarini fosh etish.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ПРЕЗИДЕНТИНИНГ

ҚАРОРИ



ПОСТАНОВЛЕНИЕ

ПРЕЗИДЕНТА
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

2006 йил «25» август № ПҚ-451 «____» _____ 200 г.

Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида

Ватанимиз мустақиллигининг маънавий асосларини мустаҳкамлаш, миллий қадриятларимиз, анъана ва урф-одатларимизни асраб-авайлаш, халқимиз, айниқса, ёш авлод қалби ва онгига она юртга муҳаббат, истиқлолга садоқат туйғуларини чуқур сингдириш масаласи бугунги кунда тобора долзарб аҳамият касб этмоқда.

Бу борада тегишли идора ва ташкилотлар, жумладан, Республика Маънавият ва маърифат кенгаши ҳамда унинг жойлардаги бўлимлари томонидан муайян ишлар амалга оширилаётганини қайд этиш лозим.

Шу билан бирга, халқаро майдонда мафкуравий, ғоявий ва информацион курашлар кучайиб бораётган ҳозирги мураккаб ва таҳликали даврда маънавий-маърифий ишларни замон талаблари асосида ташкил этиш, ёшларимизни турли мафкуравий хуружлардан ҳимоя қилиш, юртдошларимизнинг ҳаётга онгли муносабатини шакллантириш, ён-атрофда юз бераётган воқеаларга дахлдорлик ҳиссини ошириш, мамлакатимиз мустақиллиги, тинч-осойишта ҳаётимизга хавф туғдириши мумкин бўлган тажовузларга қарши изчил кураш олиб бориш вазифаси ушбу соҳадаги ишларни, жумладан, Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг фаолияти ва таркибий тузилишини қайта кўриб чиқишни тақозо этмоқда.

Мамлакатимизда миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишларнинг самарадорлигини, уларнинг ҳаётийлиги ва таъсирчанлигини янада ошириш мақсадида ҳамда Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг навбатдаги йиғилишида билдирилган таклифларни инобатга олган ҳолда:

1.Ўзбекистон Республикаси Бош вазирига Республика Маънавият ва маърифат кенгашига раислик қилиш, шунингдек, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Раиси, вилоятлар, шаҳар ва туманлар ҳокимларига эса ҳудудий кенгашларга раҳбарлик қилиш вазифаси юклатилсин.

2.Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари штатлар жадвалига қўшимча равишда Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Раиси, вилоятлар ва

Мундарижа
КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МИЛЛИЙ ДАСТУРИ
УМУМИЙ ҚОИДАЛАР
1. МУАММОЛАР ВА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТУБДАН ИСЛОҲ ҚИЛИШ ОМИЛЛАРИ
1.1. РИВОЖЛАНИШНИНГ ЭРИШИЛГАН ДАРАЖАСИ
1.2. КАМЧИЛИКЛАР ВА МУАММОЛАР
1.3. ИСЛОҲ ҚИЛИШ ОМИЛЛАРИ
2. МИЛЛИЙ ДАСТУРНИНГ МАҚСАДИ, ВАЗИФАЛАРИ ВА УНИ РЎЁБГА ЧИҚАРИШ БОСҚИЧЛАРИ
2.1. ДАСТУРНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ
2.2. ДАСТУРНИ РЎЁБГА ЧИҚАРИШ БОСҚИЧЛАРИ
3. КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ МИЛЛИЙ МОДЕЛИ
3.1. ШАХС
3.2. ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ
3.3. УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ
3.4. КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИДА ФАН
3.5. КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ
4. КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ
4.1. ТАЪЛИМНИНГ УЗЛУКСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ
4.2. ПЕДАГОГ ВА ИЛМИЙ-ПЕДАГОГ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ, ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ
4.3. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ МАЗМУНАН ИСЛОҲ ҚИЛИШ
4.4. МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ВА МАЪРИФИЙ ИШЛАР
4.5. ИҚТИДОРЛИ БОЛАЛАР ВА ИСТЕЪДОДЛИ ЁШЛАР
4.6. ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШ
4.7. КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМИ СИФАТИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
4.8. ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОЛИЯЛАШ
4.9. МОДДИЙ-ТЕХНИКА ТАЪМИНОТИ
4.10. ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЯХЛИТ АХБОРОТ МАКОНИНИ ВУЖУДГА КЕЛТИРИШ
4.11. ТАЪЛИМ ХИЗМАТИ КЎРСАТИШ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
4.12. ТАЪЛИМ СОҲАСИДА ИЖТИМОИЙ КАФОЛАТЛАРНИ ТАЪМИНЛАШ ҲАМДА БУ СОҲАНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ
4.13. ФАН БИЛАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ АЛОҚАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
4.14. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
4.15. ТАЪЛИМ ВА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ СОҲАСИДАГИ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК
5. МИЛЛИЙ ДАСТУРНИ РЎЁБГА ЧИҚАРИШГА ДОИР ТАШКИЛИЙ ЧОРА-ТАДБИРЛАР

КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МИЛЛИЙ ДАСТУРИ

(Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 150-модда)

УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

Ўзбекистон Республикаси инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига риоя этилишини, жамиятнинг маънавий янгиланишини, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини шакллантиришни, жаҳон ҳамжамиятига қўшилишни таъминлайдиган демократик ҳуқуқий давлат ва очиқ фуқаролик жамияти қурмоқда.

Инсон, унинг ҳар томонлама уйғун камол топиши ва фаровонлиги, шахс манфаатларини рўёбга чиқаришнинг шароитларини ва таъсирчан механизмларини яратиш, эскирган тафаккур ва ижтимоий хулқ-атворнинг андозаларини ўзгартириш республикада амалга оширилаётган ислоҳотларнинг асосий мақсади ва ҳаракатлантирувчи кучидир. Халқнинг бой интеллектуал мероси ва умумбашарий қадриятлар асосида, замонавий маданият, иқтисодиёт, фан, техника ва технологияларнинг ютуқлари асосида кадрлар тайёрлашнинг мукаммал тизимини шакллантириш Ўзбекистон тараққиётининг муҳим шартидир.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастури «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг қоидаларига мувофиқ ҳолда тайёрланган бўлиб, миллий тажрибанинг таҳлили ва таълим тизимидаги жаҳон миқёсидаги ютуқлар асосида тайёрланган ҳамда юксак умумий ва касб-ҳунар маданиятига, ижодий ва ижтимоий фаолликка, ижтимоий-сиёсий ҳаётда мустақил равишда мўлжални тўғри ола билиш маҳоратига эга бўлган, истиқбол вазифаларини илгари суриш ва ҳал этишга қодир кадрларнинг янги авлодини шакллантиришга йўналтирилгандир.

Дастур кадрлар тайёрлаш миллий моделини рўёбга чиқаришни, ҳар томонлама камол топган, жамиятда турмушга мослашган, таълим ва касб-ҳунар дастурларини онгли равишда танлаш ва кейинчалик пухта ўзлаштириш учун ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, психологик-педагогик ва бошқа тарздаги шароитларни яратишни, жамият, давлат ва оила олдида ўз жавобгарлигини ҳис этадиган фуқароларни тарбиялашни назарда тутади.

1. МУАММОЛАР ВА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТУБДАН ИСЛОҲ ҚИЛИШ ОМИЛЛАРИ

1.1. РИВОЖЛАНИШНИНГ ЭРИШИЛГАН ДАРАЖАСИ

Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигига эришиб, иқтисодий ва ижтимоий ривожланишнинг ўзига хос йўлини танлаши кадрлар тайёрлаш тузилмаси ва мазмунини қайта ташкил этишни зарур қилиб қўйди ва қатор чора-тадбирлар кўришни: «Таълим тўғрисида»ги Қонунни жорий этишни (1992 йил); янги ўқув режалари, дастурлари, дарсликларини жорий этишни, замонавий дидактик таъминотни ишлаб чиқишни; ўқув юртларини аттестациядан ўтказишни ва аккредитациялашни, янги типдаги таълим муассасаларини ташкил этишни тақозо этди.

Мактабгача таълим соҳасида уйларда ташкил этиладиган болалар боғчалари ҳамда «болалар боғчаси-мактаб» мажмуи тармоғи ривожланиб бормоқда. Болаларга чет тилларни, хореография, тасвирий ва мусиқа санъати, компьютер саводхонлиги асосларини ўргатувчи 800 дан ортиқ гуруҳ ташкил этилган.

Янги типдаги мактаблар ва умумтаълим ўқув юртлари тармоғи ривожланиб бормоқда. Ҳозирги кунда 238 лицей ва 136 гимназия ишлаб турибди. «Соғлом авлод учун», «Маънавият ва маърифат», «Иқтисодий таълим», «Қишлоқ мактаби», «Ривожланишда нуқсони бўлган болаларни тиклаш» ва бошқа тармоқ дастурлари рўёбга чиқарилмоқда. Республика умумтаълим мактабларида 435 мингдан ортиқ ўқитувчи ишламоқда, уларнинг 73 фоизи олий маълумотлидир.

Меҳнат бозорини, энг аввало қишлоқ жойларда меҳнат бозорини шакллантиришнинг ҳудудий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ҳунар-техника таълимини қайта ташкил этишга киришилди. Ҳозирги кунда бу тизимда жами 221 минг кишини таълим билан қамраб олган 442 ўқув юрти, шу жумладан, 209 касб-ҳунар мактаби, 180 касб-ҳунар лицейи ва 53 бизнес-мактаб ишлаб турибди. Бугунги кунда бошланғич касб-ҳунар таълими ўқув юртларида қарийб 20 минг ўқитувчи ва малакали мутахассислар ишламоқда. Республикада жами 197 минг киши таълим олаётган 258 ўрта касб-ҳунар таълими ўқув юрти ишлаб турибди. Уларда қарийб 16 минг ўқитувчи ва муҳандис-педагог ходимлар меҳнат қилмоқда.

Ўзбекистон олий мактаби тизими 58 олий ўқув юртини, шу жумладан 16 университет ва 42 институтни ўз ичига олади, уларда 164 минг талаба таълим олмоқда; 16 университетнинг ўн иккитаси Ўзбекистон мустақилликка эришган дастлабки икки йилда ташкил топди. Олий ўқув юртларида ишлаётган 18,5 минг ўқитувчининг 52 фоизи фан доктори ва фан номзодларидир. Олий таълимда кадрлар тайёрлашни марказлаштиришдан ҳуқуқий йўналишга ўтказиш иши олиб борилмоқда, ўқув юртларининг тармоғи кенгаймоқда, университет таълими ривожланмоқда. Билимларнинг янги тармоқлари бўйича кадрлар тайёрлаш бошлаб юборилди, олий мактабни кўп босқичли тизимга ўтказиш амалга оширилмоқда. Абитуриентлар ва талабаларнинг билим даражасини тест ва рейтинг асосида баҳолашнинг илғор усуллари жорий этилмоқда.

Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар сифатига ошган талабларга мувофиқ аспирантура ва докторантурада кадрлар тайёрлаш иши кенгаймоқда. Олий аттестация комиссияси ташкил этилди. Республикада қарийб 4 минг аспирант бўлиб, улардан 69 фоизи олий таълим тизимида ва 31 фоизи илмий-тадқиқот институтларида таълим олмоқда. Жами илмий ва илмий-педагог кадрларнинг 8 фоизини фан докторлари ва 37 фоизини фан номзодлари ташкил этади.

Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тизимида 23 институт, 16 факультет, 4 марказ ва 14 малака ошириш курслари ишлаб турибди.

Иқтидорли болалар ва ўқувчи ёшларни қўллаб-қувватлаш бўйича давлат сиёсати собитқадамлик билан олиб борилмоқда. Истеъдодли ўсмир ва қизларни излаб топиш, уларга кўмаклашиш, уларнинг қобилияти ва истеъдодини ўстириш бўйича махсус фондлар ташкил этилди, қобилиятли ёшларни чет эллардаги етакчи ўқув юртлари ва илмий марказларда ўқитиш ва стажировкадан ўтказиш йўлга қўйилди.

Фан ва таълим соҳасида халқаро алоқалар кенгайиб бормоқда.

Шунга қарамай, содир этилган ўзгартиришлар кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш талабларига мувофиқ бўлишини таъминлай олмади.

1.2. КАМЧИЛИКЛАР ВА МУАММОЛАР

Кадрлар тайёрлаш тизимининг демократик ўзгаришлар ва бозор ислоҳотлари талабларига мувофиқ эмаслиги, ўқув жараёнининг моддий-техника ва ахборот базаси етарли эмаслиги, юқори малакали педагог кадрларнинг етишмаслиги, сифатли ўқув-услубий ва илмий адабиёт ҳамда дидактик материалларнинг камлиги, таълим тизими, фан ва ишлаб чиқариш ўртасида пухта ўзаро ҳамкорлик ва ўзаро фойдали интеграциянинг йўқлиги кадрлар тайёрлашнинг мавжуд тизимидаги жиддий камчиликлар сирасига киради. Таълим-тарбия ва ўқув жараёнларининг таркибини, босқичларини бир-бири билан узвий боғлаш, яъни узлуксиз таълим-тарбия тизимини ташкил қилиш муаммолари ҳал қилинган эмас. Амалдаги таълим тизими замонавий, тараққий топган демократик давлатлар талабларига жавоб бера олмаётир.

Мутахассислар тайёрлаш, таълим-тарбия тизими жамиятда бўлаётган ислоҳот, янгиланиш жараёнлари талаблари билан боғланмаган.

Мактабгача таълим ва тарбия аҳволи қониқарсизлигича қолмоқда. Боғча ёшидаги болаларнинг 25 фоизигина мактабгача тарбия муассасаларига қамраб олинган, холос. Мактабгача болалар муассасаларидан ва оиладан мактабга келган болаларнинг тайёргарлик даражаси ўртасида сезиларли тафовут мавжуд.

Мактабларда ва бошқа ўқув юртларида таълим жараёнининг ўзидаги ва ўқитиш услубиятидаги ҳар хил камчиликлар оқибатида билим беришда юзага келган нодемократик ҳамда жамият учун зарарли муҳит

шунга олиб келдики, ўқувчиларда мустақил фикрлаш ривожланмай қолаяпти, оқилона ҳаётий ечимлар қабул қилиш учун етарли тайёргарлик йўқ. 9-11 синфларни тамомлаган ёшлар мустақил ҳаётда ўз ўрнини аниқлай олмайди. Уларда ўзларига ишонч шаклланган эмас, ўрта мактаб битирувчиларининг 10 фоизигина олий ўқув юртларига ўқишга кирмоқда, холос.
Мажбурий тўққиз йиллик таълимга асосланган ўн бир йиллик умумий ўрта таълим илмий асосланмагандир, у ўқувчиларда касбга йўналтириш ва таълимнинг амалий йўналганлиги етарли даражада бўлиши ҳамда мустақил фикр юритиш, меҳнат фаолияти кўникмалари шаклланишини таъминламаяпти. Ҳар йили таянч мактабларнинг 100 минг нафарга яқин битирувчиси ишлаб чиқариш соҳасида ҳамда касб-ҳунар таълимини давом эттириш учун талаб этилмай қолдирилмоқда.
Таълим тизимидаги мавжуд умумтаълим ва касб-ҳунар дастурлари ўртасида узвийлик ва ворисликнинг йўқлиги сабабли таянч ва ўрта мактаб битирувчиларида касбга йўналтирилганлик ва меҳнат фаолияти кўникмалари шаклланмай қолаяпти. Натижада йигит ва қизлар ўз қобилиятлари, истаклари, ижодий ва меҳнат мойилликларига монанд ҳаёт йўлини белгилаб олишда жиддий қийинчиликлар сезмоқдалар.
Ўқув жараёни билим даражаси ўртача бўлган ўқувчиларга мўлжалланган бўлиб, таълимнинг иқтидорли ёшлар билан якка тартибдаги ўқув дастурлари бўйича ишлаш каби механизмларидан яхши фойдаланилмаяпти, ўқув дастурлари мафкуравий сарқитлардан тўлиқ ҳоли бўлганича йўқ, уларда маънавият ва ахлоқ асосларини ўргатувчи, иқтисодий ҳуқуқий, эстетик билимларни берувчи фанларга етарлича ўрин берилмаяпти.
Ҳунар-техника билим юртларидан янги типдаги таълим муассасаларига ўтиш кўпроқ оғизда бўлиб, амалда эса уларда таълим эскириб қолган моддий-техника ва ўқув-услубий базасида, тегишли қайта тайёргарликдан ўтмаган ўқитувчи кадрлар билан амалга оширилмоқда.
Бир босқичли олий таълим меҳнат бозори эҳтиёжларини, ишлаб чиқаришдаги таркибий ўзгаришларни ва илғор халқаро тажрибани тўлиқ ҳажмда ҳисобга олмаётир. ўқув-тарбия жараёнини ташкил этишда ўқув юртлари етарлича мустақилликка эга эмас, улар касбий меҳнат бозорининг ўзгарувчан шароитларига яхши мослашиб бормаяпти.
Илмий муассасалар, ишлаб чиқариш ва ижтимоий институтлар кадрларни тайёрлаш жараёнига етарли даражада қўшилганлари йўқ. Давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш, таълим муассасаларини давлат аттестацияси ва аккредитациясидан ўтказиш вазифалари белгилаб олинмаган. ўқувчиларнинг билим даражасини баҳолаш тизими объективлик ва тезкорликни таъминламайди.
Касб-ҳунар таълимининг обрўси ҳамда ўқитувчилар, тарбиячилар ва мураббийларнинг, илмий ва илмий-педагог кадрларнинг ижтимоий мақоми пасайиб бормоқда. Таълим хизмати кўрсатиш ва кадрлар тайёрлаш соҳасида маркетинг мавжуд эмас, таълим тизимини кўп вариантли молиялаш схемаси ишлаб чиқилмаган. Олий малакали кадрлардан самарали фойдаланилмаяпти. Кадрлар билими ва улар тайёргарлигининг сифатини назорат қилиш ҳамда баҳолаш тизими қониқарсиз ишламоқда.
Ўқитувчилар, педагоглар ва тарбиячиларнинг каттагина қисми яхши тайёргарлик кўрмаганлиги, уларнинг билим ва касб савияси пастлиги жиддий муаммо бўлиб қолмоқда, малакали педагог кадрлар етишмаслиги сезилмоқда. Мактабгача таълим соҳасидаги жами тарбиячи ва педагогларнинг атиги 20 фоизи олий маълумотлидир. Мактабларнинг ўқитувчилар билан таъминланганлиги ўртача 93 фоизни ташкил этгани ҳолда, бу кўрсаткич айрим вилоятларда 77-80 фоиздан, муайян фанлар бўйича эса 50 фоиздан ошмайди. Илмий ва илмий-педагог кадрларнинг ўртача ёши «улғайиб» бормоқда. Республика олий ўқув юртларида 40 ёшга тўлмаган фан докторлари жами фан докторларининг 0,9 фоизини, 50 ва ундан катта ёшдагилари эса 79 фоизини ташкил этади. Фан докторлари илмий даражасига тасдиқланганлар ўртача 50, фан номзодлари эса 36 ёшдадир.

1.3. ИСЛОҲ ҚИЛИШ ОМИЛЛАРИ

Кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан ислоҳ қилишнинг муҳим омиллари қуйидагилардан иборат:
республиканинг демократик ҳуқуқий давлат ва адолатли фуқаролик жамияти қуриш йўлидан изчил илгарилаб бораётганлиги;
мамлакат иқтисодиётида туб ўзгартиришларнинг амалга оширилиши, республика иқтисодиёти асосан хом ашё йўналишидан рақобатбардош пировард маҳсулот ишлаб чиқариш йўлига изчил ўтаётганлиги, мамлакат экспорт салоҳиятининг кенгаяётганлиги;
давлат ижтимоий сиёсатида шахс манфаати ва таълим устуворлиги қарор топганлиги;
миллий ўзликни англашнинг ўсиб бориши, ватанпарварлик, ўз ватани учун ифтихор туйғусининг шаклланаётганлиги, бой миллий маданий-тарихий анъаналарга ва халқимизнинг интеллектуал меросига ҳурмат;
Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграцияси, республиканинг жаҳондаги мавқеи ва обрў-эътиборининг мустаҳкамланиб бораётганлиги.

2. МИЛЛИЙ ДАСТУРНИНГ МАҚСАДИ, ВАЗИФАЛАРИ ВА УНИ РЎЁБГА ЧИҚАРИШ БОСҚИЧЛАРИ

2.1. ДАСТУРНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ

Мазкур дастурнинг мақсади таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш, уни ўтмишдан қолган мафкуравий қарашлар ва сарқитлардан тўла халос этиш, ривожланган демократик давлатлар даражасида, юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи юқори малакали кадрлар тайёрлаш Миллий тизимини яратишдир.

Ушбу мақсадни рўёбга чиқариш қуйидаги вазифалар ҳал этилишини назарда тутади:
«Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ таълим тизимини ислоҳ қилиш, давлат ва нодавлат таълим муассасалари ҳамда таълим ва кадрлар тайёрлаш соҳасида рақобат муҳитини шакллантириш негизида таълим тизимини ягона ўқув-илмий-ишлаб чиқариш мажмуи сифатида изчил ривожлантиришни таъминлаш;
таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимини жамиятда амалга оширилаётган янгиланиш, ривожланган демократик ҳуқуқий давлат қурилиши жараёнларига мослаш;
кадрлар тайёрлаш тизими муассасаларини юқори малакали мутахассислар билан таъминлаш, педагогик фаолиятнинг нуфузи ва ижтимоий мақомини кўтариш;
кадрлар тайёрлаш тизими ва мазмунини мамлакатнинг ижтимоий ва иқтисодий тараққиёти истиқболларидан, жамият эҳтиёжларидан, фан, маданият, техника ва технологиянинг замонавий ютуқларидан келиб чиққан ҳолда қайта қуриш;
таълим олувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялашнинг ва маърифий ишларнинг самарали шакллари ҳамда услубларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;
таълим ва кадрлар тайёрлаш, таълим муассасаларини аттестациядан ўтказиш ва аккредитация қилиш сифатига баҳо беришнинг холис тизимини жорий қилиш;
янги ижтимоий-иқтисодий шароитларда таълимнинг талаб қилинадиган даражаси ва сифатини, кадрлар тайёрлаш тизимининг амалда фаолият кўрсатиши ва барқарор ривожланишининг кафолатларини, устуворлигини таъминловчи норматив, моддий-техника ва ахборот базасини яратиш;
таълим, фан ва ишлаб чиқариш самарали интеграциялашувини таъминлаш, тайёрланаётган кадрларнинг миқдори ва сифатига нисбатан давлатнинг талабларини, шунингдек нодавлат тузилмалари, корхоналар ва ташкилотларнинг буюртмаларини шакллантиришнинг механизмларини ишлаб чиқиш;
узлуксиз таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимига бюджетдан ташқари маблағлар, шу жумладан чет эл инвестициялари жалб этишнинг реал механизмларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш;
кадрлар тайёрлаш соҳасида ўзаро манфаатли халқаро ҳамкорликни ривожлантириш.

2.2. ДАСТУРНИ РЎЁБГА ЧИҚАРИШ БОСҚИЧЛАРИ

Миллий дастурнинг мақсад ва вазифалари босқичма-босқич рўёбга чиқарилади.
Биринчи босқич (1997 — 2001 йиллар) мавжуд кадрлар тайёрлаш тизимининг ижобий салоҳиятини сақлаб қолиш асосида ушбу тизимни ислоҳ қилиш ва ривожлантириш учун ҳуқуқий, кадрлар жиҳатидан, илмий-услубий, молиявий-моддий шарт-шароитлар яратиш.
Ушбу босқичда қуйидагиларни амалга ошириш зарур:
«Таълим тўғрисида»ги Қонунга мувофиқ таълим тизими мазмунини таркибий қайта қуриш ва тубдан янгилаш;
педагог ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ҳамда уларнинг малакасини оширишни замон талабларига жавоб берадиган даражада ташкил этиш;
таълим олувчиларнинг юксак тайёргарлилик даражаси, малакаси, маданий ва маънавий-ахлоқий савиясининг сифатига нисбатан қўйиладиган зарур талабларни белгилаб берувчи давлат таълим стандартларини яратиш ва жорий этиш;
ўқув-услубий мажмуаларнинг ҳамда таълим жараёни дидактик ва ахборот таъминотининг янги авлодини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;
ўрта махсус, касб-ҳунар таълими учун зарур моддий-техника, ўқув-услубий ва кадрлар базасини тайёрлаш;
таълим ва кадрлар тайёрлашга бюджетдан ташқари маблағлар жалб этишнинг механизмларини такомиллаштириш, давлат таълим муассасалари билан бир қаторда нодавлат таълим муассасаларини ривожлантиришни ҳам назарда тутган ҳолда таълим хизмати кўрсатиш соҳасида рақобатга асосланган муҳитни вужудга келтириш;
таълим муассасалари фаолиятига баҳо беришнинг рейтинг тизимини, кадрлар тайёрлаш сифати ва уларга бўлган эҳтиёжнинг мониторингини олиб бориш тизимини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;
халқаро алоқаларни кенгайтириш ва кучайтириш, кадрлар тайёрлашда халқаро донорлик ташкилотлари ва фондлари фаолиятига тегишли шароитлар яратиш, шунингдек республика таълим соҳасига чет эл инвестицияларини жалб этиш бўйича реал чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва уларни амалга ошириш;
Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини рўёбга чиқаришнинг мониторингини олиб бориш.
Ушбу босқичда болаларни олти-етти ёшдан мактабга қабул қилиш, уларнинг жисмоний ва ақлий жиҳатдан ривожланганлигини эътиборга олган ҳолда амалга оширилади. Тақозо этилаётган ўқувчи ўринлари зарур моддий-техника шарт-шароитлари ва педагог кадрлар билан таъминланган ҳолда изчил тайёрланади.
Биринчи босқич бажарилишининг мониторинги асосида Миллий дастурни рўёбга чиқариш йўналишларига аниқликлар киритилади.
Иккинчи босқич (2001 — 2005 йиллар) Миллий дастурни тўлиқ рўёбга чиқариш, меҳнат бозорининг ривожланиши ва реал ижтимоий-иқтисодий шароитларни ҳисобга олган ҳолда унга аниқликлар киритиш.
Мажбурий умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимига, шунингдек ўқувчиларнинг қобилиятлари ва имкониятларига қараб, табақалаштирилган таълимга ўтиш тўлиқ амалга оширилади.
Таълим муассасаларини махсус тайёрланган малакали педагог кадрлар билан тўлдириш таъминланади, уларнинг фаолиятида рақобатга асосланган муҳит вужудга келтирилади.

Таълим муассасаларининг моддий-техника ва ахборот базасини мустаҳкамлаш давом эттирилади, ўқув-тарбия жараёни юқори сифатли ўқув адабиётлари ва илғор педагогик технологиялар билан таъминланади.
Узлуксиз таълим тизимини ахборотлаштириш амалга оширилади.
Таълим хизмат кўрсатиш бозорини шакллантириш механизмлари тўлиқ ишга солинади.
Учинчи босқич (2005 ва ундан кейинги йиллар) тўпланган тажрибани таҳлил этиш ва умумлаштириш асосида, мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш истиқболларига мувофиқ кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва янада ривожлантириш.
Таълим муассасаларининг ресурс, кадрлар ва ахборот базалари янада мустаҳкамланади, ўқув-тарбия жараёни янги ўқув-услубий мажмуалар, илғор педагогик технологиялар билан тўлиқ таъминланади.
Миллий (элита) олий таълим муассасаларини қарор топтириш ва ривожлантириш амалга оширилади. Касб-ҳунар таълими муассасаларининг мустақил фаолият юритиши ва ўзини ўзи бошқариши шакллари мустаҳкамланади.
Таълим жараёнини ахборотлаштириш, узлуксиз таълим тизими жаҳон ахборот тармоғига уланадиган компьютер ахборот тармоғи билан тўлиқ қамраб олинади.

3. КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ МИЛЛИЙ МОДЕЛИ

Кадрлар тайёрлаш миллий моделининг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардан иборатдир:
шахс — кадрлар тайёрлаш тизимининг бош субъекти ва объекти, таълим соҳасидаги хизматларнинг истеъмолчиси ва уларни амалга оширувчи;
давлат ва жамият — таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимининг фаолиятини тартибга солиш ва назорат қилишни амалга оширувчи кадрлар тайёрлаш ва уларни қабул қилиб олишнинг кафиллари;
узлуксиз таълим малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг асоси бўлиб, таълимнинг барча турларини, давлат таълим стандартларини, кадрлар тайёрлаш тизими тузилмаси ва унинг фаолият кўрсатиш муҳитини ўз ичига олади;
фан юқори малакали мутахассислар тайёрловчи ва улардан фойдаланувчи, илғор педагогик ва ахборот технологияларини ишлаб чиқувчи;
ишлаб чиқариш кадрларга бўлган эҳтиёжни, шунингдек уларнинг тайёргарлик сифати ва савиясига нисбатан қўйиладиган талабларни белгиловчи асосий буюртмачи, кадрлар тайёрлаш тизимини молия ва моддий-техника жиҳатидан таъминлаш жараёнининг қатнашчиси.
Давлат ва жамият узлуксиз таълим ва кадрлар тайёрлаш тизими барча учун очиқ бўлишини ва ҳаёт ўзгаришларига мослашувчанлигини таъминлайди.
Ўзбекистон Республикаси томонидан инсон ҳуқуқлари, таълим, бола ҳуқуқи соҳасидаги шартномалар ва конвенцияларнинг бажарилиши, кадрлар тайёрлаш соҳасида жаҳон илғор тажрибасини ҳисобга олиш узлуксиз таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимининг барча жиҳатларига дахлдор бўлиб, унинг ривожланиши омилларидан биридир.

3.1. ШАХС

Кадрлар тайёрлаш соҳасидаги давлат сиёсати инсонни интеллектуал ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш билан узвий боғлиқ бўлган узлуксиз таълим тизими орқали ҳар томонлама баркамол шахс фуқарони шакллантиришни назарда тутади. Шу тарзда фуқаронинг энг асосий конститутциявий ҳуқуқларидан бири билим олиш, ижодий қобилиятни намоён этиш, интеллектуал жиҳатдан ривожланиш, касби бўйича меҳнат қилиш ҳуқуқи рўёбга чиқарилади.
«Таълим тўғрисида»ги Қонун умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими стандартлари орқали сифатли таълим олиш, шунингдек таълим ва касб-ҳунар жиҳатдан тайёргарликнинг шакллари ва турларини танлашни, узлуксиз малака ошириб бориш, зарурат тақозо этса, тегишли қайта тайёргарликдан ўтиш ҳуқуқини ва кенг имкониятларини назарда тутади.
Таълим хизматларининг истеъмолчиси сифатида шахсга давлат таълим стандартлари орқали сифатли таълим олиш ва касб-ҳунар тайёргарлиги кўриш кафолатланади. Таълим олиш жараёнида шахс давлат таълим стандартларида ифода этилган талабларни бажариши шарт.
Шахс таълим хизматларининг яратувчиси сифатида тегишли малака даражасини олгач, таълим, моддий ишлаб чиқариш, фан, маданият ва хизмат кўрсатиш соҳасида фаолият кўрсатади ва ўз билими ва тажрибасини ўргатишда иштирок этади.

3.2. ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ

Давлат ва жамият кадрлар тайёрлаш тизими амал қилиши ва ривожланишининг кафиллари, юқори малакали рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш бўйича таълим муассасаларининг фаолиятини уйғунлаштирувчи сифатида фаолият кўрсатади.
Давлат ва жамият қуйидагиларга, чунончи:
Фуқароларнинг билим олиш, касб танлаш ва ўз малакасини ошириш ҳуқуқлари рўёбга чиқарилишига;
Мажбурий умумий ўрта таълим ҳамда академик лицей ёки касб-ҳунар коллежида таълим олиш йўналишини танлаш ҳуқуқи асосида мажбурий ўрта махсус, касб-ҳунар таълими олишга;
Давлат грантлари ёки пуллик-шартномавий асосда олий таълим ва олий ўқув юртидан кейинги таълим олиш ҳуқуқига;
Давлат таълим муассасаларини маблағ билан таъминлашга;

Таълим олувчиларнинг ўқиши, турмуши ва дам олиши учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги вазифалар ҳал этилишида жамоатчилик бошқарувини ривожлантиришга;
Таълим жараёни қатнашчиларини ижтимоий жиҳатдан қўллаб-қувватлашга;
Соғлиқ ва ривожланишда нуқсони бўлган шахслар таълим олишига кафолат берадилар.
3.3. УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ
Узлуксиз таълим кадрлар тайёрлаш тизимининг асоси, Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминловчи, шахс, жамият ва давлатнинг иқтисодий, ижтимоий, илмий-техникавий ва маданий эҳтиёжларини қондирувчи устувор соҳадир.
Узлуксиз таълим ижодкор, ижтимоий фаол, маънавий бой шахс шаклланиши ва юқори малакали рақобатбардош кадрлар илдам тайёрланиши учун зарур шарт-шароитлар яратади.
3.3.1. Узлуксиз таълимни ташкил этиш ва ривожлантириш принциплари
Узлуксиз таълимнинг фаолият кўрсатиш принциплари қуйидагилардан иборат:
таълимнинг устуворлиги унинг ривожланишининг биринчи даражали аҳамиятга эга эканлиги, билим, таълим ва юксак интеллектнинг нуфузи;
таълимнинг демократлашуви таълим ва тарбия услубларини танлашда ўқув юртлари мустақиллигининг кенгайиши, таълимни бошқаришнинг давлат-жамият тизимига ўтилиши;
таълимнинг инсонпарварлашуви инсон қобилиятларининг очилиши ва унинг таълимга нисбатан бўлган турли-туман эҳтиёжларининг қондирилиши, миллий ва умумбашарий қадриятлар устуворлигининг таъминланиши, инсон, жамият ва атроф-муҳит ўзаро муносабатларининг уйғунлашуви;
таълимнинг ижтимоийлашуви таълим олувчиларда эстетик бой дунёқарашни ҳосил қилиш, уларда юксак маънавият, маданият ва ижодий фикрлашни шакллантириш;
таълимнинг миллий йўналтирилганлиги таълимнинг миллий тарих, халқ анъаналари ва урф-одатлари билан узвий уйғунлиги, Ўзбекистон халқларининг маданиятини сақлаб қолиш ва бойитиш, таълимни миллий тараққиётнинг ўта муҳим омили сифатида эътироф этиш, бошқа халқларнинг тарихи ва маданиятини ҳурматлаш;
таълим ва тарбиянинг узвий боғлиқлиги, бу жараённинг ҳар томонлама камол топган инсонни шакллантиришга йўналтирилганлиги;
иқтидорли ёшларни аниқлаш, уларга таълимнинг энг юқори даражасида, изчил равишда фундаментал ва махсус билим олишлари учун шарт-шароитлар яратиш.
3.3.2. Узлуксиз таълимни ислоҳ қилиш
Узлуксиз таълим соҳасидаги ислоҳотлар қуйидагиларни назарда тутади:
таълим тизимининг кадрлар салоҳиятини тубдан яхшилаш, тарбиячи, ўқитувчи, муаллим ва илмий ходимнинг касбий нуфузини ошириш;
давлат ва нодавлат таълим муассасаларининг ҳар хил турларини ривожлантириш;
таълим тизимини таркибий жиҳатдан қайта қуриш, таълим, фан, техника ва технологиянинг, иқтисодиёт ва маданиятнинг жаҳон миқёсидаги замонавий ютуқларини ҳисобга олган ҳолда таълим ва касб-ҳунар таълими дастурларини тубдан ўзгартириш;
мажбурий умумий ўрта таълимдан ўрта махсус, касб-ҳунар таълимига ўтилишини таъминлаш;
махсус, касб-ҳунар таълимининг марказлари сифатида фан ва ишлаб чиқариш интеграциялашган янги типдаги ўқув муассасаларини вужудга келтириш;
илғор технологияларни кенг ўзлаштириш, иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар, чет эл инвестициялари кўламларининг кенгайиши, тадбиркорлик, кичик ва хусусий бизнесни ривожлантириш билан боғлиқ янги касб-ҳунар ва мутахассисликлар бўйича кадрлар, шу жумладан бошқарув тизими кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш;
миллий мустақиллик принциплари ва халқнинг бой интеллектуал мероси ҳамда умумбашарий қадриятларнинг устуворлиги асосида таълимнинг барча даражалари ва бўғинларида таълим олувчиларнинг маънавий ва ахлоқий фазилатларини ривожлантириш;
таълимни бошқариш тизимини такомиллаштириш, жамоат бошқаруви шаклларини ривожлантириш, таълим муассасаларини минтақалаштириш;
таълим олишда, шунингдек болалар ва ёшларни маънавий-ахлоқий, интеллектуал ва жисмоний жиҳатдан тарбиялашда оила, ота-оналар, жамоат ташкилотлари, маҳаллалар, хайрия ва халқаро фондларнинг ролини кучайтириш юзасидан чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга ошириш;
таълим жараёни ва кадрлар тайёрлаш сифатига холис баҳо бериш тизимини яратиш ва жорий этиш;
таълим тизимини молиявий, моддий-техника ва бошқа тарздаги ресурслар билан таъминлаш механизмларини шакллантириш;
узлуксиз таълимни фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялаштиришнинг пухта механизмларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;
таълим ва илм-фан билан боғлиқ чет эл ҳамда халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни кенгайтириш ва ривожлантириш;
туб ерли миллатга мансуб бўлмаган шахслар зич яшайдиган жойларда улар ўз она тилларида таълим олишлари учун ташкилий ва педагогик шарт-шароитлар яратиш;

таълимнинг барча даражаларида таълим олувчиларнинг ҳуқуқий, иқтисодий, экологик ва санитария-гигиена таълими ҳамда тарбиясини такомиллаштириш.
3.3.3. Узлуксиз таълим тизими ва турлари
Узлуксиз таълим тизимининг фаолият олиб бориши давлат таълим стандартлари асосида, турли даражалардаги таълим дастурларининг изчиллиги асосида таъминланади ва қуйидаги таълим турларини ўз ичига олади:
мактабгача таълим;
умумий ўрта таълим;
ўрта махсус, касб-ҳунар таълими;
олий таълим;
олий ўқув юртидан кейинги таълим;
кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш;
мактабдан ташқари таълим.
Кадрлар тайёрлаш миллий моделининг ўзига хос хусусияти мустақил равишдаги тўққиз йиллик умумий ўрта ҳамда уч йиллик ўрта махсус, касб-ҳунар таълимини жорий этишдан иборатдир. Бу эса, умумий таълим дастурларидан ўрта махсус, касб-ҳунар таълими дастурларига изчил ўтилишини таъминлайди.
Умумий таълим дастурлари: мактабгача таълим, бошланғич таълим (I-IV синфлар), умумий ўрта таълим (I-IX синфлар), ўрта махсус, касб-ҳунар таълимини қамраб олади.
Касб-хунар таълими дастурларини ўрта махсус, касб-ҳунар таълими, олий (бакалавриат, магистратура) таълим ва олий ўқув юртидан кейинги таълимни, кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлашни қамраб олади.
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ
Мактабгача таълим бола соғлом, ҳар томонлама камол топиб шаклланишини таъминлайди, унда ўқишга интилиш ҳиссини уйғотади, уни мунтазам таълим олишга тайёрлайди. Мактабгача таълим бола олти-етти ёшга етгунича давлат ва нодавлат мактабгача тарбия болалар муассасаларида ҳамда оилаларда амалга оширилади. Мактабгача таълим мақсади ва вазифаларини рўёбга чиқаришда маҳаллалар, жамоат ва хайрия ташкилотлари, халқаро фондлар фаол иштирок этади.
Мактабгача тарбияни ривожлантириш учун қуйидагиларни амалга ошириш лозим бўлади:
малакали тарбиячи ва педагог кадрларни устувор равишда тайёрлаш;
мактабгача таълимнинг самарали психологик-педагогик услубларини излаш ва жорий этиш;
болаларни оилада тарбиялашни ташкилий, психологик, педагогик ва услубий жиҳатдан таъминлаш;
замонавий ўқув-услубий қўлланмалар, техник воситалар, ўйинчоқлар ва ўйинлар яратиш ҳамда уларни ишлаб чиқариш;
мактабгача ёшдаги болаларни халқнинг бой маданий-тарихий мероси ва умумбашарий қадриятлар асосида маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш учун шарт-шароитлар яратиш;
мактабгача муассасаларнинг ҳар хил турлари учун турли вариантлардаги дастурларни танлаб олиш,
мактабгача тарбиянинг барча массалалари бўйича малакали консультация хизмати кўрсатиш имкониятини яратиш;
мактабгача тарбия ва соғломлаштириш муассасалари тармоғини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш механизмини ишлаб чиқиш.
УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ
Тўққиз йиллик (I-IX синфлар) ўқишдан иборат умумий ўрта таълим мажбурийдир. Таълимнинг бу тури бошланғич таълимни (I-IV синфлар) қамраб олади ҳамда ўқувчиларнинг фанлар асослари бўйича мунтазам билим олишларини, уларда билим ўзлаштириш эҳтиёжини, асосий ўқув-илмий ва умуммаданий билимларни, миллий ва умумбашарий қадриятларга асосланган маънавий-ахлоқий фазилатларни, меҳнат кўникмаларини, ижодий фикрлаш ва атроф-муҳитга онгли муносабатда бўлишни ва касб танлашни шакллантиради. Умумий ўрта таълим тугалланганидан кейин таълим фанлари ва улар бўйича олинган баҳолар кўрсатилган ҳолда давлат томонидан тасдиқланган намунадаги аттестат берилади.
Умумий ўрта таълимнинг янгича тизими ва мазмунини шакллантириш учун қуйидагилар зарур:
мактабнинг I-IX синфлари доирасида сифатли умумий ўрта таълим олишни таъминловчи давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш, бунда академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежларидан кейин олинадиган таълим дастурлари билан мантиқий боғлиқлик ҳисобга олиниши лозим;
юқори малакали педагог кадрлар тайёрлаш;
ҳудудларнинг жуғрофий ва демографик хусусиятларига, шахс, жамият ва давлатнинг эҳтиёжларига мувофиқ равишда таълим муассасалари тармоқларини ривожлантириш;
ўқувчиларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда таълимга табақалаштирилган ёндашувини жорий этиш;
таълим беришнинг илғор педагогик технологияларини, замонавий ўқув-услубий мажмуаларни яратиш ва ўқув-тарбия жараёнини дидактик жиҳатдан таъминлаш;
ўқувчилар касб-ҳунар танлайдиган ва психологик-педагогик жиҳатдан маслаҳатлар оладиган марказлар тармоқларини ташкил этиш.
ЎРТА-МАХСУС, КАСБ-ХУНАР ТАЪЛИМИ

Умумий ўрта таълим негизида ўқиш муддати уч йил бўлган мажбурий ўрта махсус, касб-ҳунар таълими узлуксиз таълим тизимидаги мустақил турдир. Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими йўналиши академик лицей ёки касб-ҳунар коллежи ўқувчилар томонидан ихтиёрий танланади.
Академик лицей давлат таълим стандартларига мувофиқ ўрта махсус таълим беради, ўқувчиларнинг имкониятлари ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда уларнинг жадал интеллектуал ривожланиши чуқур, соҳалаштирилган, табақалаштирилган, касбга йўналтирилган таълим олишини таъминлайди.
Академик лицейларда ўқувчилар ўзлари танлаб олган таълим йўналиши бўйича (гуманитар, техника, аграр ва бошқа соҳалар) билим савияларини ошириш ҳамда фанни чуқур ўрганишга қаратилган махсус касб-ҳунар кўникмаларини ўзларида шакллантириш имкониятига эга бўладилар. Бу кўникмаларни ўқишни муайян олий таълим муассасаларида давом эттириш ёки меҳнат фаолиятида рўёбга чиқаришлари мумкин.
Касб-ҳунар коллежи тегишли давлат таълим стандартлари доирасида ўрта махсус, касб-ҳунар таълими беради; ўқувчиларнинг касб-ҳунарга мойиллиги, билим ва кўникмаларини чуқур ривожлантириш, танлаб олинган касб-ҳунар бўйича бир ёки бир неча ихтисосни эгаллаш имконини беради.
Касб-ҳунар коллежлари жиҳозланганлик даражаси, педагогик таркибнинг танланганлиги, ўқув жараёнининг ташкил этилиши жиҳатидан янги типдаги таълим муассасалари ҳисобланади. Улар бир ёки бир неча замонавий касб-ҳунарни эгаллаш ҳамда тегишли ўқув фанларидан чуқур назарий билим олиш имконини беради.
Академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежларида таълим олиш ўқувчиларга ўз билимларини чуқурлаштириш ва танлаган ихтисосликларига эга бўлишни таъминлайди. Академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежларининг битирувчиларига давлат томонидан тасдиқланган намунадаги дипломлар берилади. Бу дипломлар таълимнинг кейинги босқичларида ўқишни давом эттириш ёки эгалланган ихтисос ва касб-ҳунар бўйича меҳнат фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини беради.
Ўрта махсус, касб-ҳунар таълимини ташкил этиш ва ривожлантириш учун қуйидагилар зарур:
академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежлари фаолият кўрсатишининг норматив базаларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;
соҳа учун олий таълим муассасаларининг, ишлаб чиқариш, фан ва маданият соҳасининг мутахассисларини жалб этган ҳолда юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш ва қайта тайёрлашни, шу жумладан чет элларда тайёрлаш ва қайта тайёрлашни ташкил этиш;
ўрта махсус, касб-ҳунар таълими давлат стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;
ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқув муассасалари учун таълим ва касб-ҳунар дастурлари, ўқув-услубий мажмуалар ишлаб чиқиш;
академик лицейларнинг ўқувчилари меҳнат фаолияти кўникмаларини эгаллашлари учун ихтисослаштирилган дастурлар ишлаб чиқиш ва жорий этиш;
касб-ҳунар коллежларида тайёрланадиган мутахассисларга нисбатан ихтисос ва касб-ҳунар, малака талабларининг рўйхатини ишлаб чиқиш;
ҳудудларнинг жуғрофий ва демографик шарт-шароитларини ва тегишли соҳадаги мутахассисларга бўлган маҳаллий эҳтиёжларни ҳисобга олган ҳолда ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизими таълим муассасаларининг ташкил этилишини ва улар оқилона жойлаштирилишини таъминлаш, уларга ўқувчиларни имкон қадар оиласидан ажратмаган ҳолда қамраб олиш;
академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежларининг моддий-техника ва ахборот базаларини мустаҳкамлаш.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ

Олий таълим ўрта махсус, касб-ҳунар таълими негизига асосланади ҳамда икки (бакалавриат ва магистратура) босқичга эга.
Олий таълим муассасаларига талабалар қабул қилиш давлат грантлари негизида ва пуллик-шартномавий асосда амалга оширилади.
Бакалавриат мутахассисликлар йўналиши бўйича фундаментал ва амалий билим берадиган, таълим муддати камида тўрт йил давом этадиган таянч олий таълимдир.
Бакалаврлик дастури тугалланганидан сўнг битирувчиларга давлат аттестацияси якунларига биноан касб бўйича “бакалавр” даражаси берилади ва давлат томонидан тасдиқланган намунадаги, касб-ҳунар фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини берадиган диплом топширилади.

Магистратура аниқ мутахассислик бўйича фундаментал ва амалий билим берадиган, бакалавриат негизида таълим муддати камида икки йил давом этадиган олий таълимдир.
«Магистр» даражасини берадиган давлат малака аттестацияси магистрлик дастурининг интиҳосидир.
Магистрларга давлат томонидан тасдиқланган намунадаги, касб-ҳунар фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини берадиган диплом топширилади.
Икки босқичли олий таълим тизимини ташкил этиш ва ривожлантириш учун қуйидагиларни амалга ошириш зарур:
бакалавриат ва магистратура учун давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;
олий таълим муассасалари учун профессор-ўқитувчи кадрлар тайёрлаш, шу жумладан чет эллардаги етакчи ўқув ва илмий марказларда тайёрлаш;
олий таълим муассасаларида таркибий ўзгартишлар ўтказиш;

олий таълим муассасалари бошқарувини такомиллаштириш, бу муассасаларнинг мустақиллигини кучайтириш, муассислар, васийлар кенгашлари, жамоат назорат кенгашлари шаклидаги жамоат бошқарувини жорий этиш;
таълимнинг фан ва ишлаб чиқариш билан интеграцияси таъсирчан механизмларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш;
ўқишни, мустақил билим олишни индивидуаллаштириш ҳамда дистанцион таълим тизими технологияси ва воситаларини ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш;
янги педагогик ва ахборот технологиялари, тайёргарликнинг модул тизимидан фойдаланган ҳолда талабаларни ўқитишни жадаллаштириш;
халқнинг бой маънавий ва интеллектуал мероси ва умумбашарий қадриятлар асосида таълимнинг инсонпарварлик йўналишини таъминлаш.

ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТИДАН КЕЙИНГИ ТАЪЛИМ

Олий ўқув юртидан кейинги таълим жамиятнинг олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларга бўлган эҳтиёжларини қондиришга, шахснинг ижодий таълим-касб-ҳунар манфаатларини қаноатлантиришга қаратилган.
Олий ўқув юртидан кейинги таълимни олий ўқув юртларида ва илмий-тадқиқот муассасаларида (аспирантура, адъюнктура, докторантура, мустақил тадқиқотчилик) олиш мумкин. Олий ўқув юртидан кейинги таълим босқичлари (аспирантура, докторантура) диссертация ҳимояси билан якунланади. Якуний давлат аттестацяси натижаларига кўра тегишли равишда фан номзоди ва фан доктори илмий даражаси берилиб, давлат томонидан тасдиқланган намунадаги дипломлар топширилади.
Олий ўқув юртидан кейинги таълимни қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш тадбирлари қуйидагиларни ўз ичига олади:
«Таълим тўғрисида»ги Қонунга ҳамда мамлакатни ижтимоий ва иқтисодий ривожлантириш истиқболларига мувофиқ олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларни тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимини такомиллаштириш;
касб таълими тизими учун олий малакали илмий-педагог кадрларни ҳамда илғор педагогик технологиялар соҳасида илмий кадрларни устувор равишда тайёрлаш;
ривожланган мамлакатларнинг илғор таълим муассасалари ва илмий марказларида устувор йўналишлар бўйича олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрланиши учун шароитлар яратиб бериш;
фан, технология ва таълим соҳасида ривожланган мамлакатлар билан халқаро ҳамкорликни чуқурлаштириш.

КАДРЛАР МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ВА УЛАРНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ

Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш мутахассисларнинг касб билимлари ва кўникмаларини янгилаш ҳамда чуқурлаштиришга қаратилган. Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш таълим муассасаларидаги ўқиш натижаларига кўра давлат томонидан тасдиқланган намунадаги гувоҳнома ёки сертификат топширилади.
Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тизимини ташкил этиш ва ривожлантириш учун қуйидагилар зарур:
кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тизими фаолиятида янгича таркиб, мазмун ҳамда бу тизимни бошқаришни шакллантириш;
юқори малакали ўқитувчи-мутахассис кадрлар тайёрлаш ва соҳани улар билан тўлдириб боришни таъминлаш;
кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тизимининг бу соҳада рақобатга асосланган муҳитни шакллантиришни ва самарали фаолият олиб боришни таъминловчи норматив базасини яратиш;
кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш таълим муассасаларини давлат аттестацияси ва аккредитациясидан ўтказиш тизимини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш;
иқтисодиётнинг давлат ва нодавлат секторлари, мулкчиликнинг турли шаклидаги ташкилот ва муассасаларнинг талаб-эҳтиёжларига мувофиқ кадрлар ва мутахассисларни илдам қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни таъминловчи давлат ва нодавлат таълим муассасаларини ташкил этиш ва ривожлантиришга кўмаклашиш;
профессионал тренингнинг илғор технология ва ускуналарини, шунингдек мураккаб, фан ютуқларини талаб қилувчи технология жараёнлари имитаторларини ишлаб чиқиш, яратиш ва амалий ўзлаштириб олиш.

МАКТАБДАН ТАШҚАРИ ТАЪЛИМ

Болалар ва ўсмирларнинг таълимга бўлган, якка тартибдаги, ортиб борувчи талаб-эҳтиёжларини қондириш, уларнинг бўш вақтини ва дам олишини ташкил этиш учун давлат органлари, жамоат ташкилотлари, шунингдек бошқа юридик ва жисмоний шахслар маданий эстетик, илмий, техникавий, спорт ва бошқа йўналишларда мактабдан ташқари давлат ва нодавлат таълим муассасаларини ташкил этадилар.
Мактабдан ташқари таълимни ривожлантириш, унинг тузилмаси ва мазмун-мундарижасини такомиллаштириш вазифаларини ҳал этиш учун қуйидагиларни амалга ошириш керак:
таълим бериш ва камол топтиришга йўналтирилган хизматлар кўрсатувчи муассасалар тармоғини кенгайтириш ва бундай хизматлар турларини кўпайтириш;

миллий педагогик қадриятларга асосланган ва жаҳондаги илғор тажрибани инобатга олувчи дастурлар ва услубий материаллар ишлаб чиқиш;
ўқувчиларнинг бўш вақтини ташкил этишнинг, шу жумладан оммавий спорт ва жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг, болалар туризмининг, халқ ҳунармандчилигининг мавжуд турлари ва шаклларини такомиллаштириш, миллий турлари ва шаклларини тиклаш ҳамда амалиётга жорий этиш.

3.4. КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИДА ФАН

Кадрлар тайёрлаш миллий модели салмоқли элемент сифатида фанни ўз ичига олади, бу соҳада:
табиат ва жамият тараққиёти қонуниятлари тўғрисидаги янги фундаментал ва амалий билимлар шаклланади, кадрлар тайёрлаш тизимида оммалаштириш, ўрганиш ва фойдаланиш учун керакли илмий натижалар жамланади;
олий малакали илмий ва педагог кадрлар тайёрлаш амалга оширилади;
кадрлар тайёрлаш жараёнини илмий-тадқиқот жиҳатидан таъминлаш инфраструктураси вужудга келтирилади, таълимнинг ахборот тармоқларида фойдаланиш мақсадида билимнинг турли соҳалари бўйича ахборот базаси шакллантирилади;
мамлакатимиз илм-фанининг жаҳон илм-фанига интеграцияси содир бўлади, замонавий илм-фан ва технологияларнинг энг муҳим муаммоларини ҳал этиш учун илмий ютуқлар ва кадрларни халқаро миқёсда алмашинув амалга оширилади.

Кадрлар тайёрлаш тизимига илм-фаннинг узвий равишда кириб бориши учун қуйидагилар зарур:
илғор педагогик технологияларни яратиш ва ўзлаштириш юзасидан мақсадли инновация лойиҳаларини шакллантириш ва амалга ошириш йўли билан илм-фаннинг таълим амалиёти билан алоқасини таъминлаш чора-тадбиларини ишлаб чиқиш;
илғор ахборот ва педагогик технологияларни жорий этиш учун экспериментал майдончалар барпо этиш орқали илмий тадқиқотлар натижаларини ўқув-тарбия жараёнига ўз вақтида жорий этиш механизмини рўёбга чиқариш;

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини самарали тарзда бажаришни таъминлаш юзасидан илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш;
юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, ёшларнинг илмий ижодиётини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш;
таълим муассасаларида илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик ишлар даражасини баҳолашга замонавий ёндашувни рўёбга чиқариш, илмий тадқиқотлар ва технологик ишланмалар натижалари тижоратлашуви асосида олимларнинг обрў эътибори ва ижтимоий мақомини ошириш;
мамлакат илм-фанининг халқаро илмий ҳамжамиятга интеграциясини фаоллаштириш, таълим соҳаси ва кадрлар тайёрлашни такомиллаштириш мақсадида илмий ютуқлар ва олимлар билан ўзаро алмашинув жараёнини кучайтириш;
фан ва технологиялар соҳасидаги фаолиятни маънавий ва моддий рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш, талабалар ва ёш олимларнинг илмий ютуқлари учун махсус мукофотлар ва совринлар таъсис этиш, махсус стипендиялар сонини кўпайтириш, ёшлар илмий-техника ижодиётининг доимий ишлайдиган кўргазма ва экспозицияларини ташкил этиш.

3.5. КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ

Ишлаб чиқаришнинг талаб-эҳтиёжлари кадрлар тайёрлаш тизимининг йўналиши, даражаси ва миқёсларини шакллантиради, касб тайёргарлигининг мақсади, вазифалари ва мазмунини белгилайди, малака талабларини илгари суради, таълимнинг мувозий технологиялари ва шаклларини танлашни тақозо этади. Ишлаб чиқариш пировард натижада кадрларнинг сифати ва рақобатбардошлигига баҳо беради.

Ишлаб чиқаришнинг кадрлар тайёрлаш тизимидаги вазифалари қуйидагилар билан белгиланади, чунончи у:
турли савия ва малакадаги мутахассисларга бўлган талаб-эҳтиёжни шакллантиради;
ўз ихтиёридаги моддий-техника, молия, кадр ресурслари ҳамда кадрларни ўқитиш, малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш учун зарур бошқа ресурсларни бериш билан узлуксиз таълим тизимига кўмаклашади;
муассис, васий, донор, ҳомий тариқасида айрим мутахассисларни ва гуруҳларни мақсадли тайёрлашни, шунингдек турли тип ва даражадаги ўқув юртларини молиялашда қатнашади;
таълим ва илм-фаннинг турли шакллардаги интеграциясини (муваққат ижодий жамоалар, ўқув-илмий-ишлаб чиқариш мажмуалари, марказлари, технопарклар, технополислар) ривожлантиради.

Ишлаб чиқаришнинг кадрлар тайёрлаш тизимидаги мавқеини кучайтириш қуйидаги йўллар билан таъминланади:
таълимни кархонадаги унумли меҳнат билан, шу жумладан ишлаб чиқариш амалиёти жараёнидаги меҳнат билан қўшиб олиб бориш асосида юқори малакали кадрлар тайёрлаш;
кадрлар тайёрлаш ҳамда биргаликда илмий-технология ишланмаларини олиб боришда корхоналарнинг ишлаб чиқариш салоҳиятидан фойдаланиш;
таълим олувчиларни меҳнат жамоаларида тарбиялаш (меҳнат, маънавий ва жисмоний тарбиялаш);
ишлаб чиқаришнинг талаб-эҳтиёжларини инобатга олиб, техника ва технологияларни ривожлантиришнинг янги йўналишлари бўйича кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш;
ишлаб чиқаришнинг иқтисодий ва технология муаммоларини ҳал этиш учун олий таълим муассасалари ва илмий ташкилотларнинг илмий салоҳиятини жалб этиш;

педагог кадрларнинг илғор технологиялар соҳасидаги малакасини бевосита ишлаб чиқаришда мунтазам ошириб бориш;
ишлаб чиқаришнинг юқори малакали кадрларини таълим жараёнига ва педагогик фаолиятга жалб этиш;
ишлаб чиқариш амалиётини ўтиш учун таълим олувчиларни иш жойлари билан таъминлаш;
ўзаро интеграцияланган таълим муассасаларини замонавий ускуналар, аппаратлар ва асбоблар билан жиҳозлаш.

4. КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Кадрлар тайёрлаш тизимини шакллантириш ва ривожлантириш қуйидаги устувор йўналишларни қамраб олади:

4.1. ТАЪЛИМНИНГ УЗЛУКСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ

Таълимнинг ўз ичига мактабгача таълим, умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимини қамраб олувчи янги узлуксиз ва изчил тизими барпо этилади. Олий касб-ҳунар таълимининг бакалаврлар ва магистрлар тайёрлашни назарда тутувчи икки босқичли тизими жорий этилади. Аспирантура ва докторантура фаолияти ривожланиб боради. Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш бўйича рақобатбардош таълим муассасалари вужудга келтирилади.

Таълим муассасаларини ҳудудий йўналишга ўтказиш ва таркибий тузилмасини ўзгартириш иши амалга оширилади. Узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш ва унинг самарадорлигини баҳолаш мониторинги амалга оширилади.

Узлуксиз таълим тизими учун педагог кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш устуворлиги таъминланади.

4.2. ПЕДАГОГ ВА ИЛМИЙ-ПЕДАГОГ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ, ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ

Педагог кадрларнинг малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлашнинг замон талабларига мослашувчан, таълимнинг юқори сифатли ва барқарор ривожланишини кўзловчи тизими вужудга келтирилади. Педагог кадрларни илдам қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, рақобатбардош даражада уларнинг касб сифатини қўллаб-қувватлаш таъминланади.

Олий таълим муассасаларида давлат таълим стандартларига мос юқори малакали ўқитувчилар тайёрлаш бўйича махсус факультетлар, шунингдек республика вилоятларида умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими учун ўқитувчилар ва мутахассислар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш юзасидан махсус марказлар ташкил этилади.

4.3. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ МАЗМУНАН ИСЛОҲ ҚИЛИШ

Кадрларни ўқитиш ва тарбиялаш миллий тикланиш принциплари ва мустақиллик ютуқлари, халқнинг бой миллий, маънавий ва интеллектуал салоҳияти ҳамда умумбашарий қадриятларга таянган, инсонпарварликка йўналтирилган таълимнинг мазмуни давлат таълим стандартлари асосида ислоҳ қилинади. Таълим олувчининг шахсига, унда таълим ва билимларга бўлган иштиёқни кучайтиришга, мустақил иш тутишни, ифтихор ва инсоний қадр-қиммат туйғусини шакллантиришга алоҳида эътибор берилади.

Педагог кадрларнинг обрў-эътибори, масъулияти ва касб кўникмасини ошириш юзасидан собитқадам давлат сиёсати олиб борилади. Илғор педагогик технологиялар, таълимнинг янги шакл ва услублари, ўқув, шу жумладан дифференциялашган дастурлар амалиётга жорий этилади.

4.4. МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ВА МАЪРИФИЙ ИШЛАР

Ёш авлодни маънавий-ахлоқий тарбиялашда халқнинг бой миллий маданий-тарихий анъаналарига, урф-одатлари ҳамда умумбашарий қадриятларга асосланган самарали ташкилий, педагогик шакл ва воситалари ишлаб чиқилиб, амалиётга жорий этилади. Шахсни тарбиялаш ва уни ҳар томонлама камол топтиришнинг устуворлиги таъминланади. Умумий ҳамда педагогик маданиятни ошириш мақсадида, мамлакат аҳолиси орасидаги маърифий ишлар такомиллаштириб борилади.

Ўзбекистон мустақиллиги принципларига садоқатли ҳамда жамият тараққиётига муносиб ҳисса қўшишга қодир шахсни шакллантириш мақсадида таълим муассасалари ота-оналар, оила, маҳалла қўмиталари, Республика Маънавият тарғибот маркази, Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази, жамоат ташкилотлари, фондлар билан ўзаро пухта ҳамкорлик қиладилар.

(4.4-бандининг иккинчи хатбоши Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 9 апрелдаги ЎРҚ-87-сонли Қонуни таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2007 й., 15-сон, 150-модда)

4.5. ИҚТИДОРЛИ БОЛАЛАР ВА ИСТЕЪДОДЛИ ЁШЛАР

Иқтидорли болалар ва истеъдодли ёшларни аниқлаш ва ўқитиш услубияти, психологик-педагогик ва ташкилий шароитлари яратилади, бундай болалар ва ёшларга оид маълумотларнинг республика банки ва мониторинги шаклланади. Махсус ўқув дастурлари ва прогрессив педагогик технологиялар ишлаб чиқиш учун энг яхши педагог ва олимлар жалб қилинади, ўқув-тарбия жараёнида уларнинг фаол иштироки таъминланади. Фан ва техникани, сиёсат ва иқтисодиётни, маданият ва санъатни ўргатиш марказлари қабилидаги ҳамда миллий (элита) таълим муассасалари ташкил этилади.

Иқтидорли болалар ва истеъдодли ёшларни чет элларда умумий ва касбий жиҳатдан тайёргарликдан ўтказишга қаратилган собитқадам фаолият амалга оширилади. Академик лицейларнинг ўқувчиларига, биринчи навбатда иқтидорли, юксак истеъдод соҳибларига, билимнинг тегишли соҳалари ва фаннинг аниқ йўналишлари бўйича ўз табиий қобилиятларини намоён этиш ва ривожлантириш, ўзларидаги ноёб истеъдодни рўёбга чиқариш учун кенг имкониятлар яратилади.

4.6. ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШ

Узлуксиз таълим тизими ва кадрлар тайёрлашнинг давлат ва нодавлат таълим муассасаларини таркибий жиҳатдан ўзгартириш ва уларни изчил ривожлантириш давлат йўли билан бошқариб борилади. Барча даражадаги таълим бошқарув органларининг ваколат доиралари «Таълим тўғрисида»ги Қонунга мувофиқ белгиланади. Таълимнинг норматив-ҳуқуқ базаси ривожлантирилади. Молия-хўжалик фаолияти олиб бориш ҳамда таълим жараёнини ташкил этишда ўқув юртларининг ҳуқуқлари кенгаяди ва мустақиллиги таъминланади. Таълим муассасалари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланган тартибда аттестациядан ўтказилади ҳамда аккредитацияланади. Аккредитация якунларига кўра таълим соҳасида фаолият кўрсатиш ҳуқуқи берилади.

Муассис ташкилотларнинг, маҳаллий ҳокимият органларининг, савдо-саноат доираларининг, жамоат ташкилотларининг, фондларнинг ва ҳомийларнинг вакилларини ўз ичига олувчи васийлик ва кузатув кенгашлари тузиш орқали таълим муассасаларининг самарали жамоат бошқаруви тизими жорий этилади.

4.7. КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМИ СИФАТИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Таълим бошқаруви органларига боғлиқ бўлмаган, касб-ҳунар таълими сифатини аттестациядан ўтказувчи давлат хизмати ташкил этилади. Мамлакатни иқтисодий ва ижтимоий ривожлантиришнинг истиқбол талабларига монанд давлат таълим стандартлари ишлаб чиқилади, ўқув юртлари фаолиятини, профессор-педагог кадрлар сифатини ҳамда таълим олувчиларнинг билимини рейтинг асосида баҳолаш тизими тадбиқ этилади. Кадрларни тайёрлаш сифатини назорат қилишнинг давлат ва жамоат шакллари ривожлантирилади. Таълим муассасалари битирувчиларини якуний аттестациялаш тизими такомиллаштирилади.

4.8. ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОЛИЯЛАШ

Таълимни ва кадрлар тайёрлашни молиялаш тизими такомиллаштирилади, унинг кўп вариантли (бюджетдан ажратиладиган ва бюджетдан ташқари манбалардан) тизими жорий этилади, таълим муассасаларининг ўзини ўзи пул билан таъминлаши ривожлантирилади, хусусий ҳамда чет эл инвестицияларини таълим соҳасига жалб этиш рағбатлантирилади.

Республика фуқаролари учун кейинчалик уларни тўлашнинг мослашувчан тизимига асосланган таълим кредитлари бериш механизми шакллантирилади. Узлуксиз таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимини моддий жиҳатдан қўллаб-қувватлашда донорлар ва ҳомийларнинг мавқеи кучайиб боради.

Пуллик таълим хизматлари кўрсатиш, тадбиркорлик, маслаҳат, эксперт, ноширлик, ишлаб чиқариш, илмий ҳамда уставда белгилаб қўйилган вазифаларга мувофиқ бошқа тарздаги фаолият ҳисобидан таълим муассасаларининг даромадлари кўпайиши таъминланади.

4.9. МОДДИЙ-ТЕХНИКА ТАЪМИНОТИ

Ҳар бир минтақанинг демографик ва жуғрофий хусусиятларидан келиб чиқиб, академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари тармоғи барпо этилади. Таълим олувчиларни оиладан ажралмаган ҳолда ўқишга имкон қадар кўпроқ қамраб олинади.

Мавжуд таълим муассасаларини капитал таъмирлаш ва янги таълим муассасалари қуриш, уларни норматив талабларга мувофиқ, замонавий техника ва технологияларнинг даражасини ҳисобга олган ҳолда жиҳозланишини таъминлаш чоралари кўрилади.

Ўқув-тарбия муассасаларини зарур ускуналар, инвентарлар, ашёлар, таълимнинг техникавий, дастурий ва дидактик воситалари билан жиҳозлаш юзасидан ихтисослаштирилган ишлаб чиқаришларни вужудга келтириш қўллаб-қувватланади. Барча босқичдаги таълим жараёнларини компьютерлаштириш ва ахборотлаштириш амалга оширилади.

4.10. ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЯХЛИТ АХБОРОТ МАКОНИНИ ВУЖУДГА КЕЛТИРИШ

Замонавий ахборот технологиялари, компьютерлаштириш ва компьютерлар тармоқлари негизида таълим жараёнини ахборот билан таъминлаш ривожланиб боради. Таълим жараёнида оммавий ахборот воситаларининг мавқеи ошиб боради, телевидение ва радионинг таълим дастурлари интеллектуаллашуви таъминланади. Фан ва таълимнинг нашриёт базаси ривожлантирилади, ўқув, ўқув-услубий, илмий, қомусий адабиётлар ва маълумотномалар билан таъминлашнинг барқарор тизими шакллантирилади.

4.11. ТАЪЛИМ ХИЗМАТИ КЎРСАТИШ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Таълим ва кадрлар тайёрлаш соҳасида маркетингни ривожлантириш йўли билан таълим хизмати кўрсатишнинг рақобатга асосланган бозори шакллантирилади. Давлат ва нодавлат таълим муассасалари ривожлантирилади, таълим ва кадрлар тайёрлаш соҳасида рақобатга асосланган муҳит вужудга келтирилади, таълим хизмати кўрсатиш бозори давлат йўли билан бошқариб борилади. Асосий таълим дастурларида назарда тутилмаган консультатив ва қўшимча таълим хизматларидан иборат пуллик таълим хизмати кўрсатиш тизими ривожлантирилади.

4.12. ТАЪЛИМ СОҲАСИДА ИЖТИМОИЙ КАФОЛАТЛАРНИ ТАЪМИНЛАШ ҲАМДА БУ СОҲАНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

Педагогик фаолиятнинг обрў-эътиборини ва ижтимоий мақомини ошириш юзасидан давлат сиёсати рўёбга чиқарилади. Таълим олувчиларнинг ва педагогларнинг ўқиши, соғлиги ва дам олиши учун зарур шароитлар яратилади.

Таълим муассасалари ва соғлиқни сақлаш органлари болалар ҳамда ўқувчи ёшларнинг соғлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш учун зарур чораларни кўрадилар. ўқув-тарбия жараёнининг соғломлаштиришга қаратилган йўналишини рўёбга чиқариш, соғлом турмуш тарзи нормаларини жорий этиш учун шароитлар

таъминланади. Таълим олувчиларнинг тиббий-гигиена маданиятини ошириш, уларнинг жисмоний тарбия ва спорт бобидаги фаоллигини кучайтириш ҳамда жисмоний камолот даражасини ошириш учун ташкилий-услубий ёндашувлар такомиллаштирилади. Соғлиқ ва ривожланишида нуқсони бўлган болалар учун муносиб муҳит яратилади.

4.13. ФАН БИЛАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ АЛОҚАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Таълим ва кадрлар тайёрлаш соҳасида илғор амалий илмий тадқиқотлар ўтказилади, таълим сифати давлат таълим стандартларига мувофиқ келишини ташкил этиш ва таъминлаш мақсадида педагогика ва таълим соҳасида илмий тадқиқотлар ва илмий-услубий қўлланмалар ишлаб чиқиш фаоллаштирилади. Фундаментал ва амалий фан соҳасидаги илмий кадрларнинг таълим жараёнидаги иштироки рағбатлантирилади, педагогик ва илмий-тадқиқот жараёнларининг алоқаси таъминланади. Ёшларнинг фан-техника соҳасидаги ижодкорлиги ҳар томонлама қўллаб-қувватланади.

4.14. ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Ўқув-ишлаб чиқариш мажмуаларини (марказларини) ташкил этиш ва уларни ривожлантириш, замонавий ускуналар, аппаратлар ва асбоблар билан жиҳозлаш рағбатлантирилади. Кадрлар тайёрлаш ва биргаликдаги илмий-технологик ечимлар яратишда корхоналарнинг ишлаб чиқариш салоҳиятидан самарали фойдаланилади. Ишлаб чиқаришда кадрлар тайёрлаш қўллаб-қувватланади. Илғор технология соҳасида педагог кадрларнинг малакаси бевосита ишлаб чиқаришда мунтазам равишда ошириб борилади.

4.15. ТАЪЛИМ ВА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ СОҲАСИДАГИ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК

Кадрлар тайёрлаш соҳасидаги ҳамкорликнинг халқаро-ҳуқуқий базаси яратилади, халқаро ҳамкорликнинг устувор йўналишлари рўёбга чиқарилади, халқаро таълим тизимлари ривожлантирилади, илмий-педагог кадрлар, талабалар ва ўқувчилар алмашиш кенгаяди. Таълим тўғрисидаги миллий ҳужжатлар халқаро миқёсда эътироф этилиши учун асос яратилади. Манфаатдор вазирликлар ва идораларнинг, Ўзбекистон Республикасининг чет эллардаги элчихоналарининг кадрлар тайёрлаш соҳасига чет эл инвестицияларини бевосита ва билвосита кенг жалб қилиш борасидаги фаолият кучайтирилади.

5. МИЛЛИЙ ДАСТУРНИ РЎЁБГА ЧИҚАРИШГА ДОИР ТАШКИЛИЙ ЧОРА-ТАДБИРЛАР

Миллий дастурни амалга ошириш мақсадида:

Миллий дастурнинг йўналиш ва босқичларини амалга оширишнинг аниқ механизмлари, муддатлари, ижрочилари, молиявий ва ресурслар таъминоти ифодаланган ечим ва чора-тадбирлар тизими ишлаб чиқилади;

Миллий дастурни бажариш юзасидан давлат ва жамоат институтларининг фаолияти ҳамда вазифалари белгиланади;

Миллий дастурнинг аниқ йўналишларини ишлаб чиқиш жараёнига малакали чет эл экспертлари жалб этилади;

Миллий дастурни бажаришда давлат ва нодавлат ташкилотлар фаолияти мувофиқлаштирилиб, халқаро ташкилотлар қатнашуви ташкил этилади;

Миллий дастурнинг мониторинги ва бажарилишини экспертиза қилиш асосида унинг айрим қоидалари ва тадбирларига тузатишлар киритилади;

оммавий ахборот воситаларини жалб этган ҳолда, кадрлар тайёрлаш миллий модели рўёбга чиқарилишини таъминлаш масалалари юзасидан семинарлар ва конференциялар ўтказиш орқали Миллий дастурнинг принципиал ёндашувлари ҳамда асосий қоидаларини кенг кўламда тушунтириш ишлари олиб борилади;

Миллий дастурнинг мақсад ва вазифаларини амалга ошириш жараёнига жамоат бирлашмалари ва марказлари, республика аҳолиси кенг табақаларининг фаол иштироки таъминланади;

оммавий ахборот воситаларида Миллий дастурнинг бажарилиши мунтазам ёритиб борилади.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга ошириш юзасидан Республика комиссияси ташкил этилади, бу Комиссиянинг зиммасига дастурни бажаришга доир барча ишлар ва тадбирларни ташкил этиш ҳамда мувофиқлаштириш, шу жумладан қуйидаги вазифалар юкланади:

узлуксиз таълимнинг тегишли турлари учун давлат таълим стандартларига қўйиладиган умумий талабларни ишлаб чиқиш;

умумий ўрта таълим учун давлат таълим стандартларини ва бошқа зарур норматив ҳужжатларни ишлаб чиқиш;

ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизими учун давлат таълим стандартларини, академик лицей ва касб-ҳунар коллежларидан иборат таълим тизимини жорий этиш дастурларини ишлаб чиқиш;

ўрта умумий таълимга эга бўлган ўқувчиларни академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари тизими билан тўла қамраб олиш тадбирларини, бу тизимни ҳудудларнинг демографик, жуғрофик хусусиятлари ва кадрларга бўлган эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда жойлаштириш, унинг моддий-техника асосини яратиш;

академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида ишлайдиган ўқитувчилар ва педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш учун таълим муассасаларини ташкил этиш ҳамда уларнинг самарали ишлашини таъминлаш;

олий таълим муассасалари тизимини Миллий дастур талабларига биноан ислоҳ қилиш, бу борада тегишли давлат таълим стандартларини яратиш ва жорий этиш;

мактабгача таълим ва тарбия муассасалари фаолиятини такомиллаштириш, болалар тарбиясида ва уларни мактабга тайёрлашда оила, маҳалла ҳамда жамоат ташкилотларининг масъулиятини ошириш;

таълим муассасаларини зарур дарсликлар ва адабиётлар билан таъминлаш, бу ишга йирик олимлар, юқори малакали мутахассисларни жалб этиш, таълим ва илм-фан соҳасининг нашриёт базасини ривожлантириш;
профессор ва педагог кадрларни ривожланган мамлакатлардаги етакчи таълим муассасаларида тайёрлаш ва малакасини ошириш мақсадида махсус Республика жамғармаси ташкил этиш ва унинг фаолиятини таъминлаш;
узлуксиз таълим тизимида чет тилларни фаол ўргатиш учун зарур шароит яратиш, уларни ўргатишнинг жадаллаштирилган услубларини жорий этиш, ўзбекча-чет тиллар луғатларини, давлат тилидаги махсус адабиётларни нашр этиш;
узлуксиз таълим соҳаси ўқитувчилари ва педагог кадрларини ижтимоий ҳимоя қилиш ва қўллаб-қувватлаш, уларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш ва рағбатлантириш тизимини қайта кўриб чиқиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш;
таълим муассасаларини аттестациядан ўтказиш ва аккредитациялаш, кадрлар тайёрлашнинг малака талабларини аниқлаш ҳамда сифатини баҳолаш ишларини ташкил қилиш ва мувофиқлаштириш бўйича таълим тизими бошқарувига боғлиқ бўлмаган ягона давлат хизматини ташкил этиш;
таълимни ахборот билан таъминлаш тизимини шакллантириш ва ривожлантириш, уни жаҳон ахборот тизими билан боғлаш, оммавий ахборот воситаларининг таълим соҳасидаги вазифаларини белгилаш;
касб-ҳунар таълими соҳасида кадрларга бўлган талаб ва таклифни ўрганишни ташкил этиш, таълим хизмати кўрсатиш ва касбий меҳнатнинг рақобатга асосланган бозорини ҳамда кадрлар тайёрлаш соҳасида маркетингни шакллантириш.

Мундарижа

«ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИ ВА ДИНИЙ ТАШКИЛОТЛАР ТЎҒРИСИДА»ГИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНИГА ЎЗГАРТИШЛАР ВА ҚЎШИМЧАЛАР КИРИТИШ ҲАҚИДА
1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади
2-модда. Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатлари
3-модда. Виждон эркинлиги ҳуқуқи
4-модда. Фуқароларнинг динга муносабатидан қатъи назар тенг ҳуқуқлилиги
5-модда. Диннинг давлатдан ажратилганлиги
6-модда. Давлат органларининг ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг диний ташкилотлар билан ўзаро муносабат борасидаги ваколатлари
7-модда. Таълим тизими ва дин
8-модда. Диний ташкилотлар
9-модда. Диний ўқув юртлари
10-модда. Диний ташкилотнинг устави
11-модда. Диний ташкилотларни рўйхатга олиш
12-модда. Диний ташкилотни рўйхатга олишни рад этиш
13-модда. Диний ташкилотнинг фаолиятини тугатиш
14-модда. Диний урф-одатлар ва маросимлар
15-модда. Диний ташкилотларнинг мулки
16-модда. Давлат мулки бўлган мол-мулкдан фойдаланиш
17-модда. Ишлаб чиқариш ва хўжалик фаолияти

18-модда. Фаолиятини тугатган диний ташкилотларнинг мол-мулкини тасарруф этиш
19-модда. Диний адабиёт ва диний мақсадларга мўлжалланган буюмлар
20-модда. Диний ташкилотларнинг хайрия фаолияти
21-модда. Диний ташкилотларда меҳнатга оид ҳуқуқий муносабатлар
22-модда. Диний ташкилотларнинг халқаро алоқалари
23-модда. Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик Текст акта по состоянию на 01.01.2009 г. 00 ч.

Ўзбекистон Республикасининг қонуни

«ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИ ВА ДИНИЙ ТАШКИЛОТЛАР ТЎҒРИСИДА»ГИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНИГА ЎЗГАРТИШЛАР ВА ҚЎШИМЧАЛАР КИРИТИШ ҲАҚИДА

(Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 99-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 52-сон, 513-модда)

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси қарор қилади:

Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 14 июнда қабул қилинган «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 йил, № 8, 186-модда; 1993 йил, № 9, 334-модда) ўзгартиш ва қўшимчалар киритилиб, унинг янги таҳрири тасдиқлансин (илова қилинади).

Ўзбекистон Республикасининг Президенти И. КАРИМОВ

Тошкент ш.,
1998 йил 1 май,
618-I-сон

Ўзбекистон Республикасининг қонуни

ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИ ВА ДИНИЙ ТАШКИЛОТЛАР ТЎҒРИСИДА

(янги таҳрири)

1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади

Ушбу Қонуннинг мақсади ҳар бир шахснинг виждон эркинлиги ва диний эътиқод ҳуқуқини, динга муносабатидан қатъи назар, фуқароларнинг тенглигини таъминлаш, шунингдек диний ташкилотларнинг фаолияти билан боғлиқ муносабатларни тартибга солиб туришдан иборат.

2-модда. Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатлари

Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатлари Ўзбекистон Республикаси Конституциясидан, ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборат.

Қорақалпоғистон Республикасида виждон эркинлигини ва диний ташкилотлар фаолиятини таъминлашга оид муносабатлар, шунингдек Қорақалпоғистон Республикасининг қонун ҳужжатлари билан ҳам тартибга солинади.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларидагидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

3-модда. Виждон эркинлиги ҳуқуқи

Виждон эркинлиги фуқароларнинг ҳар қандай динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қандай динга эътиқод қилмасликдан иборат кафолатланган конституциявий ҳуқуқидир.

Фуқаро ўзининг динга, динга эътиқод қилишга ёки эътиқод этмасликка, ибодат қилишда, диний расм-русумлар ва маросимларда қатнашиш ёки қатнашмасликка, диний таълим олишга ўз муносабатини белгилаётган пайтда уни у ёки бу тарзда мажбур этишга йўл қўйилмайди.

Вояга етмаган болаларни диний ташкилотларга жалб этиш, шунингдек уларнинг ихтиёрига, ота-оналари ёки уларнинг ўрнини босувчи шахслар ихтиёрига зид тарзда динга ўқитишга йўл қўйилмайди.

Динга эътиқод қилиш ёки ўзга эътиқодлар эркинлиги миллий хавфсизликни ва жамоат тартибини, бошқа фуқароларнинг ҳаёти, саломатлиги, ахлоқи, ҳуқуқи ва эркинликларини таъминлаш учун зарур бўлган даражадагина чекланиши мумкин.

Чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар Ўзбекистон Республикаси фуқаролари билан тенг равишда виждон эркинлиги ва диний эътиқод эркинлиги ҳуқуқидан фойдаланадилар ҳамда виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун қонунда белгиланган тарзда жавобгар бўладилар.

4-модда. Фуқароларнинг динга муносабатидан қатъи назар тенг ҳуқуқлилиги

Ўзбекистон Республикаси фуқаролари динга муносабатидан қатъи назар қонун олдида тенгдирлар. Расмий ҳужжатларда фуқаронинг динга муносабати кўрсатилишига йўл қўйилмайди. Фуқароларнинг динга муносабатига қараб уларнинг ҳуқуқларини ҳар қандай чеклаш ва уларга бевосита ёки билвосита имтиёзлар белгилаш, душманлик ва адоват уйғотиш ёхуд уларнинг диний ёки даҳрийлик эътиқоди билан боғлиқ ҳис-туйғуларини ҳақоратлаш, диний зиёратгоҳларни оёқ ости қилиш қонунда белгиланган жавобгарликни келтириб чиқаради.

Ҳеч ким диний эътиқодини рўкач қилиб қонунда белгиланган мажбуриятларни бажаришдан бош тортишга ҳақли эмас. Қонунга мувофиқ бажарилиши мажбурий бўлган бир вазифани диний эътиқоди туфайли бошқаси билан алмаштиришга қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллардагина йўл қўйилади.

5-модда. Диннинг давлатдан ажратилганлиги
Ўзбекистон Республикасида дин давлатдан ажратилган. Ҳеч бир динга ёки диний эътиқодга бошқаларига нисбатан бирон-бир имтиёз ёки чеклашлар белгиланишига йўл қўйилмайди.
Давлат турли динларга эътиқод қилувчи ва уларга эътиқод қилмайдиган фуқаролар, ҳар хил эътиқодларга мансуб диний ташкилотлар ўртасида ўзаро муроса ва ҳурмат ўрнатилишига кўмаклашади, диний ва ўзга мутаассибликка ҳамда экстремизмга, муносабатларни қарама-қарши қўйиш ва кескинлаштиришга, турли конфессиялар ўртасида адоватни авж олдиришга қаратилган хатти-ҳаракатларга йўл қўймайди.
Давлат диний конфессиялар ўртасидаги тинчлик ва тотувликни қўллаб-қувватлайди. Бир диний конфессиядаги диндорларни бошқасига киритишга қаратилган хатти-ҳаракатлар (прозелитизм), шунингдек бошқа ҳар қандай миссионерлик фаолияти ман этилади. Ушбу қоиданинг бузилишига айбдор бўлган шахслар қонун ҳужжатларида белгиланган жавобгарликка тортиладилар.
Давлат диний ташкилотлар зиммасига ўзининг ҳеч қандай вазифасини бажаришни юкламайди, уларнинг қонун ҳужжатларига зид бўлмаган фаолиятига аралашмайди. Диний ташкилотлар давлат вазифаларини бажармайди. Давлат диний ташкилотларнинг фаолиятини ҳамда даҳрийлик тарғиботига оид фаолиятини маблағ билан таъминламайди.
Ўзбекистон Республикасида диний моҳиятдаги сиёсий партия ва жамоат ҳаракати, шунингдек республикадан ташқарида тузилган диний партияларнинг филиаллари ва бўлимларини тузишга ва уларнинг фаолият юритишига йўл қўйилмайди.
Диний ташкилотлар амалдаги қонун ҳужжатлари талабларига риоя этишлари шарт. Диндан давлатга ва конституцияга қарши тарғибот олиб боришда, душманлик, нафрат, миллатлараро адоват уйғотиш, ахлоқий негизларни ва фуқаровий тотувликни бузишда, бўҳтон, вазиятни беқарорлаштирувчи уйдирмаларни тарқатишда, аҳоли ўртасида ваҳима чиқаришда ҳамда давлатга, жамият ва шахсга қарши қаратилган бошқа хатти-ҳаракатларда фойдаланишга йўл қўйилмайди. Терроризм, наркобизнес ва уюшган жиноятчиликка кўмаклашадиган, шунингдек бошқа ғаразли мақсадларни кўзловчи диний ташкилотлар, оқимлар, секталар ва бошқаларнинг фаолияти ман этилади.
Давлат ҳокимияти ва бошқарув органларига, мансабдор шахсларга тазйиқ ўтказишга қаратилган ҳар қандай уриниш, шунингдек яширин диний фаолият қонун билан тақиқланади.
6-модда. Давлат органларининг ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг диний ташкилотлар билан ўзаро муносабат борасидаги ваколатлари
Давлат органлари билан диний ташкилотларнинг ўзаро муносабатларини мувофиқлаштириш ҳамда виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ижросини назорат қилиш вазифаси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Дин ишлари бўйича қўмита зиммасига юкланади. Қўмитанинг ҳуқуқий мақоми Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган Низом билан белгиланади.
Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоят, туман ва шаҳар ҳокимликлари ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тегишли ҳудудларда виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши учун қонун бўйича жавобгардирлар.
7-модда. Таълим тизими ва дин
Ўзбекистон Республикасида таълим тизими диндан ажратилган. Таълим тизимининг ўқув дастурларига диний фанлар киритилишига йўл қўйилмайди.
Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг дунёвий таълим олиш ҳуқуқи уларнинг динга бўлган муносабатидан қатъи назар таъмин этилади.
8-модда. Диний ташкилотлар
Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг динга эътиқод қилиш, ибодат, расм-русумлар ва маросимларни биргаликда адо этиш мақсадида тузилган кўнгилли бирлашмалари (диний жамиятлар, диний ўқув юртлари, масжидлар, черковлар, синагогалар, монастирлар ва бошқалар) диний ташкилотлар деб эътироф этилади.
Диний ташкилот Ўзбекистон Республикасининг ўн саккиз ёшга тўлган ва Ўзбекистон Республикаси ҳудудида доимий яшаётган юз нафардан кам бўлмаган фуқаролари ташаббуси билан тузилади.
Тегишли конфессияга қарашли диний ташкилотларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш ва йўналтириб бориш учун уларнинг Ўзбекистон Республикаси бўйича ягона марказий бошқарув органлари (бундан кейин — марказий бошқарув органлари деб юритилади) тузилиши мумкин.
Марказий бошқарув органи Ўзбекистон Республикасининг камида саккизта ҳудудий тузилмасида (вилоят, Тошкент шаҳри, Қорақалпоғистон Республикаси) фаолият кўрсатаётган, тегишли конфессияларнинг рўйхатга олинган диний ташкилотлари вакиллари таъсис йиғилиши (конференцияси) томонидан тузилади.
Диний ташкилотлар Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида ёки унинг жойлардаги органларида рўйхатдан ўтказилгандан кейин юридик шахс мақомига эга бўлади ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган тартибда ўз фаолиятини амалга ошириши мумкин.
Тегишли диний маълумотга эга бўлган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари диний ташкилотларнинг раҳбарлари бўлишлари мумкин. Диний ташкилотлар раҳбарлигига Ўзбекистон Республикасининг фуқароси бўлмаган шахсларнинг номзоди Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Дин ишлари бўйича қўмита билан келишиб олинади.
9-модда. Диний ўқув юртлари

Диний ташкилотларнинг марказий бошқарув органлари руҳонийлар ва ўзларига зарур бўлган диний ходимлар тайёрлаш учун диний ўқув юртлари тузишга ҳақли. Диний ўқув юртлари Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида рўйхатдан ўтказилиб, тегишли лицензия олганидан кейин фаолият кўрсатиш ҳуқуқига эга бўлади.
Олий ва ўрта диний ўқув юртларида таълим олиш учун фуқаролар Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ умумий мажбурий ўрта таълим олганидан кейин қабул қилинади.
Диний ўқув юртларида диний фанларни ўқитаётган шахслар диний таълим олган бўлишлари ва ўз фаолиятларини тегишли марказий бошқарув органининг рухсати билан амалга оширишлари лозим.
Хусусий тартибда диний таълим бериш ман этилади.
10-модда. Диний ташкилотнинг устави
Диний ташкилотнинг устави қуйидаги маълумотларни ўз ичига олган бўлиши керак:
диний ташкилотнинг номи, тури, жойлашган манзили, қайси динга мансублиги;
мақсади, вазифалари ва фаолиятининг асосий турлари;
фаолиятни ташкил этиш ва тугатиш тартиби;
тузилиши ва бошқарув органлари;
маблағлари манбаи ҳамда ушбу ташкилот ичидаги, шунингдек ундан ташқаридаги мулкий муносабатлар;
уставга ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тартиби;
ушбу диний ташкилотга тааллуқли бошқа маълумотлар.
Марказий бошқарув органларига эга бўлган диний ташкилотларнинг уставлари мазкур бошқарув органлари билан келишилган бўлиши керак.
11-модда. Диний ташкилотларни рўйхатга олиш
Диний ташкилотларнинг марказий бошқарув органларини рўйхатга олиш Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан, бошқа диний ташкилотларни эса тегишли равишда Қорақалпоғистон Республикаси Адлия вазирлиги, вилоятлар, Тошкент шаҳар адлия бошқармалари томонидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Дин ишлари бўйича қўмита билан келишилган ҳолда амалга оширилади.
Диний ташкилотларни рўйхатга олиш учун қуйидаги ҳужжатлар тақдим этилади:
диний ташкилот тузиш ташаббускорлари бўлган, юз нафардан кам бўлмаган Ўзбекистон Республикаси фуқароси имзолаган ариза;
диний ташкилотнинг устави;
таъсис йиғилишининг баёни;
тузилаётган диний ташкилот жойлашган манзилни тасдиқловчи ҳужжат;
рўйхатга олиш йиғими тўлангани тўғрисидаги ҳужжат.
Диний ташкилотларнинг марказий бошқарув органини рўйхатга олиш учун қуйидаги ҳужжатлар тақдим этилади:
таъсис йиғилиши (конференцияси)нинг раиси ва котиби имзо қўйган ариза;
диний ташкилотлар марказий бошқарув органининг устави;
таъсис йиғилиши (конференцияси)нинг баёни;
таъсисчилар ваколатини тасдиқловчи ҳужжатлар;
раҳбар орган жойлашган манзилни тасдиқловчи ҳужжат;
рўйхатга олиш йиғими тўлангани тўғрисидаги ҳужжат.
Диний ташкилотлар ҳамда уларнинг марказий бошқарув органларини рўйхатдан ўтказиш тўғрисидаги ариза берилган кундан эътиборан бир ойлик муддатда кўриб чиқилади.
Адлия органлари қўшимча материаллар талаб қилиб олишга ҳамда тегишли органларнинг эксперт хулосасини олишга ҳақли. Бундай ҳолда қарор рўйхатдан ўтказиш тўғрисидаги ариза берилган кундан эътиборан уч ойлик муддатда қабул қилинади.
Диний ташкилотнинг уставига киритилган қўшимчалар ва ўзгартишлар диний ташкилотни рўйхатга олиш каби тартиб ва муддатларда рўйхатга олиниши лозим.
Диний ташкилотлар раҳбарларининг ташкилот уставини давлат органларидан рўйхатдан ўтказишдан бўйин товлаши қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгарликка тортишга олиб келади.
Диний ташкилотнинг фаолияти ўз уставига мувофиқлигини назорат қилиш диний ташкилотни рўйхатга олган орган томонидан амалга оширилади.
Рўйхатдан ўтмаган диний ташкилотлар фаолият кўрсатишига йўл қўйган мансабдор шахслар қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўладилар.
12-модда. Диний ташкилотни рўйхатга олишни рад этиш
Агар диний ташкилот уставининг қоидалари ва бошқа ҳужжатлари ушбу Қонун ёки Ўзбекистон Республикаси бошқа қонун ҳужжатларининг талабларига зид бўлса, уни рўйхатга олиш рад этилиши мумкин.
Диний ташкилотни рўйхатга олиш рад этилганда рад этиш асослари кўрсатилган қарор ёзма равишда аризачиларга юборилади. Диний ташкилот тузиш ташаббускорлари уставларини қонун ҳужжатларига мувофиқ ҳолга келтирганларидан сўнг, уставни рўйхатдан ўтказиш тўғрисидаги ариза билан тегишли тарзда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига ёки унинг жойлардаги органларига қайтадан мурожаат этиш ҳуқуқига эга.

Диний ташкилотни рўйхатга олишни рад этилганлиги ёхуд адлия органлари томонидан ушбу Қонун талаблари бузилганлиги устидан судга шикоят қилиш мумкин.
13-модда. Диний ташкилотнинг фаолиятини тугатиш
Диний ташкилотнинг фаолияти у ўзини ўзи тарқатиб юборганда ёки ушбу Қонуннинг, шунингдек Ўзбекистон Республикаси бошқа қонун ҳужжатларининг қоидалари бузилган тақдирда тугатилиши мумкин.
Диний ташкилот фаолиятини тугатиш тўғрисидаги қарор уни рўйхатга олган орган томонидан қабул қилинади. Ушбу қарор устидан судга шикоят қилиниши мумкин.
14-модда. Диний урф-одатлар ва маросимлар
Диний ташкилотлар ибодат қилиш ёки диний расм-русумлар ўтказиш учун қулай жойлар ташкил этиш ва уларни сақлаб туриш, шунингдек зиёратгоҳларни сақлаб туриш ҳуқуқига эгадир.
Ибодат, диний расм-русумлар ва маросимлар диний ташкилотлар жойлашган манзилдаги ибодатхоналарда ва уларга тегишли ҳудудларда, зиёратгоҳларда, қабристонларда, зарур ҳолларда фуқароларнинг ихтиёрига биноан уларнинг уйларида ўтказилади.
Касалхоналарда, госпиталларда, кексалар ва ногиронлар уйларида, дастлабки қамоқ ва жазони ўташ жойларида ибодатлар ва диний расм-русумлар шу ердаги фуқароларнинг илтимосларига биноан ўтказилади.
Диний маросим ва ибодат биноларидан ташқарида ўтказиладиган оммавий ибодатлар, диний расм-русумлар ва маросимлар Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.
Ўзбекистон Республикаси фуқароларнинг (диний ташкилотларнинг хизматидагилар бундан мустасно) жамоат жойларида ибодат либосларида юришларига йўл қўйилмайди.
Диний ташкилотлар диндорлар мажбурий пул йиғимлари ва тўловлар ундиришга, шунингдек уларга нисбатан шахснинг шаъни ва қадр-қимматини камситувчи чораларни қўллашга ҳақли эмас.
15-модда. Диний ташкилотларнинг мулки
Диний ташкилотларнинг ўз маблағлари ҳисобидан сотиб олинган ёки яратилган, фуқаролар, жамоат бирлашмалари эҳсон қилган (васият қилиб қолдирган) ёхуд давлат томонидан назарда тутилган бошқа асосларда олинган, ўз фаолиятларини таъминлаш учун зарур бўлган бинолар, иморатлар, ибодат қилиш анжомлари, ишлаб чиқариш, ижтимоий ва хайрия иншоотлари, пул маблағлари ва бошқа мол-мулклар уларнинг мулки бўлиши мумкин.
Диний ташкилотларнинг мулкий ҳуқуқлари қонун билан муҳофаза қилинади.
16-модда. Давлат мулки бўлган мол-мулкдан фойдаланиш
Диний ташкилотлар ўз эҳтиёжлари учун давлат органлари томонидан шартнома асосида бериладиган бинолар ва мол-мулкдан фойдаланишга ҳақлидир.
Тарихий ва маданий ёдгорликлар объектлари ва буюмларини диний ташкилотларга фойдаланиш учун бериш қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилади.
Диний ташкилотлар учун ер ажратиш ҳамда ибодат бинолари қуриш тегишли равишда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг рухсати билан белгиланган тартибда амалга оширилади.
17-модда. Ишлаб чиқариш ва хўжалик фаолияти
Диний ташкилотларнинг марказий бошқарув органлари уставдаги мақсадларидан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларига мувофиқ, нашриёт, ишлаб чиқариш, таъмирлаш-қурилиш, қишлоқ хўжалик корхоналари ва бошқа корхоналарни, шунингдек хайрия муассасаларини (етимхоналар, касалхоналар) таъсис этишга ҳақлидир.
18-модда. Фаолиятини тугатган диний ташкилотларнинг мол-мулкини тасарруф этиш
Диний ташкилотларнинг фаолияти тугатилгандан кейин уларга фойдаланиб туриш берилган мол-мулк ўз эгаларига қайтарилади.
Диний ташкилотларнинг фаолияти тугатилган тақдирда, уларга қарашли мол-мулкка эгалик қилиш уларнинг устави ва қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилади. Кредиторларнинг талабларини қондириш учун ундириш қаратилиши мумкин бўлмаган ибодатга оид мол-мулк рўйхати диний ташкилотларнинг тақдимномасига биноан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.
Ҳуқуқий ворислари бўлмаган мол-мулк давлат мулки ҳисобига ўтади.
19-модда. Диний адабиёт ва диний мақсадларга мўлжалланган буюмлар
Диний ташкилотларнинг марказий бошқарув органлари диний мақсадларга мўлжалланган буюмлар, диний адабиётлар ва диний мазмундаги бошқа ахборот материалларини Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ишлаб чиқаришга, экспорт ва импорт қилишга ҳамда тарқатишга ҳақлидир.
Чет элда нашр этилган диний адабиётларни олиб келиш ва тарқатиш, уларнинг мазмуни қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда экспертизадан ўтказилганидан кейин амалга оширилади.
Диний ташкилотларнинг марказий бошқарув органлари тегишли лицензия олгандан сўнг диний ибодат буюмларини ишлаб чиқариш ва тарқатиш ҳуқуқига фақат улар эга бўладилар.
Диний экстремизм, сепаратизм ва ақидапарастлик ғоялари билан йўғрилган матбаа нашрларини, кино, фото, аудио, видео маҳсулотларини ва шу каби бошқа маҳсулотларни тайёрлаш, сақлаш ва тарқатиш қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгарликка тортишга олиб келади.

20-модда. Диний ташкилотларнинг хайрия фаолияти
Диний ташкилотлар хайрия ва меҳр-мурувват фаолиятини амалга оширишга ҳақлидир.
21-модда. Диний ташкилотларда меҳнатга оид ҳуқуқий муносабатлар
Диний ташкилотларда меҳнат шартномалари (контрактлари) бўйича ишлаётган фуқароларга Ўзбекистон Республикасининг меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатлари татбиқ этилади.
22-модда. Диний ташкилотларнинг халқаро алоқалари
Диний ташкилотлар муқаддас жойларни зиёрат қилиш ёки бошқа диний тадбирларда иштирок этиш мақсадида қонун ҳужжатларига мувофиқ халқаро алоқалар ўрнатиш ва олиб боришга ҳақлидир.
23-модда. Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик
Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузишда айбдор бўлган мансабдор шахслар, диний ташкилотларнинг хизматидагилар ва фуқаролар Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

“Tasdiqlayman”

Falsafa va O’DJQNA kafedrasi
mudiri v.v.b. I.Masharipov
№19 – sonli bayonnoma
30.05.14 y.

“Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo’yicha baholash mezonlari

“Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani uchun o’quv rejada bakalavriatning barcha yo’nalishining 4 kurslarida VII-semestrda o’qitiladi. Fan uchun jami 60 soat, shundan 18 soat ma’ruza, 18 soat seminar auditoriya soati va 24 soat mustaqil ta’lim uchun ajratilgan. (**Таълим йўналишлари: 5230200 –“Менежмент” (тармоқлар ва соҳалар бўйича), 5230800 –“Солиқлар ва солиққа тортиш”, 5230300- “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ташкил этиш” (тармоқлар бўйича) - 18 soat ma’ruza, 20 soat seminar auditoriya soati va 22 soat mustaqil ta’lim)**

O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2010 yil 25 avgustidagi “Oliy ta’lim muassasalaridagi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to’g’risidagi nizomga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida”gi 333-sonli buyrug’i talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi. Nizomida ko’rsatilganidek, talabaning fan bo’yicha o’zlashtirishini baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali (ilovaga muvofiq) amalga oshiriladi:

«Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar»: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo’yicha talabaning semestr davomidagi o’zlashtirish ko’rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball nazorat turlari bo’yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Yakuniy nazorat -30 ball, joriy va oraliq nazoratlarga – 70 ball (Institutda tayorlanadigan bakalavriat yonalishlarning IV– kurs uchun takomillashgan ishchi o’quv rejaga muvofiq J.N. – 35 ball, va O.N. – 35 ball qilib taqsimlanadi).

Fan bo’yicha joriy va o’raliq nazoratlarga ajratilgan umumiy balning 55 % saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam bal to’plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy (JN) va oraliq nazorat (ON) turlari bo’yicha 55 va undan yuqori balni to’plagan talaba fanni o’zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo’yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo’l qo’yiladi.

Talabaning semestrda joriy (JN) va oraliq (ON) nazorat turlari bo’yicha to’plangan umumiy balining 55% foizdan kam bo’lsa yoki semester yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo’yicha to’plangan ballari yig’indisi 55 balldan kam bo’lsa u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

«Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanidan talaba bilimini nazoarat qilish quyidagi tartibda o’tkaziladi: (1-ilova).

Joriy nazoratda fanning har bir mavzusi bo’yicha talabaning bilimi va amaliy ko’nikmalarini aniqlab borish, dolzarb mavzulardan nazorat ishi yozish, konspekt qilish, mustaqil ish topshirish nazarda tutiladi va u seminar mashg’ulotlarida uzluksiz amalga oshiriladi.

Oraliq nazoratda fanning bir necha mavzularini qamrab olgan qismi bo’yicha nazariy mashg’ulotlar o’tib bo’linganidan so’ng, talabaning nazariy bilimlari test echish va oraliq yozma ish yozish orqali baholanadi, ya’ni uning muayyan savolga javob berishi

yoki muammoni echishdagi mahorati va qobiliyati aniqlanadi. O.N. ma’ruza darslari bo’yicha amalga oshiriladi

Yakuniy nazoratda semestr yakunida muayyan fan bo’yicha nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni talabalar tomonidan o’zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o’tkaziladi.

Joriy va oraliq nazoratlarida saralash ballidan kam ball to’plagan uzurli sabablarga ko’ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun shu nazorat turigacha, so’nggi joriy va oraliq nazoratlari uchun yakuniy nazoratgacha muddat beriladi.

Belgilangan muddatlarda topshirilmagan joriy va oraliq nazorat ballari keyingi baholash ballariga qo’shilmaydi va qayta topshirishga ruxsat berilmaydi.

Talabaning fan bo’yicha nazorat turlarida to’plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining «O’quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o’quv yuklama soatlari, «fandan olingan baho» ustuniga esa, talabaning 100 ballik tizimdagi o’zlashtirilishi qo’yiladi.

Fan bo’yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo’lgan o’zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

«Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo‘yicha talabalarning bilimlarini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi

Ball	Baxo	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A’lo	«Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining asosiy tushunchalari haqida ijodiy fikrlay olish. «Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani haqida mustaqil mushohada yuritish. «Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar»ning maqsad va vazifalarini bayon etib bera olish, hayot bilan bog’lay olish. «Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani haqida tasavvurga ega bo’lish.
71-85	Yaxshi	«Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani haqida mustaqil mushohada yuritish. «Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar»ning maqsad va vazifalarini aytib bera olish. «Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani haqida tasavvurga ega bo’lish.
55-70	Qoniqarli	«Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining asosiy tushunchalari haqida ijodiy fikrlash qobiliyatining pastligi. «Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar»ning maqsad va vazifalarini bayon etishda fikrlarni hayot bilan to’liq bog’lay olmaslik. «Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani haqida tasavvurni to’liq bayon qila olmaslik.
0-54	Qoniqarsiz	«Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani haqida tasavvurni umuman bayon qila olmaslik., mohiyatini tushunmaslik, bilmaslik.

Saralash bali 55 ballni tashkil etadi.

«Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanidan joriy va oraliq nazoratlarida talabaning bilimini reyting tizimi asosida baholash (12 soat ma'ruza, 22 soat amaliy mashg'ulot)

№	Ko'rsatkichlar	ON Ballari*	JN ballari**	Jami
1	Ma'ruza va amaliy darsi jarayonidagi faolligi va qatnashganlik darajasi (masalan: konspekt yuritishi va tashqi qiyofasi va intizomi)	10	12	22
2	Fan mavzulari bo'yicha nazorat og'zaki so'rov	15	X	15
3	Amaliy mashg'ulotlaridagi qatnashganlik darajasi: (seminar savollariga og'zaki javob berishi, seminar daftarini yuritishi, va seminar savollariga yozma shaklida yo'zilishi, og'zaki va yozma javoblarning to'liqligi va aniqligi).	X	12	12
4	Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularning mazmunini o'zlashtirish darajasi	10	11	21
	Ja'mi ball	**35**	**35**	**70**

Yakuniy nazoratni o’tkazish

M E Z O N I

Talabalar «Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo’yicha yakuniy nazoratni test topshiriqlari yoki “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi.

Fan bo’yicha yakuniy nazoratning yozma ish variantlari 3 (uchta) savollardan iborat**.** Har bir savolga berilgan javobi 0-10 ballgacha baholanadi.

Berilgan har bir savolga to‘g‘ri va to‘liq javob yozilsa, fanning nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘ri qo‘llanilsa, ilmiy tushunchalar haqida o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 8,6-10 ballar oralig’da baholanadi.

Berilgan savollarga to‘liq javob yozilsa, fanga oid va jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar to‘liq va to‘g‘ri aniqlansa, omillar ta’siriga ijodiy yondoshgan holda xulosa va fikrlar bildirilsa, 7,1-8,5 ballar oralig’da baholanadi

Berilgan har bir savolga fan haqida qisman tasavvurga ega bo’lish, fanining nazariy va uslubiy asoslari to‘g‘ri qo‘llanilsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 5,5-7 ballar oralig’da baholanadi .

Fan haqida aniq tasavvurga ega bo’lmaslik. Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto‘g‘ri javob yozilsa yoki o‘quv adabiyotidan so‘zma-so‘z ko‘chirib yozilsa 0-5,4 ballar oralig’da baholanadi.